



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com)https://oak.uz/pages/4802

2024-YIL - «YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI»





ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
 НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
 SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

M U N D A R I J A

TADQIQOT

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Dilshod Kenjayev
 Nizomiddin Mahmudov
 Yorqinjon Odilov
 Jabbor Eshonqulov
 Baxtiyor Daniyarov
 Abdurahim Nosirov
 To'liqin Saydaliyev
 Barno Buranova
 Zulxumor Mirzayeva
 Qozoqboy Yo'ldoshev
 Salima Jumayeva
 Qayum Baymirov
 Manzar Abdulxayrov
 Alijon Safarov
 Madina Nuriddinova
 Latifa Xudayqulova
 Barno Kadirova
 Nargiza Mirzayeva
 Gul Shukurova
 To'maris Butunbayeva
 Ramziddin Abdusatorov
 Okila Turakulova
 Yuldosh Raxmatov
 Ramziddin Abdusatorov
 Feruza Manukyan

Axborot hamkorimiz:



Muharrirlar:

Lutfullo JO'RAYEV
 Bibimaryam RAHMONOVA
 Oydin SHUXRATOVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
 Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
 Telefon: (98) 121-74-16,
 (71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
 (71) 233-03-67.
 e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

Bahodir Jovliyev. "O'quvchilarimiz intellektual salohiyatda hech bir mamlakat yoshlaridan qolishmaydi!.....	3
Olimjon Ahmadov. Buxoro jadidlarining ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishdagi adabiy va publitsistik asarlarida pedagogik fikrlar va lingvopoetikasi.....	7
Sarvar Mo'minov. Raqamli ta'lim resurslarini ishlab chiqish va ta'lim tarbiya jarayonida foydalanish metodlari emis tillarida paremiologik birliklarning muqobillik darajasi.....	11
Dilnoz Ollaberganova. Malala Yusufzoyning "Men Malalaman" asarida qizlar maktabi va ularning ta'lim jarayoni.....	14
Nilufar Yakubova. Xorazm arxiv hujjatlarining o'rganilish tarixi.....	15
Matluba Axmedova. O'smir yoshdagi o'quvchilarni milliy qadriyatlar vositasida badiiy-estetik rivojlantirishning pedagogik shakl, usul va metodlari.....	18
Dilfuza Abdullaeva. Zamonaviy dunyoda rus tilini o'qitishda masofaviy ta'limning ahamiyati.....	20
Azimjon Raxmonov. Al-Farg'oniyning «Usturlob yasash haqida kitob»ining Britaniya muzeyida saqlanayotgan "OR 5479" raqamli qo'lyozma nusxasi.....	22
Dilso'z Abdurasulova. Ergonomlarning tadqiqiga doir.....	26
Gulnoza Djurakulova. Ma'lumot beruvchi nutq o'ziga xosligi.....	29
Ma'mura Muradova. Xulq-atvor genetikasi – kecha, bugun va kelajak.....	31
Zoxidjon Narziyev. Ta'lim muassasasida inson resurslarini boshqarish modellar.....	33
Saodat Rasulova. Alisher Navoiy va sun'iy intellekt.....	37
Mohidil Abdullayeva. No'monjon Mo'ydinovning "G'uborli gullar" asarida detallar funksiyasi.....	39
Shoxista Qarshiyeva. Ingliz tilida diskurs tushunchasining nazariy asoslari.....	42
Shohsanam Yigitaliyeva. Dunyoning lingvistik va konseptual manzaralari.....	44
Shaxlo Sattorova. Androgogik yondashuv asosida talabalarning milliy tarbiyaga xos fazilatlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	46
Shohida Karamova. Mustaqillik davri o'zbek she'riyatida badiiylikning asosiy mezonlari.....	48
Aziza Qobilova. Talabalarning innovatsion kompetentlik sifatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	50
Sanjar Mavlyanov. O'zbek tili diplomatik terminlarining yasalish qoliplari.....	52
Shohista Mahmudova. Badiiy asardagi ijodkor obrazini biografik talqin etish.....	57
Dilshoda Xaqqulova. Adabiyotshunos olim Hamdam Abdullayevning biografik ma'lumotlarni tadqiq etishdagi izlanishlari.....	60
Elyor Imomov. Penetration of professional lexemes into common language.....	63
Sug'diyona Otamirzayeva. Incorporating authentic materials in legal english classes.....	65
Madina Begizova. Intensification of reading skills of intermediate efl learners.....	68
Nargis Inagamova. Improving the teaching of economic terms with the help of information technologies.....	70
Shakhlo Saliyeva. Standard ways of forming occasionalisms.....	72
Moxizar Mamadaliyeva. Linguistic characteristics of lexical units related to tourism in english and uzbek.....	74



Gulchekhra Abdullaeva. The main directions in the methodology of teaching russian to undergraduate students.....	77
Dildoraxon Babaxanova. Categories of literary text	81
Алла Ткаченко. Факторы изображения личности Алишера Навои в романе Айбека «Навои» и в повести л. г. бать «сад жизни» gla	84
Шавкат Нишанов. Роль международных исследований, таких, как PISA, TIMSS и PIRLS, в повышении качества системы образования.....	90
Виктория Гудзина. Многовекторность семантики категории «счастье» в разных культурах.....	92
Нилуфар Широнова. По поводу лексической градуонимии в английском языке.....	94
Нигора Юсупова. Система формирования творческой личности в процессе преподавания.....	96
Д.У.Хашимова. О семном (компонентном) анализе лакун в русском языке.....	97
Салим Дониёров. Тенденция повышения корреляции между развитием технологий в медиа и ростом эффективности работы СМИ.....	102

TAHLIL

Munira Xudoyorova. Fanoni anglash.....	106
Sherzod Usmonov. Lirik psixologizm va ijtimoiy motivlar uyg'unligi.....	108
Rayxon Jumanazarova. Nodira Afoqova she'rlarida badiiy-tasviriy vositalarning qo'llanilishi	110
Muhabbat Jo'rayeva. Abdulla Oripov ijodida nafs ko'rinishlarining talqini.....	112
Shohsanam Begimqulova. Ibn Sino "Devon" idagi mumtoz she'riy janrlar	114
Moxira Sadullayeva. Nasrda ijodkorning badiiy psixologik mahorati masalasi bo'yicha ba'zi mulohazalar	116
Farrux Sattarov. Amerika adibi Mark Tvenning "Geklberri Finning boshidan kechirganlari" asaridagi qahramonlarning o'zbek bolalar adabiyoti rivojiga ta'siri.....	120
Shamsiya Egamberdiyeva. O'zbek va turk allalarida ona ruhiyatining qabariq tasvirlari.....	125

PEDAGOGIKA

Surayyo Arzikulova. Kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning o'z-o'zini personallashitirish jarayonini tashkil etishning pedagogik muammolari.....	128
---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-----

METODIK TAVSIYA

Dilafro'z Rahmonova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda oila qadriyatini shakllantirish texnologiyalari.....	132
G. A. G'aniyeva, M.I.Toshpulatova. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining funksional savodxonligini rivojlantirish (Xalqaro baholash dasturi TIMSS misolida).....	135
Aziza Axmedova, Malika G'afurova. Pedagogikaning dolzarb masalalari yechimi haqida.....	139

TILSHUNOSLIK

Feruz Rajabov. O'zbek tilida omonim qo'shimchalar (affixsal omonimiya) ning o'rganilishi va tasnifi.....	141
Sevara Bozorova. Tinish belgilariga amerika va ingliz tilshunoslarining yondashuvlari.....	143
Firuz Safarov. O'zbek adabiy tilida II shaxs ma'nosini bildiruvchi vositalar ma'nodoshligi	145
Munira To'ychiyeva. O'zbek va ispan tillarida metaforalarning leksik va semantik xususiyatlari.....	148
Dilzodaxon Saydaliyeva. Tilshunoslikda tilni sistemaviy asosda o'rganish masalalari.....	150
Shahzoda Sobirova. Alisher Navoiyning "Hayrat-ul abror" asarida qo'llangan tasviriy ifoda va badiiy o'xshatmalarning lisoniy tahlili.....	152
Matluba Ahmedova. O'quv lug'atlarini yaratish zarurati va taraqqiyoti.....	154
Taxmina Quziyeva. Ingliz, rus va o'zbek tillariga oid abbreviaturalarning sohalarda qo'llanilishi (ta'lim sohasi misolida).....	158
Qahramon Sobirov. Personajlar nutqida metonimiya.....	161

MULOHAZA

Alijon Safarov. Tatar ziyolisining e'tiborini tortgan "Sadoi Turkiston"	164
--------------------------------------------------------------------------------------	-----

KICHIK TADQIQOT

Xolisxon Akbarova. Asqad Muxtor ijodiyotining o'ziga xosligi.....	166
Mohigul Rasulova. Chingiz Aytmatovning "Kassandra tamg'asi" asari tahlili.....	168
Gulnora Xolmurotova. Luqmon Bo'rixonning "Sirlil muallim" qissasida muallim obrazining badiiy talqini.....	170
Shahlo Halimova. Xalq og'izaki ijodida qush motivi	173

Hilola UMAROVA:

“O‘QUVCHILARIMIZ INTELLEKTUAL SALOHİYATDA HECH BIR MAMLAKAT YOSHLARIDAN QOLISHMAYDI!”

Yangi O‘zbekistonda bugun yosh avlod kamoloti, ularning istiqbolli kelajagi yo‘lida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. “Yangi O‘zbekiston — maktab ostonasidan boshlanadi” degan ezgu g‘oya har bir o‘qituvchi-muallim, ota-ona va jamiyat hayotida o‘z isbotini topmoqda. “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili” deya nom berilgan 2023-yil ham poyoniga yetmoqda. Albatta, Yangi yil arafasida har kim ortda qolayotgan davr sarhisobini qilishga chog‘lanishi tabiiy. Zotan, yil avvalida belgilangan vazifalar ijrosining ro‘yobi yangi maqsad va marralarni bajarishga kuch bergani holda, ayrim duch kelgan muammolar yangicha yondashuvlarni rejalashni taqozo qiladi. Shunga ko‘ra, biz O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri Hilola UMAROVA bilan uzluksiz ta‘limning eng mas‘uliyatli va murakkab, shu bilan birga, qamrovi keng bo‘g‘ini bo‘lgan — maktabgacha va maktab ta‘limi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda kelgusi vazifalar xususida suhbatlashdik.



— 2023-yil “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili” sifatida tarix zarvaraqlariga muhrlanmoqda. Albatta, yilning alohida nomlanishi bilan qabul qilingan Davlat dasturi ushbu sohalar rivojiga turtki berishi shubhasiz. Ayting-chi, joriy yilda yosh avlodning sifatli ta‘lim-tarbiya olishi borasida qanday yangilik va yutuqlarga erishilmoqda?

— Darhaqiqat, maktabgacha va maktab ta‘limi — uzluksiz ta‘lim tizimining eng mas‘uliyatli va murakkab bo‘g‘ini hisoblanadi. Zero, dunyoni anglashni boshlagan uch yoshli murg‘ak bolaning yetuk va barkamol shaxs bo‘lib kamol topishi uchun salkam o‘n besh yil vaqt lozim. Bu — aytishga oson muddat. Ammo ushbu davr mobaynida birgina farzandning jismonan sog‘lom, intellektual yetuk, ma‘nan barkamol ulg‘ayishi uchun nafaqat ota-ona va ustoz-muallim, balki butun jamiyatning e‘tibori, mehnati va albatta, sarmoyasi talab etiladi. Shu bois, bu yilda sohada erishilgan muvaffaqiyat va mavjud muammolarni faqat shu davrga nisbatan olish, menimcha, xato bo‘ladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston — maktab ostonasidan boshlanadi” degan g‘oyasi islohotlarimiz o‘zagi bo‘lib turibdi. Joriy yilning “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili” deya nomlanishi ham bejiz emas, albatta. Binobarin, farzand, eng avvalo, oilada tarbiya topadi. Shu bois, davlatimiz tomonidan har bir insonning qadr-qimmatini muhofazalash, uning mu-

nosib hayot kechirishi va mehnat qilishi uchun zarur ijtimoiy-huquqiy kafolatlarni ta‘minlashga ustuvor e‘tibor qaratilayotgani dunyo hamjamiyati tomonidan ham yuksak baholanmoqda. Shunga munosib tarzda so‘nggi yillarda, eng avvalo, maktabgacha ta‘lim-tarbiya tizimini mutlaqo yangidan bunyod etishga ustuvor ahamiyat qaratilyapti. Binobarin, olamni anglash uchun hayrat va zavq bilan tetapoya qilayotgan bolaga zamonaviy shart-sharoit va mahoratli murabbiy-pedagoglar ko‘magida ilmiy asosda ta‘lim-tarbiya berish qanchalik erta boshlansa, shunchalik afzal ekanini ulug‘ mutafakkirlarimiz ko‘p bora ta‘kidlagan. Shu bois, keyingi besh-olti yilda respublikamizda maktabgacha ta‘lim tashkilotlari soni 33 ming 942 taga yetdi. Bu bilan 3-7 yoshli bolalarning maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olish ko‘rsatkichi 28 foizdan 74 foizga hamda 6 yoshli bolalarning maktabga tayyorlov qamrovi 93 foizga o‘tdi. Bugun yirik shaharlarimizdan tortib, chekka tumanlar, qishloq va ovullarimizda ham yangi-yangi zamonaviy bolalar bog‘chalari barpo etilyapti. Birgina joriy yilning o‘zida davlat-xususiy sherikligi asosida 7100 o‘ringa ega 71 ta xususiy hamda 116 ming 998 o‘rinli 4402 ta oilaviy nodavlat bolalar bog‘chasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, 26 ming 890 o‘ringa ega bo‘lgan 168 ta davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotida bunyodkorlik ishlari bajarildi. Shundan 53 tasi yangi qurildi. Necha o‘n yillardan buyon farzand-u nabiralarning baxtli bolaligini orzu qilib yurgan yurtdoshlarimiz quvonchini tasavvur qilsangiz, ushbu ezgu ishlar ko‘lamini to‘liq his qilishingiz shubhasiz. Bundan tashqari, so‘nggi yillarda maktab ta‘limida asrlar davomida yig‘ilib, hatto o‘z davrida jadid bobolarimizni ham tashvishga solgan keskin muammolarga oqilona yechim topilmoqda. O‘tgan

besh-olti yilda respublikamizning barcha hududlarida yuzlab zamonaviy maktablar barpo etildi. Butunlay yangi nom va mavqedagi Prezident maktablari, ijod maktablari faoliyat boshladi, ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'i muttasil kengayib bormoqda. Ta'lim sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish borasida yangi mazmun-mundarijadagi darslik va o'quv qo'llanmalari yaratishga kirishildi. Ayniqsa, yaqin-yaqin-gacha o'qituvchi-muallimlar, hatto o'quvchilar to'rt oylab paxta yig'im-terimi, chopiq va yagana kabi dala yumushlari-yu obodonlashtirish ishlaridan ozod qilingani xalqaro mehnat tashkilotlari e'tirofiga sazovor bo'lganini ta'kidlash joiz. O'qituvchi va murabbiylarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, malakasini oshirish, munosib ish haqi to'lash hamda rag'batlantirish tizimida ham ochiq va shaffoflikni ta'minlashga ustuvor e'tibor qaratilmoqda. Xususan, uzoq yillar davomida e'tibordan chetda qolib kelgan olis hududlardagi maktablarga borib, fidokorona mehnat qilayotgan, o'quvchilarning sifatli ta'lim olishini muqaddas burchi deb bilgan jonkuyar muallimlar mehnatiga maxsus qo'shimcha to'lov joriy etilgani holda, bilim va mahorati Milliy va xalqaro sertifikatlar bilan tasdiqlangan ona tili va adabiyot, xorijiy tillar, matematika, kimyo, biologiya hamda axborot texnologiyalari fanlari o'qituvchilariga ustama to'lash mexanizmi joriy etildi. Ayniqsa, respublika bo'ylab yangi va zamonaviy maktablarning bunyod etilishiga ham davlat byudjetidan faqatgina joriy yilda 2 trillion so'mdan ortiq mablag' ajratilib, 118,6 mingta yangi o'quvchi o'rni yaratildi. Shuningdek, 114,8 ming o'rinli binolar mukammal ta'mirlandi. "Tashabbusli byudjet" loyihasi doirasida 1,5 mingdan ortiq maktab-



ning moddiy-texnik bazasi va infratuzilmasi yaxshilangan bo'lsa, 2 mingga yaqin ta'lim muassasasiga qayta tiklanuvchi quyosh elektr panellari va quyosh suv isitish qurilmalari o'rnatildi. E'tiborlisi, 2024-yili davlat byudjetidan maktablarning qurilishi va infratuzilmasini

zamonaviylashtirishga 4,1 trillion so'm mablag' ajratilishi belgilangan. Bu joriy yilda ushbu maqsadlarga sarflangan mablag'ga nisbatan salkam ikki barobar ko'p demakdir. Albatta, bunday ko'lamlil ishlarni yana davomli sanash mumkin...

— **Bugun o'qituvchilik kasbi nufuzi sezilarli ravishda oshishi bilan muallimalarning faolligi va o'quvchilar ta'lim-tarbiyasiga e'tibori kuchaygani bor gap. Ammo joriy yilda o'tkazilgan xalqaro PISA tadqiqoti dasturida o'zbekistonlik o'quvchilarning salbiy natija ko'rsatganini qanday izohlaysiz?**

— Ma'lumki, PISA tadqiqotlari har bir mamlakatga o'zining kuchli va zaif tomonlarini dunyo ta'lim tizimi bilan qiyoslash imkonini beradi. Mamlakatimizda ta'limni isloh qilish ustuvor vazifalardan biriga aylangan ekan, uning samarasini xalqaro mezonlarda baholashga ehtiyoj yuzaga kelgani tabiiy. Binobarin, bugun davlatimiz rahbarining qat'iy irodasi bilan yurtimiz xalqaro maydonda o'z mavqeyi va nufuzini ochiq namoyon etmoqda. 2022-yilda o'tkaziladigan PISA baholash dasturida 85 davlat qatori O'zbekiston ham ilk marotaba qatnashdi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning tadqiqotga munosib tayyorgarlik ko'rishini talab etadi. Chunki PISA tadqiqotida baholashning asosi, bu — matematika, o'qish, tabiiy fanlar va qator innovatsion sohalar bo'yicha jahon miqyosida muvofiqlashtirilgan topshiriqlar to'plami. Bunday baholash har 3-yilda ishtirokchi mamlakatlarning 15 yoshli o'quvchilari o'rtasida tasodifiy tanlov asosida o'tkaziladi. Afsuski, uzoq yillar respublikamizning aksariyat ta'lim muassasalarida o'quvchilarimiz bilimlarni amalda qo'llay bilish ko'nikmasiga emas, ma'lumotlarni yodlashga o'rgatildi.

Zamonaviy dunyo ta'limida esa yodlashgagina asoslangan tizim bilan yaxshi natija qayd etish imkonsiz. Aslida, mamlakatimiz PISA baholash dasturida qatnashishining o'zida ham aynan ta'lim tizimidagi mavjud zaifliklarni aniqlash hamda o'z vaqtida zarur xulosalar chiqarish maqsadi bo'lganini keng fikrli har inson tushunishiga ishonchim komil. Demak, endi o'z qobig'imizda o'z yutuqlarimizga o'zimiz mahliyo bo'lib yurishimizning vaqti o'tdi.

Biz kuni kecha Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development — OECD) bosh kotibining ta'lim siyosati bo'yicha maxsus masla-

hatchisi, Ta'lim va ko'nikmalar departamenti direktori, PISA baholash tizimi asoschilaridan biri Andreas Shlyayher hamda uning jamoasi bilan onlayn muhokama o'tkazdik. Xorijlik ekspertlar va o'zimizning malakali mutaxassislardan iborat

ishchi guruh tuzib, ularning tavsiyalari va barcha hudud rahbarlari takliflari asosida, birinchi navbatda, har bir tuman kesimida “yo'l xaritalarini” ishlab chiqamiz.

Ayni damda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda OECD tashkilotining rasmiy saytida o'zbek, qoraqalpoq va rus tillarida namu-

naviy savollar joylashtirilgan bo'lib, unda o'quvchilar o'z bilimini sinab borishi mumkin. Shu o'rinda bir jihatni ta'kidlashni istardim: o'quvchilarimizning PISA dasturida past natija ko'rsatishida xalqaro standartlarning ta'lim tizimimizga uzoq yillar davomida joriy etilmagani asosiy omildir, desak xato bo'lmaydi. Zero, **mamlakatimiz o'quvchilari intellektual salohiyatda hech bir davlat yoshlaridan qolishmasligiga ishonchim komil!**

Fikrimiz isbotini joriy yilda o'tgan 5 ta eng nufuzli xalqaro fan olimpiadasida o'quvchilarimiz 13 (2022-yili — 6 ta), boshqa xalqaro olimpiadalarda 52 medalni (2022-yili — 37 ta) qo'lga kiritganida ham ko'rish mumkin. Yana bir yangilik: kuni kecha Prezidentimiz raisligida mamlakatimizda axborot texnologiyalarini rivojlantirish hamda davlat boshqaruvini raqamlashtirish bo'yicha ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazilganidan xabaringiz bor. Ushbu anjumanda 2026-yilda Xalqaro informatika olimpiadasi ilk bor mamlakatimizda o'tkazilishi e'lon qilindi. Nufuzli olimpiadaning yurtimizda o'tkazilayotgani ham bejiz emas, albatta. Zotan, keyingi yillarda mamlakatimiz IT xabiga aylanmoqda. Buning uchun hukumatimiz tomonidan yoshlarning axborot texnologiyalari sohalarida o'qishi, tajriba almashishi borasida keng imkoniyatlar yaratildi. Xususan, “Bir million dasturchi” loyihasiga 1,9 million o'quvchi jalb etilib, 1,1 million nafari sertifikatga ega bo'ldi. Shuningdek, 444 nafar trener hamda ta'limni raqamlashtirishga mas'ul 200 dan ortiq mutaxassis va 500 dan ko'p pedagogning tajriba oshirishi ta'minlandi. O'quv kurslarini muvaffaqiyatli yakunlagan 100 nafar eng yaxshi “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o'qituvchilari esa BHMning 20 barobari (5,4 million so'm) miqdorida bir martalik mukofot puli bilan taqdirlandi. Hozirda vazirligimiz tomonidan Xalqaro informatika olimpiadasiga qizg'in tayyorgarlik boshlab yuborildi. Bunda respublikamiz bo'yicha IT sohasiga qiziquvchi o'quvchi-yoshlar o'rtasida turli tanlovlar o'tkazilib, salohiyatli o'quvchilarni tanlab olishga muhim

e'tibor qaratiladi. Shuningdek, yoshlarimizni olimpiadaga tayyorlashda xorijdan ham malakali murabbiylar jalb qilish nazarda tutilmoqda. Albatta, bu kabi tanlov va bilimlar raqobati yoshlarimizning kelgusi muvaffaqiyatlariga asos bo'lishi shubhasiz. Demak, ta'lim tizimidagi islohotlarimizni yanada jadallashtirish va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish navbatdagi kechiktirib bo'lmas vazifamizdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston — maktab ostonasidan boshlanadi”, degan g'oyasi islohotlarimiz o'zagi bo'lib turibdi. Joriy yilning “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili” deya nomlanishi ham bejiz emas, albatta. Binobarin, farzand, eng avvalo, oilada tarbiya topadi. Shu bois, davlatimiz tomonidan har bir insonning qadr-qimmatini muhofazalash, uning munosib hayot kechirishi va mehnat qilishi uchun zarur ijtimoiy-huquqiy kafolatlarini ta'minlashga ustuvor e'tibor qaratilayotgani dunyo hamjamiyati tomonidan ham yuksak baholanmoqda.

— Ma'lumki, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan joriy yildan yangi tashkil etilgan Prezident maktabi va ixtisoslashgan maktablar o'quv dasturi hamda baholash tizimi dastlabki bosqichda 500 ta ta'lim muassasasida tatbiq etilishi belgilangandi. Bu boradagi tajriba-sinov ishlarining borishi va kelgusi vazifalar xususida ham ma'lumot bersangiz.

— Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev har bir anjuman va uchrashuvlarda maktab ta'limi va undagi islohotlarning borishiga doimiy e'tibor qaratib keladi. Xususan, Prezident maktabi va ixtisoslashgan maktablar o'quv dasturi hamda baholash tizimini barcha umumiy o'rta ta'lim maktablariga joriy etish va sohadagi galdagi vazifalar yechimiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tganiga ham hali ko'p bo'lmadi. Albatta, “tayanch maktab” sifatida Prezident va ixtisoslashgan maktablarning o'quv dasturi va baholash tizimining respublika bo'yicha dastlabki bosqichda 500 ta maktabga joriy etilishi ushbu ta'lim muassasalariga mutlaqo yangi mazmun olib kirib, har jihatdan rivojlantirishga asos bo'lmoqda. Hozirda barcha hududlardagi maktablarning aniq manzili va fan o'qituvchilari belgilanib, zarur mahorat darslari tashkil etilayotir. O'quv yili yakunlari bilan tajriba-sinov natijalarining dastlabki xulosalari olinadi. E'tiborlisi, shaxsan Prezidentimiz topshirig'i asosida bir yilda har bir o'qituvchining ishi aniq mezonlarda baholanib, yangi tizimni samarali qo'llagan maktab jamoasiga 40 foizgacha ustama berilishi nazarda tutilgan. Shu bois, har bir muallim o'z ustida doimiy ishlab, o'quvchilarning barcha fanlardan o'zlashtirish samaradorligini oshirishga erishmoqda. Tajriba-sinovlarni muvaffaqiyatli tashkil etgan muallimlarni rag'batlantirish maqsadlariga 2024-yilda davlat budjetidan 250 milliard so'm mablag' ajratilishi ko'zda tutilgani ham vazifaning nechog'liq muhim ekanidan dalolatdir. Kelgusi yildan esa navbatdagi bosqichda ushbu 500 ta maktabning har biriga yana 3 tadan maktab birlashtirilib, yangi tizim yanada keng quloq yozishiga sharoit yaratiladi. Bu ishlar orqali

yana 1,5 mingta maktabga Prezident va ixtisoslashgan maktablar metodikasi, muhiti kirib borishi nazarda tutilayotgani yangi tashabbusning qanchalik tez fursatlarda amalga oshirishini ko'rsatadi. Demak, kelgusi besh yilda ushbu yangi tizimning barcha maktablarda joriy qilinishi, albatta, maktab ta'limi islohotini yangi bosqichga ko'tarishi shubhasiz.

— Ta'lim islohoti maktab sinfonasida o'quvchi bilan yuzma-yuz bo'ladigan mahoratli va mehrlu muallimlar mehnatida bo'y ko'rsatadi. Zero, zamonaviy sharoitga ega maktabda ilg'or o'quv dasturlarining joriy etilishida mutaxassis mahorati va tajribasi juda muhim. Shu bois, pedagog kadrlarni tayyorlash va malaka toifasini oshirish tizimida qanday yangiliklar joriy etilmoqda?

— Albatta, o'qituvchi-muallim mehnati o'quvchilar ta'lim-tarbiyasida ko'rinadi. Shu nuqtayi nazardan, pedagog kadrlar faoliyati samaradorligini oshirish tizimiga ham xalqaro tajribalar tatbiq etilmoqda. Bugungi kunda respublikamizda 10163 ta maktabda qariyb 507 mingga yaqin o'qituvchi-pedagog 6,4 millionga yaqin o'quvchi yoshlarga ta'lim-tarbiya berib kelmoqda. Pedagog kadrlarning malaka toifasini oshirish tizimida ham ortiqcha byurokratiya va qog'ozbozlikka chek qo'yildi. Bu o'z kasbini sevuvchi, fidoyi va mahoratli pedagoglarimiz uchun yana bir imkoniyat, desak adashmaymiz. 2024-yil 1-yanvardan boshlab maktab o'qituvchilariga toifa berish bevosita maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Ilgari bu vazifani Ta'lim inspeksiyasi, Davlat test markazi kabi tashkilotlar bajargan. Malaka toifasini olish bo'yicha sinovlar bir yilda kamida bir marotaba ikki bosqichda o'tkaziladi va 100 ballik tizimda baholanadi. Birinchi bosqichda — pedagogning mutaxassislik fani va kasb standarti bo'yicha bilim darajasi (80 ball), ikkinchi bosqichda — pedagogik mahoratini (20 ball) baholash tartibi joriy qilinmoqda. Har ikkala bosqich ham kompyuterda real vaqt rejimida onlayn tarzda o'tkaziladi. Ya'ni natijalar inson omiliga bog'liq bo'lib qolmaydi. Bu esa o'z-o'zidan korrupsiya ehtimolining oldini oladi. Har bir o'quvchining sifatli bilim olishi, ta'limda tenglik tamoyili ustuvor bo'lishi borasidagi sa'y-harakatlar samarasida hattoki eng chekka hududlardagi maktablar ham bilimli va mahoratli pedagoglar bilan ta'minlanmoqda. Bunda eng olis hududlardagi maktablarda faoliyat ko'rsatayotgan fidoyi va jonkuyar o'qituvchilar oylik maoshiga qo'shimcha 100 foiz ustama to'lash tartibining joriy etilgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. E'tiborlisi, ayni kunlarda barcha viloyatlarda 500 nafar xorijlik mutaxassis maktab ta'limiga jalb etilgan holda, o'quvchilarga chet tillarida saboq bermoqda. Bu o'qituvchi va o'quvchilarimizning xorijiy tajribani o'rganishida muhim ahamiyat kasb etadi.

— Har bir maktab — alohida tajriba-sinov va mahorat maydoni. Shu bois, bir hududdagi ikki yondosh maktabda o'qituvchi va o'quvchilar turli

natija ko'rsatishi tabiiy. Bunda maktab rahbari — direktorning yetuk mutaxassis bo'lishi barobarida menejerlik mahorati muhim. Shunday emasmi?

— Darhaqiqat, sog'lom va barqaror ma'naviy muhit zamonaviy rahbarga bog'liq. Xabaringiz bor, davlatimiz rahbari topshirig'i asosida "Direktorlar kengashi" tizimini joriy etdik. Endi direktorlikka nomzodlarni shu kengash saralaydi. Bu bilan maktab ta'limida boshqaruv tizimi o'zgardi. Endi direktorlikka nomzodlar faqat menejerlik sertifikatini bor va zaxiraga kiritilgan kadrlar orasidan tanlanib, muddatli shartnoma asosida lavozimga tayinlanmoqda. Hozirda Abdulla Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti tuzilmasida ta'lim tizimi xodimlarining bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash markazi faoliyat yuritmoqda. Endilikda ushbu markaz tomonidan maktab direktori lavozimiga nomzodlarni maxsus dasturlar asosida jamoada ishlash va ota-onalar bilan muloqot qilish, boshqaruv, moliyaviy hisobkitoblar hamda axborot texnologiyalarini o'rgatish, bilim va ko'nikmalarni baholash asosida menejerlik sertifikatini berish tartibi yo'lga qo'yilgan. Bir so'z bilan aytganda, zamonaviy maktab direktori o'qituvchi va tashkilotchi, huquqshunos va iqtisodchi bo'lishi kerak. Yangi tizim bu boradagi faoliyatimizni muvofiqlashtirish hamda zamonaviy rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirishda muhim omil bo'lmoqda, desak mubolag'a emas.

— Suhbatimiz yakunida maktabgacha va maktab ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan barcha mutasaddi xodimlar, o'qituvchi-pedagoglar hamda o'quvchilarga Yangi yil tilaklaringizni bildirishingiz mumkin.

— Komil inson tarbiyasi — farovon istiqbol kafolati. Shunday ekan, xalqimiz hamjihatligi, yurtimizdagi tinchlik-totuvlik va albatta, yosh avlod kamoloti, yorug' istiqboli uchun jamiyatimiz har bir a'zosining daxldorligi juda muhim. Vatanimiz mustaqilligining 32 yilligi bayrami arafasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan anjuman aynan ta'lim tizimi islohotlariga bag'ishlangani bejiz emas, nazarimda. Zotan, davlatimiz rahbari anjuman avvalida o'qituvchi-muallimlarga murojaat qilib: "Bugun sizlar ta'lim-tarbiya berayotgan, qalbini, ongini ezgulik bilan to'ldirayotgan millionlab farzandlarimiz ertaga Yangi O'zbekiston bunyodkorlari bo'lib bizning safimizga kiradi. Vatanimiz, xalqimiz sizlarning bunday olijanob xizmatlaringizni hech qachon unutmaydi!" deya yuksak hurmat va ishonch bildirdi. Istardimki, har bir o'qituvchi-murabbiy ana shu ishonch va e'tirofga sazovor bo'lsin! Yorug' orzular bilan dastlab maktabgacha ta'lim tashkiloti bog'ida bolalikning baxti va zavqidan quvvat olib, maktab ostonasini hatlagan har bir yosh yangi O'zbekistonning haqiqiy bunyodkorlari bo'lib kamol topsin!

Bahodir JOVLIYEV suhbatlashdi.

Olimjon AHMADOV,
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti,
p.f.f.d (PhD)

BUXORO JADIDLARINING TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDAGI ADABIY VA PUBLITSISTIK ASARLARIDA PEDAGOGIK FIKRLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada Markaziy Osiyo jadidchilik harakati vakillarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maishiy mavqeyini yanada yuksaltish uchun Turkiston o'lkasida savodsizlikni tugatish uchun sa'y-harakatlaridan ularning yangi darslik adabiyotlarning yaratilishi ekanligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *jadid, yangi, Ikozu-n-noimin va elomu-l-johilin, Uyg'ongan tushlar va bilimdon johillar, Mirzo Siroj Hakim, Tuhafi ahli Buxoro, Abdurauif Abdurahimov (1886-1938) edi, avvaliga Mijmar ("Brazyer"), keyin Fitrat ("Yaratuvchi"), Rossiya, Turkiya, Erondagi inqilobiy o'zgarishlar davridagi o'ziga xos dasturi bo'lib, "eski" ("qadimchi") ziddiyatiga bag'ishlangan va "yangi" ("Jadid"), Hind sayyohi (Buxoro, shunday) qissalari.*

Kirish. Jadidlar adabiyot sohasida yangi mazmun berishga intildilar. XX asr boshlarida jadid adabiyoti yomg'irdan keyingi kamalak kabi O'rta Osiyo ijtimoiy-madaniy hayotining barcha rang-barangligini, ko'rinishlarini o'zida aks ettirdi. Mintaqada sodir bo'lgan o'zgarishlar uning xalqlari adabiyoti rivojiga ta'sir qilmay qola olmadi. Markaziy Osiyo xalqlari yangi adabiyotining asoschilarining aksariyati jadidchilik harakati vakillari edi. Yangi adabiyotning paydo bo'lishi aynan mintaqada jadidchilikning keng tarqalishi bilan bog'liq edi. Tabiiyki, "yangi" ma'nosini anglatuvchi "jadid" so'zidan jadidchilik nomining o'zi ham XX asr boshlari adabiyotini "yangi so'z san'ati" deb atashga yana bir asos bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy-siyosiy g'oyalar targ'ibotiga qaramay, jadidchilik namoyandalari ijodida, ayniqsa, publitsistik va badiiy ijodida tarbiyaviy ruh ustunlik qildi. Shu munosabat bilan jadid adabiyotining asosiy ijodiy usulini "ma'rifiy realizm" deb atash mumkin. Jadid adabiyoti undagi dunyoviy mazmunning namoyon bo'lishi, tarbiyaviy ruhning ustuvorligi, g'oyaviy pafosning kuchliligi bilan ajralib turadi.

1911-yilda Buxoro jadidlarining ilhomchisi Muhammad Ikromning Ikromcha (1847-1925) laqabli "Ikozu-n-noimin va elomu-l-johilin" ("Uyg'ongan tushlar va bilimdon johillar") nomli risolasi nashr etildi. Arab va tojik. Bu kitobning tarixi Buxoroda hukm surgan ijtimoiy muhitni tushunish uchun juda dalolat beradi, bu yerda har bir ozmi-ko'p yangi so'z amirlik poydevoriga zarba sifatida qabul qilingan va uning muallifi uchun kutilmaganda siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan. Domulla Ikromcha kitobiga to'rtta risola kiritilgan: ikkitasi arab tilida, ikkitasi fors tilida. Birinchi uchtasi mazmunan mutlaqo begunoh edi, ammo oxirgisi "Satri niso" ("Ayollar pardasi") ruxsat etilmagan "fitna" sifatida qabul qilindi. Muallif bu risolada ayollardan burqani olib tashlashni aslo yoqlamagan, balki u o'ziga Buxoroda uchramagan erkinlik bergan: birinchidan, u o'z pozitsiyalarini Qur'on va Hadis bilan emas, balki mantiqiy, mantiqiy dalillar

bilan asoslagan; ikkinchidan, u ayollarning faqat ma'naviy sabablarga ko'ra ro'mol kiyishi kerak, diniy sabablarga ko'ra umuman emas, deb hisoblagan.

Muhammad Ikrom kitobining chiqishi arab yozuvchisi Amin Rayhoniyning ayollar tengligi masalasini ko'targan asari nashr etilganiga to'g'ri keldi. Bu savol islomning barcha mamlakatlarida jamoatchilik fikrini tashvishga solgan va Ikromchining kitobi ham xuddi shunday ruhda talqin qilingan. Bu butun bo'ronga sabab bo'ldi, buni o'sha paytdagi politsiya hujjati tasdiqlaydi: "Yuz nusxada aytilgan risola tezda aholi orasida tarqaldi va bu safar Ikromcha tomonidan ilgari surilgan g'oya oddiy odamlarning ham, talabalarning ham katta xayrixohligini qozondi. ... "Satri niso" kun mavzusiga aylandi va hamma tomonidan sharhlandi" 1. Risola Islomga zid, muallifi esa islomdan qaytgan deb e'lon qilindi. Ruhoniylar "Ikromchining zararli faoliyatini bostirish uchun eng qat'iy choralar ko'rilishini" talab qildi. M.Ikrom va Fayzulla Xo'jayevlar risolaga yuqori baho berdilar .

Afg'oniston, Ozarbayjon, Eron, Gruziya, Rossiya, Turkiya, Angliya, Germaniya, Vengriya, Fransiya, Shveysariya kabi mamlakatlarni kezib chiqqan yana bir jadid adibi Mirzo Siroj Hakim (1877-1914) bu mamlakatlar hayoti, diqqatga sazovor joylari bilan yaqindan tanishtirib, kitob yozgan: tojikcha "Tuhafi ahli Buxoro" ("Buxoroliklar uchun sovg'a") deb ataladi. Bu kitobni u 1911-yilda Yevropa va Sharq mamlakatlari safaridan Buxoroga kelganida yozgan va 1912-yilda Kogonda litografik usulda nashr etilgan. Ushbu kitobga 1912-yilda tatarlarning "Vakt" jurnali va Toshkentning "Turkiston vedomosti" gazetasi tomonidan taqriz qilingan.

Mirzo Siroj yaxshi bilardiki, Buxoroda na ilg'or ilmfan haqida yetarli ma'lumotlar, na boshqa mamlakatlar xalqlari hayoti va urf-odatlar haqida yetarli ma'lumotlar yo'q, bu yerda o'zga mamlakatlarga borib, tushunib, tahlil qila oladiganlar juda kam. barcha qiziqarli va qimmatli, ular ko'rgan va eshitgan. U o'z kitobida faqat o'z ko'zi bilan ko'rganlarini qayd etib, faktlarni bayon

qilgan. G'arb va Sharq mamlakatlarida Mirzo Sirojning e'tiborini birinchi navbatda tashrif buyurgan mamlakatlarning maktab va maorif masalalari tortdi.

Jadid adabiyoti tarixida o'z ijodi bilan uni misli ko'rilmagan yuksaklikka ko'targan adiblar bo'lgan. Ularning ijodi hozir ham O'rta Osiyo xalqlari adabiyoti taraqqiyotidagi muhim bosqich sanaladi. Ana shunday adiblardan biri Buxoro jadidchiligining atoqli namoyandasi Abdurauf Abdurahimov (1886-1938) edi, avvaliga Mijmar ("Brazyer"), keyin Fitrat ("Yaratuvchi") taxallusi bilan.

Abdurauf Fitrat maktab ta'limini isloh qilish zarurligini, ilm - fanning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini birinchilardan bo'lib e'tirof etdi. 1909-yildan 1916-yilgacha bo'lgan davr uchun bir qancha risola va kitoblarni nashr ettirdi, ularda amir va uning hokimiyatini tanqid qilish bilan birga jadidchilik harakatining g'oyaviy platformas haqida so'z boradi. S.Ayniy ta'kidlaganidek, "Buxorodagi jadidchilik harakati tarixida Fitrat va uning asarlarining o'rnini katta".

A. Fitratning "Munozara" ("Munozara"), "Bayonoti sayohi hindi" ("Hind sayyohi hikoyalari") va "Saiha" ("Qo'ng'iroq") she'riy to'plami alohida ajralib turardi. Bu asarlarning barchasi Fitrat tomonidan Istanbulga hijrat qilgan paytda tojik tilida yozilgan va u yerda nashr etilgan. O'sha davrda A. Fitratning

bunday kitoblarning tarqatilishi juda katta voqea bo'lib, odamlarning e'tiborini tortdi, ma'rifatparvar ongni jiddiy o'ylashga majbur qildi. Bu kitoblarni nafaqat Buxoroda, balki amirlikning boshqa shaharlarida – Qarshi, Shahrisabz, Kitobda ham tarqatilgan. Fayzulla Xo'jayevning ta'kidlashicha, "Har xil ta'qiqlarga qaramay, Fitrat kitoblari juda yaxshi tarqatilgan, jamiyatning barcha qatlamlarida katta qiziqish bilan o'qilgan, ular atrofida tortishuvlar bo'lgan". Fitratning birinchi asari 1909-yilda Istanbulda "Buxorolik mudarris bilan Hindistondagi yevropalik o'rtasida yangi usul

maktablari to'g'risidagi bahs" 1 tojik tilida nashr etilgan. Bu kitob Buxoro amirligida yashirincha tarqatilgan. Shu munosabat bilan S.Ayniy shunday yozadi: "Bu asar buxoroliklar mentalitetini hisobga olgan holda tushunarli va tushunarli tilda yozilgani uchun ularga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Fitratning moddiy ahvoli unchalik yaxshi bo'lmasa-da, bu asarini Istanbulda, o'z mablag'i hisobidan nashr ettirib, Buxoroga jo'natadi. Yo'lda kitoblarning bir qismi rus senzuralari qo'liga tushib,



yo'q qilindi, saqlanib qolgan va Buxoroga yetib kelgani yashirin tashkilot ("Bolalarni tarbiyalash") a'zolari tomonidan Buxoro amirligining barcha hududlariga tarqatildi. Bu odamlar ilg'or edi. Bu tashkilot a'zolaridan biri Abdulqodir Maxdum (1918-yilda Toshkentda vafot etgan) shaxsan bir yuz ellik nusxani olib Shahrisabz, Kitob, Chiroqchi, Yakkabog'ga olib borib tarqatgan, mazmunini o'zi o'qib, qayta aytib bergan. savodsiz odamlar uchun kitob."

Fitrat "nizosi" nafaqat Buxoro aholisi, balki undan tashqarida ham mashhur bo'ldi. Xullas, bu kitob M.Behbudiy yordamida 1911-yilda Toshkentda rus tilida, 1913-yilda o'zbek tillarida nashr etilgan. Shuningdek, 1914-yilda urdubodiy M. Urdubodiy tomonidan ozarbayjon tiliga tarjima va nashr etilgan.

Abdurauf Fitratning "Munozara" publitsistik asari Buxoro jadidlarining yangi tarixiy bosqich – Rossiya, Turkiya, Erondagi inqilobiy o'zgarishlar davridagi o'ziga xos dasturi bo'lib, "eski" ("qadimchi") ziddiyatiga bag'ishlangan va "yangi" ("Jadid"). Bu haqida kitobning muqaddimasida shunday deyiladi: "Buxorolik aziz vatandoshlarim, uzoq vaqtdan buyon yangi va eski maktablar borasidagi kelishmovchiliklar faqat ba'zilarining hiyla-nayranglaridan kelib chiqqanini yashirmasin. xalqiga sotqinlar, muqaddas vatanimizni erkalab, birlashgan xalqni ikkiga bo'lib, bir-biridan norozi. Shubhasiz, musulmonlarning bu musibatiga tilga olingan ixtiloflardan boshqa jiddiy sabab yo'q..." L.

Fransuz tadqiqotchisi Helen Karre d'Enkaus Fitrat kitobining asosiy fikrlari: Buxoro misolida musulmon olamining ma'naviy va dunyoviy vayronagarchilik sabablarini o'rganish, o'qitish usullarini o'zgartirish muammosi, bilimga talabchanlik, deb to'g'ri hisoblaydi. intellektning tanqidiga uchragan va hokazo.

"Spor" tufayli Abdurauf Fitrat nomi ancha mashhur bo'ldi. Ha, Gr. Andreyev "Turkiston gazetisi" sahifalarida Buxorodagi g'oyaviy hayotga, xususan, Fitratning "Buxorolik mudarrislar bilan Hindistondagi yevropalik o'rtasidagi yangi usul maktablari to'g'risidagi bahs" kitobiga batafsil to'xtalib o'tadi. Gr. Andreyevga ko'ra, "Munozara" muallifi o'z raqiblari uchun bir nechta bo'shliqlarni qoldirib, mavjud ta'lim tizimini tanqid qilishning juda muvaffaqiyatli taktikasini tanladi.

A. Fitratning yana bir yirik asari 1910-yilda Istanbulda fors tilida nashr etilgan "Sayxa" ("Qichqiriq") kitobidir. Qo'shni Turkiston. Shakuriyning jadid maktabi shogirdi Vadud Mahmudiyning guvohlik berishicha, ularning ustoz Samarqandda bu kitobning 40-50 nusxasini yashirincha tarqatgan.

A. Fitrat adabiy faoliyatidagi navbatdagi muhim bosqichni uning uchinchi yirik asari "Bayonoti sayohi hind" ("Hind sayyohining hikoyalari") yozuvchi 1912-yilda Istanbulda yozgan deb hisoblash mumkin. "Hikoyalar"ning umumiy ma'nosi quyidagicha: Buxoro jamiyatining "olim", "hukmdor" va "yashovchilar"ga ijtimoiy bo'linishi mavjud; hamma narsa muqaddas

emas, bu umuminsoniy ibodat - shariat Xudodan boshqa hech kimga ibodat qilmasligini talab qilishi kerak; qonun o'zgarishlarga duchor bo'lishi, adolat korrupsiyadan xoli bo'lishi kerak; xalq barqarorlik va birlikda bo'lishi kerak; madaniyatli shifo islomga zid emas; aslida, shu jumladan shaxsiy, boshqalar uchun daxlsiz; kambag'allarga sudxo'rlik axloqsizlikdir; dunyoviy hayot diniy hayotdan farq qiladi va faol savdoga ruxsat berishi mumkin; savdoning gullab-yashnashi xalqning gullab-yashnashini ta'minlaydi va hokazo.

Fitrat sayyoh, eng avvalo, o'qitish usullari, ularning mazmun-mohiyati, o'qituvchilar bilimining pastligini tanqid qilib, o'qitish masalasiga jiddiy o'zgartirishlar kiritishni zudlik bilan talab qiladi. U tibbiyot kabi alohida davlat ixtisosliklarini yaratish tarafdori, Yevropaning boshqa davlatlaridan, jumladan, Rossiyadan tajribali o'qituvchilarni taklif etish, bir qancha yaxshi va vijdonli buxorolik yoshlarni Yevropaga savdo va biznes yo'nalishida o'qishga yuborish tarafdori. Sayohatchi 200 ta madrasa, 300 dan ortiq boshlang'ich maktab, xayriya maqsadlarida yaratilgan yirik kutubxonalar, Buxoroning haqli ravishda ilm-fan va maorif markazi hisoblanishini Buxoroning faxri deb biladi. Ammo, ushbu muassasalardagi moliyaviy ahvolni hisobga olib, bu magnatlarning shaxsiy daromad manbai ekanligini hisobga olsak, u bu masalada tub o'zgarishlarni talab qiladi. Muallifning fikricha, bunday xayriya ishlaridan tushgan foyda madrasalar va ularning kutubxonalari faoliyatini yaxshilashga yo'naltirilishi kerak.

Eslatib o'tamiz, 1913-yilda Samarqandda Mahmudxoji Behbudiy nashrida "Hind sayyohi (Buxoro, shunday) qissalari" 1 rus tilida alohida kitob holida nashr etilgan. Ushbu nashrda "Abd-ur-Rauf" deb ko'rsatilgan muallifning ismi podshoh senzurasini chalgitishi mumkin emas edi. Bu kitob Buxoroga tashrif buyurgan hind sayohatchisining hikoyasidir. Albatta, Fitratning o'zi ham buxoriylarning ko'rimsiz turmush va turmush tarzini tashqaridan ko'rgandek, sayohatchining og'zi bilan gapiradi.

1915-yilda Rossiyada nashr etilgan "Rahbari najot" 1 hisoblanadi. Kitob nashr etilgan va bu titul sahifasida ko'rsatilgan Abduvohid Munzimga rahmat. Bu haqida Munzimning o'zi 1933-yilda o'zining "Tarjimai hol" asarida "A. Fitratning milliy-diniy ruhda yozilgan asarlari Buxoro amiri va ruhoniylarini qoralash bilan birga, uning nufuzini oshirib, menga yo'l ko'rsatuvchidek bo'ldi. Unga hurmat-ehtirom ko'rsatib, o'z mablag'imga uning "Rahbari najot"ini nashr ettirdim".

Xulosa. Shunday qilib, XX asr boshlarida jadid adabiyoti faol rivojlana boshladi, u asosan yangilik bo'lib, O'rta Osiyo xalqlarining keyingi barcha adabiyotlari rivojiga ta'sir ko'rsatdi. Hayot jadid adiblari oldiga yangi maqsad va vazifalar qo'ydi. Jadid adiblarining adabiy yangiliklari, janrlari, shakllari, mavzulari, tili va uslubi eski, stilize qilingan asarlarni

siqib chiqara boshladi. O'rtta Osiyo jadidchiligining eng ko'zga ko'ringan namoyandalari Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Siddiqiy Ajziy, Mirzo Siroj Hakim, Sadridin Ayniy, Abdulla Qodiriy va boshqalar O'rtta Osiyo xalqlarining keyingi barcha adabiyotining shakllanishida beqiyos rol o'ynaganlar. Aynan ularning ijodi mumtoz adabiyot bilan yangi davrni bog'lovchi

bo'lakka aylandi. Ular nafaqat yangi davr talablariga javob beradigan munosib asarlar yaratishga muvaffaq bo'ldilar, balki rus adabiyotida ilgari erishilgan eng yaxshi narsalarni ham yo'qotmadilar. Aynan ularning asarlari tojik va o'zbek adabiyotining yangi davr adabiyotiga asos solgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi TsGL.- F.Z.-D. 467.- LI.19-29.; D.116.L.67.
2. Qarang: Braginskiy I.S. Jadidlar adabiy faoliyati nuqtai nazaridan O'rtta Osiyo jadidchiligining tabiati haqida SSSR tarixi. 1965. 6-son; 35-36-betlar.
3. Xodjayev F. K istorsh! Buxoroda inqilob. – Toshkent, 1926. 17-bet.
4. Mirzo Sirojiddin. Tuhafi ahli Buxoro. – Kogon, 1913. 22-bet.
5. Qarang: Ayniy S. Tarixi inkilobi Bukhoro. – Dushanbe: Adib, 1987. 101-103-betlar.
6. Xo'jayev F. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 1970.- T.1. 92-bet.
7. Fitrat Buxoroi. Munozarai mudarrisi bukhoro bo yak nafar farangi dar Hinduston dar borai makotibi jadida (Haqiqat natnjai tasodumi afkor ast). Tabi avval. – Istonbul: Matbaai islomiyai Hikmat, 1327 (1909). 68-b.
8. Aypi S. Tarixi inkilobi Bukhoro. – Dushanbe: Adib, 1987. 102-bet.
9. Fitrat. Indshda buxorolik mudarris bilan yevropalik o'rtasidagi bahs! Yangi usul maktablari haqida ("Fikr almashinuvining haqiqiy natijasi") / Polkovnik Yagielloning fors tilidan tarjimasi. – Toshkent, 1911. 56-b.
10. Fitrat. Hindustonda bir Farangi ila buxorolik bir Mudarrisnng bir necha masalalar ham usul jadida xususida qilgan munozarasi / Xochi Muin Shukrullo tarjimasi. – Toshkent, 1331.
11. Fitrat. Hindistondagi buxorolik mudarris bilan yevropalik o'rtasida yangi usul maktablari haqida bahs. – Toshkent, 1911. 2-b.
12. Carrere d'Encausse H. Reforme va Revolution Rus imperiyasining musulmonlari.
13. Buxara. 1867-1924, Parij. 1966. 184-bet.
14. Andreev Gr. "Buxoro" va "Turkiston gazet"i" dagi yangi oqimlar. 1916. 12-oktabr.
15. Qarang: Mahmudiy V. Muallim Abduqodir Shakuriy va Sadoi Sharq.- 1990. – No 8. 23-bet.
16. Abdurauf (Fitrat). Bayonoti sayyohi Hindi, – Istonbul: Matbaai islomiyai Hikmat, 1330 (1912). 128-b.
17. Abdurauf (Fitrat). Hind sayyohining hikoyalari (Buxoro qanday bo'lsa) / Fors tilidan tarjimasi A.N. Kondratyev. – Samarqand: Mahmud-xo'ja Behbudiy nashriyoti, 1913. 98-b.
18. Fitrat. Mavludi sharif yo xud miryoti Xayr-ul-bashar / Noshir: Muallim Mullo Abdulqodir Shakuriy. – Toshkand: Osiyo, 1333 (1914). 37-b.
19. Abdurauf Fitrat. Muxtasari tarixi islom (Tabi avval) / Noshir: Xochi Muin va sharikopash. – Samarqand: MatbaaiGozoruf, 1334 (1915). 36-b.
20. Abdurauf Fitrat. Raxbari na Jot / Noshir Muizimi Buxori, - Petrograd: M-A bosmaxonasi. Maqsutova, 1915. 224-b.
21. Munzim. Arzixol / Taxiya X. Otaxonova // Adabiyotva san'at. 1988. 6-oktabr.
22. Ayniy S. Tarixi inkilobi Bukhoro. – Dushanbe: Adib, 1987. 102-bet.
23. Fitrat A. Oila yo xud vasoifi xonadori / Taxiya P. Gulmurodzoda. – Dushanbe: Irfon, 2007. 74-bet.
24. Toshxo'ja Asprin Xo'jandiy. Ash'ori muntahab / Murattib va muallifi sarsuxonu tavzehot Sa'dullo Asadulloev, – Dushanbe: Adib, 1987. 24-bet.
25. Qarang: Polvonov N. Xorazmda jadidchilik harakatining shakllanishi va uning xarakterli xususiyatlari Va http://www.ia-centr.ni/expert/l_0394/
26. Turkiston. 1923. No 34. 12-dekabr.
27. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat boshqaruvi.- F. I-461.-Op.1.-D. 1319.-L.301.
28. Iqtibos: Nurtazina N. Turkiston xalqlari: 19-20-asrlar bo'yida islom, integratsiya, modernizatsiya va mustamlakachilik muammolari. – Olmaota, 2008. 98-99-betlar.
29. Qarang: Abdullayev M.A. Tojik jurnalistikasida milliy o'zlikni anglash evolyutsiyasi muammolari: avtoreferat. diss. dok. filol. fanlar, – Dushanbe, 2011. 21-bet.

Sarvar MO‘MINOV,
*Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi AKTni
 joriy etish va raqamlashtirish bo‘limi
 boshlig‘i o‘rinbosari*

RAQAMLI TA‘LIM RESURSLARINI ISHLAB CHIQISH VA TA‘LIM-TARBIYA JARAYONIDA FOYDALANISH METODLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada bugungi kunda raqamli ta‘lim resurslarini ishlab chiqish dolzarbligi, shuningdek, Internet tarmog‘idagi mavjud raqamli ta‘lim resurslaridan foydalanish orqali ta‘lim jarayoni samaradorligini oshirish nazarda tutilgan.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, axborot texnologiyalari, kompyuter, internet, ta‘lim, ma‘lumotlar, onlayn dars, elektron ta‘lim.

Аннотация: в данной статье рассматривается актуальность разработки цифровых образовательных ресурсов на сегодняшний день, а также повышение эффективности образовательного процесса за счет использования доступных цифровых образовательных ресурсов в сети Интернет.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida ta‘lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiyalarni keng joriy etish, yoshlarga zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatishda yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanish vazifasi belgilab berilgan.

Bugungi kunda ta‘lim tizimiga axborot texnologiyalarini joriy etishda mavjud raqamli ta‘lim resurslar, gipermatn, gipermedia, videotasvir, grafika, animatsiya, ovoz va boshqa veb dasturlaridan foydalanish katta samara bermoqda. To‘plagan tajribalar tahlil qilinganda axborot kommunikatsiya-texnologiyalarining dasturiy vositalari o‘qitishda yangi sifat vositalari sifatida o‘quv jarayonini jadallashtirish uchun keng imkoniyatlarga ega bo‘lib, an’anaviy o‘qitish vositalaridan tubdan farqlanib qolmoqda.

Ta‘lim resurslari asosida o‘qitish jarayonida aniq fanlarni kompyuter texnikalar asosida to‘liq o‘qitish, ma‘ruza matnlarini tahrir qilish, o‘quvchilarning topshirgan nazorat natijalarini tahlil qilish, o‘quvchilarga ta‘lim resurslari orqali dars o‘tishi, eshitishi va mulohaza qilish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

Ta‘lim resurslarining qulayligi quyidagilardan iborat:

- ulardan chegaralanmagan miqdorda foydalanish mumkin;
- zarur nusxalarda elektron shaklda ko‘paytirish qulay;
- ta‘lim olishning masofaviy shaklini amalga oshirish;
- qo‘shimcha tegishli ilmiy va amaliy, video, audio, animatsiya va boshqa ma‘lumotlarni kiritish imkoniyatlari keng;
- bir joydan boshqa joyga ko‘chirishda hajm nuqtayi nazardan juda qulay;
- hamisha muqobil(zaxira) variantlari bilan birga foydalanish;
- olingan ma‘lumotlar bazasi va zarur adabiyotlar manbaiga havola (ssылka) orqali bog‘lanish mumkin;
- keltirilgan ma‘lumotlar asosidagi

tushunchalarni namoyish etish orqali tasavvur hosil qilish;

– ma‘lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatlari har qanday yoshdagi istemolchi uchun bir xilligi;

– online tartibda muloqot o‘rnatishini samarali amalga oshirish va boshqalar.

Shuni hisobga olgan holda ayrim ijodkor o‘qituvchilar mustaqil ravishda shunday resurslarni ishlashga harakat qilmoqdalar. Lekin, ularning texnik imkoniyatlari cheklanganligi va elektron ta‘lim resurslari haqida yuqori bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lmaganligi sababli ularni umumta‘lim maktablarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanib dars o‘tishlari talabga javob bermayapti desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ushbu maqsadda S.Mo‘minov va boshqalar ishtirokida “Elektron ta‘lim milliy tizimiga kiritiladigan elektron metodik komplekslar va boshqa ta‘lim resurslariga yagona talablar” tayyorlandi va uning asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat standarti ishlab chiqildi. Ushbu standart Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan Sog‘liqni saqlash vazirligi, Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi va Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanib O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligidan tomonidan O‘zDSt 36.2030:2017-sonli raqam bilan ro‘yxatga olindi.

Mazkur standart elektron ta‘lim kontenti yaratishni qo‘llab quvvatlash maqsadida elektron ta‘lim resurslariga umumiy texnik talablar ishlab chiqishni va ta‘lim oluvchilarning axborot ta‘lim muhitini takomillashtirishga qaratilgan elektron ta‘lim tizimini, elektron axborot-ta‘lim resurslarini tartibga soladi. Ushbu standart yangi elektron axborot-ta‘lim resurslari mazmunini takomillashtirish, zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarini qo‘llash orqali ta‘lim jarayonining sifat va samaradorligini oshirish, elektron axborot-ta‘lim muhitini yaratish, elektron o‘quv adabiyotlarini bosqichma-bosqich ta‘lim amaliyotida keng joriy etish,

xalqaro tajribada keng qo'llanilayotgan masofadan o'qitish usullarining samaradorligini oshirish hamda xalqaro standartlarga javob beradigan ta'lim tizimida yagona elektron axborot-ta'lim muhitini yaratishga qaratilganligi bois har bir yaraladigan elektron axborot-ta'lim resursi mazkur standart talablariga javob berishi lozim.

Yuqorida keltirilgan talablarga va Davlat standartiga muvofiq, o'quvchi yoshlarni bo'sh vaqtlarini samarali va mazmunli tashkil etish, ularda shaxsiy rivojlanish hamda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, shu bilan birga internet tarmog'i milliy segmentidagi kontentlarni sifat va son jihatdan yanada oshirish maqsadida Yagona "Elektron ta'lim" tarmog'ini joriy etish doirasida o'quvchilarga zamonaviy bilim va ko'nikmalarni o'rgatish uchun Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan **raqamli ta'lim resurslar, video va animatsion kontentlarni yaratish** yo'lga qo'yildi.


1-4 sinf o'quvchilari uchun **120 ta** 3D animatsion shakldagi multiplikatsion kontentlar va **618 ta** video kontentlar ishlab chiqilgan.

5-8 sinflar uchun - o'quvchilarning **shaxsiy rivojlanishiga** qaratilgan IT dasturlash, foto va video tahrirlash hamda raqamli marketing yo'nalishlarida amaliy mashg'ulotlarni o'z ichiga olgan

120 ta video kontentlar ishlab chiqilib Internet tarmog'iga joylashtirilgan.

9-11 sinflar uchun – o'quvchilarni **kasbga yo'naltirish va kasbiy malakasini oshirish**, kelajak kasblarini eng olis va chekka hududlardagi yoshlarga yetkazish bo'yicha zamonaviy kasblar (*AUTOCAD, 3DsMAX, 2D va 3D animatsiya*) hamda biznes tushunchalarini shakllantirishga (*logistika ta'minoti bilan ishlash usuli Dispatching, internet tijoratidan unumli foydalanish E-commerce*), shuningdek, sun'iy intellekt mohiyati va undan foydalanishga qaratilgan **250 dan ortiq** video kontentlar yaratildi.

Bundan tashqari, "Buyuk insonlar hayoti", "Shaxsiy rivojlanish", "Texnologiya haqida", "Tarix" "Eng qiziqarli",



"Nima uchun kitob o'qish kerak" turkumlarida, shuningdek, "STesting" loyihasi bo'yicha "Matematik savodxonlik", "Tabiiy-ilmiy savodxonlik", "O'qish savodxonligi" kabi mavzularda jami **60 dan ortiq** animatsion dayjestlar ishlab chiqildi.

O'quvchi-yoshlarni bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazish, masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida ishlab chiqilgan "**Masofaviy ta'lim platformasi axborot tizimi (Maktab.uz)**"ga joylashtirilgan maktab o'quv dasturiga tegishli video kontent **14 080 taga**, taqdimot **6 372 taga** va qo'shimcha video resurslar **708 taga** yetkazildi.

Internet tarmog'i yordamida umumta'lim maktablarida vazirlik tomonidan yaratilgan elektron ta'lim resurslarida

* Maktab.uz platformaga
QR-kodli havola:



ishlash, ochiq onlayn kurslaridan foydalanish, qo'shimcha ta'lim olish uchun YouTube va boshqa platformalardan foydalanish imkoniyati yaratildi.

2-rasm. YouTube dagi Milliy ta'lim resurslari" kanali



YouTube dagi Milliy ta'lim resurslari" kanaliga bosqichma-bosqich joylashtirib borilmoqda.

Hozirda ushbu platformalarda ko'rishlar soni jami 2 mln.dan ko'proqni tashkil qiladi, shundan 1 million 325 ming

* YouTube platformasida
maxsus yaratilgan "Milliy ta'lim
resurslari" kanaliga o'tish
QR-kodli havola:



marta YouTube platformasi orqali (obunachilar soni 121 mingdan ziyod) ko'rilgan.

Ushbu raqamli ta'lim resurslar va videodarslarni ta'lim tizimiga keng joriy etish o'qituvchi va pedagoglarga katta yordam beradi. Ayniqsa raqamli ta'lim resurslarning amaldagi darsliklardan farqi shundaki, ta'lim resurslardan o'quvchi individual holda foydalanish, mustaqil bilim olish, matnlarni tinglash va o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, elektron axborot ta'lim resurslar, video va audiodarslar, testlar, virtual laboratoriya ishlari va raqamli ta'lim resurslardan keng foydalanish ta'lim sifat va samaradorligini oshirishga katta xizmat qiladi.

Dilnoz OLLABERGANOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi

MALALA YUSUFZOYNING “MEN MALALAMAN” ASARIDA QIZLAR MAKTABI VA ULARNING TA'LIM JARAYONI

Annotatsiya: ushbu maqolada Malala Yusufzoy asari tahlil qilinib unda ayol va qizlar taqdiri, hayot tarzi kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, jamiyatda ayollar ham ta'lim olish huquqlaridan foydalanishlari mumkinligi, ularning erkinligi cheklanishlari hamda ko'plab tazyiqlarga uchrashi bilan bog'liq holatlar ifodalangan. Shuningdek, ularning ta'lim va tarbiyasi haqida ham fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: ayol, ta'lim, tarbiya, bilim, ilm.

Sizu bizning bugungi kundagi zamondoshimiz hisoblanmish Malala Yusufzoy haqida so'z borar ekan, o'z yurtida ta'lim sifatini yuksaltirish borasida olib borayotgan sa'y-harakatlari haqida alohida to'xtalib o'tmog'imiz joizdir. Yangi maktablar joriy qilish unda ayol va qizlarni ta'lim olishlarini ta'minlash harakatlarini amalga oshirayotgan, butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lib ulgurgan, bugungi zamonamiz qahramoni Malala Yusufzoy haqida, u amalga oshirayotgan buyuk maqsadlar haqida, qancha gapirsak ham kamdek go'yo.

Bolaligidan kitoblarga bor mehrini bergan, ularni sevib ardoqlagan va shu yo'l orqali yuksak marralarga erisha olishiga ishonchi komil bo'lgan Malala, yonidagi dugonalariga ham ilm olishlari zarurligini uqtirishdan charchamaydi. Qolaversa, o'zi tanigan va tanimagan atrofidagi boshqa qizlarga ham qalblaridagi orzu-istaklarini faqat yuksak ilm egasi bo'libgina amalga oshirishlari mumkinligini tushuntirishdan zerikmaydi. Birgina misol qilib aytadigan bo'lsak, o'z hayot yo'lini aks ettirishga harakat qilgan “Men Malalaman” asarida ham jamiyatdagi ayol-qizlarning maktablarda ta'lim olishlari, nafaqat diniy, balki, dunyoviy fanlarni o'zlashtirish davomida yuksak bilimlarga ega bo'lishlari, faqatgina hunar egalari bo'lib qolmasdan, balki, yana biror bir foydali kasb egalari bo'lishlari uchun harakat qilishlari va shunday tinimsiz harakatlari ortidan o'z jamiyatiga foyda keltirishlari qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tgan. Quyidagi fikrlari orqali tasvirlab o'tgan: o'z uyi yaqinidagi chiqindixonada temir-tersak izlab axlat titib yurgan, taxminan o'zi qatori bo'lgan qizaloq haqidagi hikoyasi

- Aba, iltimos, ularga maktabimizda hech qanaqa to'lovsiz ta'lim olishlari uchun imkoniyat yaratib bering.

Otam miyig'ida kulib qo'ydi. Bundan oldin ham onam bilan qilgan tinimsiz iltimoslarimiz tufayli otam bir nechta qizni maktabimizda bepul o'qitishga rozi bo'lgandi.”

Har bitta kitobxon shu satrlarni mutolaa qilish jarayonida, beixtiyor ko'ziga yosh keladi va har bitta kitobxon qalbida - beixtiyor ta'lim-tarbiya maskani bo'lmish maktab ochib, u yerga kam ta'minlangan

oila farzandlarini, ehtiyojmand oila farzandlarini yoki boquvchisini yo'qotgan oila farzandlarini jamlagan holda, ularni ilm olishlari uchun sharoitlar yaratib berish, ularni porloq kelajak kutib turganiga ishonirish kabi buyuk orzular va teran maqsadlar shakllana boshlaydi.

Zero, Abdulla Avloniy hazratlari ta'kidlaganidek: “Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmaq – tanani pok tutmaq, yosh vaqtdan maslakini tuzatmaq, yaxshi xulqlarni o'rgatmaq, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmakdir. Tarbiya qiluvchilar tabib kapidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berub, katta qilmaq lozimdur. Zeroki, “Hassini axloqakum” amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmakka amr o'linganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo'lishining asosiy panjasi tarbiyadir... Hukamolardan biri: “Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohatini yoshlarning yaxshi ta'lim va tarbiyasiga bog'liqdur”, - demish. Shariati islomiyada o'z bolalarini yaxshilab tarbiya qilmaq – otalarga farzi ayn, o'z millatining yetim qolgan bolalarini tarbiya qilmaq farzi kifoyadir...”

Aslida ta'lim olish, go'zal xulq egasi bo'lish har bitta mo'min va musulmaning farzidir.

O'z farzandiga yaxshi ta'lim, ibratli tarbiya berish har bitta ota-onaning vazifasi hisoblanadi.

Dunyo ilmlarini egallash, nafaqat o'zi yashayotgan jamiyatni yuksaltirish, uning rivojiga o'z hissasini qo'shishdir, balki, yuksak madaniyat egasi bo'lish, qalbi va ongini yoritish, ma'naviy va moddiy jihatdan yuksalishdir. Shu bilan bir qatorda, o'z farzandlari tarbiyasida ham ilmni qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini anglagan holda, farzandlar savollariga ham to'g'ri, ravon va aniq javob berishdir. Har bitta farzand qalbida tug'yon urayotgan savollariga ota-onasi tomonidan ko'ngli to'lgan holda javob olishi, yuksak ilm sohib va sohibalari bo'lmish padari va validasidan faxrlanish, shu yuksak his tuyg'ularini sof qalbida bir umr asrashi, keyinchalik ham ezgu xotiralar kabi eslashi va uni do'stlari bilan suhbatlari davomida faxr ila baham ko'rishi qanday quvonarli xodisa!!!

Malala Yusufzoda ham shu orzular osmonida parvozini davom ettirgan holda, aniq maqsadlar ila hayot kechirmoqda va uni amalga oshirish uchun sa'y-harakatlarini davom ettirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Malala Yusufzoy asari, "Men Malalaman". "Yangi asr avlodi" 2021 yil.
2. Tohir Malik. "Odamiylik mulki". "Sharq" nashriyoti 2019 yil.
3. Yousafzai M. "We are displaced", London, Weidenfeld & Nicolson., 2021. – 5 p.

Nilufar YAKUBOVA,
Urganch davlat pedagogika instituti
O'zbek va rus tili adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

XORAZM ARXIV HUJJATLARINING O'RGANILISH TARIXI

Annotatsiya: ushbu maqolada arxiv hujjatlari haqqoniy tarixni yaratishda dalil bo'ladigan muhim omillardan ekanligi, ushbu hujjatlar O'zbekistonning moddiy va ma'naviy hayoti aks etgan noyob tarix fani uchun boy manba sifatida xizmat qilishiga doir fikrlar yuritilgan. Shuningdek, XIX-X asrga oid Xiva xoni saroyidan topilgan arxiv hujjatlari haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, Xiva xonligi arxiv hujjatlari, Tuproqqal'a arxivi, Milliy arxiv fondi, O'zarxiv, solg'ut, zakot daftarlari, Qozi vasiqalari.

Аннотация: в данной статье рассматривается тот факт, что архивные документы являются одним из важных факторов, дающих доказательства в создании истинной истории, и что эти документы служат богатым источником для уникальной науки истории, отражающей материальную и духовную жизнь Узбекистана. Также даются ценные сведения об архивных документах, найденных во дворце Хивинского хана XIX-X веков.

Ключевые слова: Хивинское ханство, архивные документы Хивинского ханства, архив Тупроккала, Национальный архивный фонд, Узархив, солгут, закятные тетради, Паспорта судьбы.

Abstract: this article discusses the fact that archival documents are one of the important factors that provide evidence in the creation of true history, and that these documents serve as a rich source for the unique science of history, which reflects the material and spiritual life of Uzbekistan. Valuable information is also given about the archival documents found in the palace of Khiva Khan of the XIX-X centuries.

Keywords: Khiva khanate, archive documents of Khiva khanate, Tuproqkala archive, National archive fund, Uzarkhiv, solgut, zakat notebooks, Judge's passports.

Xalqimizning tarixiy o'tmishi, o'zligi, ma'naviyati masalalari yoritishda chuqur ilmiy asos va aniq dalillar zarur bo'ladi. Arxiv hujjatlari ana shunday haqqoniy tarixni yaratishda dalil bo'ladigan muhim omillar biridir. Ushbu hujjatlar O'zbekistonning moddiy va ma'naviy hayoti aks etgan noyob tarix fani uchun boy manba sifatida xizmat qiladi. Markaziy Osiyo mintaqasida ilk arxivlar yozuv bilan bir vaqtda paydo bo'lgan. Nisadagi Parfiya arxivi, Xorazmdagi Tuproqqal'a arxivi, Mug' qal'asi xarobalaridan topilgan arxivlar shular jumlasidandir.

1945-1950-yillarda S.P.Tolstov tomonidan Qoraqalpog'istonning Elliqal'a tumanida joylashgan Tuproqqal'a xarobalaridan Xorazm hujjatlari sanalgan ulkan arxivining topilishi fanga katta ma'lumotlarni olib kirdi. Tarix fanida bu hujjat joy nomi bilan "Tuproqqal'a arxivi" deb yuritiladi. Hujjatlardan ma'lumki, Xorazmda devonxona ish yuritish va arxivlashtirish ishlari juda yaxshi rivojlangan. Ayniqsa, ma'muriy-xo'jalik tizimi turkumiga kirgan arxiv hujjatlarining topilishi Xorazm

davlatidagi ish yuritish an'anasi uzoq davrlardan buyon davom etib kelayotganligini bildiradi.

Arxiv (lot.archivum, yun .archeion – muassasa) - 1) hujjatlar saqlanadigan joy; 2) idoralar, tashkilotlar, shuningdek, ayrim shaxslar ish faoliyati davomida to'plangan hujjatlar majmuyi. Dastlab aynan hozirgi ma'nosida emas balki boshqacha ma'noda qo'llanilgan bo'lgan. Xorijlik arxivshunos olim Craig Robertson muallifligidagi (Media History and the Archive. – New York .Routledge, 2011) asarining birinchi paragrafi "Arxiv haqidagi fikrlar va tarix haqida chizgilar", deb nomlanadi. Muallif ushbu asarda arxiv tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: - "Arxiv tushunchasi yaqin yillar ichida arxivshunos bo'lmagan insonlarning ham ilmiy tahlillari uchun doimiy mavzuga aylandi. Albatta buning hayron qoladigan yeri yo'q. Chunki, olimlar o'z izlanishlarida arxivga doimiy manba sifatida qarashlari boshlandi. (Craig Robertson. Media History and the Archive. – New York. Routledge, 2011.-B.8) Bugungi kunda ko'pgina tarixchilar va arxivshunoslar orasida

Rossiya istilosiga qadar “O’rta Osiyo davlatlarida hech qanday arxiv bo’lmagan”, degan nuqtayi nazar yashab kelgan. Taniqli sharqshunos olim A.A.Semyonov 1922-yilda quyidagilarni yozgan edi: “Musulmon sharqida, umuman Turkistonda biz tushunadigan ma’nodagi arxivlarni tasavvur qilolmaydilar, negaki idoraviy ishlar nihoyatda boshqacha tarzda olib borilgan”. A.V.Chernyayev esa o’zining “SSSRda arxiv ishi va uni tashkillashtirish tarixi” nomli o’quv qo’llanmasida to’g’ridan to’g’ri 1917-yilga qadar “O’rta Osiyo davlatlarida hech qanday arxiv bo’lmagan”, deb yozadi. O’rta Osiyoda qadimgi zamonlardan buyon arxiv hujjatlar mavjud bo’lganligini 1948-1950-yillarda Xorazmdagi Tuproqqal’a xarobasida S.Tolstov boshchiligida olib borilgan arxeologik qazishmalar paytida isbotlandi. Bu yerda milodiy III-IV asrlarga oid xorazm tilida yozilgan 100 ga yaqin hujjat topilgan.

O’rta Osiyoda qadimgi arxivlarning paydo bo’lishi bu yerda ilk davlatlarning vujudga kelishi hamda yozuvning tarqalishi bilan bog’liqdir. O’rta Osiyoda xo’jalikning rivojlanib borishi, davlatchilikning rivojlanib borishi, davlatchilikning shakllanishi natijasi o’laroq turli xo’jalik, soliq va yuridik hujjatlar yaratila boshlandi. Ayni paytda bu hujjatlarni ma’lum muddat davomida yoki doimiy ravishda saqlashga ehtiyoj tug’ildi. Natijada hujjatlarni saqlashga mutassadi bo’lgan shaxslar va muassasalar paydo bo’ldi. Bu muassasalar bugungi kunda arxivlar deb ataladi.

O’zbekiston mustaqillikka erishgach, jamiyatimizning barcha sohalarida, jumladan arxiv ishini rivojlanish sohasida ham tub o’zgarishlar sodir bo’ldi. Davlat va nodavlat arxiv fondlari O’zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi (O’zMAF) ga aylantirildi. O’zbekiston Respublikasi hukumati arxiv ishi bo’yicha Qonun va me’yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. 1999-yil 15-aprelda O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi “Arxivlar to’g’risida “Qonun va O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1999-yil 30-oktabrda “Arxiv ishi bo’yicha me’yoriy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida” gi 482-sonli Qaror qabul qilindi. Respublikada arxiv sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar arxivlar to’g’risidagi Qonunni qayta ko’rib chiqish va takomillashtirish ehtiyojini yuzaga keltirdi. Natijada 2010-yil 15-iyunda “Arxiv ishi to’g’risida “ gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Ayniqsa, 2019-yil 20- sentabrda O’zbekiston Prezidentining “O’zbekiston Respublikasida arxivlar ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi PF-5834-son Farmoni [1] va “O’zbekiston Respublikasi “O’zarxiv” agentligi faoliyatini takomillashtirish to’g’risida”gi PQ-4463-son Qarori [2]ning qabul qilinishi bu sohada chuqur islohotlarni boshlab berdi.

O’rta Osiyo mintaqasida mavjud bo’lgan Qo’qon va Xiva xonliklari va Buxoro amirligida o’ziga xos tarzda ish yuritish, hujjatchilik shu bilan birgalikda arxiv tizimi

xususida XX asrning birinchi choragiga qadar aniq ma’lumotlar yo’q edi. XX asrning 30-yillarida O’rta Osiyo xonliklarida arxivlar bo’lganligi o’z tasdig’ini topdi. Bular Qo’qon va Xiva xonlari, Buxoro amirligi Qo’shbegi arxivlari bo’lib, ularda XVIII-XIX asrga oid hujjatlarning ma’lum qismi saqlanib qolgan. Ma’lumki, Rossiya imperiyasining O’rta Osiyoni bosib olishning uchinchi bosqichi Xiva xonligiga yo’naltirilgan edi. Dungan qo’zg’oloni Xinjanggacha cho’zilgan bir paytda Rossiya 1871-yili o’z e’tiborini Kuljaga qaratishdan to’xtatib, balki Markaziy Osiyoning boshqa bir tomonida bo’ysunmas geografik joy hisoblangan Xiva xonligiga qaratdi. Yozma kelishuv rasman tan olingan bo’lishiga qaramasdan Britaniya Afg’onistonga o’z ta’sirini o’tkazish (Badaxshon) va Xuroson (Xorazm) ga tasir o’tkazmaslikka kelishildi. Rossiya 1873-yili General fon Kaufman boshchiligida Xiva xonligiga qarshi hujumini boshladi. 1873-yil 29-mayda ruslar Xiva xonligining poytaxti Xiva shahrini bosib olgandan so’ng, xon saroyini talan-taroj qildilar. Moddiy boyliklar bilan bir qatorda qo’lyozma asarlar va arxiv hujjatlari Turkiston general – gubernatori K.P. Kaufmanning topshirig’iga asosan sharqshunos olim Aleksandr Kun tomonidan Toshkentga olib kelindi. Arxiv va qo’lyozmalarning tarkibi va mazmunini o’rganib chiqqan Xiva ekspeditsiyasida bevosita qatnashgan A.L.Kun general-gubernatorga hisobot taqdim etadi. Unda olim mazkur hujjatlarni ikki guruhga bo’lgan edi. Birinchi guruhga xonlikning daromadlari va xarajatlariga doir daftarlari hamda bir qancha vaqf mulki hujjatlarini, ikkinchisiga xatlar, arizalar, shuningdek, diplomatik yozishmalarni kiritgan. Umuman olganda, Xiva xoni saroyidan Sharq qo’lyozmalaridan iborat 300 ga yaqin kitob, 129 nomda 140 jild tarixiy asarlar, 20 nafar shoirlarning 30 jildli asarlari, 50 jildli 40 ta huquqiy-diniy asar, bundan tashqari 18 ta Qur’on va 50 ta darslik kitoblari to’planganini ma’lum qiladi. A.Kun Xiva xonligi hujjatlari asosidagi dalolatnomasida quyidagicha fikr bildirgan. “Xon saroyi musodara qilinganida, qo’lyozmalar bilan birgalikda hujjatlar ham to’plandi. Bu hujjatlarni ikki guruhga bo’lish mumkin: birinchi guruhga xonlikning daromadlari va xarajatlariga doir daftarlari hamda bir qancha vaqf va mulk hujjatlarini, ikkinchi guruhga xatlar va diplomatik yozishmalarni kiritish mumkin. Daftarlari orasida pul soliqlariga doir yozuvlar (solg’ut), zakot daftarlari va Matmurod devonbeganing xon xarajatlari to’g’risidagi hisobotlari bor. So’ngra shu hujjatlar orasida Buxoroda, G’azalida, Istanbulda va boshqa joylarda savdo-sotiq ishlari bilan yashab turgan xivaliklarning xonga yuborgan iltimosnomalari, nizolarini hal qilib berish to’g’risida yozilgan imkoniyatnomalar, biror mansab berish to’g’risidagi iltimosnomalar va shu kabilar bor. Diplomatik hujjatlar orasida Ost-Indiya general gubernatorlari Narsbrukning xati, Turkiya sultonining xatlari va farmonlari, rus elchisi podpolkovnik Danilevskiy bilan

Xiva xoni o'rtasida tuzilgan ahdnoma hamda Turkiston general gubernatori tomonidan xonga yuborilgan bir nechta maktub mavjud" [10]. Mazkur noyob hujjatlarning bir qismi fon Kaufman tomonidan 1874-yil 28- martda Peterburg Fanlar Akademiyasi Osiyo muzeyi (hozirgi Sankt-Peterburgdagi Rossiya Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti kutubxonasi)ga, qolgan esa Peterburgdagi Imperator xalq kutubxonasi (Sankt-Peterburgdagi Rossiya Milliy kutubxonasi) ga yuborilgan. Uzoq vaqt hujjatlar ilmiy muomalaga kiritilmasdan, tadqiqotchilar uchun noma'lum bo'lib qolgan. Xiva xonlari arxivini birinchi bo'lib, 1936-yili sharqshunos olim P.P.Ivanov tomonidan tasodifan topib olinishi va o'rganib chiqilishi tarix fani sohasida katta yutuq bo'ldi. Chunki, ushbu davrga qadar o'zbek xonliklari tarixi sharq adiblari asarlari yoki yevropalik sayyohlar ma'lumotlari asosida yoritilar edi. Xiva xonligi arxivi hujjatlari mazmunining sharqshunos P.Ivanov tomonidan tadqiq etilishi Xiva xonligi tarixini ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qildi. P.Ivanov Saltikov-Shchedrin nomli xalq kutubxonasidan hujjatlar topib, Xiva tarixiga oid tadqiqotlarini doirasini kengaytishga muvaffaq bo'ladi. Xiva xonlari arxivi hujjatlarini chuqur o'rganish natijasida P.P.Ivanov "XIX asrdagi Xiva xonlari arxivi" asarini nashr etgan. Biroq, olim arxivning sharqshunoslik institutida saqlanib qolgan ikkinchi qismidan bexabar edi.

Keyinchalik, mazkur hujjatlar 1951-1956 yillar Sharqshunoslik institutida katta ilmiy xodim lavozimida ishlagan, 1953 yil "Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan M.Yo'ldoshev tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. M. Yo'ldoshev mazkur arxiv hujjatlari asosida Xiva xonligidagi yer egaligining qanday tarkib topganligi va yerdan kimlar foydalanganligini aniqlashga muvaffaq bo'lgan hamda butun mamlakatdagi yerlarning 9/10 katta yer egalari qo'lida bo'lganligini isbotlagan. Olim haqiqiy hujjatlarga tayanib, tarix fanida birinchi marta XIX asrda Xivadagi agrar munosabatlarni, keng xalq ommasining hayotini, Xiva qishloqlaridagi murakkab ijtimoiy vaziyat va dehqonlar tabaqasi haqida to'liq ma'lumot beradi. M.Yo'ldoshev O'rta Osiyo xonliklari xo'jaligida chorikorlik, yerni ijaraga olib ishlash shaklining keng tarqalmaganligi to'g'risidagi masalani o'rtaga tashlagan. Xiva xonligida soliq va majburiy ishlar haqida, soliq mahkamalarining tuzilishi, soliq to'lovchilar toifalari va ularning miqdori hamda yig'ilgan soliqlarning hajmi to'g'risida aniq ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqotchi tomonidan o'rganilgan

hujjatlar Xiva xonlari ma'muriy tuzilishiga doir boy materiallarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, saroy ayonlari, harbiy, sud va ma'muriy mansablar to'g'risida mukammal ro'yxat keltiriladi hamda ularning mansab darajalari va vazifalari aniq ko'rsatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi 125-raqam tarix fondi "Xiva xonlari devonxonasi" va "Xiva xonlari arxivi" deb atalgan birinchi va ikkinchi tavsiflari "Iqtisod" va "Qozi vasiqlari" bo'limida, hamda 323-fond birinchi tavsifida saqlanayotgan vaqfnomalarda Xiva madrasalari va ularning iqtisodiy manbalari to'g'risida noyob hujjatlar mavjud. "Xiva xonlari arxivi" fondida "Yasovulboshining vaqf masalalari bo'yicha xon saroyiga chaqirilishi" deb nomlangan hujjatlar jamg'armasi saqlanadi. Mazkur hujjatlarni tadqiq etilishi ikki jihati bilan muhim bo'lib, birinchidan, sud-huquq tizimida yasovulboshi institutining tutgan o'rni, uning funksiyalari haqida, ikkinchidan, vaqf ma'muriyati faoliyatiga oid qimmatli ma'lumotlarni beradi. Yasovulboshining davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimida tutgan o'rni masalasi atroflicha o'rganilgan bo'lib, mazkur tadqiqotda asosiy e'tibor Xiva xonligida vaqf ma'muriyatining amaliy faoliyatiga qaratiladi.

Xorazmda arxiv ishi 1926-yilda Xorazm viloyati arxiv byurosi sifatida faoliyat boshladi. Bu arxiv muassasasi 1927-yili Xorazm okrugi arxivi deb o'zgartirilgan. 1934-yildan O'zbekiston SSR Markaziy arxiv boshqarmasi yangi Urganch bo'limi sifatida tuzilib, 1935-yildan Xorazm okrugi arxivi deb qayta o'zgartirildi. 1938-yili tuzilgan Xorazm viloyati arxiv boshqarmasi 1940-yildan boshlab, Xorazm viloyati davlat arxivi deb qayta nomlangan. Viloyat va tuman ijroiya qo'mitasi jamg'armasidagi hujjatlarda Xorazm viloyati xalq ta'limi va viloyatdagi qurilish ishlari olib borilishi to'g'risidagi ma'lumotlar, sovet hukumatining iqtisodiy va madaniy hayoti aks ettirilgan. Shuningdek, arxivda suratli hujjatlar Xorazmdagi sovet hukumatining boshqaruviga, sovet ittifoqi 133 qahramonlari hayotiga va turli shahar, tumanlarga oid hujjatlar jamlangan. Bugungi kunda Xorazm viloyat davlat arxivi Urganch shahar, A.Bahodirxon ko'chasi 207-uyda faoliyat yuritadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda O'zbekiston davlat, idoraviy va shaxsiy arxivlar mavjud bo'lib, bu arxivlarda respublikamizning o'tmishi va hozirgi kunini o'zida aks ettirgan bebaho hujjatli manbalar saqlanmoqda. Ularni nes-nobud qilmasdan kelajak avlodlarga yetkazish arxiv xodimlari va barcha fuqarolarning muqaddas burchi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida arxivlar ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 20- sentabrdagi PF-5834-son Farmoni "Xalq so'zi", 2019-yil 21-sentabr .

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-4463-son qarori. "Xalq so'zi" . 2019-yil 21-sentabr.
3. O'zME Birinchi jild. –Toshkent, 2000-yil.
4. Абдурасулов У.А. К истории судебно-административной практике в Хивинском ханстве в конце XIX – начале XX столетия: коллекция йасаулбаши // O'zbekiston tarixi. 2012.№1.С.64-80. 42
5. Aminov M va b. Иш юритиш (амалий қўлланма). – Toshkent: O'zME, 2000.
6. Alimov I., Ergashev F., Bo'tayev A. Arxivshunoslik. O'quv qo'llanma. –T.: Sharq, 1997.
7. Alimov I.A. Arxivshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: Cho'lpon, 2007.
8. Is'hoqov M.M., Alimova R.R. Arxivshunoslik. O'quv qo'llanma. –T., 2017.
9. Isakova M. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Ташкент: Университет, 2012.
10. Yo'ldoshev M. Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат тузилиши. – Toshkent: O'zdavnashr,1959.-B.364.
11. O'zarxiv agentligi rasmiy sayti. www.archiv.uz

Matluba AXMEDOVA,
"Rus tili" kafedrasini mudiri
 Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti

O'SMIR YOSHDA GI O'QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLAR VOSITASIDA BADIY-ESTETIK RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHAKL, USUL VA METODLARI

Nazariy manbalar va metodologik asoslarning tahlili shuni ko'rsatdiki, shaxs ma'naviyatini shakllantirishda uning ehtiyoj va mayllarini aniq hisobga olish lozim. Insonning ma'naviy qadriyatlarni egallash mayllari, ehtiyojlari esa bevosita uning dunyoqarashi bilan bog'liq. Mana shu mayl, ehtiyoj va dunyoqarash zahirida o'quvchilarning ma'naviyatini shakllantirish mumkin.

Shaxs ma'naviyati u egallagan ma'naviy qadriyatlarga ehtiyojni ifodalaydi. Shaxsning maqsadlari, fikrlarida uning o'zlashtirgan bilimlari, dunyoqarashi o'z ifodasini topadi. Ma'naviyat insonning hayotiy imkoniyatlarini aniqlashga ko'maklashadi. Insonning qalbi uning ruhiy faoliyati bilan bog'liq. Inson shaxsida uning tarixiy, ma'naviy, milliy-ijtimoiy turmush tarzi o'z aksini topadi. Ma'naviyat har bir insonning shaxsiy hayotiga mazmun bag'ishlaydi. O'zining ma'naviy olami doirasida inson o'z-o'ziga savollar beradi va javoblar topadi: Men nima uchun yashayapman? Mening hayotdagi maqsadim nima iborat? Rahmdillik va shafqatsizlik nimalarda namoyon bo'ladi? Tabiiylik va qalbakilik qanday namoyon bo'ladi? Go'zallik nima? Xunuklikchi? kabi.

Insonning ma'naviyatlilik darajasi uning o'zi yashab turgan jamiyatda qaysi axloqiy me'yorlarga amal qilishi, qanday qadriyatlarni o'zlashtirganligi va jamiyatga qo'shayotgan hissasida o'z ifodasini topadi. Axloqlilik esa inson ma'naviyatining o'lchovlaridan biridir.

Shu ma'noda shaxs ma'naviyatining pedagogik-psixologik hamda ruhiy-diniy asoslarini mujassamlashtirish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Bu masala V.V.Znakov, N.Komilov, S.Nishonova,

N.Ortiqov, O.Musurmonovalar tomonlaridan bir qadar o'rganilgan. Ular ma'naviyatlilik ilmiy hamda diniy nuqtayi nazardan bir-biridan o'zaro farq qiluvchi, biroq o'zaro uyg'un bo'lgan ikki xil yo'nalishga egaligini asoslashga harakat qilganlar. Inson qalbi va ruhiyatida mavjud bo'lgan ma'naviy manbalarni izlash; fan ushbu manbalarni insonning o'zidan izlaydi, masalan, insonning ongi, intilishlari, faoliyat mahsulida uning ma'naviyatlilik darajasi aks etadi. Diniy nuqtayi nazardan esa, inson Allohga qalban yaqinlashadi. Ular orasidagi farq ilm-fanga oid va diniy yondashuvlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Mualliflar shaxs ma'naviyatiga oid bir qator yo'nalishlarni aniqlashga muvaffaq bo'lganlar:

1. Ma'naviyatlilikning ildizlarini insonning o'zidan emas, balki shaxsiyatining o'ziga xosligi, refleksiyalarga moslashuvchanligi, hayotiy faoliyat mahsulidan izlash kerak. Inson qalbi mavjudligini obyektivlashtirish, muayyan xalq ijodiyoti, uning tarixiy yodgorliklari, fan va san'at obidalarida aks etadi. Jumladan, Boburnoma, Ziji Ko'ragoniy, Ulug'bek observatoriyasi, Bibixonim madrasasi, Imom Buxoriy ziyoratgohi, Bahovuddin Naqshbandiy tarixiy yodgorligi kabilar shular jumlasidandir. Shaxs ma'naviyati uning umuminsoniy hamda milliy qadriyatlar, ma'naviy madaniyat namunalari o'zlashtirishi, ruhiyati esa, mantiqiy-madaniy dunyoqarash ifodasidir. Shaxs ma'naviyatining muhim manbai muayyan jamiyatda tan olingan axloqiy me'yorlar va qadriyatlardir. Bu axloqiy me'yorlar va qadriyatlarga shaxs o'zining kundalik hayotida amal qiladi. Ushbu axloqiy me'yorlar va qadriyatlar yordamida inson nafaqat o'z burchini

bajaradi, balki boshqa kishilarga nisbatan madaniy, axloqiy munosabatini ifodalaydi. Shaxs o'zining ma'naviy darajasi doirasida mazkur me'yorlarni idrok etadi va ularga amal qiladi. Jamiyatda qabul qilingan axloqiy, estetik, huquqiy me'yorlarda har bir shaxsning madaniyati va millat qadriyatlari mujassamlashgandir. Agar o'quvchi ularni mukammal o'zlashtirsa o'z xulq-atvorining timsoli sifatida qabul qiladi. Shundagina har bir o'quvchi ijtimoiy hayotda mavjud bo'lgan yuksak darajadagi ma'naviy qadriyatlar bilan muloqotga kirishadi. Insonning ma'naviy qadriyatlari yuksalishi uchun u jamiyatda qabul qilingan me'yorlar bilan mustahkamlanishi lozim. Shundagina ma'naviy qadriyatlar shaxs ma'naviy olamining ajralmas qismiga aylanadi.

2. Shaxs ma'naviyatini yuksaltirishda ehtiyojlar bilan bir qatorda, mavjud vaziyat va uning o'zi bilan bog'liq bo'lgan omillar ham muhim ahamiyat kasb etishini ko'plab mutaxassislar e'tirof etganlar. Bunday omillar o'quvchida ma'naviy holatni vujudga keltirish imkonini beradi. Bu jarayonda u faqatgina ma'naviy qadriyatlarga tayanadi. Bu esa, inson hayotini bilishga imkon beradi, uning axloqiy hamda estetik maqsadlarini anglashga ko'maklashadi. Bu jarayonda o'quvchi o'z axloqidagi ziddiyatlarni bartaraf etadi, intellektual jihatdan yuksaladi, muammolarni zudlik bilan yechish ko'nikmasini egallaydi.

3. Ma'naviy qadriyatlar o'quvchining o'z-o'zini rivojlantirish, tatbiq etish tamoyilidir. O'quvchi ma'naviyatining rivojlanishi va tatbiq etilishi u umuminsoniy va milliy qadriyatlarni anglab yetgandagina amalga oshadi. Bu qadriyatlarning asosini tabiiylik, rahm-shafqat, mehr-oqibat, go'zallik tashkil qiladi. Ehtiyoj tufayli o'quvchi ma'naviy qadriyatlarni egallashga ruhan tayyor bo'ladi.

4. Ma'naviy qadriyatlarni egallashning diniy yo'nalishi aslida insoniyat tarixida birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishdir. Bu yo'nalish o'zining aniq chegaralariga ega. Bunda ma'naviyat Allohga ochiqlik sifatida namoyon bo'ladi. Alloh esa, insonning qalbidadir. Insonning ma'naviy hayoti esa, uning qalb amri asosida vujudga keladi.

Manbalar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, o'quvchilarda ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish yaxlit, tizimli tarzda tashkil etilgan pedagogik jarayonda amalga oshiriladi. Bu jarayonda qadriyatlarning paydo bo'lishi, o'quvchilarga yetkazilishi uchun zarur bo'lgan pedagogik faoliyat vujudga keltiriladi. Aynan ma'naviy qadriyatlar o'quvchilarning o'zlari va o'zgalarning faoliyati, mazkur faoliyatning maqsadi va mohiyatiga nisbatan yangicha qarashni hosil qiladi. Biz ilgari surayotgan o'quvchilarda milliy qadriyatlarni o'zlashtirishga nisbatan ehtiyojni shakllantirishni nazarda tutuvchi didaktik kontseptsiya quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'quvchi shaxsining qadriyatlarni o'zlashtirish va unga amal qilishga yo'naltirilgan

faoliyati hamda uning rivojlanishi. Bu har ikkala jarayon o'zaro aloqadorlikda amal qiladi. Mazkur aloqadorlik qonuniyati ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi:

1. Qadriyatlarni o'zlashtirish faoliyati o'quvchi shaxsini rivojlantiradi. O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishlari esa ularning qadriyatlarni o'zlashtirish va qo'llashga yo'naltirilgan faoliyatlari jarayonida amalga oshadi.

2. O'qituvchi o'quvchilarning qadriyatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyatlarini tashkil etishda ularning ma'naviy-axloqiy rivojlanganlik darajalarini hisobga olishi kerak.

Mazkur maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning ikkinchi bosqichida o'quvchilarda o'z-o'zini hurmat qilishlari uchun asos bo'ladigan qadriyatlar bazasini shakllantirish va ularga taqdim etish nazarda tutiladi. O'quv-biluv faoliyati asosiy turlarida muayyan usullardan foydalanish mazkur faoliyatni qadriyatlarni o'zlashtirish maqsadiga yo'naltirish uchun katta imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Mazkur bosqichning asosiy maqsadi o'quvchilar tomonidan milliy qadriyatlarning negizini o'zlashtirishga qaratiladi. Natijada ularning intellektual imkoniyatlari kengayib, ijodiy faoliyat tajribasi tarkib topadi.

Mazkur tajribani kengaytirish esa evristik darajaga olib boradi. O'quvchilar ko'plab usullarni o'rganar ekanlar, ular orasidan qo'yilgan muammoni yechish uchun qulaylik tug'diradiganlarini tanlab olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ushbu yechimlar o'quvchi tomonidan qo'yilgan o'quv maqsadi sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayon o'ziga xos ko'rinishga ega. Ular:

1. Ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyatning ilmiy asoslari bilan tanishish; ushbu faoliyat ta'lim-tarbiya jarayonida uzluksiz xarakter kasb etishi lozim.

2. O'quvchilarning ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan o'quv faoliyatlarini muayyan usullar yordamida tashkil etish; jumladan: "Ma'naviy qadriyatlarni o'rganaman", "Ajdodlarimiz merosini mustaqil o'zlashtiraman", "Bobolarim yashagan davrga sayohat qilaman", "Ajdodlar merosi avlodlar yodida" va h.k.

3. O'qituvchi tomonidan taqdim qilingan qadriyatlarni o'zlashtirish uchun qulay bo'lgan usullardan birini tanlash imkoniyatiga ega bo'lish kabilar.

Qadriyatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan o'quv maqsadini evristik va algoritm usullari yordamida amalga oshirish o'ziga xos afzalliklarga ega. O'quvchilarning milliy qadriyatlarni qo'llashning ijodiy bosqichiga o'tishlari jarayonida ayrim muammolar vujudga keladi. Biz o'z kuzatishlarimiz jarayonida o'quvchilarning ijodiy faoliyat ko'rsatishlariga nimalar to'sqinlik qilishini aniqlashga intildik. Dastlabki bosqichda biz ko'plab tarkibiy qismlardan yagona didaktik hodisaga o'tgan bo'lsak, mazkur bosqichda qat'iy, bir xil turdagi usullarga asoslangan ish usulidan

umumlashgan, mustaqil, rang-barang, ijodiy faoliyatga o'tishga erishdik. Bu o'rinda bizga o'zgarishlar manbaya uchun zarur bo'lgan omilni topish lozimligi turar edi. Algoritm darajasidagi faoliyatda o'quvchilarning o'z-o'zlarini hurmat qilishlari uchun asos bo'lgan baza shakllandi. Evristik bosqich esa erishilgan natijalarni mustahkamlash imkonini berdi. Bunga biz o'quvchilarning o'z-o'zini hurmat qilishlarining tarkibiy qismlarini tashxislash natijasida ishonch hosil qildik.

Dilfuza ABDULLAEVA,
Rus tili kafedrasida katta o'qituvchisi
Toshkent amaliy fanlar universiteti

ZAMONAVIY DUNYODA RUS TILINI O'QITISHDA MASOFAVIY TA'LIMNING AHAMIYATI

Annotatsiya: maqolada zamonaviy dunyoda rus tilini o'qitishda masofaviy ta'limning ahamiyati va yangi imkoniyatlar haqida so'z boradi. Shuningdek rus tilini o'qitishda masofaviy ta'lim tizimining afalliklari va qulayliklari haqida fikr bildirilgan.

Kalits o'zlar: ta'lim, masofaviy ta'lim, texnika rivojlanishi, rus tili, internet

Abstract: the article talks about the importance of distance education and new opportunities in teaching the Russian language in the modern world. Also, an opinion was expressed about the advantages and convenience of the distance education system in teaching the Russian language.

Keywords: education, distance education, technology development, Russian language, Internet

Аннотация: в статье говорится о важности дистанционного образования и новых возможностях преподавания русского языка в современном мире. Также было высказано мнение о преимуществах и удобстве системы дистанционного образования при обучении русскому языку.

Ключевые слова: образование, дистанционное образование, развитие технологий, русский язык, Интернет.

Zamonaviy sharoitda jahon ilm-fani va innovatsiyalari yutuqlaridan keng foydalanish jamiyat va davlat hayotining barcha jabhalarini jadal va barqaror rivojlantirish, mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning eng muhim omiliga aylanmoqda. o'zbekiston Prezidentining 2019-yil 9-oktabrdagi qarori bilan O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi [1]. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi mo'ljallangan strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari, vazifalari, rivojlantirish bosqichlarini belgilab beradi hamda tarmoq dasturlari va bu boradagi chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

Oliy ta'limga qabul qilish darajasini oshirishga ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni keng joriy etish, raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonlarini individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini va texnologiyalari: onlayn, "Zoom", "Moodle" rivojlantirish, vebinarlarni amaliyotga keng joriy etish orqali erishish, shuningdek masofaviy ta'limni tashkil etish mumkin. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosidagi ta'lim dasturlari. Yaqin vaqtgacha masofaviy ta'lim yoki ochiq ta'lim kabi tushunchalar amalda ajratilmagan. Ammo hozirgi vaqtda masofaviy ta'lim o'zining ahamiyati va dolzarbligini isbotladi. Shunday qilib, o'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri o'quv jarayoniga talabalarning

muayyan faoliyat sohasida ma'lum bilim, ko'nikma va bilimlarini doimiy ravishda o'rganish va o'zlashtirishga yordam beradigan, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan usul va metodlarni joriy etishdan iborat bo'lib, ayniqsa bu rus tilini o'qitishda muhim rol o'ynaydi [2:421].

Ta'lim muassasalarida ishlash amaliyotida mustaqil ravishda qabul qilingan qarorlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammosidir. Ta'lim muassasalari bitiruvchilari uchun axborot oqimlari bilan to'yingan hayotga yo'naltirishga va uzluksiz mustaqil o'rganishga tayyorlik talablari majburiy bo'lib qoldi. Rus tilini o'qitishning yangi shakli - masofaviy ta'limning joriy etilishi munosabati bilan rus tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv asosida, nutqning turli uslublari va turlariga oid matnlarni tahlil qilishga ko'proq e'tibor berish, nutqning maqsadli rivojlanishiga ehtiyoj bor, shu tariqa talabalarning monologik va dialogik nutqi va taklif qilingan mavzu bo'yicha masofaviy ta'lim asosida, mulohaza yuritish qobiliyatini shakllantirishga ham qaratiladi. Va bu faqat dasturlar, darsliklar yoki qo'llanmalar bilan ishlash emas, balki turli onlayn ta'lim platformalari va ilovalar bilan ishlashdir.

Bu borada o'quv jarayoni metodlari va ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va takomillashtirish alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalar

asosida rus tilini o'rganishda kommunikativ yondashuvdan foydalanish bugungi kunda odatiy holdir. Bu, ayniqsa, rus tilini o'rganish sohasida to'g'ri keladi, bu erda talabalar zarur lug'atni mustaqil ravishda va rus adabiy tilining me'yorlarini o'zlashtirishadi, shuningdek, til birliklaridan foydalanish qobiliyatini o'qituvchi bilan samarali ravishda nutq amaliyoti asosida takomillashtiradi, darslar onlayn yoki oflayn bo'lishidan qat'iy nazar. Masofaviy ta'lim shakli uchun mo'ljallangan zamonaviy rus tili darsining asosiy xususiyati o'qituvchi va talabaning bilimda, til hodisalarini tushunishda birgalikda yaratilishidir [3:113].

Qoidalar va istisnolar haqidagi bayonotlar emas, balki adabiy matnlar va bolalarning o'zlari tomonidan berilgan bayonotlar. o'qituvchining vazifasi badiiy asarda bunday til birliklarini topishdir, ularni tahlil qilgandan so'ng, talabalar subtekstni ochish va g'oyaviy va obrazli mazmunni tushunish qobiliyatiga ega bo'ladi. Shunday qilib, rus tilini o'rganish jarayonida talaba nutqni adekvat idrok etish va tushunishning barqaror ko'nikmalarini, shuningdek, ma'lum kommunikativ xususiyatlarga ega bo'lgan o'z nutqini yaratish qobiliyatini egallashi kerak, keyin esa tinglash qobiliyatidan foydalanish – bu usullar masofaviy ta'limda rus tilini o'qitishning zamonaviy usullaridan biri sifatida dolzarbdir [2:421]. Tinglash qobiliyatlari, agar talaba ularni mustaqil ravishda yaxshilasa, samarali bo'lishi mumkin. Bunga rus tilida s o'zlashuvchilarning nutqini eshitish va eslab qolish, o'quv ma'lumotlarini kompyuter orqali ko'rish va tahlil qilish bu jarayonga esa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordam beradi.

Tinglab tushunish muammolari ilmiy-metodik adabiyotlarda keng yoritilgan. Psixologlar, tilshunolar va metodologlar ushbu usulni nutq faoliyatining eng qiyin turi deb bilishadi, shuning uchun begona (rus tilini) nutqni idrok etish qobiliyatini rivojlantirish ustida ishlash mashaqqatli harakatlarni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, ona tilida so'zlashuvchilar va yangi tilni o'rganuvchilarda tinglash mexanizmlarini solishtirishga asoslangan ushbu zamonaviy uslubni o'rganishga xorijiy psixolog va metodistlarning yondashuvi e'tiborni tortadi. Bola tug'ilishi bilan oq darhol tinglovchiga aylanadi, lekin bir necha oydan keyin u gapira boshlaydi va u bir necha yildan keyin o'qish va yozishni o'rganadi. Demak, auditorlik malakasi birlamchi bo'lib, boshqa barcha nutqiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish uchun asos

bo'ladi.

Bu shuni anglatadiki, rus tili talabasi uchun mashg'ulot davomida olingan va mustaqil ravishda takomillashtirilgan tinglash b o'yicha maxsus tayyorgarlik jarayoni ham, o'z- o'zini o'rganish va tinglab tushunish uchun tabiiy qobiliyatlarni bilish zarurati ham muhimdir. Audit ma'lumotlarining asosini parallel ishlaydigan psixologik jarayonlar tashkil etadi - so'zlar, jumlar, dialog va tushunish darajasida idrok etish, audio ma'lumotlarni semantik qayta ishlash natijasi, talabaning kommunikativ niyatini, fikrlash mantiqini yaratadi. Psixolingvistlarning ta'kidlashicha, fon ma'lumotlari xotiraning izchil matnlarni saqlash qobiliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun assotsiativ aloqalar matn nomi bilan tanishish bosqichida paydo bo'ladi. Bunday sharoitlar tinglash uchun yondashuvlarni o'zgartirishga va bu jarayonni individuallashtirishga imkon beradi.

Bunga zamonaviy o'qitish vositalari yordam berishi mumkin, ulardan biri karantin davrida talabalarning xorijiy tillardagi nutq ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishga mo'ljallangan, onlayn yoki oflayn rejimidan qat'i nazar, turli dasturlar orqali masofaviy o'qitishning universal multimediali interaktiv majmuasidir [3:113]. Ushbu kompleks bilan o'qitishning asosini tabaqalashtirilgan va integrallashgan o'qitish prinsipi, kommunikativ yo'nalish prinsipi, aniqlik prinsipi va boshqalar tashkil etadi. Shunday qilib, zamonaviy ta'lim tizimida masofaviy ta'lim o'quvchi faoliyatini puxta va batafsil rejalashtirishni, uni tashkil etishni, o'quv maqsadlari va vazifalarini aniq belgilashni, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi interaktivlikni, o'quvchi o'rtasidagi aloqani ta'minlashi kerak bo'lgan zarur o'quv materiallarini yetkazib berishni nazarda tutadi, shuningdek, o'quv materiali va guruh mashg'ulotlarini o'tkazish imkoniyatini taqdim eting. Samarali fikr-mulohazalarning mavjudligi talabaga jaholatdan bilimgacha bo'lgan yo'lda o'z taraqqiyotining to'g'riligi haqida ma'lumot olish imkonini beradi. Motivatsiya ham masofaviy ta'limning eng muhim elementidir.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, inson har qanday holatda ham xoh u an'anaviy ta'lim bo'lsin, xoh masofaviy ta'lim o'zining kelajagi uchun tinmay bilim olishi kerak. Ta'lim tizimining yangi usulidan foydalanish va uni to'g'ri tashkil etish talabalarda mustaqil fikrlashni, ta'limga qiziqishni oshiradi va o'zaro pedagogik hamkorlikni shakllantiradi va ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son// <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>
2. Ахмедова М.А., & Масадиков Ш.У. (2021). Роль инновационных технологий в развитии речи. Экономика и социум, (1-1 (80)), 421-424.
3. Akhmedova M. M. Using ict together with innovative methods in teaching the russian language in non-linguistic higher education institutions //Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал. – Т. 3. – С. 113-117.

Azimjon RAXMONOV,
 “ALFRAGANUS UNIVERSITY”NOTT
 “Sharq filologiyasi” kafedrası o‘qıtuvchısı

AL-FARG‘ONIYNING «USTURLOB YASASH HAQIDA KITOB»NING BRITANIYA MUZEYIDA SAQLANAYOTGAN “OR 5479” RAQAMLI QO‘LYOZMA NUSXASI

Annotatsiya: dunyodagi qator fanlarning rivojiga katta hissa qo‘shgan ulug‘ allomalardan biri IX asrda yashab ijod etgan hamda geografiya, astronomiya, matematika va geometriya fanlari rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan yurtdoshimiz, G‘arb mamlakatlarida Alfraganus nomi bilan mashhur Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad Kasir al-Farg‘oniydir. Ahmad Farg‘oniy 797-yilda Farg‘onada tug‘ilgan va dastlabki ilmni shu yerda olib, voyaga yetgan. So‘ng o‘sha zamonda sharqda mashhur bo‘lgan Bag‘doddagi «Bayt al-hikma» akademiyasida ilmiy ishlar bilan shug‘ullandi. Ahmad Farg‘oniy ushbu ilm dargohida mashhur olim, algebra fanining otasi hisoblangan yurtdoshimiz Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy bilan birga faoliyat ko‘rsatish baxtiga musharraf bo‘lgan. Shuningdek, Farg‘oniy Misrda, Nil daryosi bo‘ylarida ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy tadqiqotlarni amalga oshirgan. O‘z davridagi aniq fanlarning deyarli barcha sohalarida tadqiqotlar olib borib, yuzga yaqin asar yaratgan al-Farg‘oniyning faqat sakkizta asari bizgacha yetib kelganligi ma‘lum. Mutaxassislarning fikricha, hozirgi vaqtda Ahmad Farg‘oniyning 8 ta asari ma‘lum, ammo Rizoullah Ansoriyning yozishicha, uning qoldirgan asarlari soni 11 ta. Al-Farg‘oniy asarlaridan «Al-Komil fil-usturlab» («Usturlab to‘g‘risida mukammal ma‘lumot»), «Fi sanoat al-Usturlab» («Usturlab san‘ati to‘g‘risida»), «Yetti iqlim», «Astronomiya ilmiy asoslari» va «Javomi ilm an-nujum val harakat as-samoviy» («Samoviy harakatlar va astronomiya kitobi») kabilar butun jahon astronomlari orasida ma‘lum va mashhur.

Kalit so‘zlar: *Alfraganus, Miqyosi Nil, ekliptik koordinata, usturlab, qo‘lyozma, nasx xati, stereografik proyeksiya.*

Abstract: one of the great scholars who made a great contribution to the development of a number of sciences in the world is our compatriot Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad Kasir al, known in the West as Alfraganus, who lived in the 9th century and made a significant contribution to the development of the sciences of geography, astronomy, mathematics and geometry. - It is Farghani. Ahmad Ferghani was born in Ferghana in 797 and grew up here after receiving his first education. Then, at that time, he engaged in scientific work at the "Bayt al-Hikma" Academy in Baghdad, which was famous in the East. Ahmad Farghani was lucky enough to work together with our countryman Muhammad ibn Musa al-Khorazmi, a famous scientist and the father of algebra. Ferghani also conducted scientific-theoretical and scientific-practical research in Egypt, along the banks of the Nile River. It is known that only eight works of al-Farghani, who conducted researches in almost all fields of the exact sciences of his time and created about a hundred works, have reached us. According to experts, 8 works of Ahmad Farghani are known at present, but according to Rizullah Ansari, the number of works left by him is 11. Among the works of Al-Farghani are "Al-Kamil fil-usturlab" ("The perfect information about Usturlab"), "Fi shayat al-Usturlab" ("On the art of Usturlab"), "Seven Climates", "Scientific Foundations of Astronomy" and "Javami ilm an-nujum wal harakat as-samavi" ("Book of Celestial Movements and Astronomy") are known and popular among astronomers all over the world.

Key words: *Alfraganus, Nile scale, ecliptic coordinate, astrolabe, manuscript. copy letter, stereographic projection.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Misr Arab Respublikasi Prezidenti Abdulfattoh As-Sisining taklifiga binoan 2023-yil 20-21-fevral kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi. Prezidentimiz Misr Arab Respublikasiga rasmiy tashrifini buyuk vatandoshimiz Ahmad Farg‘oniy merosi ziyoratidan boshladi. Miqyosi Nil yaqinidagi xiyobonda Ahmad Farg‘oniyga o‘rnatilgan haykal poyiga gulchambar qo‘yib, mutafakkir bobomizning xotirasiga hurmat bajo keltirdi. So‘ng davlatimiz rahbari Miqyosi Nil inshootini ko‘zdan kechirdi.[2]

Shubhasiz, Nilomer Nil daryosi suvidan oqilona foydalanish, dehqonchilik va aholining iqtisodiy

holatini oldindan aniqlash imkonini berardigan inshoot bo‘lgan. Misrda dehqonlarga soliq solish masalalari ham nilomer ko‘rsatkichlari asosida amalga oshirilgan. Shunisi e‘tiborga loyiqki, Ahmad al-Farg‘oniy yaratgan ushbu inshoot hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Al-Farg‘oniyning ushbu va boshqa ko‘plab mashhur kashfiyotlari, asosiy astronomik asari bo‘lmish «Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi» ma‘lumotlari asosida yuzaga kelgan. Ushbu asar XII asrda Ovro‘poda lotin tiliga ikki marta va XIII asrda boshqa Ovro‘po tillariga ham tarjima qilinganidan so‘ng, uning lotinlashtirilgan nomi «Alfraganus» shaklida G‘arbda bir necha asr davomida keng tarqalgani.[3] Bu kitob shu asrlar

davomida Ovro'po universitetlarida astronomiyadan asosiy darslik vazifasini o'tagani barchaga ma'lum. Biz ushbu maqola orqali Al-Farg'oniyni mashhur, ammo nisbatan kam o'rganilgan va e'tirof etilgan boshqa bir asari haqida so'z yuritmoqchimiz.

Adabiyotlar sharhi. Al-Farg'oniyni asarining lotincha tarjimasini birinchi marta 1493-yilda nashr etilgan bo'lib, u eng qadimgi nashr qilingan kitoblardan hisoblanadi. 1669-yili mashhur Golland matematigi va arabshunosi Yakob Golius al-Farg'oniyni asarining arabcha matnini yangi lotincha tarjimasini bilan nashr etganidan so'ng, al-Farg'oniyni va uning asarining Ovro'podagi shuhrati yanada ortdi. Ovro'po olimlaridan Dalambri, Brokelman, X.Zuter, I.Yu.Krakovskiy, A.P.Yushkevich va B.A.Rozenfeldlar al-Farg'oniyni ijodini yuqori baholaganlar. O'rta asrlarda Sharqda ham uning nomi mashhur bo'lgan. Ibn an-Nadim, Ibn al-Qiftiy, Abul Faraj Bar Ebrej, Hoji Xalifa kabi fihristchilar uni o'z asarlarida yodga oladilar.[6]

Metodologiya. Islom olamida astronomiya birinchi navbatda amaliy fan hisoblangan – u savdogar va sayohatchilarga cho'l va dengizlarda navigatsiya masalalarida yordam berardi. Undan tashqari astronomik bilimlar bayram kunlari va qiblani aniqlashda yordam berardi. Musulmon olimlar astronomik jadvallar – quyosh, oy va sayyora hamda yulduz kataloglarini tuzishga katta e'tibor ajratishar edi. Ushbu jadval va ma'lumotnomalar yordamida sayyoralar, yulduzlar harakatini belgilab olish va quyosh va oy tutilishlari vaqtini aniqlash mumkin edi. Abbosiylar xalifaligi poytaxti hisoblanmish Bog'dod IX asrdan boshlab bir necha yuz yilliklar davomida yirik ilmiy markaz hisoblangan.[5]

Shunday ilmiy markazlarda faoliyat olib borgan, O'rta asrlardagi musulmon mamlakatlari astronomlarining, jumladan, ulug' vatandoshimiz al-Farg'oniyni fanga qo'shgan muhim hissasi shundan iboratki, yillar, asrlar o'tishi bilan sayyoramiz o'lchamlari, shaharlarning jug'rofiy koordinatalari osmon ekvatori va ekliptika orasidagi burchakni, Quyosh, Oyni aylanish davrlari, ularning tutilishini, Quyosh, Oy va sayyoralar harakatlarini tavsiflashga doir hisoblashlarga tobora ko'proq aniqliklar kiritdilar. Ularning yuksak zakovati bilan bu harakatlarning geometrik modeli takomillashtirildi, qo'zg'almas yulduzlar o'lchamlari, ularning ekliptik koordinatalarini hisoblashga doir bir qator muammolar hal etildi, o'nlab kashfiyotlar qilindi. Bundan tashqari, Sharqda munajjimlikka oid bashoratlarda ekliptika va gorizontning kesishuv nuqtasidan kelib chiqib, odam tug'ilishini va biron hodisaning vaqtini aytib berganlar.[6]

Al-Farg'oniyni buyuk xizmatlaridan yana biri shundaki, u o'zining "Yulduzlar ilmi usuli kitobi" asarida I asrda yashab o'tgan mashhur Klavdiy Ptolemeyning falakiyot sohasida asosiy qomus hisoblangan "Almagast" asaridagi talay xatolarni aniqlab, to'g'rilab

berdi. Ushbu asar yana yetti nomda shuhrat qozongan. "Osmon jismlari harakati va yulduzlar ilmi to'plami", "O'ttiz fasldan iborat falakiyot kitobi", "Almagest" muqaddimasi uchun o'ttizta fasl", "Osmon sferalari sabablari", "Osmon sferalarining tuzilishi", "Almagest", "Astronomiya fani" nomlari bilan atalib, hozirda uning qo'lyozmalari Bag'dod (2959 oltinchi nomda), Dublin (Bitti, 4114), Qoxira (Mikat, 944, 194, 310, 311), Leyden (8418/5), Sankt-Peterburg (3059/3), Moskva (154/2), Oksford (1, 879/1— ikkinchi nomda), Parij (2504/3 — uchinchi va to'rtinchi nomda), Prinston (Garr, 967 — yettinchi nomda), Istanbul (Aya Sofiya, 2843/2 — to'rtinchi nomda), Tunis (Millat kutubxonasi, 02103/1 — ikkinchi nomda), Fes (Zaviy, 56 — sakkizinchi nomda) kabi bir qator davlat va shahar kutubxonalarida saqlanmoqda.[8]

Al-Farg'oniyni ikkinchi mashhur asarining qo'lyozma nusxalari Tehrondagi Sho'ro kengashi kutubxonasida, Halabdagi arab ilmiy merosi institutida, Eronning Mashhad kutubxonasida saqlanadi. Shuningdek, Turkiyadagi Qastamuniy kutubxonasida va Berlin kutubxonasida to'plam tarkibida uch nusxada, Britaniya kutubxonasida va Parijdagi Milliy kutubxonada to'plam tarkibida saqlanib kelinmoqda.

"Usturlob bilan amal qilish haqida kitob" — birgina qo'lyozmasi Rampurda (Hindiston), "Al-Farg'oniyni jadvallari" — qo'lyozmasi Patnada (Hindiston), "Oyni Yer ostida va ustida bo'lish vaqtlarini aniqlash haqida risola" — qo'lyozmalari Gota va Qohirada, "Quyosh soatini yasash haqida kitob" — qo'lyozmalari Halab va Qohirada saqlanadi. "Al-Xorazmiy "Zij"ining nazariy qarashlarini asoslash" asari Beruniy tomonidan eslatiladi, lekin qo'lyozmasi topilmagan. Al-Farg'oniyni bu ro'yxat boshidagi ikki asaridan boshqalari hali hech kim tomonidan o'rganilmagan. Shubhasiz, ular o'rganilib tahlil qilinishi bilan al-Farg'oniyni ijodining yangi qirralari ochiladi va olimning o'rta asrlarda, undan keyin Sharq va G'arbda bu qadar mashhur bo'lishi sabablari ham ayon bo'ladi.[6]

Usturlob yaratish bo'yicha birinchi ma'lum bo'lgan arabcha risola Ahmad al-Farg'oniyni tomonidan yozilgan; Bu asarning to'liq nomi "Al-kamil fi sana'ti al-usturlobi al-shimaliyyi va al-janubiyyi va al-lalahuma va al-hasub bi al-handasa" deb nomlanadi. Ushbu asarning qo'lyozmalari yuqorida ta'kidlanganidek, Berlin, London, Mashhad, Parij va Tehron kutubxonalarida saqlanadi. Britaniya muzeyida saqlanayotgan "or 5479" raqamli qo'lyozma nusxasi XIII asrda ko'chirilgan. Chiroyli nasx xatida bejirim qilib yozilgan. Jadvallar va rasmlar qizil bo'yoq bilan tasvirlangan.[1]

Qo'lyozma matnida oltmish ikkita grafika va jadval mavjud. Ular:

- muhandislik rasmlari;
- usturlob tayyorlash uchun yigirma beshta jadval;
- usturlob chizg'ichi;
- usturlob to'ri;

- usturlob plastinkasi;
- asl namunada yetishmayotgan diagrammaning joylashuvi ko'rsatgichi;
- usturlobning asosi.[1]

Qo'lyozma asar, "Ahmad ibn Muhammad al-Farg'oniyni aytishicha, arifmetika va astronomiya yetuk olimlari astronomik harakatlarni ilmini va unda taqdim etilgan narsalarni sinchkovlik bilan kuzatish va qiyoslash orqali tushunishgan. Ular qiyoslash sifatida ishlatgan o'lchov asboblarining aksariyati "Zatul xalq" deb nomlangan usturloblardan iborat bo'lgan" deb boshlanadi.[1]

...“Va bular, agar biror kishi xohlasa undan ortig'i kerak bo'lmaydigan ma'lumotlardir. Usturlob yerdagi o'rinda ishlashi uchun 50 dan 90 gacha qismlar kerak bo'ladi. Biz buni ushbu bo'limdagi yagona jadvaldan chiqarish uchun tasvirlab berdik. Bularning hammasiga Alloh taoloning irodasi bilan isbotlanadi.” [1]

...“Allohgga hamd bo'lsinki, kitob nihoyasiga yetdi, barcha muhtaram payg'ambarlarga uning chiroyli tavfiqi va salovati bo'lsin. Ne'matlari uchun o'zigagina hamd bo'lsin” deya asar o'z nihoyasiga yetadi.[1]

Muhokama. Yerning shar shaklida ekanligiga asoslangan holda Ahmad al-Farg'oniyni Yer meridianining bir darajasi uzunligini aniqlashga muvaffaq bo'lgan. Oradan 800 yil o'tgach, Amerikani kashf etgan mashhur sayyoh Xristofor Kolumb hamda XVI asrda Yer shari bo'ylab aylanma sayohatni amalga oshirgan Fernando Magellan Ahmad Farg'oniyni Yer shari hajmini hisoblash uchun ishlatgan bir daraja meridian uzunligi haqidagi hisob-kitoblarining naqadar to'g'ri ekanligi haqida yozib qoldirishgan.

O'z asarlarini asosiy darslik bo'lishini xohlagan al-Farg'oniyni astronomiyaga fan sifatida ta'rif bergan, sohaning barcha muhim jihatlarida batafsil to'xtalib o'tgan. Undan tashqari Sharqning buyuk mutafakkiri o'zidan oldin yashab ijod etgan olimlarning ma'lumotlarini qaytadan tekshirib chiqdi va avval mavjud bo'lgan astronomik ma'lumotlarni to'g'riladi. Al-Farg'oniyni ta'kidlashicha, uning kitobi astronomiya bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun darslik bo'lib xizmat qilishi kerak edi, shu sababdan muallif fanning asoslarini yoritilishini sodda va ravon bayon etishga harakat qilgan.[5]

Ahmad al-Farg'oniyni Misrda, Nil daryosi bo'ylarida qator ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib bordi. Izlanishlarining natijasi o'laroq olim Nil daryosidagi suvning hajmi va tezligini o'lchaydigan inshoot — nilomerni yaratgan. Aynan shu nilomerning ko'rsatkichlaridan foydalangan holda Misrda qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i hisoblangan dehqonchilikni samarali va oqilona tashkil etish mumkin bo'lgan. Daryolar, ko'llar, suv omborlari va kanallarda suv sathini o'lchab, yozib boradigan eng zamonaviy «Valdey» yoki okean va dengizlar suv sathini o'lchaydigan «Rordansa» tipidagi qurilmalar al-Farg'oniyni kashf etgan «Miqyos an-Nil» qurilmasidan

andoza olib tayyorlangan.[4]

Darhaqiqat, Ahmad al-Farg'oniyni astronomiya fani rivojiga qo'shgan hissasi beqiyos. U yulduzlar orasidagi, Yerdan Quyosh, Oy va boshqa sayyoralarigacha bo'lgan masofani va ushbu osmon jismlarining hajmini aniqlab, jadval tuzgan. Ushbu jadvaldan barcha astronomlar, jumladan, yevropaliklar astronomiyaning «asoschisi», deb hisoblaydigan Nikolay Kopernik ham foydalangan. Shuningdek, osmon jismlarining harakatlarini mukammal o'rgangan Ahmad al-Farg'oniyni, Quyosh va Oy tutilish hodisalarini ham ilmiy asoslab bergan.

Natijalar. Ahmad al-Farg'oniyni yulduzlar ilmining sultoni, deb tan olingan Mirzo Ulug'bekdan besh asr oldin Quyosh va yulduzlarning harakat yo'nalishini, shuningdek, Yerning shar shaklida ekanligi va u ikki qutbni birlashtiruvchi o'q atrofida harakatlanishini isbotlab bergan. Ahmad al-Farg'oniyni bu haqida shunday yozgan: «Olimlarning masalaga qarashlari har xil bo'lishi mumkin, lekin haqiqat bitta. Mana shunday haqiqiy g'oyalardan biri — Yer va osmonning shar shaklidaligidir. Haqiqatan, Yer osmondagi barcha yoritgichlar bilan birga, biri-shimolning boshida, ikkinchisi — janubning oxirida bo'lgan ikki harakatlanmaydigan qutb atrofida harakat qiladi».[3]

Stereografik proyeksiya nazariyasining kashfiyotchisi ham Farg'oniynidir. Bu nazariya Sharq va G'arbda barcha astronomik asboblar, xususan, O'rta asrlarning asosiy astronomik uskunasi — usturlob yasash uchun asos bo'lgan. Usturlob yulduzlarning joylashuv gradusini aniqlash uchun yaratilgan. Dumaloq yassi asosga kichikroq shaklli aylana o'rnatilgan bo'lib, islomiy bezak bilan bezatilgan. Bu ashyo halqali ilgakka ega. Hozirda usturlobning XVII asrda yasalgan eksponati Fanlar akademiyasi Temuriylar tarixi davlat muzeyida saqlanadi.[4]

Quyosh, Oy, sayyoralar, yulduzlarning, binobarin, osmonning kelajak manzarasini bilish uchun geometrik-kinematik usul qabul qilib olinishida usturlobning ahamiyati katta bo'lgan. Osmon gumbazida mavhum ravishda joylashtirilgan meridian, ekvator, ekliptika, azimut, koordinata oqlari va tizimlari, burchaklar, nuqtalarning proyeksiyalarini doirasimon asbobga tushirish ularning harakatini o'rganishda katta qulaylik tug'dirdi. Bu asbob ilgari ham bo'lgan, lekin undan qanday foydalanish haqida hech bir olim yozma ravishda risola yoki qo'llanma qoldirmagan. Bu tarixiy vazifani faqat al-Farg'oniyni bajargan. Xususan, Farg'oniyni stereografik proyeksiya nazariyasini undan ming yil keyin buyuk matematik Eyler XVIII asrda geografik kartalar tuzish tajribasiga tatbiq qildi va "Rossiya imperiyasining bosh kartasi"ni tuzishda undan foydalandi. Ahmad al-Farg'oniyni birinchilardan bo'lib ekvatorda Quyosh ikki marta, ya'ni bahorgi va kuzgi teng kunlikda qoq tikkada bo'lishini, osmon qutblari gorizont tekisligida yotishini, qutblarda kecha

qishga, kunduz yozga teng bo'lishi, ya'ni sutka qismlari olti oydan davom etishini tushuntirib bergan. Beruniy o'zining "Qonuni Mas'udiy" asarida al-Farg'oniyning "Astronomiya asoslari haqidagi kitob"iga asosan Ouyosh, Oy va sayyoralarning harakatini tasvirlaydi. Uning Usturlob yasashning barcha usullari kitobi" ham Ahmad Farg'oniyning "Usturlob haqida risola"sig'a asoslangan. Bu esa alloma chuqur geografik bilimga ega bo'lganidan dalolat beradi. Farg'oniyni tadqiq qilgan iqlim tushunchasi va iqlimlar guruhi Yevropa olimlari tomonidan e'tirof etildi va uzoq vaqt davomida fanga xizmat qilib keldi. Oradan ko'p zamonlar o'tgandan keyingina yetti iqlim tropik, subtropik, ekvatorial, arktik, antarktik, qutblar, magnit qutblari, sovuqlik qutbi kabi tushunchalar bilan o'rin almashdi. Ammo bu bilan mohiyat o'zgartirani yo'q. Qanday atamalar ishlatilishidan qat'i nazar, dunyo hamon iqlimlarga bo'lingan holda tasniflanadi. Ya'ni, al-Farg'oniyning o'sha qoidasi yangicha shaklda bo'lsada, hali-hanuz amal qilmoqda. Ilim-fan tarixidan yaxshi ma'lumki, samoviy jismlar harakatini Nyuton va Laplas massa harakatining dinamikasi shaklida, Kepler geometrik yo'sinda bayon etgan. Ayni paytda ilmiy doiralarda shu ham ma'lumki, ular o'z tadqiqotlarida al-Farg'oniyning jadvallar shaklidagi izohlaridan foydalangan. Ahmad al-Farg'oniyning nomi fazoda ham abadiylashtirilgan. Mashhur polshalik astronom Yan Gaveliy o'zining 1647-yilda chop etilgan «Selenografiya» kitobida yozishicha, XVI asrdayoq Oydagi kraterlardan biri Ahmad al-Farg'oniyni nomi bilan atalgan.[2]

Shunday qilib, buyuk ajdodimizning bu asari Yevropa Uyg'onish davridagi va undan ancha keyingi davrdagi madaniyat rivojida sezilarli rol o'ynadi. Farg'oniyning nomi Xorazmiy kabi butun Sharq va G'arbda mashhurdir. O'rta asrda tabiiy-ilmiy bilimlarning rivojiga ulkan hissa qo'shgan olim sifatida manbalarda, so'nggi G'arb va Sharq mualliflari asarlarida g'urur va iftixor bilan tilga olinadi va o'rganiladi.

Xulosa. Al-Farg'oniyning nomi Xorazmiy kabi butun Sharq va G'arbda mashhurdir. O'rta asrda tabiiy-ilmiy bilimlarning rivojiga ulkan hissa qo'shgan olim

sifatida manbalarda, so'nggi G'arb va Sharq mualliflari asarlarida, o'z yurti O'zbekistonda, ayniqsa, zo'r g'urur va iftixor bilan tilga olinadi, o'rganiladi, hozirgi kunda ko'chalar, o'quv yurtlariga uning nomi berilgan.

Ahmad al-Farg'oniyning nomi asrlar osha uning Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSH, Marokash, Misr, Hindiston, Germaniya, Eron, Rossiya va boshqa bir qator mamlakatlarning yirik kutubxonalarida saqlanayotgan qo'lyozma asarlarida yashab kelmoqda. Mazkur qo'lyozmalar dunyoning bir necha tillariga tarjima qilingan va ulardan jahondagi yetakchi ilm dargohlarida uzoq vaqtlar o'quv qo'llanmasi sifatida foydalanilgan. Ushbu jarayon hozirda ham davom etayotir. Bulardan tashqari buyuk vatandoshimiz Ahmad al Farg'oniyni taklif etgan suv sathini santimetr aniqlikda o'lchash usuli hozirgi kunda ham dunyo gidrologiyasida qo'llaniladi.

Buyuk ajdodimiz Ahmad al-Farg'oniyning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish O'zbekistonda mustaqillikdan keyin boshlandi. Misr hukumati vatandoshimiz Ahmad Farg'oniyning ushbu mamlakat oldidagi xizmatlariga yuksak ehtirom ramzi sifatida Nil daryosidagi Roda orolida uning haykalini o'rnatishga qaror qildi.

Buyuk bobokalonimiz, astronomiya, matematika, geografiya va boshqa ilmiy yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatgan o'zbek qomusiy olimi Ahmad al-Farg'oniyni 865-yil Misrning Fustat shahrida vafot etgan va Imom ash-Shofe qabristoniga dafn etilgan. Garchi vaqt o'tishi bilan uning qabri yo'qolib ketgan bo'lsa-da, Imom ash-Shofe qabristonidan olib kelingan tuproq Farg'ona vodiysining Quva shahrida 1998-yil barpo etilgan ramziy qabrga qo'yilgan.

Shu munosabat bilan buyuk yurtdoshimizga ehtirom sifatida Farg'ona shahrida me'moriy majmua barpo etilib, uning markazida allomaning yulduzlar xaritasini qo'lida tutgan holda viqor bilan turgan haykali mavjud. Bu joy nafaqat farg'onaliklarning, balki Farg'ona vodiysiga tashrif buyuradigan har bir kishining ziyoratgohiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ريثك نب دمحم نب دمحم، يني اغرف؛ عباس حل او قس دن لابل امه لعلو يي بون جلاو يلامشلا بال رطس الة عنص يف لم الكلا. ظروف حم ةي لصل الة خمس نلا. ةي برعل: ةمدختس مل تاغلللا و اة غلللا. رشع ثلثلا نرقللا لىل ةخي رات دوعي. و ٨٥-٣٧. صص https://www.qdl.qa/archive/81055/vdc_100030429138.0x0000b3
2. (ت.د) دمحل او سنؤم بي رعت، ني قيرشستس مل نم فرهم ج في لائل، تايض اي رلاو لائل مل مسق، ماس لائل نارت، وف يدارك. <https://www.noor-book.com/en/ebook-Ilm-alfalak>
3. Sulaymonova, S. N. (2023). IX-XI asrlarda musulmon sharqida madaniy – ma'naviy taraqqiyot. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue June, 2023), 1064- 1076. https://www.oriens.uz/media/journalarticles/155_Sulaymonova_Shahnoza_Nodirovna_1064-1076.pdf
5. Farmonqul Egamberdiyev, Nozim Muminov. Ahmad al-Farg'oniyning ilmiy merosini tadqiq etishning yangi

jihatlari. «ALFRAGANUS» xalqaro ilmiy jurnali. 2023-yil 1-son

6. Masrur Raximjonov. Al-Fargʻoniyning falakiyot haqidagi qarashlari. «ALFRAGANUS» xalqaro ilmiy jurnali. 2023-yil. 2-son

7. Sarvarxoʻja Boboyev. Ahmad Fargʻoniy/S. Boboyev; tahrir hayʼati: U. Alimov va boshq. –T.:«Tafakkur», 2010. 96-b. («Mutafakkirlar» ilmiy-ommabop risolalar turkumi).

8. Al Fargʻoniy ilmiy merosi, ilm-fan taraqqiyotidagi hissasi, bugungi kundagi oʻrni [Matn] : maqolalar toʻplami / Alfraganus University. – Toshkent: Bookmany print, 2023. 160-b.

Dilsoʻz ABDURASULOVA,
Qarshi davlat universiteti magistri

ERGONIMLARNING TADQIQIGA DOIR

Annotatsiya: maqola onomastik sistema birliklarining tavsifiy tahliliga bagʻishlangan. Unda mustaqillik yillarida leksikaning onomastika sohasi sezilarli oʻzgarishlarga uchrangani, shuningdek, oʻzlashma birliklar tildagi appelyativ leksikasi bilan bir qatorda onomastik leksikada ham faollashayotgani ochib berilgan. Bundan tashqari, ergonimlarning shakllanishida manba til oʻzlashmalarining oʻrni hamda milliy nom tanlashning istiqbolli yoʻllari ergonimlar misolida oʻrganilgan.

Kalit soʻzlar: *onomastika, ergonim, neym neologizm, oʻzlashma soʻz, leksika, ijtimoiy taraqqiyot, tilning boyishi*

Аннотация: статья посвящена описательному анализу единиц ономастической системы. В ней раскрыты ощутимые изменения, произошедшие в годы независимости в таком разделе лексики, как ономастика, а также активизация заимствованных лексических единиц как в апеллятивной лексике, так и в ономастической. Помимо этого, на примере эргонимов изучены роль заимствований из языка-источника в формировании эргонимов и перспективные пути выбора национальных названий.

Ключевые слова: *ономастика, эргоним, нейм неологизм, заимствованное слово, лексика, социальное развитие, обогащение языка.*

Annotation: the article is devoted to a descriptive analysis of the units of the onomastic system. It reveals tangible changes that occurred during the years of independence in such a section of vocabulary as onomastics, as well as the activation of borrowed lexical units both in appellative vocabulary and in onomastic vocabulary. In addition, using the example of ergonyms, the role of borrowings from the source language in the formation of ergonyms and promising ways of choosing national names were studied.

Key words: *onomastics, ergonym, neym neologism, loan word, lexis, social development, language enrichment.*

Tilshunoslikning onomastik tizimi oʻziga xos butunlik boʻlib, uning makrokoʻlami sirasida ergonimlar alohida ahamiyatga ega. Ular nomshunoslik boʻlimi – onomastikadagi korxonona, muassasa, tashkilot, kompaniya, idora, doʻkon, korporatsiya, uyushma, jamiyat kabilarning maxsus nomidir. Ergonim termini tilshunoslikda ilk marta N.V.Podolskayaning 1979-yil nashr etilgan lugʻatida ishlatilgan[1, 166]. Mashhur tilshunos E.Begmatov antroponim, toponim, gidronim, zoonim, oronim, oykonim, etnonimlarni sanar ekan, bu sistemaga ergonimlarni ham kiritib oʻtadi[2, 37]. Muhimi shundaki, istiqbol davri oʻzbek tili leksikasiga oʻzlashgan koʻplab ergonimlar inglizcha soʻzlar boʻlib, bu esa leksikada soʻz oʻzlashish jarayonining oʻziga xosligini, inglizcha oʻzlashmalarining appelyativ leksika bilan bir qatorda onomastik leksikada ham faol ekanini asoslaydi.

Mustaqillik davri oʻzbek tili leksikasida yevropa tillariga tegishli soʻzlar, xususan, inglizcha oʻzlashmalar fors, arab va ruscha soʻzlar singari alohida qatlam sifatida shakllana boshladi. Inglizcha oʻzlashmalarining leksikadagi oʻrni, shakllanishi va taraqqiyoti, motivlovchi manbalari, semantik evolyutsiyasi hamda boshqa

atributlari alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda dunyo tillari uchun donorlik vazifasini bajarayotgan ingliz tilining boshqa tillarga taʼsir darajasi, lugʻat tarkibi, genetik tarkibi hamda manbalari, soʻz qabul qilish imkoniyati haqida ham ayrim fikrlarni bildirib oʻtish joiz.

Oʻzbek tilshunosligida ergonimlarni oʻrgangan tadqiqotchilar ularning vazifaviy jihatdan axborot funksiyasi va taʼsirchanlik xususiyatini alohida hisobga oladilar. Axborot funksiyasiga ega ergonimlar bevosita obyektning mohiyatini anglatuvchi birliklar deb qaralsa, taʼsirchanlik xususiyati mavjud ergonimlar obrazli isteʼmolchiga oʻzisha xos taʼsir oʻtkazishga asoslanadi[3, 93].

Ayniqsa, dunyo yoshlari uchun jozibador boʻlgan ingliz tilining, aniqrogʻi, lugʻat boyligining taʼsiri bu borada boshqa xalqaro tillarni bir muddat ortda qoldirdi. Tilni targʻib qiluvchilar orasida ingliz tilining shuhratini obrazli shaklda koʻrsatish uchun “XXI asrdagi lotin tili” (English is the Latin of the 21st century) metaforasi bilan nomlashlar ham uchraydi.

Taniqli tilshunos N.Mahmudov soʻz oʻzlashtirishning obyektiv va subyektiv asoslariga koʻra farqlanishini

inglizcha terminlar asosida misolida tushuntiradi. "...ingliz tilidagi tilshunoslik terminologiyasida ko'pincha mazkur ikki tipdagi o'zlashtirish farqli terminlar bilan nomlanadi, ya'ni: tushuncha va uni ifodalaydigan so'zni birgalikda o'zlashtirish – "borrowing", mavjud bo'lgan "o'z" tushunchani ifodalash uchun boshqa tildan so'z o'zlashtirish – "loaning"[4, 10]. Ko'rsatilganidek, birinchi tip (borrowing) yangi tushunchani, ikkinchi tip (loanword) esa xorijiy so'zning o'zlashtirishga qaratilgan ekan, so'nggi paytlarda yangi tushuncha ifodalovchi birliklarning o'zlashish dinamikasi sezilarli faollashdi.

Ingliz tili lug'at boyligiga sezilarli ta'sir etgan manba tillarning ulushi, tabiiyki, boshqa tillarning genetik tuzilishidagi hissalaridan farqlanadi. Hozirgi ingliz tilidagi lotincha so'zlar miqdori 29 foiz, shuningdek, fransuzcha so'zlar miqdori 29 foiz, nemischa (qadimgi ingliz tiliga asos bo'lgan german tillariga tegishli) so'zlar miqdori 26 foiz, yunoncha so'zlar miqdori 6 foiz va yana boshqa til so'zlari 10 foizni tashkil etadi[5]. Yana bir boshqa manbaga ko'ra, ingliz tili leksikasidagi o'zlashma so'zlar taxminan 80 foiz[6] ga teng.

O'zlashma so'zlarni maxsus o'rgangan O.Shukurov neyning murakkab vazifaga ega jarayon ekani, munosib neym ijod etish esa til uchun ham, millat madaniyati uchun ham manfaatli ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "UstaTop" (qurilish agentligi) neym neologizmi ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo'lgan va yoyilgan nomlardan, unda milliylik, originallik va zamonaviylik xususiyati mavjud. Milliyliigi shundaki, neym tarkibidagi usta va top(moq) leksemalari xalqimizning umumiste'mol so'zlari doirasidan tanlab olingan[7, 17].

Shunga qaramay, ingliz tili leksikadagi o'zlashma qatlam va o'z qatlam so'zlarining o'ziga xos o'rni bor. Muloqot jarayonida eng keng tarqalgan 1000 so'zning 80 foizdan ortig'i inglizcha bo'lsa, ammo keyingi eng keng tarqalgan 1000 so'zning 60 foizidan ko'prog'i o'zlashmalardir[8, 8].

Ingliz tili leksikasi tarixan murakkab jarayonni bosib o'tgan. Buni tillarning taraqqiyot tarixida kamdan-kam uchraydigan holat sifatida e'tirof etish mumkin. Aynan shuni nazarda tutib, taniqli leksikograf (Merriam-Webster lug'atining yordamchi muharriri) Kori Stamper "Ingliz tili bolaligidanoq boshqa til so'zlarini o'zlashtirib kelmoqda", deb bejiz aytmagan edi[9].

Hozirgi ingliz tili lug'at boyligida bir talay xitoycha o'zlashmalar ham uchraydi. Ularning ko'pchiligi xitoy tili orqali emas, balki koreys va yapon tili vositachiligida kirib kelgan. Shuning uchun fransuzcha olinmalar siyosat, iqtisod, diplomatiya, san'at va sport kabi sohalarda faol qo'llanadi. Bu o'zlashmalarning aksariyati ingliz tilining fonetik qoidalariga muvofiq talaffuz qilinadi.

Inglizcha so'zlar matnda diakritik belgi orqali yoki kursiv shaklda berilsa, orfografik jihatdan shakli

saqlangan fransuzcha so'z sifatida tushuniladi. Bir necha asrlik tarixga ega bu o'zlashmalar ingliz tili leksikasidan mustahkam o'rin olganki, hanuz orfografik jihatdan shaklini o'zgartirmay kelyapti.

Ingliz tilida o'zlashma hisoblangan bu so'zlarning aksariyati fransuz tilining o'zida orfografik yoki semantik jihatdan differensiyaga uchragan. Ya'ni, ular boshqa ma'noni ifodalaydi. Shunday bo'lsa-da, hozirda Angliya va Amerikadagi ayrim restoran menyularining fransuz tilida berilishi ham bu tilga nisbatan ma'lum qoidalar saqlanib qolganini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda ingliz tili lug'at boyligiga yana ko'plab zamonaviy nemischa so'zlar (ozuq-ovqat, ichimlik va boshqa mavzuviy guruhlarda) olinma sifatida qabul qilinyapti. Italyanacha o'zlashmalar orasida, xususan, musiqa, arxitektura, mebelchilik sanoati, oshxona konsepti, modalar olami bilan aloqadorlari ko'prog' kuzatiladi.

Ingliz tilida ruscha o'zlashmalarning miqdori boshqa o'zlashma manbalarga taqqoslaganda ko'p emas. Rus tilidan ingliz tiliga to'g'ridan-to'g'ri so'z olish ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarga to'g'ri keladi. Bu so'zlarning aksariyati rus hukumati siyosati, madaniyati va tarixi bilan bog'liq tushunchalarni o'zida aks ettiradi.

Ingliz tili lug'at boyligidagi lotincha va yunoncha o'zlashmalarning aksariyati ilmiy atamalardir. Shuningdek, ingliz tiliga arab tilidan ham to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita so'z o'zlashish yo'llari mavjud. Bunda, asosan, diniy, madaniy, maishiy mavzudagi so'zlar guruhi yetakchilik qiladi.

Inglizabon Amerika madaniyati dunyo bo'ylab o'zining rang-barangligi bilan tanilgan. Xususan, shu ma'noda Amerika Qo'shma Shtatlarida millat, elat va madaniyatlar birlashuvini tavsiflovchi "erituvchi qozon"[10, 50] (melting pot) majoziy o'xshatishi ham mavjud. Metafora bu hududga immigrantlar tomonidan olib kelingan madaniyatlar integratsiyasiga bevosita aloqador sanaladi. Shuningdek, u xorijiy so'zlarni, tushunchalarni qabul qilish yoki moslashtirishga ham ishora qiladi. Hozirgi ingliz tili leksikasi tarkibi turlicha bo'lib, unda asosan, fransuz, nemis, italyan, rus, xitoy yapon, yunon, ispan, hind, arab, afrika tili o'zlashmalari yetakchilik qiladi. Umuman olganda, hozirgi ingliz tili leksikasida 350 ga yaqin manba til so'zlari mavjudligi aytiladi[11].

M.E.Novichixinaning tijoriy nomlar tasnifi alohida e'tiborga molik:

motivatsiya darajasiga ko'ra:

- motivatsiyalovchi;
- motivatsiyadan xoli.

tuzilishiga ko'ra:

- sodda;
- murakkab.

aniqlik darajasiga ko'ra:

- bevosita;

– bilvosita.

Bundan tashqari, obyektga turli tomondan yondashish jihatidan guruhlangan nominatsiyalarni yigirmadan ortiq mavzuviy guruhlar asosida shakllantirib o'rganish mumkinligi ta'kidlanadi:

- geografik nomlar;
- shaxs ismlari;
- adabiy va mifologik qahramonlar;
- o'simlik va hayvonlar nomlari;
- tabiat hodisalari va tabiiy faktlar;
- vaqt segmentlari;
- sezgi, holat, his;
- sport;
- fonetik tabiatga moslashtirilgan o'zlashmalar va chet so'zlar;
- faoliyat turlari;
- harflar va formulalar;
- bayramlar va muhim sanalar;
- artefaktlar, tarixiy nomlar;
- shaxsning tashqi xususiyatlari;
- insonning tashqi xususiyatlari;
- o'lchov birligi;
- baho va natija;
- vatanparvarlik ruhidagi va boshqa nomlari;
- fazodagi yo'nalish va joylashuv;
- arifmetik nomlar;

– joy belgilarining nomi[12, 21].

Keltirilgan mavzuviy guruhlar ichki mikrosistema sifatida ham kengaytirish mumkin. Darhaqiqat, bugungi kun ergonimlari uchun jamiyatdagi insonlarning ayni paytdagi qiziqishlari, motivatsion omillarini hisobga olish juda muhim. Negaki ularning nominatsiyasi jarayonida pragmatik yondashuvlarsiz katta natijaga erishib bo'lmaydi.

Til va jamiyat uzviylikda taraqqiyot etadi, shundan kelib chiqib, til va madaniyat fenomenlarining bir-biriga ta'sir doiralari ham mavjud bo'ladi. Bu jarayonda ekstralingvistik omillar leksika uchun muhim rol o'ynaydi. Tarixan olib qaraganda, davlatlar o'rtasidagi siyosiy-madaniy aloqalardan tashqari, hatto bosqinchi xalq tilining o'z hukmi ostidagi millat tiliga ta'siri ham ahamiyatli vazifa bajargan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, istiqloq davri o'zbek tili leksikasi o'zlashma so'zlar hisobiga sezilarli darajada kengaydi. Xususan, leksikaga o'zlashgan ko'plab ergonimlar inglizcha birliklar bo'lib, bunday o'zlashmalar appelyativ leksika bilan bir qatorda onomastik leksikada ham faollashgani muhim hisoblanadi. Shunday ekan, ularni ham o'ziga xos tizim sifatida semantik, genetik va leksikografik xususiyatlarini tadqiq etish bugungi kun tilshunosligining muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. –Москва: Наука, 1978. – С. 190
2. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. –Тошкент: Фан, 2013. – 200 б.
3. Рўзимбоев С., Янгибаева С. Эргонимларнинг маъно қирралари. // Илм сарчашмалари. – Урганч, 2017. 11-сон. –Б. 91-96.
4. Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. 2015. №3. – Б. 3-12.
5. https://en.wikipedia.org/wiki/Lists_of_English_words_by_country_or_language_of_origin
6. <https://www.dictionary.com/e/word-origins>
7. Шукуров О.У. Ўзбек тили замонавий ўзлашмаларининг эволюцияси, трансформацияси ва лексико-график талқини масалалари (мустақиллик даври): Филол. фан. ... доктори (DSc) дисс. автореф – Қарши: 2022. – 62 б.
8. The Secret Life of Words: English Words and Their Origins. The Great Courses, 2012. –P. 120
9. <https://www.dictionary.com/e/borrowed-words>
10. McDonald, Jason J. American Ethnic History. Edinburgh University Press, 2007. –P. 142.
11. Which Words Did English Take From Other Languages? <https://www.dictionary.com/e/borrowed-words/>
12. Овсянникова К. В. Особенности номинации предприятий общественного питания (на примере коммерческих названий г. Воронежа и г. Москвы): дис. – Воронеж. гос. ун-т, 2016. –С. 21-29.

Gulnoza DJURAKULOVA,
O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
Universiteti dotsenti, Phd

MA'LUMOT BERUVCHI NUTQ O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya: ushbu maqola notiq va uning nutqiga qo'yiladigan talablar haqida. Maqolada notiqning ma'lumot beruvchi nutqlarni tayyorlash va taqdim etish bo'yicha mas'uliyatli bo'lishi zarurligi, ommaviy nutq matnlarida nutqda maqsadning ifoda etilishi, obyektiv yondashuv notiqqa ishonchni oshirishi keng qamrovda tahlil etildi.

Kalit so'zlar: *nutq, notiq, ishonch, maqsad, ma'lumot berish.*

Аннотация: в данной статье подробно рассматривается оратор и требования к его речи. В статье подробно анализируется необходимость ответственности ораторов за подготовку и представление информативных речей, выражение цели в речи в текстах публичных выступлений, объективный подход к повышению доверия к оратору.

Ключевые слова: *речь, оратор, доверие, цель, информирование.*

Annotation: this article discusses in detail the speaker and the requirements for his speech. The article analyzes in detail the need for the responsibility of speakers for the preparation and presentation of informative speeches, the expression of the purpose in speech in the texts of public speeches, an objective approach to increasing confidence in the speaker.

Keywords: *speech, speaker, trust, purpose, informing.*

Notiq nutqi har qanday monologik og'zaki nutq emas, balki tinglovchilarni ma'lum harakatga chorlovchi yoki ularda qandaydir g'oyalari, tasavvurlar tizimini uyg'otishga qaratilgan maxsus vazifa bajaruvchi nutqdir. Ritorik mahorat notiqdan aniq dalillarni keltirish, aktyorlik qobiliyati, tashqi ko'rinishdagi xoslik va psixologik bilimlarni talab etadi. Har bir notiqning o'ziga xos ifoda uslubi, so'zlashuv taktikasi va sahnada ijro mahorati bo'ladi. Ba'zilar nutq qiyinchiliklarini yengib, notqlik mahoratiga erishsalar, boshqalar uchun bu tug'ma iste'dod hisoblanadi.

Tarixda nomi qolgan shaxslarning deyarli ko'pchiligi yetuk notiq hisoblangan. Ular omma oldida o'zini tuta olishi va so'zlash mahorati bilan o'z fikr-g'oyalarini ularga yetkazib, ularni yagona maqsad sari yetaklagan. Masalan, o'z davrida Jaloliddin Rumiy, Husayn Voiz Koshifiy, Sezar, Napoleon, Robesper, Cherrill kabi tarixiy siymolar ritorik mahorati bilan xalqini birlashtirib, yagona maqsad sari yo'naltira olgan bo'lsa, Ilon Mask, Stiv Jobs, Angela Merkel, Boris Jonson, Nik Vuychich kabi zamondoshlarimiz bugungi kunda o'z faoliyatlarida notqlik mahoratlarini qo'llashmoqda.

Ko'pchilik ommaviy nutq matnlarida nutqning uchta umumiy maqsadi muhokama qilinadi: ma'lumot berish, ishontirish va xushnudlik berish. Garchi bu umumiy maqsadlar nazariy jihatdan bir-biridan farq qilsa-da, amalda ular bir-biriga mos keladi. Hatto ma'lumot beruvchi nutqni talab qiladigan holatlarda ham (tushunishni kuchaytiradi), ko'pincha ishontiruvchi va qiziqarli elementlar mavjud. Birinchidan, notiq tinglovchilarni taqdim etilgan faktlar to'g'riligiga ishontirishga harakat qilganligi sababli, barcha ma'lumotli nutqlar isbotli tarkibiy qismga ega. Ikkinchidan, yaxshi yozilgan nutq, jozibali

illyustratsiyalar, rang-barang til, g'ayrioddiy faktlar va kuchli vizual tasvirlar orqali hatto eng quruq, texnik ma'lumotni ham qiziqarli qilishi mumkin.

Shunga qaramay, ma'lumot beruvchi nutqni rejalashtirishda sizning asosiy maqsadingiz tinglovchilarning bilimini xolis tarzda oshirish bo'ladi. Misol uchun, afsonalar haqidagi nutqda sizning aniq maqsadingiz quyidagicha bo'lishi mumkin: "Mening nutqim oxirida tinglovchilarim afsona nima ekanligini, afsonalar qanday tarqalishini va bugungi holatini to'liq tushunishadi". Nutqingiz ma'lumot beruvchi yoki ishonarli ekanligini aniqlashda siz tanlagan mavzu materialga bo'lgan yondashuvingiz kabi muhim. Tasavvur qila olasizmi, qanday qilib sehr kuchi, ildiz hujayralarini tadqiq qilish, federal kamomad yoki gibril avtomobillar haqida ma'lumot berish yoki ishontirish uchun nutqlar yozilishi mumkin? Ma'lumot beruvchi nutqlar imkon qadar xolis, adolatli va sodda bo'lishi kerak. Siz tinglovchilaringizdan chora ko'rishni yoki ularning fikrini o'zgartirishga ishontirmayapsiz. Siz ularga biror narsa o'rgatyapsiz va ularga ma'lumot bilan nima qilishni o'zlari hal qilishlariga imkon berasiz. Nutqingizni yozayotganda, materialning barcha tomonlarini taqdim eting va barcha bir-biriga bog'liq bo'lmagan faktlarni, shaxsiy fikrlarni va his-tuyg'ularni olib tashlashga harakat qiling.

Obyektiv yondashuv ham notiqning ishonchni oshiradi. Ishonchlilik tinglovchilarning notiq mavzu bo'yicha gapirishga yaxshi tayyorlangan va malakali ekanligini anglatadi. Ishonchning ikki turi mavjud:

- nutq so'zlashdan oldin sizdagi obro'-e'tibor (oldingi ishonch)
- nutqingiz davomida sizga nisbatan uyg'ongan ishonchlilik (keyingi ishonch).

Ko'p hollarda tinglovchilar notiq haqida oldindan ma'lumotga ega bo'lmaydilar, shuning uchun ular nutqdagi isbot va dalillarning sifati haqida xulosa chiqaradilar. Bundan tashqari, ular notiqning ishonchli ma'lumot manbai ekanligini aniqlash uchun unga kuzatishadi va tinglashadi.

Auditoriya a'zolarida obro'si yoki ishonchligi yo'q deb hisoblagan notiqni tinglash uchun hech qanday motivatsiya yo'q – notiqni masxara qilishdan tashqari.

Ushbu tuzoqqa duch kelmaslik uchun notiq sifatida o'zingizning ishonchingizni oshirishning kamida uchta usuli mavjud:

- tajribangizni o'rnatish,
- tinglovchilaringizga sizni tanib olishiga yordam berish,
- haqiqatni gapirayotganingizni ko'rsatish.

Nima haqida gapirayotganini bilmaydigan, biz bilan aloqasi yo'q yoki insofsizdek taassurot qoldiradigan so'zlovchilarni tinglamasligimiz sog'lom fikrga o'xshaydi. Biroq, ma'lumot beruvchi nutqlarni rejalashtirishda biz mavzuga shunchalik yopishib olamizki, ishonchlik elementlarini oson unutimiz. Shuni yodda tutingki, o'rgatish uchun biz birinchi navbatda tomoshabinlar e'tiboriga loyiq ekanligimizni ko'rsatishimiz kerak.

Ishontiruvchi nutq o'zi nima? Bu nutq ma'ruzachi tinglovchilarga ma'lum bir e'tiqodni kuchaytirish, uni o'zgartirish yoki tinglovchilarni harakatga undash uchun mo'ljallangan xabarni yetkazish jarayoni. Ishontirish bilan bog'liq maqsadlarga erishishda yordam beradigan maxsus tamoyillarni ko'rib chiqamiz. Ushbu tamoyillar nutqingizni yanada samarali qilishga yordam beradi.

1-tamoyil. Tinglovchilar nimaga ishonishlari yoki nima qilishlari kerakligini aniq va lo'nda ifoda eta olsangiz, tinglovchilar tushungan narsalariga ishonishni afzal ko'rishadi.

2-tamoyil. Agar siz maqsadlaringizni shakllantirsangiz va tinglovchilaringiz ishonadigan tushunchalari – e'tiqodlariga e'tibor qaratsangiz, tinglovchilaringizni ishontira olasiz.

E'tiqod – bu ma'lum bir shaxs, obyekt bilan bog'liq bo'lgan ijobiy yoki salbiy, ustun tushuncha yoki barqaror his-tuyg'ular. So'z bilan aytganda, odamlar odatda o'z munosabatlarini fikr shaklida ifoda etadilar. Shunday qilib, "menimcha, yaxshi jismoniy holat hamma narsadan muhim" iborasi insonning yaxshi jismoniy holatini saqlashga bo'lgan ijobiy munosabatini aks ettiruvchi tushunchasidir.

Avvalo, tinglovchilar qanday pozitsiyalarni ekanligini aniqlashingiz kerak. Auditoriyangiz haqida qancha ko'p ma'lumot to'plasangiz va auditoriyani tahlil qilish bo'yicha tajribangiz qancha ko'p bo'lsa, to'g'ri baholash imkoniyati shunchalik yuqori bo'ladi.

Tomoshabinlarning munosabati (fikr sifatida ifodalangan) doimiy miqyosda, faqat qo'llab-

quvvatlovchidan raqiblikgacha taqsimlanishi mumkin. Garchi barcha auditoriyalarda ba'zi fikrlar ushbu taqsimotning deyarli har qanday nuqtasida joylashgan bo'lishi mumkin bo'lsa-da, umuman olganda, tomoshabinlarning fikrlari odatda ma'lum bir nuqta atrofida to'planadi. Ushbu konsratsiya nuqtasi tinglovchilarning mavzuga nisbatan umumlashtirilgan munosabatini anglatadi.

Siz tinglovchilaringizni ijobiy nuqtayi nazarga ega (tinglovchilar allaqachon ma'lum bir nuqtai nazarga ega), aniq fikrga ega bo'lmagan (tinglovchilar xabardor emas, neytral yoki befarq) yoki salbiy nuqtayi nazarga ega (tinglovchilar qarama-qarshi nuqtayi nazarga ega) kabi turlarga ajratishingiz mumkin. Shunda siz nutqingizni ushbu tasnifga moslashtirish strategiyasini ishlab chiqishingiz oson bo'ladi.

Fikrlarning uzluksizligini quyidagicha ta'riflash mumkin:

- Dushman;
- Raqib;
- O'rtacha kelishmovchilikka ega;
- Na rozi, na qarshi;
- O'rtacha qo'llab-quvvatlovchi;
- Qo'llab-quvvatlovchi;
- To'liq qo'llab-quvvatlovchi.

Tomoshabinlarning ijobiy munosabati. Agar siz tinglovchilar allaqachon sizning fikringizni qo'llab-quvvatlayotganiga ishonsangiz, unda aniq harakatlar dasturiga e'tibor qaratib, maqsadningizni qayta ko'rib chiqishni o'ylab ko'rishingiz kerak.

Muayyan fikrning yo'qligi. Agar tinglovchilar sizning mavzuangiz bo'yicha aniq fikrga ega emas deb hisoblasangiz, siz o'zingizning fikringizni shakllantirishni yoki ularni harakat qilishga ishontirishni maqsad qilib qo'yishingiz mumkin:

Agar siz tinglovchilar xabardor bo'lmaganligi sababli hech qanday fikrga ega emas deb hisoblasangiz, unda sizning strategiyangiz tinglovchilarga ma'lum bir fikr uchun tashviqot yoki harakatga undash uchun ishonch bilan murojaat qilishdan oldin ularni tushunishga yordam beradigan yetarli ma'lumot berish bo'lishi kerak.

Agar siz tinglovchilarni mavzuga nisbatan neytral deb hisoblasangiz, unda tinglovchilar obyektiv fikr yuritishga va oqilona dalillarni idrok etishga qodir. Bunday holda, sizning strategiyangiz eng yaxshi dalillarni taqdim etishni va ularni topishingiz mumkin bo'lgan eng yaxshi ma'lumotlar bilan mustahkamlashni o'z ichiga olishi kerak. Agar sizning strategiyangiz to'g'ri bo'lsa, siz muvaffaqiyatga erishish uchun yuqori imkoniyatga egasiz.

Agar siz tinglovchilarning hech qanday fikri yo'q deb hisoblasangiz, chunki mavzuga ular befarq bo'lsa, sizning barcha harakatlaringiz ularni ushbu befarq pozitsiyadan olib chiqishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bunday auditoriya bilan gaplashayotganda

ma'lumotlarga e'tibor qaratish o'rniga, motivatsiyaga e'tibor qaratganingiz ma'qul. Siz o'zingizning dalillaringizning mantiqiy zanjirini qo'llab — quvvatlash uchun kamroq materialdan foydalanishingiz kerak va ko'proq to'g'ridan-to'g'ri tinglovchilarning ehtiyojlariga murojaat qilishingiz kerak.

Tomoshabinlarning salbiy munosabati. Agar tinglovchilar sizning fikringizga rozi emas deb hisoblasangiz, sizning strategiyangiz ularning munosabati o'rtacha salbiy yoki umuman dushman ekanligiga bog'liq bo'ladi:

Agar siz tinglovchilar sizning taklifingizga nisbatan mo'tadil kelishmovchilik holatida deb hisoblasangiz, ushbu dalillarning og'irligi ularni sizning tarafingizga o'tishiga olib keladi deb umid qilib, ularga to'g'ridan-to'g'ri dalillarni keltirishingiz mumkin. Salbiy fikrlaydigan auditoriya bilan gaplashayotganda, materialni obyektiv ravishda taqdim etishga va ishni yetarlicha aniq taqdim etishga e'tibor bering, shunda siz bilan biroz

rozi bo'lmagan odamlar sizning taklifingiz haqida o'ylashni xohlashadi va umuman rozi bo'lmaganlar hech bo'lmaganda sizning nuqtayi nazarangizni tushunishadi.

Agar siz tinglovchilaringiz sizning maqsadingizga dushman deb hisoblasangiz, mavzuni uzoqdan boshlash yoki o'zingizga unchalik g'ayrioddiy bo'lmagan maqsadni qo'yish haqida o'ylash yaxshiroqdir. Faqat bitta nutq natijasida munosabatlarda yoki xatti-harakatlarda to'liq o'zgarishni kutish, ehtimol, ma'nosizdir. Agar siz ozgina munosabatni o'zgartirishga chaqiradigan kamtarona taklif bilan chiqsangiz, tinglovchilaringizni hech bo'lmaganda sizning xabaringiz qandaydir qiymatga ega bo'lishi mumkinligi haqida o'ylashga majbur qilishingiz mumkin. Keyinchalik, g'oya allaqachon "ildiz otgan" bo'lsa, siz ularni yanada oldinga siljishga taklif qilishingiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bekmirzayev N. Notiqning yon daftari. – T.: "Fan", 2007
2. Ortiqov A. "Nutq madaniyati va notqlik san'ati". — T., 2002.
3. Sitseron. "Notqlik san'ati haqida ikki risola". – T.: "Yangi asr avlodi", 2007.

Ma'mura MURADOVA,
 SHDPI o'qituvchisi

XULQ-ATVOR GENETIKASI – KECHA, BUGUN VA KELAJAK

Annotatsiya: maqolada xulq-atvor genetikasining hayvonlar xulq-atvori va insonning psixologik xususiyatlarining o'zgaruvchanligidagi genetik o'zgarishlarni o'rganadigan bilim sohasi ekanligi qayd etiladi. Shuningdek, xulq-atvor genetikasining asosiy vazifasi – xulq-atvor xususiyatlarida irsiy omillarning rolini aniqlash xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *xulq-atvor, insoniy psixologik xususiyatlar, kognitiv jarayon, tadqiqot, kelajak.*

Аннотация: в статье отмечается, что поведенческая генетика — область знаний, изучающая генетические изменения изменчивости поведения животных и психологических особенностей человека. Также основной задачей поведенческой генетики является определение роли генетических факторов в поведенческих особенностях.

Ключевые слова: *поведение, психологические особенности человека, познавательный процесс, исследование, будущее.*

Abstract: the article notes that behavioral genetics is a field of knowledge that studies genetic changes in the variability of animal behavior and human psychological characteristics. Also, the main task of behavioral genetics is to determine the role of genetic factors in behavioral characteristics.

Key words: *behavior, human psychological characteristics, cognitive process, research, future.*

Ma'lumki, ilmiy fanning mavjudligi odatda ushbu sohadagi birinchi tadqiqotlarning paydo bo'lishidan boshlab hisoblanadi. 1913-yilda amerikalik tadqiqotchi Ada Yerkes tomonidan tasvirlangan kalamushlarda g'azab, qo'rquv va vahshiylik majmuasining irsiylanishi (*Rattus norvegicus*) xatti-harakatlar genetikasi bo'yicha birinchi eksperimental ishni tajribada o'tkazdi. Xulq-atvor genetikasining o'zini o'zi belgilashning boshlanishi odatda amerikalik olimlar J.Fuller va V.Tompson tomonidan "Xulq-atvor genetikasi" (Fuller, Tompson, 1960) tomonidan birinchi umumlashtiruvchi

monografiya nashr ettirdi. Kitob turli ixtisoslikdagi biologlar orasida katta muvaffaqiyatga erishdi. Ikkala muallif ham ta'lim bo'yicha genetik bo'lmagan, ammo ular xulq-atvorni o'rganishni boshlaganlarida, ular genetik yondashuvning muhimligini aniq tushunishgan. Murakkab genetik mulohazaga murojaat qilmasdan, ular xulq-atvorni shakllantirishda genotipning rolini baholash zarurligini ishonchli tarzda ko'rsatishga muvaffaq bo'lishdi va buning uchun eksperimental dalillarni keltirishdi. Ushbu yo'nalishni rivojlantirish uchun muhim bo'lgan yana bir ish J. Skott va J.

Fullerning itlarning xatti-harakatlari genetikasi bo'yicha monografiyasi edi. Xulq-atvorni tahlil qilishda genetik yondashuvni shakllantirishda AQShning Meyn shtatidagi Jekson laboratoriyasi deb ataladigan maxsus genetik laboratoriya xodimlarining ishi muhim rol o'ynadi. Bu muassasa 1929-yilda genetik K. Little tomonidan asos solingan dunyoga mashhur markazdir. U sichqonlarning tug'ma va tanlangan shtammlarini qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu to'plamda miya tuzilishi va xatti-harakatlariga ta'sir qiluvchi o'nlab mutatsiyalar qayd etiladi. Jekson laboratoriyasi tadqiqotchilarga zarur bo'lgan genotipga ega bo'lgan hayvonlarning istalgan sonini taqdim etadi. Bu imkoniyat turli mamlakatlar olimlariga nafaqat ko'plab chiziqlarni tekshirish va xatti-harakatlar va neyrokimyoviy xususiyatlardagi interline farqlarini aniqlash imkonini berdi, balki miqdoriy belgilar genetikasini (rekombinant inbred usuli) o'rganishga yangi yondashuvlarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Darvoqe, xulq-atvor xususiyatlarini birinchi bo'lib genetik jihatdan o'rganish M.P.Sadovnikova-Koltsovaning 20-yillarda amalga oshirilgan ishi bo'ldi. Unda eksperimental tizimda yugurish tezligi uchun kalamushlarni tanlashga harakat qilindi. I.P.Pavlov hayotining so'nggi yillarida Koltushida oliy nerv faoliyati genetikasi laboratoriyasi tashkil etilgan bo'lib, uning vazifasi itlarda shartli refleks faolligining individual xususiyatlarining genetik asoslarini o'rganishdan iborat edi.

Xulq-atvorni o'rganishga genetik yondashuvlar bizni qiziqtiradigan belgining o'zgaruvchanligi bilan nima bog'liqligini, hayvonlarning ma'lum bir guruhining genotiplarining o'zgaruvchanligi bilan qanchalik bog'liqligini aniqlashga imkon beradi. Bunday tadqiqotlarda genetik modellar – ma'lum fiziologik yoki biokimyoviy xususiyatlarga ega bo'lgan, ko'pincha bir xil genotipli shaxslardan tashkil topgan hayvonlar guruhlari - genetik modellardan foydalanish muhim rol o'ynaydi. Masalan, chiziqli hayvonlardan foydalaniladi - inbred va tanlangan chiziqlar. Inbred liniyalar (sichqonlar yoki kalamushlar) o'rtasidagi farqlar ma'lum xulq-atvor xususiyatlarida uchraydi. Bunday o'zaro farqlarni aniqlash, odatda, tadqiqotning birinchi bosqichidir. Xulq-atvor genetikasi bo'yicha klassik tadqiqotlarning navbatdagi bosqichi – bu belgining qarama-qarshi qiymatlarini aniqlagan chiziqlardan hayvonlarni kesib o'tish, duragaylar hosil qilish va ikkinchi va keyingi avlodlarda belgilarning ajratilishini tahlil qilishdan iborat. Shu bilan birga, xulq-atvor genetikasida har qanday xulq-atvor xususiyatining yuqori va past qiymatlari uchun sun'iy tanlash yo'li bilan tuzilgan chiziqlar qo'llaniladi. Bunday chiziqlarni ko'paytirishdan keyin ular ko'pincha kesishadi va nasldagi xususiyatlarning namoyon bo'lishi tahlil qilinadi.

Bunday klassik genetik tahlil ma'lumotlari, shuningdek, o'rganilayotgan xulq-atvor xususiyatining

o'zgaruvchanligiga asosiy hissa qo'shadigan genlar soni haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Birinchi avlod duragaylarining xulq-atvorini sinab ko'rish qiziqish belgisining dominant, oraliq yoki retsessiv merosi haqida ma'lumot beradi. Agar ma'lum bir belgi bir, ikki yoki uchta gen bilan aniqlansa, uni ikkinchi avlod duragaylarida va teskari avlodlarda tarqalish sxemasi bilan aniqlash mumkin. Agar belgini aniqlashda ko'proq genlar ishtirok etsa, u holda miqdoriy belgilar genetikasi usullaridan foydalanish kerak. Fan taraqqiyotining hozirgi bosqichi xulq-atvor genetikasini yangi usullar bilan boyitdi. Bularga quyidagilar kiradi:

- rekombinant inbred liniyalar usuli (Nesbitt, 1992);
- QTL — miqdoriy belgilar lokalizatsiyasi usuli (Le Roy, 1999);
- mozaik va kimerik hayvonlarni yaratish va o'rganish (Mc Laren, 1979);
- transgen organizmlar va nokaut hayvonlarni yaratish (Jones, Mormede, 1999).

Neyrogenetika va xulq-atvor genetikasi asosan *Drosophila melanogaster* ustida ishlash natijasida shakllangan. Bu asab tizimining rivojlanish jarayonini genetik jihatdan o'rganish, drozofilalar va sutemizuvchilarda o'xshash bo'lgan asab tizimiga xos bo'lgan genlar va gen komplekslarini aniqlashga ham tegishlidir.



Sichqoncha (*Mus musculus*) ham neyrogenetika va xulq-atvor genetikasi uchun juda muhim eksperimental obyekt hisoblanadi. Inbred va tanlangan turli shtammlarning

yordamida xulq-atvorning irsiy o'zgarishlari va ba'zan juda murakkab xulq-atvor belgilarining miyaning ayrim qismlari tuzilishidagi o'zgaruvchanlik bilan bog'liqligi o'rganildi. Sichqonlar o'quv jarayonining neyrobiologik asoslarini o'rganish uchun ham keng qo'llaniladi va ma'lum genlar o'chirilgan (nokaut sichqonlari) yoki o'zgartirilgan (sun'iy mutantlar) sichqonlarning xatti-harakati va o'rganish qobiliyatini o'rganish tobora muhim rol o'ynay boshladi. Bunday hayvonlarni xulq-atvor genetikasi usullaridan foydalangan holda o'rganish, shuningdek, odamlarda bir qator nevrologik va ruhiy kasalliklarni (epilepsiya, alkogolizm, depressiv holatlar, Alydgeimer kasalligi va boshqalar) modellashtirishga imkon beradi.

Kalamushlar (*Rattus norvegicus*) ham ko'pincha xulq-atvor genetikasi uchun mavzu sifatida ishlatiladi. Sichqoncha miyasi kattaroq va jarrohlik

manipulyatsiyasi va elektrofiziologik tadqiqotlar uchun qulayroqdir. Shu bilan birga, genetik tadqiqotlar uchun zarur bo'lgan miqdorda kalamushlarni ko'paytirish juda qimmatga tushadi. Buning natijasida, shuningdek, sichqonlar genomi haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lganligi sababli, kalamushlarning xatti-harakatlarining genetik tadqiqotlari unchalik ko'p emas. Shunga qaramay, ular ustida ko'plab tajribalar amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. И. В. Равич-Щербо, Т. М. Марютина, Е. Л. Григоренко. Психогенетика, Учебник. Под ред. И. В. Равич-Щербо — М.; Аспект Пресс, 2000,- 447 с.
2. Plomin, Robert. "Behaviour genetics". Encyclopedia Britannica, 11 Feb. 2019.
3. Ostonaqulov G.E., Xamdamov I. X., Ergashev I.T., Shermuxamedov K.Q. Biologiya va genetika. Darslik. — T.: 2014. 332-bet.

Zoxidjon NARZIYEV,
Oriental universiteti Ta'lim menejmenti
magistratura mutaxassisligi talabasi

TA'LIM MUASSASASIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH MODELLARI

Annotatsiya: mazkur maqola ta'lim muassasalarida xodimlarni boshqarishning asosiy modellarini ilmiy tadqiq qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot shuni ta'kidlashga imkon beradiki, xodimlarni samarali boshqarish muammosi ta'lim muassasalarining eng dolzarb muammolari sirasiga kiradi. Uning dolzarbligi to'plangan mahalliy va xorijiy tajribani o'rganishni taqozo etadi.

Kalit so'zlar: *inson resurslari, personal, ta'lim muassasalari, strategiya, model.*

Abstract: this article is devoted to the scientific study of the basic models of personnel management in educational institutions. The study allows us to emphasize that the problem of effective personnel management is one of the most pressing issues of educational institutions. Its relevance requires the study of accumulated domestic and foreign experience.

Keywords: *human resources, personnel, educational institutions, strategy, model.*

Аннотация: данная статья посвящена научному исследованию основных моделей управления персоналом в образовательных учреждениях. Исследование позволяет подчеркнуть, что проблема эффективного управления сотрудниками является одной из наиболее актуальных проблем образовательных учреждений. Его актуальность требует изучения накопленного отечественного и зарубежного опыта.

Ключевые слова: *человеческие ресурсы, персонал, учебные заведения, стратегия, модель.*

Ta'lim muassasalarida sifatli ta'limni berish uchun turli ta'lim vosita va metodlaridan foydalanadi. Umumiy qilib aytganda resurslar uchta asosiy guruhga bo'linadi: natural yoki tabiiy resurslar (fransuz iqtisodchisi J.B.Seyning ta'rifi bo'yicha: yer), moddiy resurslar (kapital) va inson resurslaridan iborat bo'lib, ularni ishlab chiqarish omillari deb ham atash mumkin. Personal (inson resurslari) termini ta'lim muassasasi mehnat jamoasining tarkibiy qismlarini birlashtiradi.

Inson resurslarini boshqarishda bir qator modellar bo'lib, bu boshqarish usullari kishilarni, ta'lim muassasasini obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish qonunlari talablarini bajarishga undaydi. Ular aniq bir usul, uslub, maqsadga erishish yo'lini ifodalaydi. Demak, Inson resurslarini boshqaruv modeli – bu ishchi va xodimlarga umuman boshqarish obyektiga qo'yilgan maqsadga erishish

jarayonida ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni maxsus izlanish usullari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Tizim modeli boshqaruv muammolarini yechishda ishlatiladi va tizimni butunligiga asoslanadi. Taraqqiy etgan davlatlarda: tizimli majmual, tizimli tarkib, tizimli funksional, tizimli kommunikatsion va boshqa ko'rinishlari mavjud.

2. Izlanishning majmual model voqealarni va ularni bir-biri bilan bo'lgan aloqalarini faqat ushbu fan modeli bilan emas, balki boshqa bir xil hodisalarni o'rganuvchi fanlar bilan o'rganadi.

3. Izlanishning tarkibiy modeli – bu murakkab hodisalarni bo'laklarga ajratishdan iborat.

4. Vaziyatli yondashish – bu boshqaruv faoliyatini maqbul usullarini ichki va tashqi sharoitga qarab belgilash.

5. Integratsion yondashish – bu izlanish modeli

boshqa usullar ko'rsatkichlarni hisobga olish asosida boshqarish hisoblanadi.

6. Modellashtirish boshqariluvchi obyektning boshqarish turli sxema, grafik va chizmalar, xomaki materiallar tayyorlash yordamida boshqarish modeli.

7. Matematik yondashuv – optimal qaror qabul qilish maqsadida matematik uslublar va kompyuterlar keng miqyosda qo'llanadi.

8. Kuzatish modeli – bu boshqaruv obyekti to'g'risidagi ma'lumotni rejali, ilmiy, uyushtirilgan asosda to'plash modeli

9. Eksperiment – boshqarish asosida boshqariluvchi obyektga nisbatan namunaviy tajribadan o'tgan usullarni qo'llash.

Undan tashqari, inson resurslarini boshqaruvning eng asosiy bilish uslubi – dialektik uslub bo'lib, u boshqaruvga o'rganilayotgan ijtimoiy hodisalarning mohiyatini ochishga yordam beradi. Boshqarish usullarini ta'sir etishning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra: ma'muriy-tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy psixologik va huquqiy shakllarga ajratish mumkin.

Boshqaruv mahorati uning barcha uslublarini egallash, ular to'g'ri baholab qo'llash, har bir aniq vaziyatda eng samaralisini topish qobiliyatiga ega bo'lishidan iboratdir.

Inson resurslarini boshqarish ildizlari jamiyatning uzoq tarixiga borib taqaladi. Sanasi eramizdan avvalgi uch minginchi yillarni ko'rsatuvchi loydan qilingan taxtachalarda, qadimgi Shumeriyaning savdo-sotiqqa oid bitimlari va qonunlari to'g'risida ma'lumotlar yozilgan, bu esa, u yerda boshqaruv amaliyoti mavjud bo'lganligining aniq isbotidir. Arxeologik qazilmalarga qarab, bundan ham qadimroq tashkilotlar bo'lganligini bilsa bo'ladi: hatto tarixdan ilgari insonlar tashkillangan guruhlar bo'lib yashaganlar. Qabila jamoalariga birlashgan odamzodning dastlabki vakillari o'zlarining ancha cheklangan jismoniy va aqliy resurslaridan foydalanish muammolarini hal qilib borganlar, mehnat taqsimoti, mehnat qilish sabablari va intizom masalalariga duch kelganlar. O'rta asrlarga murojaat qiladigan bo'lsak, yer egalari o'z yerlarida qo'shimcha ishchi kuchidan foydalanib daromad topishgan.

Buyuk davlatchilikka asos solgan sohibqiron Amir Temur o'z tuzuklarida: «Tajribamda ko'rilgankim, ishbilarmon, mardlik va shijoat soxibi, azmi qat'iy, tadbirkor va xushyor bir kishi mingminglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir. Chunki tajribali bir kishi ming kishiga ish buyuradi», deb yozgan edi. Lekin shunday bo'lsada, boshqaruv faoliyatning mustaqil sohasi deb, faqatgina yigirmanchi asrda tan olingan.

Inson resurslarini boshqarish korxonalar rahbarining, ko'pincha sog'lom fikr va tajriba asosida o'z xodimlariga nisbatan qaror qabul qiladigan korxonalar egasi faoliyatining yo'nalishlaridan biri. Shuningdek,

mehnatni rag'batlantirish, kasb ta'limi (shogirdlik tizimlari) haqida ham misollar topiladi. O'tgan asrdagi sanoat inqilobi iqtisodiy korxonalarining xarakterini tubdan o'zgartirib yubordi, ustaxonalar o'rniga fabrikalarning vujudga kelishi boshqaruv ilmiga ehtiyojni uyg'otdi.

Bugungi kunda boshqaruv ilmining model va usullari quyidagi masalalarni hal qilishda ishlatiladi: shaharlarda transport oqimlarini boshqarish va aeroportlarda xarakat jadvalini optimizatsiyalashtirishda, universitetlarda sinf va auditoriyalar ish jadvallarini tuzishda, supermarket va univermaglarda g'amlangan mollarni boshqarishda, mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarishda, turli xil mahsulotlarning reklamasiga xarajatlarni taqsimlashda, moddiy ta'minlashni rejalashtirishda, zavodda turli xil mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun asbob-uskunalar va mehnat resurslarini taqsimlashda, mavsumga beysbol bo'yicha oliy liganing o'yin jadvalini tuzishda va h.k.

Inson resurslarini boshqaruv ilmining markaziy joyi "tashkilot rahbarlarini tashkilotni bir butun holdagi narsa sifatida uning manfaatlari uchun tashkilot tarkibiy qismlarining o'zaro munosabatlari bilan bog'liq muammolarni hal qilishda ilmiy asos bilan ta'minlashdan" iborat. Bu hamma tashkilotlar uchun muhimdir, lekin bu tamoyilning yirik tashkilotlarda qo'llash ixtisoslashtirishning yuqori darajasi tufayli qiyin bo'lishi mumkin.

Cherchmen, Akoff va Arnofflarning tasdiqlashicha: "Tashkilotda har bir funksional birlik (bo'linma, bo'lim yoki sektor) umumiy ishning bir qismini bajarishga majbur. Shu har bir qism tashkilotning umumiy maqsadlariga erishish uchun zarurdir. Biroq, mehnatning bunday taqsimlanishining natijasi har bir funksional bo'linma o'ziga tegishli bo'lgan maqsadlarini ishlab chiqarishdan iborat. Masalan, ishlab chiqarish bo'limi odatda ishlab chiqarish chiqimlarini kamaytirish va ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish bilan shug'ullanadi. Marketing bo'limi sotish hajmining birligi chiqimlarini minimumga keltirish, va u hajmni maksimumga chiqarishga harakat qiladi. Moliya bo'limi tashkilotning sarmoya yo'naltirish siyosatini optimizatsiya qilishga urinadi. Kadrlar bo'limi yaxshi ishchilarni minimal chiqimlarda yollash va ularni tashkilotda ushlab qolishga bor kuchini sarflaydi. Bu maqsadlar har doim ham mohiyati bo'yicha bir-biri bilan kelishmasdan ko'pincha bir-biriga zid bo'ladi".

Qaror qabul qilishni modellashtirish va munosib usullar bo'yicha idora xizmatlari mutaxassislari maqsadlar farq qilishi munosabati bilan mumkin bo'lgan murosallarni baholashga xarakat qilib qarama-qarshi maqsadlarning balansini ta'minlab beradigan alternativ qarorlarni aniqlamoqdalar. Boshqaruv ilmi nuqtayi nazaridan yondashuvni tushunish bizga

idora mutaxassislari bilan unumli muomala qilishga va tashkilotning muammolarining unumli yechimini aniq ifoda qilishda ular bilan ishlashga yordam beradi.

Bugungi kunda “Inson resurslarini boshqarish”, “boshqaruv ilmi”, “qabul qilish ilmi”, “tizimli tahlil” kabi bir-birini almashtiradigan tushunchalarni uchratish mumkin. Boshqaruv ilmining yondashish sifatida o‘ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

- ilmiy usulning qo‘llanilishi;
- tizimli yondashish;
- modellar ishlatilishi.

Agar ta‘lim muassasalarida muvaffaqiyatga erishmoqchi bo‘lsa, boshqaruv funksiyalari bajarilishi shart.

Boshqaruvga birinchi qiziqish 1911-yilda kuzatilgan. Xuddi o‘sha paytda Frederik U. Teylor o‘zining an’anaviy ravishda boshqaruvni ilm va tadqiqotning mustaqil sohasi deb tan olinishining boshlanishi deb hisoblangan «Ilmiy boshqaruvning tamoyillari» degan kitobini nashr etdi. Albatta, tashkilot maqsadlariga unumli ravishda erishish uchun uni tizimlashtirilgan holda boshqarish tushunchasi darhol paydo bo‘lmagan. Bu konsepsiya uzoq muddat mobaynida, XIX asrning o‘rtalaridan boshlab asrimizning 20-yillarigacha rivojlanib kelgan.

Boshqaruvga dastlabki qiziqishning asosiy kuchi bo‘lib Angliyada boshlangan sanoat revolyutsiyasi bo‘lgan. Ammo boshqaruvning o‘zi tashkilotning rivojlanishiga va muvaffaqiyatiga jiddiy hissa qo‘shadi degan g‘oya ilk bor Amerikada paydo bo‘ldi. Bir necha omillar zamonaviy boshqaruvning vatani bo‘lib nimaga aynan Amerika bo‘lganini tushunishga yordam beradi. Hatto XX asr boshida Qo‘shma Shtatlar inson o‘zining kelib chiqishi, millati bilan bog‘liq bo‘lgan qiyinchiliklarni o‘zining omilkorligini namoyon qilib yengib chiqqan amaldagi yagona mamlakat edi. O‘z taqdirini yaxshilashga intilgan millionlab yevropaliklar XIX asrda Amerikaga ko‘chib kelishdi, bu esa mehnatsevar insonlardan iborat bo‘lgan g‘oyat katta ish kuchi bozorini tashkil etdi. Qo‘shma Shtatlar paydo bo‘lganidan boshlab ta‘lim olishni xohlagan barcha insonlar uchun ta‘lim g‘oyasini jiddiy ravishda qo‘llab kelgan. Ta‘lim biznesda har xil rollarni, shu jumladan, boshqaruvni intellektuallik bilan bajarishga qobiliyatli insonlar sonining o‘shishiga yordam berdi. Qurilishi XIX asr oxirida tugallangan transkontinental temir yo‘llar Amerikani dunyodagi eng yirik yagona bozorga aylantirdi. Qiziq, o‘sha paytda biznesda davlat boshqaruvi deyarli mavjud emas edi. Aralashmaslik o‘z biznesi rivojining boshlarida muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlarga monopolistlarga aylanishlariga imkon berar edi. Bu va boshqa omillar yirik tarmoqlar, yirik korxonalarining tashkil topishini vujudga keltirdi,

buning xammasi boshqaruvning rasmiyatchilik usullarini talab qilardi.

Boshqaruv uslubi - bu ma‘lum bir rahbarning boshqaruv jarayonida qo‘llovchi o‘ziga xos va o‘zgarmas usul va harakatlari yig‘indisidir. Mutlaqo o‘xshash kishilar bo‘lmagani kabi vazifalar ko‘pligi sababli mutlaqo bir xil boshqaruv uslubi ham bo‘lmaydi. Rahbar faqat o‘ziga xos xususiyat va sifatlar vositasida faqat o‘ziga xos, mansub uslubda ish yuritadi. Bu ma‘noda uslub rahbarni shaxs sifatidagi xususiyatlarini, balki faoliyati xususiyatlarini ifodalaydi. Kishilarni boshqarar ekan, rahbar jamoaning natijaviy maqsadini ko‘ra biladi va uni shu maqsad sari yo‘naltiradi. Rahbar ishning mohiyatiga tushungan va uni chuqur o‘rgangan holda mutaxassislarni faoliyatini mohirona birlashtirish va yo‘naltirishi kerak.

Ishlab chiqarishni boshqarish uslubi boshqaruv apparati, barcha rahbar va mutaxassislarning katta va murakkab faoliyatini aks ettiradi. Boshqaruvning har bir vazifasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega va shu sababli unga mos usullarni talab etadi. Nazariy jihatdan boshqaruv apparatining umumiy uslubi alohida boshqaruv tashkilotlari uslublari yig‘indisidan iborat bo‘lishi kerak. Lekin amalda alohida tashkilotlarning turli uslublari o‘zaro birlashib, bir-birini boyitadi va natijada, butun boshqaruv apparatiga xos bo‘lgan o‘ziga xos boshqaruv uslubi vujudga keladi.

Zamonaviy rahbarlar yuqori malakaga ega bo‘lishi, istiqbolni ko‘ra olishi va samarali xo‘jalik yuritishga imkon yaratuvchi iqtisodiy fikr yuritish, shaxsiy intizomga ega bo‘lish, topshirilgan vazifaga javobgarlik hissi bilan yondashish, g‘oyalarni to‘plash, chiqishimli va ishbilarmon bo‘lishi kerak. Rahbar doimo xotirjam va o‘ziga ishongan bo‘lishi, tashabbuskorlik ko‘rsatish, tavakkalchik bo‘lishi kerak. Javobgarlik oldida qo‘rqish – kuchsizlik belgisidir. Javobgarlikdan qo‘rqqan kishi rahbar bo‘lolmaydi. Rahbar qo‘l ostidagilar bilan shunday munosabatda bo‘lishi kerakki, toki ular uning oldiga maslahat uchun bemaol kirsinlar.

Rahbar o‘z qo‘l ostidagilarini yaxshi bilishi, ular bilan suhbatlashishi, ular qobiliyati, bilimi, malakasi egallagan lavozimiga mosligini va aksincha, ular bilim, qobiliyat, malaka va axloqiy sifatlaridan foydalanish yetarli ekanligini aniqlash lozim. Obro‘ga ega bo‘lmay muvaffaqiyatli rahbarlik qilish mumkin emas, lekin obro‘ga kuch bilan emas, ish bilan, qanday ishlashni o‘z misolida ko‘rsatish bilan, uni qanday bajarish haqida so‘zlash bilan, faqat talabchanlik va qat‘iylik bilan emas, bilim va ko‘nikma orqali erishish mumkin. Boshqaruv san‘atiga ega bo‘lmagan rahbar qabul qilingan qarorlar samarali bo‘lishini ta‘minlay olmaydi. Lekin inson rahbar bo‘lib tug‘ilmaydi, balki ish jarayonida shakllanadi.

Rahbar ish uslubi korxonada faoliyati yakuniy

natijalariga ishlab chiqarishni boshqarish vazifalari vositasida ta'sir ko'rsatadi. Ularning har biri boshqa vazifalar bilan uzviy bog'liq holda ta'sir qiladi va uslubning foyda hamda korxonada faoliyatini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarga ta'sir etishning yagona mexanizmi tarkibiga kiruvchi bog'lovchi bo'g'in vazifasini bajaradi. Uslub bilan ishlab chiqarish natijalari o'zaro aloqasi tizimi rahbarlar bilim va ko'nikmalari, boshqaruv jarayoni texnologiyasi, mehnat intizomi vositasida amalga oshadi va rahbar tomonidan qo'llaniluvchi boshqaruv usuli bilan bog'liq bo'ladi.

Respublikada kadrlar salohiyatini innovatsion rivojlantirish imkoniyatlarini baholash shuni qayd etishga imkon beradiki, bugungi kunda innovatsion rivojlantirish strategiya va dasturlari jahon amaliyotida uning shaxs sifatida tarkibiy qismlarini hisobga olmasdan va undan asosan ijtimoiy emas, iqtisodiy tizim doirasida foydalangan holda xodimga – insonga e'tibor qaratgan holda shakllantirilmoqda. Ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning amaliy faoliyati yangicha xo'jalik yuritish sharoitlarida kadrlarni boshqarishning ma'lum bo'lgan klassik vazifalarini saqlagan holda tizimning asosiy maqsadlariga erishishga xizmat qilishi lozim bo'lgan kadrlar salohiyatini innovatsion rivojlantirish jarayonlari va tizimning strategik faoliyati bo'yicha boshqaruv qarorlari o'rtasida mustahkam bog'liqlik mavjudligidan dalolat beradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, xodimlarni boshqarish tizimini samaradorligini oshirish ishlarini amalga oshirish borasida quyidagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini berdi:

– xodimlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va yuqori lavozimlarga ko'tarishda ularning kasbiy malaka

darajasi, ishga munosabati, axloqiy sifatlari, faoliyat natijalariga har tomonlama va obyektiv baho berish zarur.

– kasbiy faoliyatiga baho berishda ochiqlik va tenglik tamoyillariga asoslangan tanlovdan foydalangan ma'qul;

– barcha ta'lim muassasalarida samaradorlikning muhim ko'rsatkichi, ya'ni KPI (Key Performance Indicators, KPI) tizimini joriy qilish. Tizim ta'lim muassasalarida mehnatga haq to'lashning motivatsion va samarali tizimini ko'rsatkichlar orqali ko'rish imkonini beradi;

– barcha ta'lim muassasalarida axborotlashtirish, raqamlashtirish tizimini kuchaytirish. Zamon shiddat bilan rivojlanayotgan vaqtda, barcha sohaga raqamlashtirish tizimi kirib borayotgan bir paytda ta'lim muassasalarida zamonaviy innovatsion tizimni joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umuman olganda boshqaruvda kadrlarning to'g'ri tanlanilishi va joy-joyiga qo'yilishi ta'lim muassasalarining yutuqlari, mavqeyini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Ayniqsa, bugungi kunda rahbar kadrlarga nisbatan kreativ yondashuvlar, tanqidiy-tahliliy munosabat va maqbul shart-sharoitlar yaratish talabi qo'yilmoqda. Shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim muassasalarida xodimlarni boshqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillardan to'g'ri va samarali foydalanish pirovard natijada tashkilot iqtisodiy samaradorligining oshishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonlarning barchasi yangilanayotgan O'zbekistonda kadrlar sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishni anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абиджанова С.Д. Соотношение образных и речевых средств в развитии пространственных представлений дошкольников. Автореферат.
2. Авилова Е.А. Влияние педагогики на становление и развитие дошкольного воспитания в 20-30-е гг // Управление ДОУ. – Москва, 2007.
3. Акутина С.П. Взаимодействие педагогов и родителей в процессе воспитания духовно-нравственных ценностей старшекласников // С.П. Акутина, В.В. Николина // Инновационные проекты и программы в образовании, 2011.
4. Кузнецова Т.Ф. Педагоги прошлого о профессии воспитателя // Управление ДОУ. – Москва, 2009.
5. Леонтев А.А. Психология общения. 2-й изд., испр. и доп. - М.: Смысл, 1997.
- Мажитова СҲ.Н. Педагогические основы сельского развития личности будущих учителей в процессе профессиональной подготовки (на примере курсов "Педагогика"): Автореф.дисс. ... канд.пед.наук. – Т.: 2004.

Saodat RASULOVA,
 "ALFRAGANUS UNIVERSITY"NOTT
 "Xorijiy filologiya" kafedresi o'qituvchisi

ALISHER NAVOIY VA SUN'IY INTELLEKT

Annotatsiya: Alisher Navoiy merosini sohili yo'q ummonga o'xshatsa bo'ladi. Ulug' mutafakkir va so'z mulkining sultoni hazrat Alisher Navoiy bobomiz boy ma'naviy merosi va buyuk ijodi bilan butun dunyoni asrlar davomida hayratga solib kelmoqda. Navoiy merosi boqiy va maftunkor. Bu alloma ijodini o'rgangan insonlarning qayta-qayta hayratga tushaverishlari sababi ham shunda. Alisher Navoiy ijodining eng hayratomuz taraflari esa u zot asarlaridagi ixtirolar, kelajak texnikasi, xatto sun'iy intellekt haqidagi ta'riflaridir.

Kalit so'zlar: *ilmiy kashfiyotlarni, yo'lchiroq, fototasvir, oynayi jahon, sun'iy ong.*

Abstract: Alisher Navoi's legacy can be compared to an ocean without a shore. Alisher Navoi, a great thinker and the sultan of words, has been surprising the whole world for centuries with his rich spiritual heritage and great creativity. Navoi's legacy is timeless and fascinating. That is the reason why people who have studied the work of this scholar are repeatedly amazed. The most amazing aspects of Alisher Navoi's work are his descriptions of inventions, future technology, and even artificial intelligence in his works.

Key words: *scientific discoveries, traffic lights, photography, television, artificial intelligence.*



Kirish. Alisher Navoiy hazratlari she'riyat ilmi, balog'at, ilohiyot, tilshunoslik ilmi bilan barobar ilmi an-nujum, musiqa, tabobat, lug'atshunoslik, o'q otish san'ati, adabiyot nazariyasi, qushlar hayoti – zoologiya ilmlarini ham egallaganlar. U zotning rassomchilikda ham mashqlar qilib turganlari, hatto Husayn Boyqaroning suratini chizganlari haqida manbalar guvohlik beradi. Hazrat Navoiy chizgan zanjirband sher surati ham mana besh asrdiki, takror-takror munozaralar manbai bo'lib kelmoqda. Navoiy hazratlari musiqa ilmida ham noyob iste'dod sohibi bo'lib, bir qancha kuylar ijod qilganlar. Shuningdek, o'z mablag'lari hisobidan qurdirgan ko'priklar, tegirmonlar, hammomlar, bog'lar, maqbaralar, madrasalar, masjidlar, shifoxonalarning inshoot tarxini ham o'zlari chizganlar, bosh me'mor sifatida boshqa me'morlarning tarxiga o'zgartishlar, tuzatishlar kiritganlar.



Asosiy qism. Alisher Navoiy asarlarida hatto XXI asr odamlari tasavvur doirasidan tashqarida bo'lgan antiqa timsollar, farazlar uchraydiki, bundan hayratlanmay, qoyil qolmay iloj yo'q. "Lison-ut-tayr" da (nasriy bayoni) shunday yoziladi: «Inson ko'nglini turli bilimlar xazinasini qildi va bu tilsim ichida Alloh o'zini yashirdi».[2:1] Navoiy yozgan har bir bayt-satrlaridan donishmandlik ufurib turadi. She'riyat sultoni tahayyul otida shunchalar parvoz qilganki, uning oldida nafaqat tezlik, balki vaqt – asrlar ham ojiz.

Asarlarida Navoiy yashagan davr uchun butunlay begona bo'lgan turli timsollar (obrazlar) uchraydiki, go'yo Navoiy tafakkurida bunyod bo'lgan ilmiy kashfiyotlarni, bashoratlar va farazlarni satrlar qatiga singdirib yuborgandek. Masalan, mutafakkirning go'zal g'azallaridan birida shunday satrlar mavjud:

Xil'atim to aylamish jonon qizil, sarig', yashil,
 Shul'ai ohim chiqar har on qizil, sarig', yashil.
 Shishadek ko'nglimdadur gulzori husning yodidin,
 Tobodoning aksidek alvon qizil, sarig', yashil...[1:361]

Garchi yor tavsifiga bag'ishlangan bo'lsa-da, bu satrlarni o'qib, sizning xayolingizda ham bugun butun dunyoda mashinalarning qatnovini tartibga solib turgan yo'lchiroq (svetofor) gavdalanganiga shubha yo'q. To'g'ri, bir qarashda bu she'r va yo'lchiroqning bir-biriga umuman aloqasi yo'qdek tuyuladi. Ammo ranglar silsilasi va ularga yuklangan vazifaga bir e'tibor

bering-a. Ma'lumki, qizil rang – taqiq belgisi – yor dastlab oshiqning sevgisini rad etadi, noz qiladi. Sariq rang – tayyorgarlik – oshiqning rangi sarg'ayib, fig'oni ko'kka o'rayvergach, jononaning ko'ngli ham unga iliy boshlaydi. Yashil rang – bu yo'l ochiq, degani. G'azalda ham yor turfa ranglardagi kiyimlarda ko'rinish berib, oshiqning ko'nglini ezadi. U yashillikka burkanganda vasl ayyomi boshlanadi.




Navoiy baytlarida ilk bor namoyon bo'lgan bu ramz – yo'lchiroq (svetofor) amerikalik olim Garret Morgan tomonidan 1916-yilga kelibgina kashf qilingan. Endi mana bu satrlarga ("Favoyid ul-kibar") e'tibor qarataylik:

Nega tarking etmay, ey charxki: shomu axtaringdin –
Qarodur yuzing, va lekin... oq erur yuzingda xoling!.. [4:47]

Mazkur baytning ikkinchi misrasida fototasvir ibtidosi – negativ ko'rinishlar (oq rangning qora, qora rangning oq bo'lib ko'rinishi) haqida gapirilyotgandek.

Birinchi fotoapparat fransuz olimi Lui Jak Dagger tomonidan 1839-yilda kashf qilingan. Ilk negativlar ham aynan shu yili Fox Talbot tomonidan ixtiro etilgan. Navoiy hazratlari esa ulardan deyarli 350 yil oldin bu haqda ma'lumot beryaptilar.

Barchaga yaxshi ma'lum, 1928-yilda Toshkentda ixtirochilar B. Grabovskiy va I. Belyayevskiy elektr-nur yordamida harakat qilayotgan tasvirni bir joydan



uzatadigan va qabul qiladigan apparat yaratib, uni muvaffaqiyatli s i n o v d a n o ' t k a z d i l a r . Yurtimiz poytaxti televideniye vatani sifatida tan olindi. Hazrat Navoiy esa ulardan necha yuz yillar oldin oynayi jahonni tasvirlab bergan edilar.

So'zimiz isboti uchun "Farhod va Shirin" dostonidan olingan quyidagi misralarni tahlil qilaylik:

G'aroyib ko'p huvaydo bo'lg'usidir,

Bas, anda shakl paydo bo'lg'usidir...
Ko'runib har zamone – ko'zga bir shakl,
Ko'z olg'och – bo'lg'usidir ... o'zga bir shakl!..
Chu bo'ldi jilvagari oshkor yuz nav',
Anga ham bo'lg'usi – timsol yuz nav'!.. [3:162]

Ma'lumki, ekranda kadrlar bir sekundda 24 marotaba almashadi va jonli tasvir ko'rinadi. Shakl bu kadrlar desak, ularning almashinuvidan turli-tuman g'aroyibotlar, jonli suratlar, rangin qiyofalar silsilasi namoyon bo'ladi. Eng ajablanarlisi, Navoiy bu qurilmani ham o'z holicha "Oynayi jahon" deb nomlaydilar. Farhod uzoq Arman o'lkasining malikasi Shirinning husn-u jamolini aynan shu vosita orqali ko'rib, unga mahliyo bo'lib qoladi.

"Farhod va Shirin" dostonida oynayi jahon tasviridan tashqari XXI asr kashfiyotlaridan biri – sun'iy ongli robotlar haqidagi satrlar ham bor:

Bo'lur darvoza ichra oshkoro,
Temur jismiki qilmish paykar oro.
Erur odamga monandu mushobih,
Ilgida temurdan yoy qilib zih.
Va lekin ushbu paykar roy to farq,



Bo'lib o'tdek temur o'rchin aro g'arq... [4:274]

Ma'nosi shunday: "U odamga juda ham o'xshar, qo'lida o'tkir o'q tortilgan temir yoyni ushlab turar edi. Boshdan-oyoq sovutga o'ralgan bu temir odam ich-ichidan yonib turardi".

Keyingi sahifalarda esa bugun uylarimizga ham issiqlik, ham muzdek havo baxsh etib turuvchi aqilli konditsioner haqida gap ketadi:

Ki har sori lavhe erur ta'biya,
Birida yelu birda o't ta'miya. [4:275]

Ma'nosi shunday: "Chohning ikki yoniga yaxshilab qarasa, biriga o't, ikkinchisiga havo deb yozib qo'yilgan".

"Farhod va Shirin"dan olingan mana bu bayt ham unga hamohang jaranglaydi:

Keturdilar hakimi nuqtadoni,
Bilik birla jahon ichra jahone!..
Qilib tunni – yorug', kunni qorong'u,

Suvdin – o‘t yondurub, o‘tdin – sepib suv...[3:158]

Eslatib o‘tamiz, fransuz olimi Jann Shabaness birinchi konditsionerlarga 1915-yildagina patent olgan.

Xulosa. Yuqorida sanab o‘tilgan timsollar, ramzlar, o‘z davri uchun g‘ayrioddiy bo‘lgan qurilmalar, bashoratlilar hazrat Navoiy ijodlarida behisob. Baland minora ustiga o‘rnatilgan bugungi parabolik va sputnik antennalariga o‘xshash qurilmalar, dunyoning nariga chekkasidagi inson bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri, bir-birini ko‘rib turgan holda (vebkamera orqali) muloqotda bo‘lish, kompyuter, internet, kishining may ichgan-ichmaganini aniqlab beradigan vosita, kibernetika hamda yana boshqa turli g‘ayrioddiyliklar xususidagi farazlar shular jumlasidan.

Hazrat Navoiy ijodlarini muhtasham bir qasrga qiyoslasak, barchamiz uning yonidagina aylanib yuribmi, xolos. Modomiki, bepoyon tafakkur sarhadlarin fath eta olgan she‘riyat sohibqironining oltin merosi millat ruhini, tafakkurini tarbiyalar ekan, u zot ijodini qomusiy ravishda tadqiq va tahlil etish, bu jarayonda, ayniqsa, yoshlarda rag‘bat uyg‘ota olish bugungi kunning eng asosiy vazifalaridan biri bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. “Xamsa”. “Yangi asr avlodi”, 2021-yil. 538-b.
2. Alisher Navoiy. Lisonut tayr. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. – T.: Fan, 1994. 12-jild.
3. Alisher Navoiy. “Farhod va Shirin”. Yigirma tomlik, 8 -tom. – T.. 1991.
4. Alisher Navoiy. “Favoyid ul- kibar”, o‘n besh tomlik, 4-tom. – T., 1965.
5. Erkinov S. “Navoiy “Farhod va Shirin” va uning qiyosiy tahlili”. – Toshkent, 1971.
6. Zamin.uz. Sun‘iy intellekt o‘zbek adabiyoti qahramonlari va tarixiy shaxslar qiyofalarini yaratdi. 30.03.2023. <https://zamin.uz/uz/madaniyat/114470-suniy-intellekt-ozbek-adabiyoti-qahramonlari-va-tarixiy-shaxslar-qiyofalarini-yaratdi.html>
7. Abdiyev. Navoiyning hayratomuz ixtirolari 26.10. 2013 <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/navoiyning-hayratomuz-ixtirolari>

Mohidil ABDULLAYEVA,
FDU 1-kurs magistranti

NO‘MONJON MO‘YDINOVNING “G‘UBORLI GULLAR” ASARIDA DETALLAR FUNKSIYASI

Annotatsiya: maqolada badiiy detal va uning asarda tutgan o‘rni, ahamiyati No‘monjon Mo‘ydinovning “G‘uborli gullar” romani misolida tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *badiiy unsur, kompozitsiya, asar strukturasi, badiiy detal, badiiy voqelik, badiiylik, harakat detali, predmet detali, obraz.*

Abstract: in the article, the artistic detail and its place and importance in the work are studied on the example of the novel “Dust Flowers” by Nomon Moydinov.

Key words: *artistic element, composition, structure of the work, artistic detail, artistic reality, artistry, action detail, object detail, image.*

Аннотация: в статье художественная деталь, ее место и значение в произведении изучаются на примере романа Номонжона Мойдинова “Пылевые цветы”.

Ключевые слова: *художественный элемент, композиция, структура произведения, художественная деталь, художественная реальность, художественность, деталь действия, предметная деталь, образ.*

Har qanday badiiy asar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan, biri ikkinchisini to‘ldirib, ijodkorning asar g‘oyasida berishga harakat qilgan maqsadini ochishga yordam beruvchi badiiy unsurlardan tashkil topadi. Asar kompozitsiyasida har bir unsur qiymatga ega bo‘lib asar strukturasi mana shu unsurlarning o‘z o‘rniga ega bo‘lishi va to‘g‘ri kiritilishi yozuvchi mahoratidan darak beradi.

Ijodkor badiiy asarda hayot voqea-hodisalarini badiiy detal va tafsilotlar vositasida tasvirlaydi va mana shu hayot voqea-hodisalarini badiiy voqelik deb yuritiladi. Badiiy voqelikni yaratish vositasi esa detal

hisoblanadi. “Detal – badiiy asarda muayyan mazmun ifodalovchi, g‘oyaviy-badiiy yuk tashuvchi tafsilotdir. Badiiy detal, avvalo, badiiy voqelikni to‘laqonli va konkret his etiladigan darajada jonli tasvirlashga xizmat qiladi”[Quronov D. Mamajonov Z. Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.]. Badiiy asarda detallarning funksiyasi xilma-xildir. U badiiy voqelik ashyosi bo‘lish bilan birga yozuvchi fikrini aniqlashtirish, to‘ldirish, kuchaytirish maqsadlariga ham xizmat qiladi.

Yozuvchi No‘monjon Mo‘ydinov o‘zining “G‘uborli gullar” romanida ham detallardan mohirona

foydalangan va bu hodisa asarning badiiyligini ta'minlashga xizmat qilgan. Asarning "Nobin qiz" bobida "... Qiz yig'ladi. Hovlini supurib, qozon-tovoqni yuvdi. Kun kech bo'ldi. Sog'in vaqtini eslatib sigir tovush berdi. Chelakni olib og'ilga bordi." [Mo'ydinov N. G'uborli gular. – Toshkent: Tafakkur, 2020.] kabi parchada kelgan harakat detali – "yig'ladi" qizning baxtsiz ekanini, yashayotgan hayoti va turmushidan mamnun emas ekanini, "hovlini supurib qozon-tovoq yuvdi" – garchi qizning ko'zi ojiz bo'lsa ham uy yumushlarini qila olishi va bu bilan u anchadan buyon uy yumushlarini bajarib kelayotganini anglatadi. "Sog'in vaqtini eslatib sigirning tovush berishi" esa qizning ko'zi ojiz ekanligi uchun kun kech bo'lganligini bilmay qolganini o'quvchiga ishonarli tarzda yetkazadi. Ushbu parchaning o'zida harakat detalidan tashqari predmet detali (chelak, og'il) maishiy turmush (qozon-tovoq) peyzaj (hovli) kabi detallar ham qatnashgan bo'lib, ular kitobxon ko'z o'ngida mazkur muhitning jonli tasvirlanishiga yordam beradi.

Detallar lo'nda, aniq bo'lib, ular tasvirlanayotgan muhitni ochib berish vazifasini bajaradi. Shu bilan bir qatorda badiiy asarda milliylikni ifodalash ham detallar zimmasiga yuklatiladi.

"G'uborli gullar" romani nobinlar ya'ni ko'zi ojiz insonlar hayotidan hikoya qilib, bunday insonlar real hayotida ham detal-ashyolar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ham ijodkor badiiy asar ta'sirchanligini oshirishda detallarga suyanadi.

Ma'lumki, badiiy asar syujetiga aloqador eng kichik (aslida eng katta) muammolardan biri badiiy detaldir. Adabiyotshunos olim Dilmurod Qur'onov fikricha : "... Detal asarda tasvirlangan obrazning kichik bir qismi (ya'ni, u hamisha predmetlikni ko'zda tutadi), detallarning birikuv natijasida o'sha obraz ko'z oldimizda butun holda namoyon bo'ladi. Badiiy detalning ortida ma'lum bir realiya mavjud: maishiy turmush yoki joy tafsilotlari, portret chizgilar va sh.k. Shuningdek personajning imo-ishoralari(jest), tana holati (poza), xatti-harakat gap-so'zlari ham detal sanaladi, ular hammasi birgalikda konkret inson obrazini gavdalantiradi" [Qur'onov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Meros, 2004. 76-77-bet.].

Romanda keltirilgan "O'g'rilik" bobida ayniqsa detallar muhim vazifa bajaradi. 15-ko'zi ojizlar majmuasida istiqomat qiluvchi Nusrat Nosirov majmua g'aznasidagi pullarni o'g'rilab, go'yoki og'rilikni Shodivoy qilgandek taasurot uyg'otadi. Roman qahramonlari bilan birgalikda kitobxon ham bunga ishonadi. " U g'aznachi Achaxon Asilova bilan tanishgan. G'azna eshigi va seyf kalitlari dublikat yasatib, fursat kutgan. G'azna bo'sh bo'lganda tun payti bir necha bor kirib kalitlarni sinagan. Hamxonasi va do'sti Shodivoy Shavkatov kiyimlarini yashirib qo'ygan. G'aznaga katta pul kelgach, qorovul Umarali

va Shodivoyni uyqu dori solingan vino bilan siylagan" [Mo'ydinov N. G'uborli gular. – Toshkent: Tafakkur, 2020.] Asosan detektiv asarlarda uchrovchi va jinoyatni ochishga xizmat qiluvchi detallar aynan mana shu bobda ko'zga tashlanadi. Roman qahramonlari tergovchi Xidirov hamda kitobxon bu o'g'rilikni Shodivoy qilganiga ishonadi. Muallif bunga detallar vositasida erishadi. Avvalo, predmet detallari: Nusrat o'g'rilik paytida Shodivoyning bo'yoqqa tushib ketgan oyoq kiyimini kiyadi, g'aznadagi pullarni olgach velosipedda majmuadan chiqadi. Bu oyoq kiyim hamda velosiped Shodivoyga tegishli ekani butun majmuaga ayon.

Nutqiy detal: Nusrat boshqa odamlarning ovozigga taqlid qilib o'xshatish qobiliyatiga ega edi. U o'g'rilikni amalga oshirgach Erkin va Yahyo raisning yoniga borib pullarning ma'lum qismini ularga beradi va bunda Shodivoy ovozigga taqlidan gapiradi, Erkin hamda Yahyo rais ko'zlari ojiz bo'lganligi uchun yonlariga kelgan odamni Shodivoy deb o'ylashadi. Mazkur bobdagi detallar asosiy voqelikni yaratish uchun asosiy qurol bo'lib xizmat qiladi.

Badiiy asarda sodir bo'ladigan biror ish (fikir, qiliq, kulgu, piching...) yoki voqea-hodisa tasodifiy bo'lmay, balki har birining voqea bo'lish joyi, vaqti, sabablari aniq bo'lishi va u ma'lum xarakterdagi g'oyaviy yukning zarur zarrasini ochishga bo'ysungan bo'lishi shart. Shu bilan u yozuvchi tomonidan o'quvchi ishonadigan tarzda asoslanishi talab qilinadi. "G'uborli gullar" romanida ham muallif tomonidan asarga kiritma hikoya qo'shiladi. Mazkur hikoya tush detali vositasida tasvirlanib, unda Homer, Vanga Tiresiy, Olga v.k bir qancha ko'zi ojiz ammo dunyo tarixida o'chmas iz qoldirgan insonlar hayoti tasvirlanib ular Homer boshchiligida o'ziga xos tanlov e'lon qiladilar. Ularni kitobxoniga asoslovchi birgina detal bu Erkinning dissertatsiya ishi detali. Mana shu detal orqali muallif ming yillik tarix hamda bugungi kun insonlarini birlashtirishga erishadi. Yozuvchi asar yaratar ekan unga olib kirilgan har bir voqea-hodisa qahramonlar xatti-harakati ma'lum bir funktsiya bajaradi. Tush dars detali asarning umumiy mazmuni bilan aloqador bo'lib, unda muallifning eng bosh g'oyasi – ya'ni insonning hayotda kim bo'lishi, qanday muvaffaqiyatlarga erishishi faqatgina uning o'ziga bog'liq, agar inson chin dildan niyat qilsa va unga yarasha mehnat qilsa o'zi hohlagan marralarni zabt eta olishi mumkin degan qarash ilgari suriladi. Romanning bosh qahramoni Erkin onasidan ajralib tushkunlikka tushgan paytda Abdulkarim domla obrazi orqali berilgan dissertatsiya detali roman syujetini harakatga keltiradi: " Men Homerni qahramon qilib ilmiy ish boshlagan edim, chala qoldi. Ishni sen davom ettirgin. Mening vaqtim sog'ligim ketdi. Sen yoshsan imkonning bor, – domla o'rnidan turdi. Kabinet burchagida turgan kichik seyfni ochdi, qalin daftarni oldi. "To'p" etkazib stolga qo'ydi. – Bu mening qo'lyozmam. Avval o'qib o'rgan, keyin

ma'lumotlar faktlar qo'shib kengaytir" [Mo'ydinov N. G'uborli gular. – Toshkent: Tafakkur, 2020.]. Shu tariqa muallif o'z qahramonini ming yillik tarixga "sayohat qildiradi". Badiiy asarni yaxlit bino deb tasavvur qilsak detal mana shu binoning zarralaridir. Har qanday katta bino ham kichik bo'laklardan, zarralardan tashkil topadi. San'at turlari orasidagi farq yana ularning retsiyent (o'quvchi, tinglovchi, tomoshabin) tomonidan qabul qilinishidagi o'ziga xoslikda ham ko'zga tashlanadi. Masalan, rassom chizgan peyzajni qabul qilish jarayoni bilan epik asarda so'z bilan tasvirlangan peyzajning qabul qilinishidagi farqni olaylik. Makonda mavjud bolgan rangtasvir asarini yaxlit holda qabul qilamiz, aniqrog'i, unı avvaliga butunicha ko'ramiz-da,

so'ng butundan qismlarga (detallarga qarab) boramiz. So'z vositasida chizilgan peyzajni qabul qilishda esa, aksincha, qismdan butunga qarab boriladi, ya'ni avvaliga detallar bilan tartibi bilan tanishamiz-da, oxirida ko'z oldimizda yaxlit manzara hosil boladi.[*Адабиёт назарияси: 2томликб Т.2 - Тошкент, 1979.*]

Xulosa qilib aytganda, "G'uborli gullar" romanida ham yozuvchi qahramonlar ruhiyatini ochishda, makon va zamonnı ifodalashda, syujet va kompozitsiya qurılıshida mahorat bilan detallardan foydalanganki, bu asarning ta'sirchanligi, tabiiyligini oshirgan. Ushbu asar xalqimiz badiiy madaniyatini yuksaltirishda va ma'naviy ehtiyojini qondirishda o'ziga xos vazifani o'tagan asarlardan biri bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D., Mamajonova Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
2. Mo'ydinov N. G'uborli gular. – Toshkent: Tafakkur, 2020.
3. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. 102-bet
4. To'ychiyev U. O'zbek adabiyotida badiiylık. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011.
5. Sarimsoqov B. Badiiylık asoslari va mezonlari. – Toshkent: Bookmany print, 2022
6. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. *Scientific Journal of Polonia University*, 32(1), 116-120.
7. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. *International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies*. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. –P.33-39.
8. Murodilovna, O. G. (2020). Melody and musicality in Lyrics. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 656-664.
9. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 03. – C. 245-249.
10. Oripova, G. (2020, December). RHYTHM AND MYTHING IN LYRICAL GENRE. In Конференции.
11. Oripova, G. (2019) "Traditions of folk ballads and distinctiveness of uzbek poetry of independence period," *Scientific journal of the Fergana State University: Vol. 2 , Article 12.*
12. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(12), 90-94.
13. Oripova, G. M., & Abdurasulova, N. A. Q. (2022). O'ZBEK NASRIDA URUSH MAVZUSI VA "YO'QOTILGAN AVLOD" MUAMMOSI. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 213-220.
14. Oripova, G., & Alijanova, M. A. Q. (2022). ASQAD MUXTORNING "CHINOR" ROMANIDA AYOL PORTRETINING BADIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 221-226.
15. Oripova, G., & Ibrohimova, G. (2022). SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA MUMTOZ MUSHTARAKLIKLAR. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 251-255.
16. Oripova, G. M., Akhmadjonova, O. A., Kholmatov, O. U. U., & Muminova, T. S. (2022). INTERPRETATION OF MOTHER IMAGE IN LITERATURE. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 304-309.
17. Gafurovich, S. A. (2021). Analysis Of The Poem" Autumn Dreams" By Abdulla Oripov. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(01), 556-559.
18. Sabirdinov, A. (2021). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. *Конференции*, 1(2).
19. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel "Night and day" by Chulpan. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(6), 119-120.
20. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of Characters in Utkir Hoshimov's Story "Yanga". *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(6), 196-200.

Shoxista QARSHIYEVA,
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti
“Xorijiy tillar” kafedrası o‘qituvchisi

INGLIZ TILIDA DISKURS TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada ingliz tilida diskurs tushunchasining nazariy asoslari, diskurs tushunchasining lingvistik atama sifatida tilshunoslikka kirib kelishi, hamda diskursni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish va ijtimoiy tarmoqlardagi diskursning o‘ziga xos xususiyatlari aks etgan. Bundan tashqari, ushbu maqolada bir qator tilshunoslarning diskurs tushunchasi haqida lingvistik tahlillari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *diskurs, lingvokulturologiya, lingvisti va ekstralingvistik omillar, ijtimoiy tarmoqlardagi diskurs, adabiy aspekt.*

Bugungi zamonaviy tilshunoslik sohasida “diskurs” atamasi juda keng qo‘llanilmoqda. “Diskurs – bu ekstralingvistik-pragmatik, sotsial-madaniy, psixologik omillar bilan birgalikdagi izchil matn hisoblanib, maqsadli ijtimoiy harakat sifatida qaraladigan nutq, odamlarning o‘zaro ta‘sirı va ularning ongi mexanizmlari (kognitiv jarayonlar)da ishtirok etuvchi komponent sifatida qaraladi. Shu sababli “diskurs” atamasi, “matn” atamasidan farqli o‘laroq, hayot bilan aloqasi tiklanmagan qadimiy va boshqa matnlarga qo‘llanilmaydi [1]”. Y.S.Stepanov diskursni quyidagicha ta‘riflaydi: Diskurs – bu “tildagi til [2]”, lekin maxsus ijtimoiy shaklda berilgan. Diskurs, haqiqatan ham, tilda bo‘lgani kabi, uning “grammatikasi” va “leksikoni” ko‘rinishida ham mavjud emas. Har qanday diskursning o‘ziga xos sinonim almashtirish qoidalari, o‘z haqiqat qoidalari, o‘z odobi bor. Diskurs tushunchasi lingvistik atama sifatida o‘tgan asrning o‘rtalarida tilshunoslikka kirib keldi. Tilshunoslikda u, dastlab, gap yoki nutqda bog‘langan va kelishilgan oqibat sifatida tushunilgan bo‘lsa, zamonaviy lingvistikada murakkab kommunikativ hodisa sifatida izohlanmoqda. Tilni pragmatik nuqtai nazardan tadqiq etishga bag‘ishlangan ishlarda diskurs atamasi yetti xil ma‘noda qo‘llangan: 1. So‘z muqobili 2. Frazalardan o‘lchami bo‘yicha ortadigan birlik 3. Nutq vaziyati hisobga olingan holda fikrning adresatga ta‘sirı 4. Suhbat, nutqda so‘zlovchi pozitsiyasi 5. Lisoniy birliklardan foydalanish 6. Fikrning ijtimoiy yoki mafkuraviy cheklangan turi 7. Matn hosil bo‘lish shartlarini tadqiq etishga mo‘ljallangan nazariy qurilmalar [3].

Golland tilshunosi T.A.Van Deyk diskursni bir nechta bosqichda nazar solishni taklif qiladi. U keng ma‘noda diskursga majmuaviy kommunikativ hodisa, tor ma‘noda esa kommunikativ faoliyatning yozma yoki nutqiy muloqot mahsuloti sifatida qarash kerakligini ta‘kidlab o‘tadi. T.A.van Deyk diskurs va matn o‘rtasidagi farqni shunday belgilaydi: “Diskurs – aktual aytilgan matn, ya‘ni faol nutqiy harakat, matn esa til tizimiga yoki shakliylisoniy bilimlarga tegishli fikrlarning mavhum grammatik tuzilishidir [4] Diskurs – suhbat turi. Diskurs janr kabidir. Nutqiy janr – tipik tuzilishi, lingvistik vositalardan foydalanishning o‘ziga xosligi, aniq adresat, o‘ziga xos kommunikativ maqsad va informativlik, imperativlik, etiketlik kabi jihatlari bilan ajralib turuvchi nutq turi hisoblanadi. Diskurs nafaqat

og‘zaki, balki yozma diskurs ham mavjud bo‘lib, milliy tip doirasida diskursning adabiy va badiiy turini tanlash ham bunga yaqqol namuna bo‘ladi. Shu munosabat bilan, diskursiv amaliyotda (keng ma‘noda nutq) muloqotning kommunikativ, interaktiv va persektiv tomonlari namoyon bo‘ladi, deb taxmin qilish mumkin: ma‘lumot va ma‘lum bilimlarni uzatish (muloqot), nutq sheriklarining ma‘lum bir ijtimoiy-madaniy aloqasi sifatida baholanishi mumkin. Nutq madaniy hodisa sifatida, birinchi navbatda, axloqiy, utilitar va estetik jihatlarda milliy madaniyatning qadriyat dominantlarini aks ettiruvchi, o‘ziga xos xususiyatlarining yig‘indisida tavsiflanadi.

Diskurs matnni kommunikatsiyada, dinamik holatda, sotsiomadaniy kontekstda, lingvistik va ekstralingvistik omillar ta‘sirida, lisoniy va nolisoniy axborotda (olam, hodisalar haqidagi bilim, fikr, qadriyatlar) ko‘rib chiqishni nazarda tutuvchi murakkab kommunikativ-kognitiv hodisa. Sanab o‘tilganlar diskursni tushunish, qabul qilish va talqin qilishda muhim rol o‘ynaydi. Diskursning o‘ziga xosligi uning antropotsentrikligi hamda muallif tomonidan modellashtiriluvchi o‘zgacha olamning badiiy manzarasini obrazli shaklda ifodalay olishidir. Shu ma‘noda diskurs kommunikatsiyaning eng murakkab turlaridan biri bo‘lgan badiiy-adabiy muloqotning bir turi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning subyektlari nafaqat muallif va kitobxon, balki personajlar hamdir.

Badiiy matnning nutqiga kelsak, u boshqa nutq turlaridan sezilarli farq qiladi, bu muallif va qabul qiluvchi o‘rtasidagi munosabatlar va o‘zaro ta‘sirning alohida turini, dunyo haqidagi madaniy, estetik va individual bilimlardan foydalanishni va uning aksini aks ettiradi va atrofdagi haqiqatga alohida munosabat bildiradi. Adabiy aspektidagi diskurs muammosi mashhur fransuz olimlari M.Fuko, S.Todorov, Y.Kristeva, R.Bart asarlarida, shuningdek, rus olimlari M.M.Baxtin, Y.M.Lotman, V.I.Tyup tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan, S.N.Broytman, I.P.Smirnov, I.V.Samorukov, Y.Rudnev, P.A. Kovalev [5], xususan, nutq nazariyasi, diskursiv poetika va diskurs tahlillari to‘liq hal qilinmagan va qo‘shimcha o‘rganishni talab qiladi.

Eng muhimlari – bu inson faoliyatining intellektual va ma‘naviy sohalarini aks ettiruvchi matnlar, ularning maqsadi, xususiyatlari, muallif hukmlari, qarashlari va

baholari bilan chambarchas bog'liq. Bunday matnlarni talqin qilish o'quvchining madaniyatshunoslik malakasini, milliy madaniy qadriyatlar va ustuvorliklarni bilishini talab qiladi. Lingvistik madaniyatdagi madaniy ma'lumotlar – ma'lum bir madaniyatga xos hodisalar: voqealar, taniqli shaxslar, tarixiy voqealar, shuningdek, afsonalar, tasvirlar, e'tiqodlar, urf-odatlar va boshqalar.

Bilamizki, Lingvokulturologiya – til, madaniyat, xalq madaniyatining tilda namoyon bo'lish xususiyatlarini aks ettiruvchi, o'rganuvchi fan sifatida baholanadi. Til birliklarining lingvokulturologik tahlili tilshunoslik va madaniy hamjamiyatning o'ziga xos xususiyatlari, milliy-madaniy xarakteristikani tavsiflaydi, kommunikativ toifa, milliy madaniyat tushunchasining ahamiyatini tushuntiradi [5]. Lingvokulturologiyaning asosiy vazifasi ma'lum bir lingvokulturologik doiraning muloqot makonining madaniy kelib chiqishi, diskurs va til, shuningdek, lisoniy birlikning madaniy belgilar, terminlari, interpritasiyasi, xalqning tarixiy xotirasi prizmasidan kelib chiqqan holda tavsiflashdan iborat [6].

Shu jihatdan olib qaraganimizda, diskursni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish matnning lingvokulturologik maydonini tashkil etuvchi lingvokulturologik birliklar tizimini aniqlashni, matnning mazmuniy-tematik dominantlari sifatida madaniy tushunchalarni o'rganishni, nutqni individual – muallifning tilshunosligi sifatida ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytganda, tabiatan bunday so'zlar qimmatli ma'lumot ombori, ammo tayyor bo'lmagan odam uchun, agar siz ularning ma'nosini tushunmasangiz, tushunishga jiddiy to'sqinlik qilishi mumkin. Bunday asarlar tabiatan qo'llaniladi, chunki ulardagi ma'lumotlar keyinchalik hayotda (ishda, sayohatda va hokazo) foydalanish uchun berilgan. Badiiy adabiyot, bunda estetik funksiya axborotdan ustun bo'lsa-da, xuddi shunday rol ni bajarishi va xalq tarixi, madaniyati va kundalik hayoti haqida ekstralingvistik bilim manbayi bo'lishi mumkin. Lingvokulturologiyaning bevosita diskurs bilan bog'liq jihatiga kelsak, shuni aytish lozimki, diskurs ham boshqa til birliklari qatorida bu sohaning tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. "Lingvokulturologiya" kitobining muallifi V.A.Maslova bu borada quyidagicha yozadi: "Matn tilshunoslik va madaniyatning haqiqiy

kesishuv nuqtasidir. Zero, diskurs til hodisasi va uning oliy sathi hisoblanadi, shu bilan birga, u madaniyat mavjudligining amal qilish shakli hamdir [7]". Lingvokulturologiyaning asosiy vazifasi ma'lum bir lingvokulturologik doiraning muloqot makonining madaniy kelib chiqishi, diskurs va til, shuningdek, lisoniy birlikning madaniy belgilar terminlari interpritasiyasi, xalqning tarixiy xotirasi prizmasidan kelib chiqqan holda tavsiflashdan iborat [8].

Raqamli texnika jadal rivojlanayotgan bir paytda, diskurs tushunchasi ham zamonaviy tilshunoslikda o'zining ma'nolarini kengaytirib bormoqda. Xususan, ijtimoiy tarmoqlarda foydalaniladigan diskurs va uning xususiyatlari bugungi kun tilshunosligining dolzarb masalaridan biri bo'lib bormoqda. "Ijtimoiy tarmoqlardagi diskurs haqiqiy muloqot sharoitida ishlatiladigan bayonotlar va matnlar, shuningdek og'zaki va yozma nutq shakllarini birlashtiruvchi aloqa vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlardagi barcha matnlar turli havolalar, o'zaro bir biriga bog'liq matnlar - kommunikativ tizimning shakllanishiga asosiy poydevor bo'ladi. Ba'zi tilshunoslar ijtimoiy tarmoqlar diskursini og'zaki va yozma nutqning xususiyatlarini o'zida jamlovchi yangi, gibridd shakli sifatida tavsiflaydilar".[8]

Xulosa qilib aytganda, tilshunoslikda diskurs tushunchasining muqobil ta'rifi turli davrlarda turlicha talqin qilinadi. Diskurs – bu harakatdagi matn sifatida oddiy matndan o'ziga xos xususiyatlari orqali farqlanadi.

Diskurs matnni kommunikatsiyada, dinamik holatda, sotsiomadaniy kontekstda, lingvistik va ekstralingvistik omillar ta'sirida, tadqiq etilishi lozim bo'lgan murakkab kommunikativ-kognitiv hodisa sifatida baholanishi mumkin. Diskurs nafaqat og'zaki, balki yozma diskurs ham mavjud bo'lib, diskursning adabiy va badiiy turini tanlashda namuna bo'la oladi. Shu munosabat bilan, diskursivlikda muloqotning kommunikativ va interaktiv jihatlarini namoyon bo'ladi degan fikr ham ilgari suriladi. Bundan tashqari, bugungi kunning zamonaviy tilshunosligida ijtimoiy tarmoqlardagi diskurs atamasi keng tarqalgan bo'lib, bu yo'nalishda muhim izlanishlarni taqozo etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Арутюнова Н. Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь. – М. : 1990
2. Абдуназарова Н. "Дискурс"ни изохлашга бўлган турлича ёндашувлар. Academic research in educational sciences. 2021, №4
3. Ван Дейк, Т.А. Язык. Познание. Коммуникация / Т.А. ван Дейк. - М., 1989. - 311 с.
4. Газизов Р. А., Мурясов Р. З. Лингвокультуроология и современная лексикография. 2016.. №2
5. Маслова В.А. Лингвокультуроология.–М.: 2001
6. Posteguillo, S. Netlinguistics and English for Internet Purposes / S. Posteguillo. - Iberica.-2002.
7. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zME, 2008
8. Qarshiyeva Sh. X. "Linguistic features of the English discourse of social networks". Gospodarka I Innowacje-Volume: 35/2023. <http://gospodarkainnowacje.pl>

Shohsanam YIGITALIYEVA,
Qoʻqon davlat pedagogika instituti oʻqituvchisi

DUNYONING LINGVISTIK VA KONSEPTUAL MANZARALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada dunyoning lingvistik va konseptual manzaralari xususida turlicha qarashlar keltirib oʻtilgan. Tabiiy til – bizning dunyo haqidagi bilimlarimiz aks ettiriladigan asosiy shakl, shu bilan birga u insonning oʻz bilimlarini egallashi va umumlashtirishi, uni tuzatishi va jamiyatga oʻtkazishi uchun asosiy vositadir.

Kalit soʻzlar: *lingvistika, konsept, tushuncha, konseptual manzaralari, ong, Dunyo tasviri, tafakkur.*

Абстрактный: в данной статье представлены различные взгляды на лингвистические и концептуальные картины мира. Естественный язык является основной формой, в которой отражаются наши знания об окружающем мире, и в то же время он является основным инструментом человека для приобретения и обобщения своих знаний, их корректировки и передачи обществу.

Ключевые слова: *лингвистика, концепт, понимание, концептуальные ландшафты, сознание, картина мира, мышление.*

Abstract: in this article, different views on linguistic and conceptual views of the world are presented. Natural language is the main form in which our knowledge about the world is reflected, and at the same time, it is the main tool for a person to acquire and summarize his knowledge, correct it and transfer it to society.

Key words: *linguistics, concept, understanding, conceptual landscapes, consciousness, world image, thinking.*

Kirish. Har qanday, shu jumladan, oddiy bilim (koʻnikmalardan farqli oʻlaroq) lingvistik rasmiylashtirishni talab qiladi. Reflektiv fikrlashning obyektiv voqelik bilan oʻzaro taʼsiri til va atrofimizdagi olamning oʻzaro taʼsiri muammosini umumiy tilshunoslik muammolari orasida markaziy oʻrinlardan biriga qoʻydi. Til ongining muammolarini dunyoning lingvistik manzarasi orqali tushunish, til va milliy madaniyatni bogʻlash va nutqni shaxs ongining tubida joylashgan kognitiv tuzilmalar nuqtayi nazaridan taqdim etish zarurati soʻnggi oʻn yillikda paydo boʻlgan yangi kognitiv tilshunoslikda diskursiv paradigmaning paydo boʻlishi bilan bogʻliqdir [1.Kubryakova 1995].

Shaxs bilish subyektivi sifatida obyektiv voqelik haqidagi maʼlum bilimlar, gʻoyalar, fikrlar tizimining tashuvchisi hisoblanadi. Bu tizim turli nomlarga ega – dunyoning tasviri, dunyoning konseptual tizimi, dunyo modeli, dunyo tasviri va turli jihatlarida koʻrib chiqiladi.

Asosiy qism. “Dunyo tasviri” (keyingi oʻrinlarda CM) tushunchasi asosiy tushunchalardan biri boʻlib, inson va uning mavjudligini, dunyo bilan munosabatlarini, uning dunyoda mavjudligining eng muhim shartlarini ifodalaydi. U yoki bu milliy jamoaga mansub kishilar ongida dunyoning tasviri, ularni oʻrab turgan obyektiv voqelik haqidagi oʻz qiyofasi shakllanadi va avloddan-avlodga oʻtadi. Koʻpgina zamonaviy tilshunoslarning fikriga koʻra, dunyoning asl global qiyofasi – bu inson dunyoqarashining asosi boʻlib, uning tashuvchilari oʻz tushunchasida dunyoning muhim xususiyatlarini ifodalaydi va insonning barcha maʼnaviy faoliyatining natijasi hisoblanadi. “Obyektiv voqelikning subyektiv obrazi sifatidagi dunyo tasviri voqelik obrazi boʻlishdan toʻxtamagan holda, ularning hech birida toʻliq aks etmasdan, ishora shakllarida obyektivlashadi” [2.Tildagi inson omilining roli, 1988: 24-25].

Dunyoning surati – inson tomonidan yaratilgan obyektiv voqelikning subyektiv tasviri – dunyoning koʻzgu tasviri emas, balki har doim uning qandaydir

talqini. Dunyo tasvirini bir shaxsga nisbatan dunyoning individual gʻoyasi sifatida tushunish mumkin, shuningdek, butun insoniyatga nisbatan umumlashtirilgan gʻoya, dunyo haqidagi universal bilimlar majmui sifatida tushunish mumkin. Dunyo tasviri insonning kognitiv faoliyati va fikrlashni aks ettirish qobiliyati tufayli yaratiladi, shuning uchun u inson bilimlarini tashkil qilishni oʻrganadigan bir qator fanlarda kognitiv kategoriya sifatida tavsiflanadi. Taʼkidlanishicha, dunyo tasviri ikki tomonlama xususiyatga ega: inson ongi va hayotiy faoliyatining obyektiv boʻlmagan elementi sifatida va obyektiv shakllanishlar, hayot faoliyati jarayonida shaxs tomonidan qoldirilgan "izlar" shaklida obyektivlashtirilgan boʻladi. Dunyo tasviri vazifalari inson dunyoqarashining tabiati va inson hayotidagi maqsadidan kelib chiqadi, uning ajralmas qismi dunyo suratidir [2.Tilda inson omilining oʻrni. 1988: 24-25].

Dunyoning yaxlit qiyofasi dunyoqarashning ikkita asosiy turi – konseptual va lingvistik qarashlar bilan shakllanadi. Dunyoning konseptual tasviri lingvistikaga qaraganda ancha kengroqdir, chunki uni yaratishda har xil fikrlash turlari, shu jumladan, ogʻzaki boʻlmaganlari ham ishtirok etadilar.

“Dunyoning konseptual tasviri” (keyingi oʻrinlarda CMC) tushunchasi turli fanlar tomonidan oʻrganiladi, ularning har biri ushbu konseptsiyaning mohiyatini oʻz muammolari va toifalari doirasida koʻrib chiqadi. Tilshunoslikda u dunyoning surati - KM (B.A. Serebrennikov, E.A. Kubryakova) deb nomlangan. Tilshunoslik CM va til oʻrtasidagi bogʻliqlikni oʻrnatadi, aqliy tarkibni til orqali aniqlash usullarini oʻrganadi. Til nafaqat ongda taqdim etilgan semiotik tizimlardan biri sifatida dunyo tasvirining bir qismi, balki uning asosida dunyoning lingvistik tasviri ham shakllanadi. Nihoyat, til yordamida alohida shaxslar tomonidan olingan bilimlar intersubyektivga aylanib, kommunikativ jarayonlarda qatnasha oladi. Anʼanaviy nuqtayi nazar shundan

iboratki, til turli xil konseptual tizimlar qurilgan yagona va universal tafakkur asosi (yagona mantiqiy va aqliy asos) bo'lgan va shunday bo'lib qoladi.

Mantiq konseptual tizimning (KS) mohiyatini undagi ma'lum ma'lumotlarni mahkamlash muammosi bilan bog'liq holda ko'rib chiqadi (R.I.Pavilenis). Neyrofiziologik va psixologik tadqiqotlar dunyo qiyofasini tahlil qilib, insonning kognitiv faoliyati bilan birga keladigan mexanizmlarni tushuntirishga harakat qiladi (A.N.Leontiev, V.P.Zinchenko, F.E.Vasilyuk). Masalan, neyrofiziologik tadqiqotlar miyada axborot uzatiladigan lingvistik shaxslarning bir-biri bilan muloqot qilishda ishlatadigan tiliga mos kelmasligini isbotlaydi. Demak, tafakkur milliy tilda amalga oshmaydi. Bundan kelib chiqqan holda, ushbu nazariya tarafdorlari dunyoning milliy manzaralarini inkor etadilar va yagona mantiqiy asos mavjudligiga asoslanib, til tizimlarining o'ziga xosligiga qaramay, har qanday tilda har qanday mavzuni aks ettirish imkoniyatini isbotlaydilar. Biroq kognitiv psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni isbotlaydiki, turli madaniyatlar vakillari psixologik jarayonlarda farqlarga ega bo'lib, bu psixoperseptsiyaning o'ziga xosligini shakllantiradi. Har qanday fikr nutqda namoyon bo'lar ekan, so'zlovchi axborotni tinglovchi shaxsiga nafaqat yetkazib berishni, balki bu fikrning tinglovchiga ta'sir etish ko'lamini ham deyarli doimo nazarda tutadi.

Falsafada dunyo tasviri muammosi falsafiy kategoriyalar: individual ong, dunyoqarash, tafakkur va boshqalar kontekstida ko'rib chiqiladi (L.Vitgenshteyn, R.F.Abdeev, E.V.Ilenkov). Shuni ta'kidlash kerakki, "dunyo tasviri", "dunyoning til tasviri" va "dunyoning milliy surati"ni tushunishda birlik yo'q, xuddi shunday qaysiki bu rasmlar shakllangan yo'llarni tavsiflashda ham yakdillik yo'q. Albatta, muammoning o'ziga xosligi bu tushunchalarni talqin qilishda turlicha yondashuvlardadir. Dunyoning tasviri tafakkurda yaratiladi, tilda esa bunday qobiliyat yo'q. Tilning o'zini tafakkur bilan tenglashtirib bo'lmaganidek, "dunyoning lingvistik manzarasi"ni (LKM) dunyoning surati bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Xuddi shunday nuqtayi nazarni B.A.Serebrennikov ilgari suradi: "Til voqelikni aks ettirmaydi, balki uni ramziy ko'rinishda ko'rsatadi"[2. Tildagi inson omilining roli. 1988: 6]. Ko'rsatish natijasi esa tushunchalar (ma'nolar)dir. A.A.Zalevskyaning qayd etishicha, "tushunchalarni o'rganishda faqat dunyoning lingvistik tasviriga tayanish tendensiyasi

ham mahalliy, ham xorijiy mualliflar uchun xosdir", dunyoning lingvistik tasviri "tushunchalarni tavsiflash uchun dastlabki yagona ma'lumotlar manbai mavjud va ishonchli deb e'tirof etilganligiga e'tibor qaratadi" [3.Zalevskaya 2001: 33].

Dunyo surati nihoyatda murakkab, o'zgaruvcha hodisadir. Shu bilan birga, u har bir shaxsga xos bo'lgan doimiyliklarga ega bo'lib, odamlarning o'zaro tushunishini ta'minlaydi. "Dunyoning til manzarasi deganda biz semantikani ko'rib chiqishning ikki xil jihatini tushunamiz: yoki uning umumiy integral manzarasi, nisbatan doimiy, sekin rivojlanayotgan barcha lingvistik mazmunning yig'indisi yoki ma'lum bir til semantikasining o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni uni barcha boshqa tillardan ajratib turadi" [4.Karaulov 1976: 245].

Xulosa. Muayyan til hamjamiyatining oddiy ongida tarixan shakllangan va tilda aks ettirilgan dunyoning lingvistik manzarasi dunyo haqidagi g'oyalar to'plami, konseptuallashtirishning ma'lum bir faoliyat usuli deb hisoblaydigan mualliflar biroz boshqacha pozitsiyani egallaydilar. Dunyoni aks ettirish natijalarini tilda "obyektivlashtirish" asosida dunyoning lingvistik tasviri yaratiladi. Boshqacha qilib aytganda, ongning tashuvchisi til bo'lib, unda (leksik ma'nolarda) obyektiv dunyo, uning xususiyatlari, aloqalari va munosabatlari mavjudligining "qatlangan" ideal shakli ifodalanadi (A.A.Leontiev), u milliy ongni va umuman milliy madaniyatni shakllantiradi" [5.Dmitryuk, Dovgal 2002: 6].

Mentalitet xalq tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Biroq bu tushunchalar turli obyektlar bo'lib, ularni o'rganish va tavsiflashda turli yondashuvlar talab qilinadi. Tadqiqotchilar tushuncha sohasini bilim doirasi, fikr doirasi, fazoviy shakllanish tarzida ta'riflaydilar. [7.62] Sternin ma'lum darajada odamlarning mentalitetini belgilaydi: "Milliy konsepsiya sohasini tashkil etuvchi psixik birliklar kognitiv stereotiplar – voqelik haqidagi mulohazalarni shakllantirish uchun asosdir. Boshqa tomondan, milliy mentalitet tushunchalarning shakllanishi va rivojlanish dinamikasini boshqaradi – mavjud stereotiplar paydo bo'lgan tushunchalar mazmuniga ta'sir qiladi, tushunchalarda mustahkamlangan hodisalarga ba'zi baholarni beradi) [6.Popova, Sternin 2001: 67]. Konsepsiya sohasi shaxsning kognitiv va kommunikativ faoliyati orqali asta-sekin shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 Кубрякова Е. С. Эволюция лингвистических идей во второй половине 20 века (опыт парадигмального анализа) /Е. С. Кубрякова //Язык и наука конца XX века. - М., 1995.
2. Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира.-М.,Наука, 1988. –С. 24-25.
- 3.Залевская А. А. Текст и его понимание /А. А. Залевская. - Тверь: Тверской государственный университет, 2001. –С. 33.
4. Караулов Ю. Н. Общая и русская идеография /Ю. Н. Караулов. - М.» 1976. –С. 245.
5. Дмитриук Н. В. Языковое сознание русских /Н. В. Дмитриук, Л. П. Довгаль //Язык и мышление: Психологические и лингвистические аспекты: материалы Всероссийской научной конференции. -М; Пенза, 2002. –С. 6.
- 6.Попова З. Д. Очерки по когнитивной лингвистике /З. Д. Попова, И. А. Стернин. -Воронеж: Истоки, 2001. –С. 67.
7. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. 62-bet.

Shaxlo SATTOROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

ANDROGOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING MILLIY TARBIYAGA XOS FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya: maqola mazmunida androgogik yondashuv asosida talabalarning milliy tarbiyaga xos fazilatlarini shakllantirish pedagogika sohasining bugungi kundagi asosiy muammolaridan biri bo'lib mazkur mavzuning tadqiqot metodologiyasi, mavzuning tahlil va natijalari, mavzuga oid adabiyotlar tahlili va mavzuning yakuni sifatida xulosa va takliflar haqida so'z yuritilgan. Maqola mazmunida bildirilgan ma'lumotlardan mutaxassislik fanlari yuzasidan tashkil etiladigan ma'ruza, amaliy va seminar darslarida manba sifatida foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: androgogika, androgogik yondashuv, milliy tarbiya, fazilat, ezgu fazilatlar, o'zaro hurmat, ishonch, samimiylik, jamoa orasidagi ahllik.

Аннотация: в содержании статьи формирование качеств учащихся, специфичных для национального образования, является одной из основных проблем области педагогики сегодня, методология исследования данной темы, анализ и результаты темы, анализ литературы по теме, а также выводы и предложения по мере заключения темы обсуждаются. Информация, представленная в содержании статьи, может быть использована как источник для лекций, практических и семинарских занятий, организуемых по специальности.

Ключевые слова: андрогогика, андрогогический подход, национальное воспитание, добродетель, хорошие качества, взаимное уважение, доверие, искренность, нравственность в обществе.

Annotation: in the content of the article, the formation of students' qualities specific to national education is one of the main problems of the field of pedagogy today, the research methodology of this topic, the analysis and results of the topic, the analysis of the literature on the topic, and the conclusions and suggestions as the conclusion of the topic are discussed. The information provided in the content of the article can be used as a source for lectures, practical and seminar classes organized in the field of specialization.

Key words: androgogy, androgogical approach, national education, virtue, good qualities, mutual respect, trust, sincerity, morality among the community

Kirish (Introduction)

Androgogik yondashuv asosida talabalarning milliy tarbiyaga xos fazilatlarini shakllantirish pedagogika sohasining bugungi kundagi asosiy muammolaridan biridir. Sababiki bugungi kunda Respublika miqyosida Oliy ta'lim muassasalari soni va shakli kundan-kunga oshib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimining Oliy ta'lim bosqichi boshqa ta'lim tizimlaridan bir qancha farqli jihatlari bilan keskin ajralib turadi. Jumladan Oliy ta'limda ta'lim oluvchilarning yosh tafovutlari mavjud bo'lib bu tafovut ta'lim jarayonidagi o'ziga xos afzalliklar va kamchiliklari tarzida yuzaga chiqadi. O'rganish uchun muammo sifatida belgilab olgan mavzuyimiz doirasida androgogik yondashuvning asosini tashkil etuvchi jamoa orasidagi yosh jihatidan katta yoshdagilarga nisbatan o'zaro hurmat, ishonch, samimiylik, jamoa orasidagi ahllik kabi milliy tarbiyaga xos fazilatlariga ega bo'lish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

V. I. Solovnevning fikricha "Diagnostika markazida yaxlit (bir butun) odam, uning tasavvur shakli sifatida xizmat qiluvchi obraz (timsol) turadi. Turli-tuman bilimlarni sintezlash (yig'ish) natijasida odamning

ilmiy obrazi (yaxlit holda) dunyoga keladi ya'ni «kosmik, biologik, ijtimoiy va ruhiy ibtido birgalikda mujassamlashtiriladi». Mazkur yaxlit tasavvur – bilishning konkret, tarixiy darajasiga mos keladi". Ushbu doirada andragogik bilim, katta odamlarning o'zaro birgalikdagi faoliyati tizimida o'qitish bilan bog'liq muammolarni hal etishga yo'naltiriladi.

Amerikalik olim E. Torndaykning «Kattalarni o'qitish psixologiyasi» nomli kitobining nashrdan chiqishi olimlar, E. Erikson, R. Gould, O. Brim va boshqalarda kuchli qiziqish uyg'otdi. Andragogika rivojlangani sari institutlar, alohida kafedralar, dasturlar, malakali mutaxassislar tayyorlash uchun shart-sharoitlar, kattalarni o'qitish uchun o'quv qo'llanmalar yaratildi va bir qator kongresslar, konferensiyalar tashkil etildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Fazilat bu – yaxshi xulq-atvoriga olib keladigan xarakter yoki xulq-atvor demakdir. Insoniyat uchun fazilatlar qatorida donolik, jasorat, kamtarlik, saxiylik va o'zini tuta bilish, adolat, or-nomus, tinchlik kabi millatning ruhini tavsiflovchi ommaviy fazilatlar alohida e'tirof etiladi. Falsafada fazilat tushunchasi ma'rifat davrigacha axloqiy nazariyada asosiy rol o'ynagan. Biroq, kantizm va utilitarianizm paydo bo'lganidan keyin fazilatlar ikkinchi o'rinni egallab qoladi, chunki

faylasuflar fe'l-atvorga kamroq e'tibor berishgan va harakatlarning to'g'riligi yoki noto'g'ri ekanligiga ko'proq e'tibor berishgan. So'nggi yillarda yunonlarning Aflotun va Aristotel an'alariga amal qilib, fazilat etikasi deb ataladigan narsa qayta tiklanmoqda.

“Milliy tarbiya” tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, uning milliy qadriyatlar asosida olib boriluvchi maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyati, umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va mos betakror shakli, xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, tiklash va rivojlantirishdan iborat. Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi, biror-bir jamiyat imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.

«Andragogika» tushunchasi ilmiy atama sifatida 1833-yilda nemis pedagog-tarixchisi A. Kapp tomonidan fanga kiritilgan. Agar «Pedagogika» so'zi bilan yonma-yon, o'xshash tarzda talqin etilsa, kelib chiqishi grekcha so'zlardan (andros-erkak, odam; agogeyn-yetaklash) so'zlaridan iborat ekanligi oydinlashadi. So'zma-so'z tarjima qilinsa, andragogika bu – «katta odamni yetaklash» demakdir. Ushbu termin pedagogik voqelikka daxldorligi uchun, o'qitish yordamida yetaklash haqida so'z boradi.

Shunga ko'ra andragogik bilimlarning zamonaviy fanlar tizimida tutgan o'rni va tuzilishlarida o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy amaliyot sohasida andragogikani o'zlashtirish, kattalarga ta'lim berishning mohiyatidan kelib chiqqan holda kasbga oid yo'nalishlarni aniqlashtirish, bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatli munosabatlarni ko'zda tutadi.

Andragogikani o'quv fani sifatida tushunish uchun, uning mutaxassis tayyorlash tizimidagi o'rni va imkoniyatlarini belgilay olish muhim sanaladi. Ilmiy bilimlarning nisbatan yangi tarmog'i hisoblanuvchi andragogika, tiklanish jarayonini boshdan kechirmoqda. «Pedagogika» va «Andragogika» terminlarining o'zaro yaqinligi, ko'p yillardan buyon «Andragogika» tushunchasi pedagogika sohasiga yaqin tursada, kattalarga ta'lim berishning o'ziga xos jihatlari ham unutmazlik lozim. Mazkur qarama-qarshiliklar tufayli belgilanmagan. Ayrimlar uni pedagogikani bir bo'limi sifatida maktablarga pedagogika, boshlang'ich pedagogikasi kabi fanlar qatoriga qo'shadi. Boshqalar, o'qitish obyekti sanaluvchi katta odamning o'ziga xos tabiatini nazarda tutgan holda, andragogikani pedagogikadan alohida soha sifatida baholaydilar.

Mazkur nuqtayi-nazar tarafdorlari andragogikaning integrativ tabiatiga alohida urg'u beradilar. Bir narsa aniqki, andragogika fanlararo bog'liklikka ega.

Andragogikaning ta'lim nazariyasi va pedagogika bilan o'zaro uzviy aloqadorligi, ularning predmetini taqqoslaganda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Pedagogikaning umumiy tarzdagi predmeti, shaxsning pedagogik vokelikdagi shakllanish jarayonidir. Kattalarga ta'lim berish nazariyasi predmeti ijtimoiy-madaniy institut sifatida kattalarga bilim berish tizimidir. Andragogikaning o'ziga xos xususiyati esa, uzluksiz ta'lim jarayonida kattalarni o'qitish nazariyasi va metodikasi hisoblanadi.

Yuqorida tilga olingan barcha ilmiy izlanishlarning kesishgan nuqtasi, katta odamni o'rganish sohasiga ta'lluqlidir. Buning uchun esa, kimni yetaklayotganini, uning o'ziga xos tabiati va xususiyatlarini aniqlash talab etiladi.

Shunga ko'ra andragogikani, XX asrning 60-yillarida taniqli rossiyalik psixolog B. G. Ananov odamni o'rganuvchi fanlar tizimi deb atagan, ilmiy-amaliy sohalar bilan o'zaro uyg'unlik va hamkorlikda faoliyat ko'rsatishi zarur deb baholagan.

«Andragogika» atamasining birinchi marta qo'llanilishi XIX asming 30- yillarda Germaniya olimlari o'rtasida juda katta munozaralarga sabab bo'ldi.

Bunda aholining ongini rivojlantirishga, ularni bilimli bo'lishlariga katta e'tibor qaratilgan. XIX asming ikkinchi yarmida Rossiya va boshqa chet mamlakatlarda kattalarni o'qitish uchun kechki o'qishlar, yakshanba kunlari o'qish, xalq maktablari, kutubxona, muzeylar va o'quv dasturlari tashkil etildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Andragogik yondashuv asosida talabalarning milliy tarbiyaga xos fazilatlarini shakllantirish mavzusiga oid adabiyotlar sifatida quyidagi adabiyotlarni ko'rsatishimiz mumkin. O'. M. Asqarova, M. A. Abdullayeva, M. Boltayevalarning muallifligida yaratilgan “Andragogika” nomli o'quv qo'llanma mavjud bo'lib bu adabiyotning mazmunida hozirgi kunning ijtimoiy amaliyot sohasida andragogikani o'zlashtirish, kattalarga ta'lim berishning mohiyatidan kelib chiqqan holda kasbga oid yo'nalish, bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatli munosabatlarni ko'zda tutadi. Andragogikani o'quv fani sifatida tushunish uchun, uning mutaxassis tayyorlash tizimidagi o'rni va imkoniyatlarini belgilay olish muhim sanaladi. Qo'llanma oliy o'quv yurtining pedagogika mutaxassisligining ta'lim rejasi bosqichida tanlov fan sifatida o'qitiladi. Andragogikaning ta'lim nazariyasi va pedagogika bilan o'zaro uzviy aloqadorligi, ularning predmetini taqqoslaganda yaqqol ko'zga tashlanadi.

I. Saifnazarov, A. Muxtarov, T. Sultanov, N. Nazarov, N. Raximbabayeva, X. Doniyorov, F. Usmonovlarning “Falsafa” darsligida falsafa tarixi, ontologiya, gnoseologiya, antropologiya, ijtimoiy falsafa masalalari kiritilgan. Avvalgi “Falsafa” adabiyotlaridan farqi, unda falsafa fani iqtisod bilan bog'lab yoritilgan. Din falsafasi, O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishning iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy-huquqiy mexanizmlari berilgan. Darslik falsafa bilan qiziquvchi

barcha kitobxonlar, o'qituvchilar va barcha yo'nalishdagi talaba-yoshlarga mo'ljallangan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Xulosa sifatida aytish mumkinki, androgogik yondashuv asosida talabalarning milliy tarbiyaga xos fazilatlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari muammosini ilmiy-nazariy tahlil qilish, androgogik yondashuv asosida talabalarning milliy tarbiyaga xos fazilatlarini shakllantirish mavzusiga oid ilmiy adabiyotlarni o'rganish, androgogik yondashuv asosida talabalarning milliy tarbiyaga xos fazilatlarini shakllantirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish, androgogik yondashuv asosida talabalarning milliy tarbiyaga xos fazilatlarini shakllantirish metodikasini ishlab chiqish mazkur mavzu yuzasidan ilmiy tadqiqot ishi olib boruvchilarning asosiy vazifasi bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.A. X. Abdullayev, N. S. Raximov, M. O. Xadayev. "Katta yoshdagilarni o'qitish markaziga: qadam-baqadam". – T.: "CHASHMA", 2013-yil.
- 2.O'. M. Asqarova, M. A. Abdullayeva, M. Boltayeva. "Andragogika" o'quv qo'llanma. – Namangan, 2014-yil.
- 3.Z. T. Nishanova. "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya" darslik. – Toshkent: « O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018-yil. 600-bet.
- I. Saifnazarov, A. Muxtarov, T. Sultanov, N. Nazarov, N. Raximbabayeva, X. Doniyorov, F. Usmonov. "Falsafa" darslik. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2020-yil. 424-bet.

Shohida KARAMOVA,
Qarshi DU, dotsent

MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK SHE'RIYATIDA BADIYLIKNING ASOSIY MEZONLARI

Annotatsiya: badiiylik mezonlari xususida milliy adabiyotshunoslikdagi turli nazariy manbalarda ma'lumot berilgan, ayni vaqtda ushbu maqolada ham shu xususda maxsus to'xtalishga harakat qilingan. Va shu bilan bir qatorda badiiylik mezonlari mustaqillik yillarida muhim ahamiyat kasb etganligi, ijodkor shaxs o'zi qalamga olgan voqelikka munosabatini yangicha ijtimoiy-mafkuraviy kontekstda qayta ko'rib chiqishga, ayrim mavzu va obrazlarga qayta murojaat qilganligi haqida so'z boradi.

Tayanch so'z va iboralar: mezon, estetik subyekt, originallik, universallik, shartlilik, pafos, originallik.

Аннотация: различные теоретические источники отечественного литературоведения предоставили информацию о критериях творчества, в то же время в данной статье также предпринята попытка сосредоточить внимание на этом вопросе. Говорится также, что в годы независимости приобрели значение критерии художественности, что творческий человек переосмыслил свое отношение к действительности, которую писал, в новом социально-идеологическом контексте, по-новому обратился к некоторым темам и образам.

Ключевые слова и фразы: критерий, эстетический субъект, своеобразие, универсальность, условность, единство содержания и формы, пафос, оригинальность.

Annotation: various theoretical sources of domestic literary criticism have provided information on the criteria of creativity, at the same time, this article also attempts to focus on this issue. It is also said that in the years of independence, the criteria of artistry acquired significance, that a creative person rethought his attitude to the reality that he wrote in a new socio-ideological context, and turned to some themes and images in a new way

Key words and phrases: criterion, aesthetic subject, self-image, universality, conditionality, edinstvo soderjaniya and form, pathos, originality.

Badiiylik mezonlari xususida mulohaza yuritishdan oldin "badiiylik" va "mezon" so'zlarining ma'nolarini aniqlashtirib olsak. Manbalarga tayanilsa, "badiiylik" so'zining o'zagini tashkil qilgan "badia" arabcha so'z bo'lib, "yangilik" degan ma'noni bildiradi. [1.3]

Albatta, badiiylik ijodkor shaxsning badiiy matn yaratishda qay darajada o'ziga xoslikka, originallikka erisha olganini, yangilik yaratga olganini ko'rsatadigan jihat. Ayni vaqtda badiiylik, bizningcha, san'at asarini san'at asariga aylantiradigan bosh omildir. San'at qonuniyatlari asosida yaratilgan badiiy asarlar hamisha mo'jiza kabi bizni hayratga soladi, qayta-qayta o'qishga, fikrlashga majbur qiladi. Badiiylik,

ta'bir joiz bo'lsa, o'sha mo'jizaning sir-asroridir.

"Mezon" so'zi ham arabcha, "tarozi" degan ma'noni anglatadi. Demak, "badiiylik mezonlari" deganda san'at asariga xos bo'lgan badiiylikning o'lchovlari nazarda tutiladi. "Mezon" so'zining aniqlash, baholash ma'nolari bo'lganligi u "kriteriy" so'ziga yaqin turishi ko'rsatiladi, chunki bu so'z baho, baholash, qimmatini aniqlashni ham anglatadi". [1.5]

O'zbek adabiyotshunosligida ham badiiylik mezonlari tayin etilgan. Mazkur muammoga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar ham yaratilgan.

Badiiylik mezonlari xususida o'zbek adabiyotshunosligida dastlab akademik Izzat Sulton

mulohaza bildirgan. I. Sulton badiiylikning eng universal mezonlari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi: haqqoniylik, samimiylik, mazmun va shakl mutanosibligi, mazmun va shaklning tiniqligi, badiiy til. [3.230]

Professor U. To'ychiyev badiiylik mezonlarini ikkiga ajratadi: bosh va ikkilamchi mezonlar. Olim badiiylikning bosh mezonini sifatida iste'dodni ko'rsatadi. Ikkilamchi mezonlarga esa xosiyat mezonini, an'ana va yangilik mezonini, mahorat mezonini, ta'sirdorlik mezonini kiritgan.

B.Sarimsoqov badiiylikning umumiy mezonlari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi: mazmun va shakl (talab etilgan shakl) birligi va ularning uyg'unligi, tasvir yoki ifodaning haqqoniyligi, pafosning hayotiyliigi va tiniqligi, tasvir va ifodaning aniqligi, betakrorlik (originallik), estetik baho, shartlilik miqyosi va darajasi, til badiiyati. [3.87]

Ko'rinadiki, adabiyotshunoslarimiz badiiylik mezonlarini belgilashda deyarli hamfikr. Olimlarining tasniflarini umumlashtirib, badiiylik mezonlarini quyidagicha belgilash mumkin: obrazlilik, hayot haqiqati va mantig'iga muvofiqlik hamda shartlilik, mazmun va shakl birligi, pafos va ta'sirdorlik, ifodada tabiiylik va samimiylik, originallik, estetik baho, badiiy til.

Biz tadqiq etayotgan davr she'riyatida badiiylik mezonlari ichida badiiy til, ayniqsa, alohida ahamiyat kasb etdi. Milliy tilning bor boyligi, go'zalligi, bor imkoniyatlarini namoyish etish o'ziga xos tendensiyaga aylandi. Abdulla Oripov bir she'rida o'zbek tilining leksik imkoniyatlarini, leksik nozikliklarini nihoyatda zariflik bilan ko'rsatib berdi.

Ko'p qadimman,
 Karvon bilan zamonlar kechdim,
 Nor tuyaning norligi ham afsona ekan.
 Bir kun tuya ayronini shifo deb ichdim,
 Ona tuya nomi esa **arvona** ekan.
 Davronimni surganman ham oq otga minib,
 Hay-hay, uning qo'ltig'ida bor edi qanot.
 Vaqti kelib, shon-shuhratdan xayolim tinib,
 Bilsam, o'sha oq otimni derkanlar **bo'z ot**.
 Yuksak Hisor tog'larining bag'rida qat-qat,
 Toshni yorib o'sib yotgan na'matak edi.
 Ustoz Oybek she'rin eslab shoir Xolmamat
 "Bizning joyda uning nomi **hululu**", - dedi.
 Sen tunganmas chashmadirsan, oh, ona tilim,
 Yetmish ikki tomirimga mavjlaring bordi.
 Bir kun tinib qolgan edi bog'da bulbulim,
 "**Sanduvochim!**" - degan edim, sayrab yubordi.
 Inson degan qutlug' so'zning tenggi yo'q hech bir,
 U tanhodir, falaklarning quyoshi misol.
 Lekin manov **bolakay**dir, bunisi **o'smir**,
 Bu **yigit**dir, bu zot esa **bobo, oqsoqol**.

Ajratib ko'rsatilgan barcha so'zlar milliy tilimizning sinonimlar boyligini, turdoshlikning umumiylik va xususiylik sathida lisoniy nozik

ayirmalarni namoyish qiladi. Aytish mumkinki, Abdulla Oripov mazkur she'ri orqali Alisher Navoiy tomonidan boshlangan an'anani o'ziga xos tarzda davom ettirdi. "O'zbek tilim" she'ri XX asrda "Sen yo'qolgan kuning, shubhasiz, / Men ham to'ti bo'lib qolaman", - deya ona tiliga qasida bitgan shoirning XXI asrdagi she'riy "Muhokamat ul-lug'atayn"i bo'ldi.

Tadqiq etilayotgan davr she'riyatida bir tarafdan eskirgan, kam iste'mol qilinadigan yoki unutilgan, mumtoz adabiyot bag'rida qolib ketgan so'zlar, sintaktik qoliqlar, tasvir vositalari faollashdi. Ikkinchi tarafdan esa so'zlashuvga xos so'zlar va birliklar, neologizmlar, "noshoirona" so'z va ifodalar adabiy iste'molga jalb etildi.

Faxriyor hatto she'riy to'plamini to'g'ridan-to'g'ri shoironalik bilan "Handasaviy bahor" emas, "Geometrik bahor" deb atadi. "Ko'zlariga yosh ham olmaydi / Vatan uchun jamoat joyda", - deya "jamoat joyi" degan o'ta noshoirona, publitsistik uslubga xos sxematik birlikni qo'llashdan istihola qilmaydi. Bir she'rini esa "Kutilmaganlik" deb ataydi - o'zbek tili imkoniyatida mavjud, ammo kam istifoda so'z yasash usulidan foydalanadi. Yana bir o'rinda "ikkilanish" shaklidagina mavjud so'z formasidan foydalanib, "uchlanish"ni yasaydi va she'riga sarlavha qilib qo'yadi. "Nega" degan sabab ravishi o'rnida qo'llanadigan olmoshga dadillik bilan, hech qachon qo'shilmagan va kategorial jihatdan qo'shish mumkin bo'lmagan "-lar" ko'plik qo'shimchasini qo'shadi: "Boshing uzra bobo Turkiston bo'zlar: / "Nega biz ayrildik, negalar sendan?" - aynan ana shu nostandart grammatik shakl vositasida mashhur rassomidan ayrilgan el musibatining darajasini ifoda etmoqchi bo'ladi.

Aruznavis, tilning eng inja jihatlarini his etgan va milliy tilning sobit kurashchisi bo'lgan Erkin Vohidov ham tadqiq etilayotgan davrda yozilgan she'rlarida badiiy til borasida butunlay yangi usullarni dadillik bilan istifoda etdi. Misol uchun quyidagi she'rga diqqat qarataylik:

Mening yurtim bugun endi
 Jahon birlan tutashgandir.
 Tutash taqdir, tutash ruhdur,
 Tutash jondir, tutash qondir.
 Nedir xat porlaguvchi
 Poyitaxt darbozasi uzra.
 Bu yurtga xush kelibsiz,
 Marhabo, "Welcome to Toshkan"dir. [4.149]

Shoir she'rga umuman nomuvofiqdek bo'lib ko'ringan inglizcha "Welcome to Toshkan" jumlasini an'anaviy, hatto aruzda yozilgan matnga nihoyatda latofat bilan uyg'unlashtiradi. Bu yerda hech qanday kinoya yo'q, muallif matla'da e'lon qilingan "Mening yurtim bugun endi / Jahon birlan tutashgandir" tezisini maqta'da shunday sharhlash bilan g'azalni kulminatsiyaga olib chiqadi. "Uchrashuv" she'ri ham jahon bilan tutashish shavqini ifoda etadi va shoir

Yogann, Gyote, Mefistofel, Faust ismlarini she'riy matnda muvaffaqiyat bilan qo'llaydi. Yogann so'zini hatto qofiyaga aylantiradi.

Shavkat Rahmon, Asqar Mahkam kabi shoirlar esa adabiy tilda qo'llanmaydigan tabu va so'kinch so'zlarni ham badiiy matnga olib kirdilar. Bu bevosita ijodkor shaxsning ijtimoiy voqelikka, ayrim noshoista odamlarga bo'lgan nafrat va g'azabining darajasini ko'rsatishga yo'naltirildi.

Badiiylik mezonlari ichida badiiy tilga e'tiborning kuchayishi shunchaki faqat adabiyot taraqqiyotining

spetsifik tendensiyalari bilan bog'liq bo'lmay, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning ham mahsuli deymiz. Chunki sho'ro davrida milliy tillarning kamsitilishi, iste'mol doirasining torayib, maishiy darajalarga tushib qolishi ijtimoiy fojiga aylandi. Shoir va yozuvchilar peshqadam ziyolilar safida turib, ona tilining qadr-qimmatini uchun kurashdilar. Bu kurash, ayniqsa, mustaqillik arafalarida va undan keyingi yillarda kuchaydi. Mustaqillik davri o'zbek she'riyatida badiiy til mezonining old planga chiqishi ana shu kurashning bir qismi o'laroq ko'zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To'ychiyev U. O'zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2011.
2. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: “O'qituvchi”, 1986.
3. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent, 2004.
4. Vohidov E. Saylanma. 3 jildlik. 3-jild. – Toshkent, 2003.

Aziza QOBILOVA,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

TALABALARNING INNOVATSION KOMPETENTLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya: mazkur maqola mazmunida talabalarning innovatsion kompetentlik sifatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari muammosi bugungi kunning asosiy masalalaridan biri ekanligi haqida so'z yuritilgan bo'lib, bu mavzuning tadqiqot metodologiyasi, mavzuga oid tahlil va natijalar hamda mavzuning xulosa va takliflari haqida fikr va mulohazalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: *innovatsiya, innovatsion faoliyat, ijodiy faoliyat, shaxsiy maqsad, ijodiy muvaffaqiyat, kasbiy mustaqillik.*

АННОТАЦИЯ: в содержании данной статьи говорится, что проблема педагогических условий развития инновационных компетентностных качеств учащихся является одной из основных проблем современности, а методология исследования данной темы, анализ и результаты темы, и выделены выводы и предложения по теме.

Ключевые слова: *инновация, инновационная деятельность, творческая деятельность, личная цель, творческий успех, профессиональная независимость.*

Annotation: in the content of this article, it is said that the problem of pedagogical conditions for the development of innovative competence qualities of students is one of the main issues of today, and the research methodology of this topic, the analysis and results of the topic, and the conclusions and suggestions of the topic are highlighted.

Key words: *innovation, innovative activity, creative activity, personal goal, creative success, professional*

Kirish (Introduction)

Respublikamizda mustaqillikdan keyin kadrlar tayyorlashning yangi tizimi yaratildi. O'qitish metodikasini takomillashtirish va optimallashtirish, ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni, o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini integrativ qo'llash bo'yicha salmoqli izlanishlar olib borildi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq “Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Jumladan,

ta'limdagi maqsad va qadriyatlarining o'zgarishlari sharoitda kompetentli yondashuv asosida bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalarini hamda innovatsion faoliyatning reproduktiv, produktiv, kreativ darajalarini puxta egallashlari uchun didaktik shart-sharoitlarni takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli 2019 yil 8 oktyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5847-sonli Farmonlari, 2017 yil 20

apredagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-2909-sonli, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risidagi” PQ-3775-sonli, Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Respublikamizda oliy ta’lim tizimi rivojlanishining hozirgi zamon bosqichi ta’lim muassasalarida kasbiy tayyorlash jarayonini tashkil etish, uning mazmuni va metodikligiga va samaradorligini oshirishning pedagogik yo’llarini izlashga sifat jihatdan mutlaqo yangi talablar qo’ymoqda. Oliy ta’lim sohasidagi konstruktiv va real harakatlar strategiyasini jamiyatimizning kasbiy ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik va madaniy rivojlanishi istiqbollari hisobga olgan holda qurish taqozo etilmoqda.

Bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorlashning turli muammolari bo’yicha R. X. Djurayev, N. N. Azizxodjayeva, A. R. Xodjabayev, U. I. Inoyatov, N. A. Muslimov, Q. T. Olimov, E. O. Turdiqulov, M. B. O’razova, J. A. Hamidov, Z. K. Ismailova, X. F. Rashidov, O. Q. Tolipov, Sh. S. Sharipov, D. O. Ximmataliyev, B. S. Nuridinov, B. A. Nazarova va boshqalar samarali izlanishlar olib borishgan.

Xorijiy mamlakat olimlari J. D. Russell, P. Drapeau, G. Spenser, A. Blum, R. Mohan, H. Miyakawa, G. Kulanthavel kabi olimlarning tadqiqotlarida ta’lim jarayonida bo’lajak mutaxassislarning innovatsion kompetentligini shakllantirish, bo’lajak pedagoglarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish, kasbiy-pedagogik yetuklik muammolari, pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish ko’nikmalarini shakllantirish nazariyasi va amaliy yo’nalishlari bo’yicha ilmiy-pedagogik tadqiqotlar olib borishgan.

Tahlil va natejalar (Analysis and results)

Hozirgi jamiyat, madaniyati va ta’lim taraqqiyoti bo’lajak pedagoglarning innovatsion faoliyatga bo’lgan ehtiyojini quyidagilar bilan o’lchaydi:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta’lim tizimi, metodologiya va o’quv jarayoni texnologiyasini tubdan yangilashni talab qiladi, yangiliklarni yaratish, o’zlashtirish va foydalanishlardan iborat bo’ladi;

2. Ta’lim mazmunini insonparvarlashtirish doimo o’qitishning yangi tanqidiy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;

Pedagog innovatsion faoliyatining tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan shartlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me’yorlarga – yangilik – maqbullik, yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo’llash

imkoniyatlari kiradi. Pedagogning innovatsion faoliyati - o’z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirishni belgilab beradi

V.A. Slastininning fikriga ko’ra innovatsion faoliyat tadqiqotlari pedagogning innovatsion faoliyatga hozirligi me’yorlarini belgilashga imkon beradi, hamda quydagilarda aks etadi.

1. Innovatsion faoliyatga bo’lgan zaruriyatni anglash;

2. Ijodiy faoliyatga talab qilinishiga tayyorgarlik;

3. Shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtirish;

4. Innovatsion faoliyatni ijro etish texnologiyasiga tayyorgarlik darajasi.

Innovatsion jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlarining pedagogik asoslarini o’rganish o’quv jarayonini zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari yutuqlari asosida, jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi. Demak, pedagog innovatsion kompetentlik mazmunidan kelib chiqishiga ko’ra yangi pedagogik texnologiyalarning, nazariyalarning, konsepsiyalarning, tadqiqotlarning foydalanuvchisi, targ’ibotchisi va eng asosiysi muallifi sifatida namoyon bo’ladi.

Hozirgi madaniyat va ta’lim taraqqiyoti sharoitida bo’lajak pedagogning innovatsion faoliyatga bo’lgan talablari quyidagilar bilan aniqlanadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta’lim tizimi metodologiya va o’quv jarayonining texnologiyasini tubdan yangilanishni talab qiladi. Bu sharoitda pedagog innovatsion faoliyatini, pedagogik yangiliklarni yaratish, o’zlashtirish va foydalanishdan iborat bo’ladi;

- ta’lim mazmunini insonparvarlashtirish, o’qitishning yangi shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo etadi. O’qituvchi innovatsion faoliyatining tahlili yangilik kiritishning samarasini belgilovchi muayyan me’yorlardan foydalanishni talab qiladi.

Innovatsion faoliyatning eng muhim masalalaridan biri - o’qituvchi shaxsi: u novator, sermahsul ijodiy shaxs, keng qamrovli qiziqish, ichki dunyosi boy, pedagogik yangilikka o’ch bo’lishi lozim. Innovatsion faoliyat motivatsion, texnologik va refleksiya qismlardan tashkil topadi. Oliy ta’limda innovatsion faoliyatni tashkil etishda talabalarning bilish faoliyati va ularning o’zlarini boshqa olishi alohida ahamiyatga ega. Innovatsiya jarayonlar, funksiyalar, mexanizmlar va uni amalga oshirish texnologiyalar va boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o’rganish o’quv jarayonini zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari yutuqlari asosida tashkil etish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Yevropa mamlakatlari o’qitish tizimida avj olgan kompetensiyaviy yondashuv Rossiya pedagog olimlarini chuqur izlanishlar olib borishga chorladi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida kompetensiya masalasining dolzarbligi eng avvalo, o'qituvchi va pedagogning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va takomillashtirish deb topildi. Agar biz AQSh oliy pedagogik ta'limi tizimi faoliyatiga nazar tashlamoqchi bo'lsak, B. D. Vulfson, T. N. Kurilova, Z. A. Molkova va boshqalarning ilmiy ishlarini, agar AQSh pedagogik ta'limining maqsadlari haqida bilmoqchi bo'lsak, N. D. Nikandrova, V. Ya. Pili povskiy, bo'lg'usi o'qituvchilarning kasbiy pedagogik ta'limi bo'yicha G. G. Agapova, O. O. Borovikova, V. S. Budenko va boshqalarning ishlarini, AQSh o'qituvchilarining malaka oshirish tizimi haqida esa V. B. Gargay, N.I.Kustinova va boshqalarning ishlariga nazar tashlasak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Yuqorida nomlari tilga olingan olimlarning ilmiy ishlaridan Rossiya va AQSh ta'lim tizimi bir-birini to'ldirib boyitganligini tasavvur qilishimiz mumkin. AQSh, Kanada, Avstraliya va bir qator Yevropa mamlakatlarida pedagogik kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimi yaratilganligi ko'zga

tashlanadi va ular bu muammoni ma'lum bir tizimga solib keng o'rganayotganligini aytish mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendations)

Bo'lajak maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining innovatsion kompetentligi Oliy ta'limdagi o'qitish, auditoriya va auditoriyadan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jarayonlari natijasida paydo bo'ladi, hamda maktabgacha ta'lim tashkilotidagi faoliyati vaqtidagi pedagogik jarayonni samarali boshqarish va boshqa xilma-xil faoliyatlar davomida rivojlanadi. Shu asnoda ularning inovatorligi amaliy ishlaridagi muvaffaqiyati uning bola xatti-harakatining sabablarini qanchalik to'g'ri aniqlanganligiga, xatti-harakat sabablaridan kelib chiqib, aniq pedagogik maqsadni qanchalik to'g'ri ifodalaganligiga, oldiga qo'ygan maqsadiga erishishning optimal usullarini qanchalik to'g'ri tanlanganligiga hamda ularni real pedagogik jarayonda mohirlik bilan qanchalik joriy qila olganiga bog'liq.

Fodalanilgan adabiyotlar

1. Axmedova Mukarram Tursunaliyevna Pedagogik kompetentlik uslubiy qo'llanma –T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2018-yil 80-bet
2. Elmuratova D, Misirova N. "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" O'quv qo'llanma, "Guliston" 2021-yil 161-bet.
3. M. H. Muslimov, N. A. Usmonboyev, D. M. Sayfurov, A. B. To'rayev "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" –T.: 2015-yil, 120-bet.
4. Saidahmedov N. «Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar». – T.: O'zMU OPI, 2003. 68-b.

Sanjar MAVLYANOV,

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

O'ZBEK TILI DIPLOMATIK TERMINLARINING YASALISH QOLIPLARI

Annotatsiya: maqolada o'zbek tili diplomatik terminlarning yasaliş qoliplari, ularning tuzilishi ko'ra guruhlariga ajratilishi haqida ma'lumotlar tahlilga tortilgan. Maqolada ayrim diplomatik terminlarning semantikasining xususiyatlari bayon etilgan. Ushbu maqola materiallaridan tilshunoslar, diplomatiya sohasi bilan shug'ullanadigan odamlar va tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

Tayanch so'zlar: *diplomatik termin, sodda, qo'shma, gibrid, juft, birikmali, qisqartma terminlar, ot, sifat, fe'l so'z turkumlari.*

Abstract: the article analyzes the Uzbek language diplomatic terms, their classification into groups according to their structure. The article describes the features of the semantics of some diplomatic terms. The materials of this article can be used by linguists, people involved in the field of diplomacy and researchers.

Key words: *diplomatic terms, simple, compound, hybrid, double, compound, abbreviation terms, noun, adjective, verb.*

Абстракт: в статье анализируются дипломатические термины узбекского языка, их классификация на группы по структуре. В статье рассмотрены особенности семантики некоторых дипломатических терминов. Материалы данной статьи могут быть использованы лингвистами, людьми, работающими в сфере дипломатии, и исследователями.

Ключевые слова: *дипломатические термины, простые, сложные, гибридные, двойные, составные, термины-аббревиатуры, существительное, прилагательное, глагол.*

O'zbek tili diplomatik terminlari tuzilish jihatdan xilma-xil bo'lib, ularning o'ziga xos jihatlarini farqlash lozim. Kuzatishlar asosida tilimiz tarkibida iste'molda bo'lib kelayotgan o'zbek tili diplomatik terminlarini tuzilishiga ko'ra quyidagicha guruhlariga ajratish mumkin:

- 1) sodda terminlar;
- 2) qo'shma terminlar;
- 3) gibrid terminlar;
- 4) juft terminlar;
- 5) birikmali terminlar;
- 6) qisqartma terminlar.

Sodda terminlar. Sodda diplomatik terminlar bir asosdan iborat bo'lib, ularda shakliy-ma'noviy yaxlitlik ko'zga tashlanadi. Diplomatik terminlarning sodda tuzilishli turiga mansublari katta miqdorni tashkil etadi: *holat, ilova, dushman, xiyonat, ziddiyat, fitna, haqorat, nazorat, vakil, qochoq, tashabbus, hushyor, chegara, tartib, hudud, ittifoq, sulh, elchi, bitim, deklaratsiya, konvensiya, memorandum, strateg, sammit, tranzit, taktika, razvedka, agent, status, immigrant, protokol, bargon, nota, pakt, attashe, genotsid, arbitraj, dissident, skrining, diplomat, manuver, konsul, viza, protektorat, vakillik, kelishuv, hamkorlik, vositachilik, sheriklik, bo'ysunmaslik, maslahatchi, xushmuomalalik, yetakchilik, muvofiqlik, bosqinchilik, ittifoqchi, agentlik, josuslik, fuqarolik, konsullik, yaxlitlik* kabilar shular jumlasidandir.

Ot turkumiga mansub sodda terminlarning aksariyati o'zlashma qatlamga oid. Fe'l, sifat turkumiga mansub o'z qatlam birliklari ham sodda diplomatik terminlarni hosil qilishda asosiy o'rinda turadi. Biroq bunday termin-leksemalarning asos qismlari aksar hollarda o'zlashma qatlamga oid bo'ladi. Shu asosda o'zbek terminosistemasida mavjud diplomatiyaga oid sodda terminlarni derivativ xususiyatlari asosida ikki guruhga bo'lish mumkin: a) sodda tub diplomatik terminlar; b) sodda yasama diplomatik terminlar.

Ilova, dushman, xiyonat, ziddiyat, fitna, haqorat, nazorat, vakil, qochoq, tashabbus, hushyor, chegara, tartib, hudud, ittifoq, sulh, elchi, bitim, deklaratsiya, konvensiya, memorandum, strateg, sammit, tranzit, taktika, razvedka, agent, status, immigrant, protokol, bargon, nota, pakt, attashe, genotsid, arbitraj, dissident, skrining, diplomat, manuver, konsul, viza, protektorat kabilar sodda tub diplomatik terminlar sirasiga kiritilsa, vakillik, kelishuv, hamkorlik, vositachilik, sheriklik, bo'ysunmaslik, maslahatchi, xushmuomalalik, yetakchilik, muvofiqlik, bosqinchilik, ittifoqchi, agentlik, josuslik, fuqarolik, konsullik, yaxlitlik kabilar sodda yasama diplomatik terminlar hisoblanadi.

Ko'rinadiki, mazkur sistema tarkibidan joy olgan yasama sodda diplomatik terminlar miqdori ham anchani tashkil etmoqda. Yasama leksemalarning shakllanishida asosan [ot+lik] va [sifat+lik] qoliplari ustuvordir. Birinchi qolipning birinchi uzvini

sistemaga mansub tub diplomatik terminlar to'ldirib keladi. Xususan, [xushmuomala+lik], [muvofiq+lik], [agent+lik], [josus+lik], [fuqaro+lik], [konsul+lik] kabi.

Shu o'rinda sodda diplomatik terminlardan ayrimlarining struktur xususiyatlari va semantik izohini keltiramiz: diplomatiyada ko'p qo'llanuvchi terminlardan biri *agent* termini bo'lib, boshqalar nomidan harakat qiladigan vakil ma'nosini anglatadi. Shu bilan birga, sohada "diplomatik vakolatxonaning boshlig'i yoki diplomatik xodimlar guruhi a'zosi, diplomatik vakolatxonaning vazifalarini bajarishda bevosita ishtirok etuvchi mansabdor shaxs"[1] ma'nolarini ham ifodalab keladi.

Ana shunday terminlardan biri *immigrant* termini bo'lib, ushbu tushuncha o'z semantik mohiyatida fuqaroligi bo'lmagan yoki boshqa davlat fuqarolarining ma'lum davlatga vaqtincha yoki doimiy yashash uchun kelishi ma'nosini mujassamlaydi. Xalqaro atama hisoblanadi.

Nota diplomatik yozishma hujjati. Xalqaro amaliyotda bu hujjatning ikki turi **verbal nota** (vazirlik yoki chet el diplomatik vakolatxonasining faoliyati davomida paydo bo'ladigan turli savollar bayon qilinadi) va shaxsiy nota (tanish rasmiy shaxslarga yoziladigan yarim rasmiy shaxsiy xat) qo'llaniladi.

Dissident. Bu termin diplomatiyada mavjud belgilangan siyosatga e'tiroz bildirgan, rasmiy siyosatga qarshi bo'lgan shaxsni ifodalab keladi.

Qo'shma terminlar. Qo'shma diplomatik terminlar birdan ortiq asosning o'zaro birikib, qo'shma so'zga aylanishidan hosil bo'ladi. Diplomatiya terminlari tizimida qo'shma terminlarga *elchixonona, ishonchnoma, shartnoma, flagkema, vakolatxonona* kabilar kiritishimiz mumkin. Qayd etilgan terminlardan ayrimlarining izohini berib o'tamiz:

Elchixonona qabul qiluvchi davlat hududida akkreditatsiya qilingan davlatning organi bo'lib, bu bir davlatning chet davlatdagi diplomatik vakolatxonasi hisoblanadi. Bu tushunchani ifodalash uchun yana bir shu tipdagi termin **vakolatxonona** birligi ham qo'llanadi. Shuningdek, "diplomatlar yashaydigan yoki ishlaydigan bino" [2], "bir mamlakatdan ikkinchisiga yuborilgan diplomatik delegatsiya" [3] ma'nolarini ham anglatib kelishi mumkin. *Elchixonona* termini lug'atlarda quyidagicha ta'riflanganligini ham kuzatish mumkin: "Elchixonona bu bir davlatning chet davlatdagi Favqulodda va Muxtor elchi boshchiligidagi eng yuqori darajadagi diplomatik vakolatxonasi" [4].

Gibrid terminlar. Bunday terminlar o'zbek diplomatiya terminologiyasidagi yangi tipdagi qo'shma terminlar hisoblanadi. *Gibrid* so'zi keng ma'noda "turli til elementlaridan tuzilgan so'zlar sifatida qaraladi" [5].

Qayd etish joizki, o'zbek diplomatiya terminologiyasidagi gibrid qo'shma terminlar asosan internatsional termin elementlari, prefiksial va sufiksial morfemalar orqali hosil qilinadi. *Geosiyosat*,

transchegara, transmiyliy, yevroitifoq singari gibrid qo'shma terminlarning birinchi komponentlari (geo-), (trans-), (yevro-) ana shunday internasional termin elementlar, ikkinchi komponentlari esa o'zbekcha so'zlardir.

Bu tipdagi terminlar sirasida keltirilgan geosiyosat termini mamlakatning tashqi siyosatiga uning joylashuvi, demografiyasi va boshqa jihatlarining ta'siri ma'nosini ifodalab keladi. Ana shunday terminlardan biri transmilliy termini bo'lib, bu tushuncha asosan korporatsiyalar faoliyati bilan bog'liq holda qo'llaniladi. Bunday korporatsiyalar tashkiliy jihatdan bosh kompaniya asosiy kapitalining sho'ba korxonalar kapitalida qatnashuvi tamoyiliga asoslanuvchi, operatsiyalarining kamida 1/4 qismini mamlakat tashqarisida, o'zi ro'yxatga olingan chet mamlakatda amalga oshiradigan, xorijiy aktivlarga ega bo'lgan yirik korporatsiya hisoblanadi.

Juft terminlar. Diplomatiya terminlari tizimida juft terminlar kam uchrasa-da, diplomatik munosabatlarda ularning o'rni katta hisoblanadi. Chunki ularning semantik mohiyatida sohaning muhim tushunchalari munosabatlar bilan bog'liq ravishda aks etadi. *Dengiz-vaqti, ochiq-dengiz, imo-ishora, odob-axloq, qarama-qarshilik* kabilar juft diplomatiya terminlaridan hisoblanadi. Ulardan ayrimlarining izohini berib o'tamiz:

Imo-ishora fikr yoki hisni ta'kidlash uchun qo'llar yoki tananing harakatini ifodalaydi. Bu jihat diplomatik faoliyatda katta ahamiyatga ega bo'lib, so'z bilan ifodalab bo'lmagan muayyan tushunchalarni imo-ishoralar orqali tushuntirish mumkin bo'ladi.

Qarama-qarshilik dushmanlik yoki raqobatda bo'lganidek qarshilik qilishni ifodalab keladi. Bu odatda ma'lum mamlakatlarning qarashlarini ko'rsatishda namoyon bo'ladi. Xalqaro munosabatlarda yaqin aloqada bo'lgan davlatlar ham ba'zi masalalarda qarama-qarshi oppozitsiyada bo'lib qolishi mumkin.

Birikmali terminlar. Barcha terminosistemalarda birikma shaklidagi terminlar ko'p miqdorni tashkil qiladi. Bu diplomatiya terminosistemasiga ham tegishli.

Birikmali diplomatik terminlar boshqa murakkab leksemalar kabi birdan ortiq leksik birliklardan tashkil topadi va ko'pincha birikma shaklida namoyon bo'ladi. Birikmali diplomatik terminlar sirasiga *tashqi savdo, xalqaro transit, avtoritar tuzum, diplomatik til, diplomatik huquq, xalqaro huquq, elchi muovini, favqulodda elchi, diplomatik immunitet, diplomatik korpus, xalqaro dengiz huquqi, bosh konsullik, dengizga chiqmagan, diplomatik etiket, vakolatli diplomat, tashqi ishlar, tashqi yordam, tashqi siyosat, yolg'onchi davlat, ichki hudud, xalqaro zona* kabilarni kiritishimiz mumkin.

Birikmali diplomatik terminlar struktur jihatdan ikki uzvli, uch uzvli, to'rt uzvli va besh uzvli terminlarga bo'linadi.

Ikki uzvli murakkab birikmali diplomatik

terminlar.

Bunday terminlar sodda so'z birikmasi shaklida bo'lib, ularda ma'noviy yaxlitlik ko'zga tashlanadi. Ammo shaklan hokim-tobelik munosabati ko'rinadi.

Tashqi savdo, xalqaro transit, avtoritar tuzum, diplomatik til, diplomatik huquq, xalqaro huquq, elchi muovini, favqulodda elchi, diplomatik immunitet, diplomatik korpus, bosh konsullik, dengizga chiqmagan, diplomatik etiket, vakolatli diplomat, tashqi ishlar, tashqi yordam, tashqi siyosat, yolg'onchi davlat, ichki hudud, xalqaro zona, siyosiy boshpana, milliy rejim, millatlar ittifoqi, mezbon mamlakat, konsullik huquqi, konsullik xizmati, konsullik okrugi, konsullik munosabatlari kabilarni birikmali diplomatik terminlar sirasiga kiritishimiz mumkin. Yuqoridagi terminlardan ayrimlarining izohini berib o'tamiz:

Tashqi savdo – ma'lum davlatda ishlab chiqarilgan tovarlarni oldi-sotdi qoidalari bo'yicha boshqa mamlakatlarga eksport qilish, boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarni ma'lum davlatga import qilish.

Tashqi siyosat – mamlakatning dunyo davlatlari, xalqaro tashkilotlari bilan munosabatlarini yo'lga qo'yishdagi xalqaro xatti-harakatlari majmuyini ifodalaydi.

Xalqaro huquq bu "davlatlar tomonidan individual yoki jamoaviy ravishda yaratilgan va ta'minlanadigan davlatlararo munosabatlarni va ularning umumiy manfaatlar sohasidagi boshqa munosabatlarini tartibga soluvchi mustaqil huquq tizimi" [6].

Diplomatik huquq – davlatlararo munosabatlarni o'rnatish va amalga oshirishni muvofiqlashtiruvchi tartib, davlat organlari maqomi va vazifalariga tegishli xalqaro-huquqiy me'yorlar tizimidir.

Uch uzvli murakkab birikmali diplomatik terminlar. Uch uzvli so'z birikmasi zanjiri termin sifatida ma'no ifodalaydi va bir tushunchani anglatadi. Bunday murakkab terminlar uch mustaqil lug'aviy ma'noli birlikdan tashkil topgan bo'ladi. *Xalqaro dengiz huquqi, tashqi ishlar vazirligi, hududdan tashqari hududiylik, xalqaro huquq normalari, tashqi siyosiy faoliyat, diplomatik korpus vakili, tashqi ishlar idorasi, tashqi ishlar kollegiyasi, tashqi iqtisodiy bitim, tashqi razvedka (xizmati), tashqi siyosiy axborot, tashqi siyosiy vositalar, tashqi siyosiy doktrinalar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, xalqaro diplomatiya akademiyasi, xalqaro munosabatlar nazariyasi, xalqaro nohukumat tashkilotlar, xalqaro tanglikni yumshatish, xalqaro huquq instituti, xalqaro huquq subyektlari, davlatlarning suveren tengligi, ikki davlat fuqaroligi* singari terminlar uch uzvli murakkab birikmali diplomatik terminlar hisoblanadi. Quyida keltirilgan terminlardan ayrimlarining izohini berib o'tamiz:

Tashqi ishlar idorasi – markazlashtirilgan davlat boshqaruv apparati bo'lib, mamlakatning tashqi munosabatlarini tashkil etuvchi, muvofiqlashtiruvchi,

diplomatik faoliyatini bevosita amalga oshiruvchi tuzulma.

Tashqi iqtisodiy bitim – ma’lum davlat savdo korpusining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida xorijiy hamkorlari bilan tuziladigan bitimlari, turli mamlakatlar o’rtasida iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish.

Tashqi siyosiy axborot – o’z hukumatini qabul qiluvchi mamlakatdagi vaziyat va voqealar to’g’risida xabardor qilish, qabul qiluvchi mamlakatni o’z davlatining siyosati bilan tanishtirish kabi jihatlarni o’z ichiga oladi. Bu vazifalar davlat vakolatxonasining zimmasidadir. Ushbu jihatlar tashqi siyosiy axborot hisoblanadi.

Fuqaroligi bo’lmagan shaxslar – fuqaroligi bo’lmagan, muayyan davlat hududida doimiy yoki vaqtincha istiqomat qilayotgan shaxslar [7].

To’rt uzvli murakkab birikmali diplomatik terminlar. Uch uzvli so’z birikmasi zanjirida bo’lganidek to’rt uzvli murakkab birikmali diplomatik terminlar ham birikma shaklida bir tushunchani anglatadi. Konsullik muassasasining rasmiy yozishmasi, diplomatik korpusga xizmat ko’rsatish kabi birikmalari yaxlit holda kelib yagona diplomatik tushunchani ifodalaydi.

Besh uzvli murakkab birikmali diplomatik terminlar. Bunday terminlar diplomatiya terminlari orasida ko’p bo’lmasa-da, mavjudlarining semantik maydoni keng bo’lib, ular odatda yaxlit tushunchani bildiradi. Tarkibidagi har bir komponentning o’zi ham mustaqil ravishda diplomatiyada mavjud bo’lgan tushunchalardan birini ifodalab kelishi mumkin. Bunday terminlar sirasiga diplomatik korpusga xizmat ko’rsatish byurosi, diplomatik vakolatxonaning xizmat ko’rsatuvchi personal, inson huquqlari bo’yicha umumjahon deklaratsiyasi singari terminlarni kiritishimiz mumkin.

Qisqartma diplomatik terminlar. Birikma terminlardan yasalgan qisqartma terminlar diplomatiya terminosistemasida anchagina bo’lib, ular asosan diplomatiyada mavjud bo’lgan ma’lum bir tushunchalarni bir necha komponentlarda ifodalab keluvchi leksik ifodalarning qisqartirib qo’llanishi orqali shakllanadi. Shuningdek, diplomatiyada qisqartma ifodalar konsullik xizmatlarini ko’rsatishda foydalaniladigan bir necha komponentli ifodalarning qisqa shaklda qo’llanishi orqali ham yuzaga keladi. Diplomatiyaning asoslaridan biri bo’lgan xalqaro munosabatlarda ham qisqartma ifodalar salmoqli o’rin kasb etadi. Ular xalqaro tashkilot nomlari, xalqaro uyushmalar, tuzulmalar nomlarini ifodalash, xalqaro bitimlarni nomlashda faol qo’llanadi. Bugungi kunga kelib, diplomatik aloqalarda davlat va nodavlat tashkilotlar bilan munosabatlar o’rnatish avj olmoqda. Bunday aloqalarda ma’lum tushunchalarni ifodalash uchun ko’plab qisqartmalardan foydalanilmoqda. Aytish mumkinki, diplomatik faoliyatda bunday

qisqartmalarning o’rni beqiyos. Bunday terminlar asosan birikma termin komponentlarining bosh harflari asosida hosil qilinadi. Masalan: YUNISEF, YUNESKO, BMT, NATO, SHXT, MDH va boshqalar. Quyida diplomatiyaga oid qisqartma terminlarning ayrimlariga izoh beramiz:

YUNESKO (United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization – BMTning ta’lim, fan va madaniyat tashkiloti) BMTning maxsus tashkilotlaridan biri. Ta’lim, fan va madaniyatni unga a’zo bo’lgan har bir davlatdagi Milliy komissiyalar orqali amalga oshirish YUNESKO tashkilotining asl maqsadi.

NATO, Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti (alyansi) (ing. North Atlantic Treaty Organization, NATO; fran. Organisation du Traité de l’Atlantique Nord, OTAN). Yevropa, AQSh hamda Kanada kabi mamlakatlar birlashgan harbiy va siyosiy tuzilma. Alyansning maqsadi: yaxlit mudofaa tizimini yaratish va dunyo xavfsizligini saqlash.

Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) Yer yuzida tinchlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta’minlash, davlatlarning o’zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilot.

Umuman diplomatiya terminosistemasidagi leksemalarni qurilish nuqtayi nazaridan olganimizda yasalish asosini ot, fe’l va sifat so’z turkumlari birliklari tashkil etadi. Yasalma diplomatiya terminlariga e’tibor qaratganimizda ularning katta qismini sifat+ot, ot+ot tipidagi leksik birliklardan tashkil topganligi ma’lum bo’ldi. Ayrim hollarda esa fe’l+ot ko’rinishidagi birliklar ham ko’zga tashlandi. Quyida diplomatiya terminlarining ot, fe’l, sifat so’z turkumlariga oid birliklarini keltiramiz, keyingi navbatda esa ot+ot, sifat+ot tipida yasalgan terminlarga namunalar keltiramiz:

Ot: *chegara, yaxlitlik, kartografiya, hudud, geosiyosat, suverenitet, muvofiqlik, tartib, ultimatum, bosqinchilik, kolonizatsiya, imperializm, protektorat, Respublika, tashabbus, sanksiya, deportatsiya, etakchilik, viza, diplomat, agent, delegatsiya, vakil, terrorchi, konsul, qochoq, immigrant, fuqarolik, missiya, skrining, nazorat, to’siq, manuver, operatsiya, taktika, josuslik, razvedka, dissident, ta’limot, haqorat, qo’zg’olon, shoshilinchlik, haqiqat, xushmuomalalik, deportatsiya, imo-ishora, odob, axloq, vositachi, mijoz, tijorat, tarif, talab, tranzit, agentlik, arbitraj, konsullik, elchixonona, bosh konsullik.*

Fe’l: *zabt etish, jilovlash, izolyatsiya qilish, o’tkazish, qoralash, buzish, almashish, qo’shilish, birlashtirish, buzilish, bekor qilish, hadya qilish.*

Sifat: *avtonom, hushyor, diplomatik, noqonuniy, strategik.*

Sifat+ot: *ichki hudud, avtoritar tuzum, tashqi ishlar, tashqi yordam, tashqi siyosat, yolg’onchi davlat, vakolatli diplomat, diplomatik etiket, erkin savdo, tashqi savdo, xalqaro transit, favqulodda elchi, diplomatik immunitet, diplomatik korpus, diplomatik*

huquq, xalqaro huquq, diplomatik til.

Ot+ot: *ta'sir doirasi, davlat chegaralari, davlat tashriflari, elchi muovini.*

Quyidagi diagrammada o'zbek tili diplomatik terminlarining tuzilish jihatdan foizlardagi ko'rsatkichini keltiramiz:



O'zbek tili diplomatik terminlarining tuzilish jihatdan foizlardagi taqsimoti

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilining diplomatiya terminologiyasi alohida mikrotizim sifatida til sistemasida o'z o'rniga ega. Undagi barcha terminlarni "diplomatiya" birlashtiruvchi semasi asosida "O'zbek tilining diplomatiya terminlari" mavzuviy maydoniga birlashtirish mumkin. Tilimizdagi diplomatiya terminlari tizimining tuzilish tabiati ham o'ziga xos bo'lib, turli xil tuzilish sistema birliklari ma'no qirralarga ham ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shamsimuxamedov I.U. Diplomatiya terminlari izohli lug'ati. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2021. 141-bet.
2. Қосимов Н. Ўзбек тили илмий-техникавий терминологияси масалалари (Сўз ўзлаштириш ва аффиксация масалалари). – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 56.
3. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка: 80 000 слов и устойчивых выражений/ Российская академия наук. Институт русского языка им. – 4-е изд., дополненное. – М.: Азбуковник, 1999. – 166 с.;
4. Madrahimov Z.Sh., Kenjayev E.H., Norqo'ziyev D.R. Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi. O'quv qo'llanma. – Namangan, 2019. 240-bet.
5. <https://diplomacy.state.gov/discover-diplomacy/diplomatic-dictionary/>
6. <https://www.vocabulary.com/lists/183677>

Shohista MAHMUDOVA,
Alfraganus University Filologiya fakulteti
“Sharq filologiyasi” kafedrası o‘qıtuvchisi

BADIIY ASARDAGI IJODKOR OBRAZINI BIOGRAFIK TALQIN ETISH

Annotatsiya: mazkur maqolada adabiyotshunoslikda biografik metod yozuvchi ijodini uning hayotiy tajribalari ifodasi asosida o‘rganish va ijodkor biografiyasini o‘rganishda biografik metodning ahamiyati haqidagi ilmiy qarashlar bayon qilingan. Maqolada badiiy ijod mohiyatini, ijodkor psixologiyasini, badiiy asar ildizlarini ochishda biografik metod muhim ahamiyat kasb etishi keng ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *biografik metod, ijodkor, tafakkur, xarakter, obraz.*

Adabiyotshunoslikda biografik metod yozuvchi ijodini uning hayotiy tajribalari sifatida o‘rganish usulidir. Bu usulga ko‘ra, yozuvchining asarlari bilan birga uning ichki dunyosi, xarakteri, odatlari, kayfiyati, yashash tarzi, ruhiy holati, yashagan muhiti, shaxsiy qiziqishlari, ijodiy olami, ijodidagi g‘oyaviylik va badiiylik kabi jihatlar yaxlit o‘rganiladi. Biografik metod yozuvchi va badiiy asar juftligiga asoslanadi.

Fransuz adabiyotshunosi va adibi Sharl Sent-Buyov (1804-1869) biografik metodning asoschisi deb e‘tirof etiladi. Uning “Adabiy portretlar” (1836-1839) nomli asarida ilmiy biografiya yaratish haqida chuqur mulohaza yuritilgan. Shuningdek, fransuz adabiyotshunosi Andre Moruaning “Adabiy portretlar”, V.S.Baraxovning “Adabiy portret” kabi asarlarida ilmiy biografiya yaratishning nazariy va amaliy masalalariga to‘xtalangan.

Adabiyotshunoslikda biografik metod yozuvchi ijodini uning hayotiy tajribalari ifodasi sifatida o‘rganadi. Biografiya esa janr sifatida yozuvchi tarjimai holini yaratadi.

Sh.Sent-Buyov ijodkorlar dunyosi bilan qiziqar ekan, o‘zining portret yarata olish mahoratiga ishonib: “Mening tanqidiy ishlarim har doim ixtiyorimga qarshi o‘laroq, yozuvchi yoki asar haqidagi psixologik tadqiqotga aylanib ketadi”[Sent-Бёв Ш.О. Литературные портреты. – М.: Худож. Лит., 1970. – С. 109.], degan edi. U yozuvchi biografiyasini o‘rganish murakkab emasligini portretchi yoki tanqidchiga uqtirib, fikrini davom ettiradi: “Ularning o‘zlari sizga o‘zi haqidagi barcha gapni aytib berishadi, o‘zlari sizning tasavvuringizda namoyon bo‘ladi. Bunga shubha qilmang! Hech bir yozuvchi, ayniqsa, shoir sizdan hech narsani yashirmaydi”[Sent-Бёв Ш.О. Литературные портреты. – М.: Худож. Лит., 1970. – С. 40.].

Biografik metodning nazariy shakllanishi va o‘rganilishi ko‘proq ijodkor tarjimai holi bilan bog‘liq jarayon. Shu sababdan ham mazkur metod talab etgan asoslar – yozuvchi tarjimai holini, uning ijodini shaxsiy kechinmalari sifatida yaratish maqsadga muvofiq. Badiiy asarda ijodkorning shaxsiy hayoti,

kechinmalari, xarakteri aks etar ekan, albatta, bunda asarga biografik material ham singib ketadi. Bu esa badiiy asarning hayotiyligini, ishonarligini ta‘minlaydi.

Adabiyot inson ma‘naviyatini yuksaltirish uchun xizmat qiladi. Shu sababdan ham u inson ruhiyati va tuyg‘ular olamini sezguvchi jarayon. Ana shu inson tuyg‘ulari bilan munosabatga kirishuvchi ijod, aslida, ilohiy ne‘mat hisoblanadi. Umuman, ijod inson ruhiyati va tuyg‘ulari bilan bog‘liqdir. Uning zamiridagi ruhiy holatni ilohiy deiyshga asos bor. Chunki ijodning qudrati inson hayotini oldindan bilishga qodir. Bu narsani bashorat qilish so‘zi bilan tavsif etsak-da, kundalik hayotda, ya‘ni ijodkorlar hayotida kuzatilgan.

Zigmund Freyd shunday yozadi: “G‘ayratli va omadli odam o‘z ishi orqali orzu-xayollarini amalga joriy qila olayotgan kishidir. Tashqi dunyoning to‘siqlari va shaxsning oqizligi tufayli bu ishlar amalga oshmasa, borliqdan qochish yuz beradi. Shaxs o‘zini qanoatlantiradigan xayollari dunyosiga chekinadi. Kasal bo‘lib qolganda esa xayollar dunyosining mazmuni turli belgilarda ko‘rinadi. Ayni maqbul sharoitlarda subyektlar real borliqdan kechishning o‘rniga o‘z xayollari dunyosiga tayanib, real borliqqa qaytish imkonini topa oladi. Agar borliqqa dushman bo‘lgan shaxs ruhiy jihatdan biz uchun mavhum badiiyat qobiliyat sohibi bo‘lsa, u o‘z xayollarini kasallik belgilari orqali emas, balki badiiy ijod orqali namoyon qiladi. Bu holda u nevrozdan qutulib, aylanma yo‘l bilan hayotga qaytadi”[Freyd З. Психология бессознательного. – М.: Просвещение, 1989. – С. 377-378.] degan edi.

Freyd to‘g‘ri va haq gapni aytdi. Ijodkor hayotda baxtli bo‘lishi uchun o‘zining borlig‘i bilan tashqi dunyoni “do‘stlashtirishga” mahkum. Lekin bu juda murakkab jarayon sanaladi. Bunday murakkablik ichidagi ijodkor doimo xayolot dunyosida yashaydi. So‘ngra ilojsiz (axir yashash va bu dunyoning quvonchidan bahramand bo‘lish ham kerak-ku ?!) “aylanma yo‘l orqali real hayot bilan aloqa” o‘rnatadi, o‘zini halokatdan forig‘ qiladi.

Masalan, o‘tgan XX asrda ijod qilgan adibimiz Abdulla Qahhor Freyd e‘tirof etgan yo‘l bilan o‘zini

og'ir kunlardan asrab qoldi. "Sarob" nomli birinchi yirik asari ham o'z dunyosini tashqi muhit bilan "do'stlashtirish"ga urinish natijasi edi, deb hukm qilish mumkin. Biroq bu roman ustida bo'lgan munozaralar, o'rinli va o'rinsiz tanqidlarga yozuvchi bardosh bersa-da, lekin uning ruhiyati "zaharlanib" ulgurgan edi. Ba'zi hollarda ichki va tashqi tafovutlar Abdulla Qahhorni yozuvchilikni minba'd tashlab ketish fikriga boshlagan bo'lsa ham ajab emas. Biroq Abdulla Qahhor davr, muhit talablariga mos ravishda ijod qilishga majbur edi.

Yozuvchi ta'kidlaganidek, 1930-yilda burjua millatchilariga duch kelgach, bundan g'azabga to'lgan, nafratlangan adibning muvozanati buziladi. E'tibor bersak, yozuvchidagi mana shu muvozanat, aslida, ruhiy ikkilanishlar emasmi?! "Sarob" romanida Saidiyning to'g'ri yo'l topolmay qiynalganlari Abdulla Qahorning ikkilanishlari emasmi? Abdulla Qahhor Saidiy timsolida o'zining ruhiy holatlarini bitmadimikin? Tashqi muhit bilan "do'stlashgani" uchun ham oxirida Saidiyni qoralab, uni o'limga hukm qilmadimikin?

Demak, bu savollardan "Sarob" romani Abdulla Qahorning ma'lum ma'nodagi biografiasidir, degan fikr tug'iladi.

Bu haqda tadqiqotchi Nasiba Ziyodullayeva shunday yozadi: "Romandagi biografik holat, ayniqsa, uning 1937-yilgi nashrida ko'proq kuzatiladi. Aytishga haqlimizki, adib hayotiy faslini, ruhiyatini ayrim o'rinlarda Saidiy obraziga singdirgan deyish mumkin. Shundan kelib chiqib, Saidiy Abdulla Qahhor desak yanglishmagan bo'lamiz. Ehson – yozuvchining do'sti Muhammadjon Qulmatov, yozuvchining rafiqasi Kibriyoxonimning guvohlik berishicha, Munisxon obrazini yaratilishiga esa bir rus qizi turtki bo'lgan. Abdulla Qahhor shu qizni yaxshi ko'rgan ekan. Shuningdek, Saidiyning o'rtoqlari adibning do'stlari edi. Adib asarga do'stlarining ismini aynan keltiradi. Demak, Ehson – Muhammadjon Qulmatov, Tesha – Tesha Zohidov, Sharif – Sharifjon, Shafrin – Pavel Shafrin"[Зиедullaева Н.Ш. Ўзбек адабиётшунослигида ижодкор биографиясини ўрганиш муаммолари. Ном. дисс. – Т., 2002. – Б. 94.].

So'z qudrati, ijod qudrati yozilayotgan asar bilan cheklanmaydi. Ijodkor o'z hayotining yorug' tomonlari bilan bir qatorda fojiasini ham o'z asarlariga singdiradi.

O'z ruhiy olamini, xarakterini, holatini, boringki, jismini, qahramonlari olami bilan uyg'unlashtirib yuboradi. To'g'ri, bu jarayon yozuvchi asarlariga birdan, butunligicha singdirilmaydi, balki kichik detallar shaklida namoyon bo'lib boraveradi. Shu tarzda yozuvchining ijodiy biografiasini mukammal shaklga kiradi.

Ijodkor asar yozayotganida, asosan, hayot faktlariga, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar mantig'iga

suyanadi. O'zi yashab turgan muhit, voqea-hodisalar haqida falsafiy mushohada yuritib, insonlar ruhiyatini o'rganishga psixologik nuqtai nazardan yondashadi. A.Qodiriy bu haqda shunday yozadi: "Yozuvchining o'zidan qo'shishi adabiy asarda katta rol o'ynaydi. Lekin men turmushda ko'rmagan, bilmagan narsam haqida hech narsa yozmayman. Har bir asarimning yozilishiga turmushda uchragan biror voqea sababchi bo'ladi"[Қодирий А. Ижод машаққати. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 5.]. Shu kabi qalbdan tilga ko'chgan fikrlar juda ko'p. Barchasi zamirida odamning "yozmasdan turolmaslik" holati, bezovta qalbning yashash tarzi u yoki bu yo'sinda izhor etiladi. Shoir to'g'ridan-to'g'ri va san'atkoronamas oddiy odamlarday poklanishga harakat qilmaydi, u aniq badiiy forma izlaydi. Bunga sabab ma'lum kechinmalar ma'lum badiiy ijod talablariga javob beradi. Ruhiyatni toblash, iste'dodni ijodiy mehnatda chiniqtirish, charxlash, o'qish-o'rganish, badiiy saviya, o'zidan o'zligini anglash, ijodiy qobiliyatga ishonch va e'tiqod, boy tajriba, voqelikni, insoniy munosabatlarni obrazli o'zlashtirishda o'z usullarini kashf qilish, teran kuzatuvchanlik, obrazli tafakkur kabilar ijodiy jarayonning muhim vazifalaridir. Yozuvchidan o'ziga ishonish, o'zida ijod ruhini jonlantirish, tayyor hayotiy shakllarga moslashmasdan (albatta, ular har bir yozuvchini o'z ta'siriga olishga intiladi), balki ularni yengib o'tishga o'zida kuch topa bilish talab qilinadi. Ijodkorning asarda tasvir qilingan voqelik, obrazlarga singib, ular ta'siriga o'tib qolmasdan, balki voqea, obrazlarning, shular asosida ma'lum bir g'oyaning ifodalovchisi roliga kirib, ularga o'zining shaxsiy munosabat muhrini bosishi ham kitobxonda muallifning kimligini bilish hissini kuchaytirishi aniq. "Muallifning kimligini bilish" o'z navbatida ijod psixologiyasini o'rganishga qiziqishning ortishidir. Ijod psixologiyasini bilish esa ijodiy faoliyat qonuniyatlarini tushunishga, ijodkor shaxsini uning asarlari bilan birgalikda olib qarashga olib keladi. Ijodkorni bilish uning tarjimai holi va adabiy merosi haqidagi ma'lumotdan iboratgina emas. Balki bularga ijodkorning asar yaratish jarayonini, ijodkor dunyoqarashi, voqelik bilan aloqasi, badiiy tafakkuri kabi ko'pgina masalalar ham kiradi.

Badiiy tafakkur haqida fikr yuritganda, albatta, gap inson muammosiga borib taqaladi. O'z ichki ijodiy muhitiga ega, o'ziga xos individual, ko'nglida mustahkam ichki e'tiqod yaratgan va shu e'tiqodni bosh g'oyaga aylantira olgan ijodkor uchun adabiyot qismatga aylanadi. Adabiyotni o'z qismati deb bilgan Shukur Xolmirzayev suhbatlarining birida "Adib – eng avvalo inson bo'lishi kerak" degan gapni aytadi. Mana shu so'zining isboti

tariqasida “Yozuvchi” hikoyasida Odil Yoqubovni ijodkor qiyofasida emas, balkim haqiqiy insoniy qiyofasida tasvirlaydi. Inson bo‘lib shakllanmagan ko‘plab qalamkashlarni yozuvchi ekologik, ijtimoiy hayotdagi notabiiy rivojlanish ta’siriga tushganida deb, buni quyidagicha izohlaydi: “Sun’iy davrning mahsullari bo‘ldi ular. Yangi odammiz deb butun o‘tmishidan kechib... Pavlik Morozovga o‘xshab otasini sotib... Va shu barobarida millatini sotish... butun qadriyatlarining ma’nosini tubdan o‘zgartirib yuborgan. Va shular ruhida tarbiya topgan. Albatta, ko‘p yozuvchilar bizning tasavvurimizdagi va umuman yozuvchi haqidagi tasavvurlarga javob bera olmaydigan mayda shaxslar bo‘lib yetishdi”[Ташбой О., Холмирзаев Ш. Ҳар не истарсен ўзингда жам эрур // Саодат. – 1993. №2. – 3.]. Bunday insonlar mafkura adabiyotining jarchisiga aylandi. Ular o‘z qahramonlari zimmasiga faqat mafkuraviy vazifa yuklaganlari bois, ijobiy qahramon ham, haqiqiy san’at asari ham yarata olmadilar.

Iste’dodli yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammad bugungi kunda adabiy jamoatchilikda ijodkor shaxsi mavzuida kuzatishlar olib borish unutilib qo‘yilayotgani, aslida hozirgi sharoitda ijodkor shaxsining o‘rni, mavqei qandayligi, yozuvchining inson sifatida kamol topganmi yoki yo‘qligi, uning

insoniyligi nimalarda aks etayotgani haqida aniq tasavvurlar bo‘lishi kerakligini, ya’ni yozuvchining zamon va makon bilan munosabati muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida gapiradi. U shunday yozadi: “Dunyoni badiiy idrok etish qobiliyati inson kamolini favqulodda yuksak maqomlarga ko‘taradi. Ijodkor jo‘n odam emas, uning badiiy olami, badiiy nuqtayi nazari butun jamiyat, qolaversa, insoniyat mentalitetini tarbiya qilishga, ularning sifat darajasini ko‘tarishga xizmat qiladi... Shunday maqomga ko‘tarila borgani sayin ijodkor kamol topgan insonga aylana boradi. Bunday kamolga yetishgan adib zamon va makon haqida mutlaqo o‘z nuqtai nazarini ayta oladi”[]. Bunday yozuvchi har qanday voqelikda ham o‘z hukm-xulosasini ayta oladi, bu hukm-xulosalar u yaratgan asarlarda o‘z ifodasini topadi. Bu xulosalarda yozuvchining o‘z “shaxsiy qarashlari” – ijodiy usullari ko‘rinadi, u shu orqali voqelikka baho beradi. Demak, ijodkorning o‘zi inson darajasiga ko‘tarila olgandagina u yaratgan qahramonlar ham inson darajasiga ko‘tarila oladi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asar biografiyasi bu ijodkor tuyg‘ularining suvdagi aksi misoli yorqin ko‘zga tashlanadi. Ijodkor dunyoqarashi, xarakteri, hayotidagi biografik ma’lumot va detallar bevosita badiiy asarda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Altshuller G.S. Tvorchestva kak tochnaya nauka. – Moskva, 1979.
 2. Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. – M.: Iskusstvo, 1979.
 3. Ilin I.P. Implitsitnyy avtor Tekst / I.P. Ilin // Zapadnoe literaturovedenie XX veka: Ensiklopediya / Gl. red. Ye.A. Surnanova. – M.: Intrada, 2004.
 4. Sent-Byov Sh.O. Literaturnye portreti. – M.: Xudoj. Lit., 1970.
 5. Tamarchenko N.D. Teoreticheskaya poetika: ponyatiya i opredeleniya. Xrestomatiya dlya studentov filologicheskix fakultetov. – M.: RGGU, 1999. Slovar .Wielpert G. von. Sachw? rterbuch der literature.
 6. Do‘stmuhammad X. Yozuvchi shaxsi// O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2001. 2-mart.
 7. Freyd Zigmund. Psixologiya bezsoznatel’nogo. – M.: Prosvetshenie, 1989.
 8. Qodiriy A. Ijod mashaqqati. – T.: O‘qituvchi, 1995. 5-bet.
 9. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Xalq merosi. 2004,
 10. Xolmirzayev Sh. Zamondoshlar xotirasida. – T.: G‘.G‘ulom, 2010.
- Ziyodullayeva N.Sh. O‘zbek adabiyotshunosligida ijodkor biografiyasini o‘rganish muammolari. Nom.diss. – T., 2002. 94-bet.

Dilshoda XAQQULOVA,
Osiyo Xalqaro Universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

ADABIYOTSHUNOS OLIM HAMDAM ABDULLAYEVNING BIOGRAFIK MA'LUMOTLARNI TADQIQ ETISHDAGI IZLANISHLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada adabiyotshunos olim filologiya fanlari doktori, professor Hamdam Abdullayevning turkiy xalqlar adabiyotini tadqiq etish, Xorazmda yashagan va faoliyati shu zamin bilan bog'liq bo'lgan olim va avliyolar, Xorazm adabiy muhitining og'zaki va yozma an'analari, uning namoyandalari ijodi xususidagi izlanishlari aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: *xorazmlik avliyo va shoirlar, Xorazm vohasi, Xorazm adabiy muhitining og'zaki va yozma an'analari.*

Filologiya fanlari doktori, professor, Qoraqalpog'iston Respublikasi fan arbobi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Hamdam Abdullayevdan boy ilmiy meros qolgan. Olimning ilmiy faoliyatida turkiy xalqlar adabiyotini tadqiq etish, Xorazm adabiy muhitining og'zaki va yozma an'alarini, uning namoyandalari ijodini o'rganish asosiy o'rin tutadi. Hamdam Abdullayevning faoliyati mustaqillik yillarida yanada takomillashdi va bir qancha monografiya va risolalarining aksariyati shu yillarda yaratildi.

Olimning tadqiqotlarida o'ta sinchkovlik, teran mulohazakorlik, adabiy hodisalarga xolis baho berish kabi jihatlar ajralib turadi. H.Abdullayevning ilmiy faoliyatida keng ko'lamli jiddiy tadqiqotlarni uchratamiz. Bu tadqiqotlarda hali o'rganilmagan jihatlariga chuqur e'tibor qaratiladi. Olim X asrning taniqli olimi Abu Mansur as-Saolibiyning asarlarini chuqur o'rganib, uning hayoti, ayniqsa, hayotining Xorazm bilan bog'liq taraflari, Abu Bakr Xorazmiydan ta'lim olganligi va Xorazmda yashab, Xorazmshoh, Abul Abbos Ma'mun ibn Ma'mun suhbatlarida qatnashib, unga atab asarlar yozgani xususida ma'lumot beradi. Beruniy o'z asarlarida Saolibiy ma'lumotlaridan keng foydalanganligi haqida yozadi. Abu Mansur as-Saolibiyning "Yatimat ad-dahr" ("Asr ahlining fazilatlarini") tazkirasida xorazmlik yetti shoir haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilganligi va Saolibiy o'zining ikkinchi asari "Tatimat al-Yatima"da 1011-1017 yillarda Ma'mun akademiyasi faoliyati qizg'in davom etgan davrda qayta ishlab to'ldirgani va uni Abul Abbos Ma'mun ibn Ma'munga taqdim etgani xususida ham to'xtalib o'tadi.

H.Abdullayev Abu Mansur Saolibiyning asarlaridagi Xorazm vohasi bilan bog'liq quyidagi jihatlariga e'tibor qaratdi:

- 1.Saolibiy asarlarida Xorazmning iqlim sharoiti haqida ma'lumotlarga;
- 2.Saolibiyning "Kitob latoif al-maorif" asaridagi

qiziqarli ma'lumotlarga;

3.Xorazmda yashagan yoki asli xorazmlik bo'lib, arab tilida yozgan ijodkorlarning merosi hali o'rganilmaganligiga;

3.Asarning to'rtinchi qismidagi alohida bobda xorazmlik yetti shoir haqida ma'lumotlarga.

Olim Saolibiy asarlaridagi Xorazm haqidagi ma'lumotlarni shartli ravishda ikkiga ajratadi: birinchisi – Xorazmning iqlim sharoiti, xo'jalik yuritish shakllari, shaharlari va hayot tarzi xususidagi, ikkinchisi – Xorazm ijod ahli haqidagi ma'lumotlar. Shuningdek, asarda shaharlar va mamlakatlar nomiga ham e'tibor qaratiladi.

"Shaharlar va mamlakatlar yirik bo'lganida ularning ikki nom bilan atalganiga misollar keltiradi. Bular orasida Xorazm va Kos nomlari bor" [1:10].

Hamdam Abdullayev Saolibiyning X asrdagi yirik shaharlardan biri, 917-995 yillarda afraq'iyalar sulolasining poytaxti bo'lgan (Kot,Kyat)ni Xorazm ma'nosida tushunganligi haqida aytib o'tadi. Shuningdek, o'tmishda, Sharqda, jumladan, O'rta Osiyoda ilmiy asarlar arab tilida yaratilganligini, turkiy xalqlar tarixi bitilgan ko'pgina asarlar shu tilda bo'lib, ularning ko'p qismi hozirgacha tarjima qilinmaganligi, Abulfazl Bayhaqiy, al-Maqdisiy, Yoqut Hamaviy, al-Istaxriy, Tabariy, Jayhoniyy va boshqalarning asaridan foydalanish imkoniyati bo'lmayotganligini ta'kidlaydi. Bu fikrlardan shuni bilish qilish mumkinki, ajdodlarimizning hali o'rganilmagan noyob asarlari bisyordir.

X asr adabiyotining taniqli vakili noyob va mashhur asarlari bilan tanilgan, badiiy uslubi sodda, tili ravonligi, ibratli fikrga boyligi jihatidan ajralib turgan va janr jihatidan maktublardan tashkil topgan "Devon" va "Risolarlar" sohibi Abu Bakr Xorazmiyning ijodi haqidagi ma'lumotlarga adabiyotshunos olim diqqatini qaratadi. Olim shoir ijodini o'rganishda 3 jihat e'tiborga olinganligini

ta'kidlaydi:

1. Abu Bakr Xorazmiyning hayoti va faoliyati.
2. Adibning boshqa shoirlar bilan ijodiy hamkorligi.
3. Shoirning ijodiy merosi.

Abu Bakr Xorazmiy "Risolalar" ining badiiy uslubi sodda, tili ravonligi jihatidan ajralib turishini va nasrda bitilgan bo'lib, janr jihatidan maktublardan iborat ekanligini ta'kidlaydi. "Saolibi Abu Bakr Xorazmiyning "Zamonasining eng donosi, odob dengizi, nasr va nazmning tug'i, fazl va idrok olamidir", deya ta'riflaydi va uning maqolga aylanib, kezib yuruvchi so'zlarini risolalaridan terib oldim", - deydi". Ana shulardan ba'zi namunalarini keltiradi: "Karamli kishi tahqirlansa ham, azizdir. Saxovatli kishi bug'doy sotib olmaydi, balki yaxshilikni xarid qiladi. G'azab hurmatni unutadi, yaxshiliklarni ko'mib yuboradi va begunohlar uchun jinoyatlarni vujudga keltiradi. Dunyo – sovchisi ko'p kelin, podshohlik esa xaridorga serob bir mol! Qilich a'zoning quvvatiga qarab sanchiladi, ot esa mingan kishining holiga qarab chopadi. Odobning mevasi - aql, ilmning mevasi unga amal qilishdir"[2:12]. Bunday noyob, qimmatli, purhikmat fikrlar xalq maqollariga o'xshash va ular bilan hamohangdir.

H. Abdullayev tadqiqotlarida kam o'rganilgan olimlar haqida ma'lumotlarni uchratamiz. Olimning xorazmiylardan Rashiddin Vatvot haqidagi fikrlari qimmatlidir. Rashiddin Vatvot asli balxlik bo'lib, shoir va adib sifatida Sharqda mashhur bo'lganligi, Balxda Nizomiya madrasasida ustoz imom Abu Said al- Xaraviydan ta'lim olgach, Xorazmga kelib 30 yildan ko'proq yashab, shu yerda vafot etganligi xususida ma'lumot beradi. Rashiddin Vatvot Xorazm shohlari Otsiz, El Arslon, Alouddin, Tekish saroyida bosh kotib bo'lib xizmat qilgan, o'sha davrda Makkada yashayotgan Az-Zamaxshariyga maktublar yo'llab turganligi xususida ham ma'lumotlarni uchratamiz.

Hamdam Abdullayev Rashiddin Vatvot adabiy merosi haqida quyidagi fikrlarni keltiradi: "Vatvot ko'pgina she'riy va nasriy asarlar muallifidir. Manbalarda uning 21 asari borligi qayd etiladi. Vatvot arab va fors tillarini puxta bilganligi sababli zullisonayn ijodkor bo'lgan. Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" siga qaraganda Vatvotning forsiy tildagi devoni 15 ming baytdan tashkil topgan, unda she'riy san'atlar keng qo'llangan. Boshqa she'riy va adabiyotshunoslikka oid asarlari arab tilida bitilgan. Bunga she'riy devoni va "She'riyatning sehr bo'stoni" asari misol bo'la oladi. She'riyat ilmiga oid bu asari Sharq adabiyotshunosligida badiiy poetikaga, nazmiy ijod qonuniyatlariga bag'ishlangan ilk risolalardan biri sifatida mashhurdir"[3:9].

Vatvotning mashhur asarlaridan yana biri "Maktublar" deb ataladi. Arab tilida bitilgan

maktublardan iborat bu asar Xorazmshoh Otsizning nabirasi shoh Sulton Mahmudga bag'ishlangan. "Maktublar" ikki qismdan iborat bo'lib, birinchisi sulton-u xoqonlar, vazir, amir valiy va qozilar nomiga yozilgan nomalardan, ikkinchisi mashhur shaxslar, mansabdorlar, shoirlar-u muallifning birodarlariga jo'natilgan maktublardan iborat. Badiiy uslubda yozilgan bu maktublarda o'sha davrdagi siyosiy-ijtimoiy, madaniy hayotga doir muhim ma'lumotlardan tashqari Vatvotning Xorazm adabiy muhiti va Xorazmdagi allomalar Imomiddin Solih ibn al-Biloliy, Ismoil al-Jurjoni, Abu Mudar az-Dabiy to'g'risidagi ma'lumotlari, ayniqsa, qimmatlidir"[4:9].

Olim shuni alohida ta'kidlaydiki, Vatvotning saljuqiylar saroyidagi Anvari, al-Hoqoniy, Sobir Termiziy kabi shoirlar bilan tortishuv va muloqotlari xorazmshohlar va saljuqiylar davridagi adabiy muhitni yanada to'laroq tasavvur etishga imkon beradi.

H. Abdullayevga so'z mulking sultoni Alisher Navoiyning avliyolar, shoirlar haqida qimmatli ma'lumot beruvchi "Nasoyim ul-muhabbat", "Majolis un-nafois" asaridagi Xorazm adiblarning hayoti va ijodi haqidagi fikrlari qiziqish uyg'otadi. Shoirning shayx Najmiddin Kubro va Abulvafo Xorazmiy haqidagi ma'lumotlarni yorqin ifodalaganiga alohida e'tibor beradi. Alisher Navoiy nazariga tushgan va alohida hurmatga sazovor bo'lgan "kibori avliyo" Xoja Abulvafo Xorazmiydir. Tasavvuf ilmida komillik irshodiga erishgan va XV asrning mashhur mutasavvufilaridan biri bo'lgan Xoja Abulvafo Xorazmiy nomini Abdurahmon Jomiy ham tilga olgan. Olim bu buyuk zot haqida Navoiy ham "Nasoyim ul-muhabbat" da ikki o'rinda to'xtalib, uning fazilatlarini ta'kidlab, fors tilidagi 6 ta ruboiysini keltirganligi haqida ta'kidlaydi.

H. Abdullayev o'zining ilmiy kuzatishlarida Navoiy asarlaridagi ikki buyuk zotning ichki qiyofasini ochib beradigan nuqtalarga diqqatini qaratadi.

"Xorazm xalqi, g'oyat malakiy sifatlig'itdin, Xojani yer farishtasi der erdi.

Xoja umum zohiriy va botiniy takmil qilib erdi. Tasavvufda yaxshi musannafoti bor va mashhurdurkim, ulumi g'ariba ham bilur erdi, ammo andin zohir bo'lmas erdi, balki g'oyati tavajjuh va istig'roqdin parvo ham qilmas erdi. Xoja avsofini kishi bitur bo'lsa, alohida kitob bitmak kerak, ma'lum emaski, bir kitobda ham sig'armu yo yo'qmu" [2:26].

H. Abdullayev Navoiyning Xojani ikki jihatdan komil, olijanob inson hamda benazir ijodkor sifatidagi ta'rifini navoiyona xolis tavsifnoma deb biladi. Navoiydek talabchan va adolatpesha dahoning yuksak e'zoziga sazovor bo'lish kamdan-kam zotlarga nasib etishini e'tirof etadi. Navoiy Xojaga barkamol inson, ibratomuz fazilatlar sohibi

sifatida alohida e'tibor bergan. Olim Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat"da Xojaning oltita ruboiysiga o'rin berishini kam uchraydigan hodisa deb biladi. Shuningdek, Xojaning Navoiy tazkiralarda qayd etilgan turli sohalarga oid asarlari xorijda saqlanayotganligi va fors tilidagi 146 ruboiysi Tehrondagi kutubxonada saqlanayotganligi xususida ma'lumot beradi.

Uzoq o'tmishimiz ijodkorlarining yangi, hali o'rganilmagan jihatlarini tadqiq etish o'ziga xos mas'uliyatli vazifalardan biridir. Bu tadqiqotchidan chuqur kuzatish va umumlashtiruvchi xulosalar chiqara olish barobarida obyektiv munosabat bildirishni talab qiladi. O'zining ilmiy qarashlari bilan ustoz H.Abdullayev bu sohaga o'tgan asrning 60-yillarida kirib keldi. Olimning ilmiy izlanishlari o'zbek adabiyotshunosligining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri – turkiy xalqlar adabiyoti aloqalari va o'zaro ta'sir masalalarini tadqiq etish bo'lib, Xorazm

adabiy muhitining og'zaki va yozma an'analarini, uning namoyondalari ijodini o'rganishda o'ziga xos maktab yaratdi. H.Abdullayev tomonidan yaratilgan tadqiqotlarda ko'proq xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyot haqida yangicha ilmiy fikrlarni kuzatish mumkin.

H.Abdullayev har bir ijodkorning xorazmlik olimlar haqidagi ma'lumot mavjud bo'lgan asarlarini o'rganar ekan, faqat bir ma'lumot bilan cheklanib qolmaydi. Boshqa bir qancha kitoblarga ham murojaat qilib, undagi o'xshash va farqli jihatlariga e'tibor qiladi. Batafsil ma'lumotlarni ko'proq Navoiy asarlaridan topadi. Olimning har bir izlanishida uzoq o'tmishimiz adabiyotining hali ochilmagan jihatlarini aniqlashdagi yangicha fikr va qarashlari o'z ifodasini topgan. H.Abdullayev ilmda o'zining teran fikrini ayta olgan yetuk olimlardan biridir. Olimning zahmatli mehnati va ilmiy tadqiqotlari adabiyotimizda munosib o'rin egalladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. H.Abdullayev."Hayrat bo'stoni". – Toshkent, 2001. 10-bet.
2. H.Abdullayev."Hayrat bo'stoni". – Toshkent, 2001. 12-26bet.
3. H.Abdullayev."Xorazm adiblari". – Urganch, 1998. 9-bet.
4. H.Abdullayev."Xorazm adiblari". – Urganch, 1998. 9-bet.

Elyor IMOMOV,
*EFL teacher in Kokand State
 Pedagogical Institute, Kokand*

PENETRATION OF PROFESSIONAL LEXEMES INTO COMMON LANGUAGE

Annotatsiya: ushbu maqolaning maqsadi kasbiy leksemalarning umumiy tilga kirib borishini muhokama qilishdir.” deganda turli kasblarga oid texnik yoki ixtisoslashgan atamalarning kundalik lug‘atga kirib borishi va keng omma tomonidan tushunilishi va qo‘llanilishi hodisasi tushuniladi. Bu jarayon ommaviy axborot vositalari orqali ushbu atamalarning ortib borayotgan ta’siri, texnologiya taraqqiyoti va global sanoatning o‘zaro bog‘liqligi natijasida yuzaga keladi.

Kalit so‘zlar: *professionalizmlar, jaranglar, iboralar, nominativ funktsiya, leksik-semantika, til.*

Аннотация: целью данной статьи является обсуждение проникновения профессиональных лексем в общий язык относится к явлению, когда технические или специализированные термины из различных профессий входят в повседневный словарный запас и становятся широко понятными и используемыми широкой публикой. Этот процесс происходит как. Это результат растущего воздействия этих терминов через средства массовой информации, достижения в области технологий и растущую взаимосвязанность глобальных отраслей.

Ключевые слова: *профессионализмы, сленг, выражения, номинативная функция, лексико-семантика, язык.*

Annotation: the purpose of this article is to discuss the penetration of professional lexemes into common language” refers to the phenomenon where technical or specialized terms from various professions enter everyday vocabulary and become widely understood and used by the general public. This process occurs as a result of increased exposure to these terms through media, advancements in technology, and the growing interconnectedness of global industries.

Keywords: *professionalisms, slang, expressions, nominative function, lexical-semantic, language*

Introduction

The penetration of professional lexemes into common language refers to the process by which specialized terminology or jargon from professional fields becomes more widely understood and used in everyday communication. This can happen when certain terms gain popularity, are adopted by mainstream media, or become relevant to broader societal discussions. As a result, these professional lexemes start to enter common language and may be used by individuals who are not directly involved in those specific professions. Professional lexemes, or technical terms specific to a particular field or profession, often find their way into common language usage over time. This process is known as lexical borrowing or assimilation. It occurs when concepts and vocabulary from specialized domains become more widely understood and adopted by the general population. Currently, the process of penetration of professional vocabulary into the vocabulary of the common language is significantly intensifying. Under the migration of terms, we understand that a special unit goes beyond the limits of narrow terminological use. The transition of terminological lexemes into a common literary language is a large-scale process, but not spontaneous. First of all, it should be noted that the path of this unit from a non-special field to a

commonly used layer of words is limited by certain possibilities for the acceptance of a foreign lexical unit by various functional modes.[1: 1140] In this case, we are talking, firstly, about the presence of direct “contacts” of special and non-special situations of written and oral communication; secondly, about the existence of unique channels that would play the role of a “conductor” of a terminological unit from one area to another.

Materials and methods

The natural sphere of functioning of professional words is the official business and scientific styles of language. Terms are used in terminological dictionaries, forms of written and oral communication between specialists, within which they tend to perform specific functions: nomination of a scientific concept, concentration of professional knowledge and the function of discovering new knowledge. These sources of intralingual borrowing of terms are not equivalent in terms of the degree of their participation in the “transportation” of terminological units into the common language. Situations of direct communication between specialists and teaching aids are the most open to outside interference. Cases of oral communication between professionals occur in everyday life as a fragment of their professional existence. In addition, such cases include various types of programs on

television and radio, where an exchange of opinions takes place between specialists, or between specialists and non-specialists (for example: "Let them talk...", "Domino principle", "Details", "Fox & friends", "Hard talk", "Like me", "Live", etc.).

Discussion

В журналистском творчестве усиливается проявление неоднородности жанров. В СМИ происходит постоянная трансформация жанров, их гибридизация. Наряду с терминами «жанры Интернета» и «интернет-жанры», используются также их синонимы «электронные жанры», «медийные жанры», «цифровые жанры», «дигитальные жанры», «виртуальные жанры».

Отправитель и получатель тестового послания равноправны, общение может происходить и в интерактивном режиме. Блоги соединяют в себе черты публицистического стиля и личного дневника (разговорного стиля, жанра письменной речи). На практике бывает трудно отделить блог и колонку кolumnиста, если он интегрирован в структуру сайта. Авторами текстов могут быть журналисты, эксперты, публичные и простые люди. Жанры функциональной стилистики перетекают в мультимедийные формы с новыми характеристиками и возможностями.

В конвергентных СМИ используются текстовые формы, которые объединили характеристики

жанров традиционных СМИ. В подобных медиа представлены различные типы публицистических текстов — журналистские, рекламные, PR-тексты. Вместе с тем основную часть контента оригинальных журналистских текстов составляют тексты информационных жанров (заметки, репортажи, корреспонденции, информационные интервью).

Но есть и существенные отличия. Текстам, готовящимся для размещения в сети, редакции стараются придать «огранку», подходящую для онлайн-формата.

Таким образом, в результате читатель обращает внимание на материал информационного жанра, отличающийся конкретизацией, тщательным выстраиванием межтекстовых связей, а сам текст дробится на блоки. На странице сайта, «ленте новостей» дается, как правило, только заголовок или заголовочный комплекс. Затем, благодаря гипертекстовой организации, происходит дальнейшее развертывание текста.

В целом стоит заметить, что информационные жанры постепенно вытесняют аналитические. Статьи и заметки разбиваются на смысловые блоки, имеют гиперссылки. Несколько абзацев, объединенных в блок, могут иметь свой заголовок. Статьи отличаются фактологичностью. Нередки очерки, фельетоны, сатирический комментарий. Популярностью пользуется колумнистика. Что касается научных и официально-деловых текстов, то в них практически не используется гипертекстовая структура.

Такие тексты при размещении в сетевом пространстве не претерпели существенных изменений. Чисто художественные жанры в интернет-версиях печатных СМИ представлены слабо, так как последние больше ориентированы на новостной контент.

Нарабатываются новые персонализированные формы взаимодействия журналистов и аудитории, формируется особая культура создания текстов, логика и дизайн сайтов. Это способствует качественному изменению информационной среды, повышению культуры коммуникации, более полноценной реализации социальных потребностей граждан в информации и общении.

Новые технологии позволяют распределять и получать гораздо большее количество сведений, чем удавалось ранее. Сугубо печатной продукцией в настоящее время пользуются, в основном, люди старшего возраста или не имеющие доступа в интернет. У

бумажных версий газет, бесспорно, есть свои преимущества в виде возможности быстрого ознакомления со всем массивом материалов, вошедших в номер, возможность отложенного чтения до удобного времени, удобство воспринимать информацию в индивидуальном темпе (перечитывание, хранение). Однако существенны и недостатки: потеря оперативности, отсутствие непосредственной интерактивности.

Интерактивность — это фактор, который является важной особенностью электронных медиа, что обуславливает их растущую популярность. Возможность оперативно вступать в диалог с заинтересованным читателем при помощи форумов, комментариев или гостевой книги, которыми оснащены многие виртуальные издания, помогает достичь взаимопонимания с редакцией, а через обратную связь интересная статья может стать началом цикла или даже постоянной рубрики.

Многие интернет-сайты становятся площадкой для дискуссий по актуальным проблемам, где потребители обсуждают новости. Посещаемость и цитируемость этих веб-ресурсов, соответственно, высока по сравнению с рассмотренными выше электронными версиями печатных медиа, где все еще нет возможности комментировать журналистские тексты, в результате чего теряется возможность наладить эффективный механизм обратной связи, диалога с читательской аудиторией.

В свою очередь, доверие граждан является одним из важных условий успешной работы СМИ, наряду с обеспечением оперативного, полного и объективного изложения информации о происходящих событиях в регионах и стране в целом. Конвергентная журналистика, при условии оптимального и продуманного внедрения в ее практику современных СМИ, поможет более плодотворно выполнять важную задачу построения гражданского общества, в той части, которая возложена на масс-медиа. Выступая в качестве проводников диалога между представителями власти и общества, СМИ должны выстраивать в сознании тех и других объективный образ окружающей реальности, не уводя ни тех, ни других от насущных проблем, о которых в случае налаживания механизма обратной связи, интерактивного взаимодействия с использованием разных площадок, читательская аудитория сообщит непосредственно в избранное издание.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Гусякова А.В. Типологические характеристики способов передачи информации в печатных и электронных СМИ XXI века. — М.: Вестник ЧГПУ, 2021. — С. 94.
2. Вартанова Е.Л. Медиаэкономика зарубежных стран. — М.: Изд-во Московского университета, 2003. — С. 26.
3. Гершанок Г.А., Кузовников И.В. Совершенствование конвергентной модели инновационного процесса путем добавления дивергентной составляющей. — М.: Фундаментальные исследования, 2019. — С. 372-375.
4. Интернет-СМИ. Теория и практика: Учебное пособие для студентов вузов / Под ред. М. Лукиной. — М.: Аспект Пресс, 2016.
5. Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. — Т.: TAFAKKUR, 2010. — С. 7.
6. McLuhan M. Understanding Media: The Extensions of Man. N.Y.: McGraw Hill, 1964.

Munira XUDOYOROVA,
 Navoiy davlat pedagogika instituti,
 “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası dotsenti

FANONI ANGLASH



Annotatsiya: maqolada Ibrohim Haqqulning fano haqidagi qarashlari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: *fano, faqr, Ibrohim Haqqul, o‘zlik, g‘azal, qit‘a.*

Annotation: the article examines Ibrahım Haqqul's analysis and interpretations about "fano".

Keywords: "fano", "faqr", Ibrahım Haqqul, identity, "ghazal", "qit‘a".

Аннотация: в статье рассматриваются анализ и интерпретации о фане Ибрагимом Хаккулом.

Ключевые слова: *фана, ницета, Ибрагим Хаккул, идентичность, газель, кит‘а.*

Alisher Navoiy asarlarida “sobit bir e‘tiqod” bilan tilga olingan fano va foniylık Navoiy hayoti, shaxsiyati, asarlarini o‘rganish faoliyatining markaziy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan Ibrohim Haqqulning eng sevimli mavzularidan biri edi.

Navoiy asarlarining o‘ziga xos, balki asosiy jihati uning turli janrlardagi asarlari zamiriga singdirilgan fanoda namoyon bo‘lishini, ijodkor dunyoqarashining fanodagi zuhurini, shoir shaxsiyatining noyob qirralarini foniylıkda ekanligini anglash va anglatish zohirbin, nozik mushohadali olimning Navoiy ijodiga bag‘ishlangan turli mavzudagi tadqiqotlarining bosh masalasi edi. Nafaqat Navoiy ijodi, balki Sharq tasavvuf adabiyoti va mumtoz falsafasini bilish, ularda yoritilgan eng murakkab va jumboqli mavzularni ham to‘g‘ri talqin qilish uchun tazodiy ikki tushuncha ma‘no-mohiyatini chuqur tushunmoq zarurligini Ibrohim Haqqul alohida ta‘kidlaydi. Ulardan biri ruh va nafs bo‘lsa, ikkinchisi – fano va baqo. [1]

Ustozning 1989-yilda Erkin Vohidovning so‘zboshisi bilan nashr qilingan “Zanjirband sher qoshida” [2] nomli risolasidagi “Fano va fanolik” maqolasidan boshlangan talqin-u tadqiqatlar “Navoiyga qaytish” [3] turkum kitoblaridan joy olgan “Navoiy she‘riyatida fano talqinlari” gacha davom etdi. Olim dastlabki maqolalaridanoq Navoiyning “fano orqali faqat o‘zlikdan kechish, o‘lim va baqosizlik kayfiyatlarini targ‘ib etganligi” haqidagi qarashlarni rad etib, fanoni tasavvuf ilmi nuqtayi nazaridan baholab, uning “yuz risola bo‘lg‘usu” ma‘no va maqsadlariga alohida e‘tibor bilan qaraydi.

Deding “Fano nedurur?” Muxtasar deyın: “O‘lmak!
 Ki sharhin tilasang, yuz risola bo‘lg‘usidur.

Hujviriyning “Kashful mahjub” ida: “Zohir ahli bu ta‘birda hayrat etganlari qadar boshqa hech bir ta‘birda hayratga tushgan emaslar” [4] – deya e‘tirof etilgan, “na hind, na islom faylasuflari mag‘zini chaqa olmagan” fanoning talqini uchun adabiyot tarixi haqidagi bilimlarga yetarli emas. Ibrohim

Haqqul tasavvuf falsafasi bayoni yoritilgan, tasavvuf ilmi izohlangan (Ustozning Kalaboziy, Abu Nasr Sarroj Tusiy, Abdulkarim Kushayriy, Hujviriy, Imom G‘azzoliy, Shahobidin Suhrevardiy asarlarini mutolaa qilayotganlarini ko‘p marta guvohi bo‘lganman), “tabaqoti sufiya” va manoqib kitoblari bilan tanish bo‘lmaganda, Navoiy baytlari zamiridagi fanoning haqiqatlarini, bu istilohning eng inja va nozik ma‘nolarini kashf etolmas, teranlik bilan tahlil qilolmas edi.

Fanoning tarqalishi va yoyilishi ko‘plab ilmiy asarlarda Abu Said Harrozning nomi bilan bog‘lanadi. U fanoni “qalbdan dunyo va oxirat lazzatlarining ketmog‘i...” [5] – deb tushuntiradi. O‘z asarlarida fanoga maxsus boblar ajratib, u haqida batafsil to‘xtalgan olimlarning fikrlari ham Abu Said Harrozning fano borasidagi fikrlarini tasdiqlaydi. Jumladan, Abdulkarim Kushayriy fano haqida shunday yozadi: “So‘fiylar fano so‘zi bilan insondagi yomon sifatlarning yo‘q bo‘lmog‘iga ishorat etadilar...” [6] – desa, Kalaboziy fanoni: “qulning lazzat va orzulardan fone bo‘lmog‘i”, [7] – deya izohlaydi. Fano haqidagi bu kabi nazariy ma‘lumotlardan yaxshi xabardor bo‘lgan olim Navoiyning :

Kimki o‘zlik imoratin buzdi,
 Bo‘ldi naqdi fano aning muzdi.
 Ul imoratni buzmayin solik,

Bo‘la olmas bu naqdga molik, qit‘asini tahlilga tortar ekan, eng avvalo, “o‘zlik” so‘zini bashariy o‘zlik mazmunida tushunish zarurligini aytadi: “Bashariy o‘zlik insondagi malakiy, ruhoniyl sifatlar bilan birga hayvoniyl va shaytoniyl xususiyatlarni mujassamlashtirgan menlik... She‘rda “o‘zlik imoratin” buzish, xudbinlik, xudparastlik, tama, xasad, kibr, riyo singari o‘nlab hislardan qutilish nazarda tutilgan”. [8] Hujviriy ana shu yomon odatlarning fone bo‘lib, ularning o‘rniga go‘zal odatlarning boqiy bo‘lishini “axloqiy ma‘nodagi fano va baqo” deb ataydi. “Yomon bir odat yo‘q qilinsa, zarur holda uning o‘rniga go‘zal bir hulq kelur, ro‘yo, yolg‘on, xasislik, qo‘rqoqlik, nafrat, isyonchilik kabi

bo'lgan ixlos, to'g'rilik, jo'mardlik, jasorat, sevgi, itoat kabi yaxshi va go'zal odatlarning bor bo'lishi zarur bo'ladi", [9] – deya ta'kidlaydi. Qit'a tahlilida Ibrohim Haqqul Hujviriy bilan hamfikir: "O'zligida ilohiy haqiqat nurini idrok qilgan inson axloqidan barcha yomon va tuban xislatlar yo'qoladi". Undagi ma'naviy pokizalik, idrok o'tkirligi, teran xayol to'xtovsiz taraqqiy etadi". [10]

Fanoni "takabburlikka qarshi xoksorlik" mazmunida anglashda tadqiqotchi I.S.Braginskiyning fikrlarini yoqlaydi. Alisher Navoiyning:

Menga ishrat yeri kunji fano bas,

Yangi masnad bir eski buryo bas, – deb boshlanuvchi g'azalidagi tinch, pokiza, orombaxsh va safo maskani "kunji fano" (fano burchagi) talqini uning egasining holiga beixtiyor havasingizni keltiradi. "Fano kunjidagi kishi shu darajada qanoatliki, u ishratparastlik hislaridan ko'nglini allaqachonlar poklagan. Unga oliy istaklar yo'lidagi ranj va mashaqqat xunobalari ham yetarli. U shu holatida ruhan juda yuksak shaxs. Shuning uchun u hech narsani nazarga ilmaydi. Uning ma'naviy shohligi oldida hatto toj-u taxt sohiblari hech narsa emas." [11]

Foniyligni "O'zlikni muhofaza qilishning eng baland, eng daxlsiz vositasi" – deya baholagan olim uning shartlarini ham Navoiyga ko'ra belgilaydi: "Fanolikning asosiy shartlaridan biri – faqirlik, faqirlik shu mazmundaki, unda kibr "havou havas", manmanlik daf qilingan bo'lishi lozim" [12]

Fano havas qilu faqr et havou Navoiydek,
Vale havou havas qilmag'il havou havas.

Ayni paytda ruboiylaridan birida "Kim faqr talab qilsa, fanodur anga shart" – deydi.

Tasavvufdagi vahdati vujud ta'limotiga ko'ra, Ollahning vasliga erishish uchun qator bosqichlardan o'tiladi. Shariat, tariqat, ma'rifat singari bosqichlardan so'ng fano ("bandaning Xudo tarafiga sayri"ning yakuni) ham yuzaga keladi. Demak, "fano Allohga yaqinlashmoqning old darajalaridan biridir" [13] Ibrohim Haqqul fanoning eng murakkab ma'nolaridan

biri bo'lgan bu jihatini Majnunning Layliga yozgan:

Yo'qlik menga gar bo'libturur yo'l,

Sen bor bo'lu bu yo'qqa yor o'l, – maktubi misolida sodda va tushunarli talqin etadi: "Bu – fanolik yo'li. Fanolik esa ishq haqiqiyning so'nggi bosqichi. Bu bosqichga ko'tarilgan oshiq ruh qushini o'zlik qafasidan butunlay xalos qilib, boqiy hurlikka erishadi. Majnunning "vahshiy hayvonlar bilan ulfatlashishi" – butun borliq olam bilan birlashish ramzidir". Shuning uchun u "Tog' cho'qqilari mening otim, samum hullasi menga to'ndir", deydi. Shuning uchun uning hajr tig'idan chok ko'ksidan hasharotlar qo'rqmasdan ichiga kiradi. Bag'riga chibinlar kirib g'avg'o qilishadi. Ko'z uyida chumoli vatan quradi". [14] Majnunning bu holatini "Navoiy she'riyatida fano talqinlari" maqolasida fanofilloh istilohiga berilgan ta'rif yanada oydinlashtiradi, fanofilloh maqomidagi inson Alloh bilan birlashib ketadi, degan xato mulohazalarga "Fanofilloh maqomiga yetishish-hayotga, insonning o'z hamjinslari xizmatiga qaytishining yangi yo'li. Bunda inson shu darajada poklanib, oriflik, xolislik, mehr-muruvvat xislatlarini shu darajada kamol toptirganki, bunday zotlar uchun XIZMAT eng oliy matlab, muhtojlarning og'irini yengil qilish – ikki dunyo saodati" [15] – deya anqlik kiritadi.

Bugungi kun o'quvchisi akademik Naim Karimov haqli e'tirof etganlaridek, badiiy asarni jarrohning qo'llari bilan emas, zargarning qo'llari bilan paypaslab, ulardagi haqiqatlarni qalb ko'zi bilan o'qiydigan va kashf etadigan Ibrohim Haqqulning Navoiyning ruhini yayratadigan fano talqinlaridan quyidagi xulosalarni oson ilg'aydi: Fano – nafsga qarshi kurashishning kuch va quvvat manbai. Fano –riyokorlik, takabburlik, xudbinlik, xasad, tamadan uzoqlashishning najoti. Fano – maqsad emas, vosita va tajriba usuli. Fano – O'zgalarni tarbiya va idora aylash salohiyati sohiblari makoni. Fano – Navoiy asarlarini ichdan nurlantirib turuvchi tilsim. Fanoning haqiqatlari ana shu ma'nolarda anglansa, bugungi globallashayotgan dunyo muammolariga ham yechim topiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Haqqul I. Navoiyga qaytish. 3-kitob. – Toshkent: Tafakkur, 2016. 26-bet.
2. Haqqul I. Zanjirband sher qoshida. – Toshkent: Yulduzcha, 1989.
3. Haqqul I. Navoiyga qaytish. 2-kitob. – Toshkent: Fan, 2011.
4. Hucivri. Kesfu'l-mahcu'b. – Istanbul: Derg'ah Yayinlari, 57/1, 365-bet.
5. Komil Yilmaz. Tasavvuf va tariqatlar. – Istanbul: Ensar nashriyoti, 1994. 215-bet.
6. Abdulkarim Kuseyri risalesi. – Istanbul: Dergah Yayinlari, 57/1, 196-bet.
7. Kelaba'zi. Ta'arruf. – Istanbul: Dergah Yayinlari, 57/1, 182-bet.
8. Haqqulov I. Kamol et kasbkim. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2021. 57-bet.
9. Hujivri. Kesful-mahcu'b. – Istanbul: Dergah Yayinlari, 57/1, 366-bet.
10. Haqqulov I. Kamol et kasbkim. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2021. 58-bet.
11. Haqqul I. Zanjirband sher qoshida. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. 151-bet.
12. Haqqul I. Zanjirband sher qoshida. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. 153-bet.
13. Komil Yilmaz. Tasavvuf va tariqatlar. – Istanbul: Ensar nashriyoti, 1994. 215-bet.
14. Haqqulov I. Abadiyat farzandlari. – Toshkent: Yosh gvardiya. 51-bet.
15. Haqqul I. Navoiyga qaytish. 2-kitob. – Toshkent: Fan, 2011. 119-bet.

Sherzod USMONOV,
Qarshi davlat universiteti
Yangi o'zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasida
mustaqil tadqiqotchisi

LIRIK PSIXOLOGIZM VA IJTIMOY MOTIVLAR UYG'UNLIGI

Annotatsiya: mustabid tuzum davrida ular tomonidan targ'ib qilinayotgan ijtimoiy munosabatlar yuzasidan badiiy asarlar yaratilganligining juda ko'p guvohi bo'lganmiz. Ijodkorning o'z lirik psixologizmi bunday asarlarda yaqqol balqib turmaydi. Bunday keng tushuncha doirasidagi ijtimoiy motivlarning yaratilishida ijodkor lirik psixologik qiyofasining qanday shakllanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday lirik psixologizmning yuzaga chiqishida quyidagi omillar katta ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *lirik psixologizm, mafkura, sotsial munosabatlar, ijtimoiy motivlar, badiiy so'z, lirik qahramon.*

Аннотация: во время режима Мустабида мы стали свидетелями создания художественных произведений в связи с продвигаемыми ими социальными отношениями. Собственная лирическая психология художника в таких произведениях не отчетливо просматривается. В создании социальных мотивов в рамках такого широкого понятия большое значение имеет то, как формируется творческий лирико-психологический образ. На появление такого лирического психологизма большое влияние оказывают следующие факторы.

Ключевые слова: *лирическая психология, идеология, общественные отношения, социальные мотивы, художественное слово, лирический герой.*

Annotation: during the Mustabid regime, we witnessed the creation of artistic works in connection with the social relations promoted by them. The artist's own lyrical psychology is not clearly visible in such works. In the creation of social motives within such a broad concept, how the creative lyrical psychological image is formed is of great importance. The following factors have a great influence on the appearance of such lyrical psychologism.

Key words: *lyrical psychology, ideology, social relations, social motives, artistic word, lyrical hero.*

Ijtimoiy muhit tushunchasini keng va tor ma'noda tushunishimiz mumkin. Keng ma'nodagi sotsial munosabatlarni biz mavjud tuzumda yashayotgan insonlarning zamon va makonga, o'tmish va bugun, qadriyatlar, taraqqiyot va tanazzul oqibatlariga bo'lgan tafakkur yo'sinlariga qarab belgilashimiz mumkin. Mustabid tuzum davrida ular tomonidan targ'ib qilinayotgan ijtimoiy munosabatlar yuzasidan badiiy asarlar yaratilganligining juda ko'p guvohi bo'lganmiz. Ijodkorning o'z lirik psixologizmi bunday asarlarda yaqqol balqib turmaydi. Hamza she'rlarining qasddan buzib Sho'ro mafkurasiga moslashtirilgani lirik qahramon qiyofasining ijtimoiy motivlarga qanday munosabatda bo'lganligini belgilab bera olmaydi. Hukmron mafkura tazyiqi ostida yaratilgan asarlarda aslida xalqning chinakam qahramonlari xalq dushmanlari sifatida targ'ib qilindi. Ulkan iqtidor sohibi, akademik ijodkor G'afur G'ulom ijodida ham mustabid tuzumni olqishlagan seriyali she'rlarning yaratilganligi, chin badiiy so'z san'atkorining psixologik qiyofasini belgilab bera olmaydi. Bunday keng tushuncha doirasidagi ijtimoiy motivlarning yaratilishida ijodkor lirik psixologik qiyofasining qanday shakllanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday lirik psixologizmning yuzaga chiqishida quyidagi omillar katta ta'sir ko'rsatadi:

1) o'qilgan, tahlilga tortilgan, chuqur o'rganib mushohada qilingan asarlar majmui: bunday asarlar sirasiga milliy va dunyoviy adabiyot namoyandalarining asarlarini kiritish mumkin;

2) yosh psixologiyasi nuqtayi nazaridan keltirib

chiqariladigan xulosalar;

3) mavjud mafkuraning ijtimoiy ta'siri.

Biz yuqoridagi uch muhim faktor natijasida yaratilgan asarlarni barcha davrlarda ham ko'rishimiz mumkin, ammo ijtimoiy muhitning soxta iskanjasi har qanday ijodkorga o'z ta'sir doirasini o'tkazmay qolmaydi, bunday ta'sir doirasidan tashqarida turib sara asarlar yaratmoqchi bo'lgan adiblar hukmron mafkura xurujiga uchragan. Biz yaqin tariximizga diqqat qiladigan bo'lsak, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir va yana bir qator ijodkorlar shunday qutquning qurboniga aylanishdi.

Mustaqillik davri sharofati bilan biqiq g'oyalar tutumidan chekinildi, adabiyotimizda an'anaviy shakl va mazmun mohiyatidan tashqari yangicha urinishlar, keng fazo doirasidagi, qamrovi yuksak badiiy asarlar yaratila boshlandi.

Shoira Nodira Ofoq ijodini kuzatganimizda, uning o'tgan asrning 80-90-yillarda yaratilgan asarlaridan tortib to hozirgi davrgacha bo'lgan ijodida ijtimoiy muhit motivlarini ifodalashda lirik qahramonning lirik psixologizmida og'ish ko'zga tashlanmaydi. Bu nima degani? Uning hech bir she'rida mavjud ijtimoiy tuzumni alqash, yonki o'zgarishlar sodir bo'lish jarayonida madhiyaboqlikka berilish holatlari kuzatilmaydi. Chin ma'noda shoira Nodira Ofoq ijodkor sifatida o'z e'tiqodiga sodiq so'z san'atkori.

Har qanday ijodkorning lirik psixologizmning ijtimoiy motivlar bilan uyg'unlashuvi dastlab o'zi tug'ilib o'zgan tuproqqa, Vatanga munosabatida ko'zga tashlanadi.

O'zbekiston – jonim onajon,
 Sen mening halol nasibam.
 O'zing ko'ksim tutguvchi imon,
 Ayirmasin sendan biror dam.

Ustoz ijodkorning mazkur she'rdagi "ko'ksimda sevgi, muhabbat, mehr" demaydi-yu "ko'ksim tutguvchi imon" deydi. Bunda iymonidan ayrilgan har qanday odam na Vatanni, na onani, na muhabbatni, na boshqa pokiza tushunchalarni qadrlaydi. Demak, iymon, shoira talqinicha, har narsaning asosidir.

Yo'qlamasang, yo'llari har tun
 Kiraverar xonangga besas.
 Bir umrga sog'inmoq uchun
 Bu qishloqqa bir bor kelsang, bas...

"Sog'inch" tuyg'usi aslida inson ruhiyatini o'zlashtiradi, ko'ngliga og'riq beradi. Shoiraning mahorati shundaki, bunday shirin sog'inch har qanday insonni ham to'lqinlantiradi, hayajonga soladi, mehrga burkaydi.

Yo'q der millionlab erksevar dillar,
 Qalqon qilib ko'ksin ona-zaminga.
 Beshigin mahkamroq quchar onalar
 Zaminni quchmasin, deya alanga.

Endi lirik psixologizmning ijtimoiylashuvi mehr-muhabbat tushunchalariga borib taqaladi. Shu muhabbatning makoni, ma'vosi onalar ekan. Bunday anglashiladigan yana bir ijtimoiy-axloqiy motiv mavjud: agar onalar farzandlarini yovuzliklardan asrashsa, tarbiyaning to'g'ri yo'lidan olib borishsa, albatta, Yer boshiga ham bunday kulfatlar tushmasligi tabiiy.

Yo'q, deyman, yuragim zardobga to'lib,
 Achchiq tutunlardan qoraymasin ko'k.
 Qog'ozlar bombalar ostida qolib,
 Shoir qalamini sindirmasin o'q.

Aynan mana shu o'rinda ijodkorning asl muddaosi ayon bo'ladi. Haqiqatni kuylovchilar bo'lar ekan, ularni insonlar qalbiga eltuvchilar bor ekan, olam yashnayveradi. Qardosh xalq adibi Musa Jalilning "Maobit daftari" to'plamida ham ayni shu fojialarning dahshatli qismlari yotadi. Urushga bo'lgan murosasizlik, uning insoniyat boshiga solgan va solajak kulfatlari uning yana bir qator she'rlarida o'z ifodasini topgan.

Nodira Afoqova she'riyatida tabiat va undagi barcha predmetlarning insonning hayotiga, xatti-harakatlariga, o'y-xayollariga, hissiyotlariga ko'chirilishi, shaxslarning

ichki dunyosi ruhiyati, fe'l-atvori, uning ma'naviy olami ko'chim darajasidagi metaforalar orqali ifodalash ustuvorlik qiladi. Nodira Afoqova she'rlarida tog' timsoli inson o'zligini, matonatini, kuz timsoli shoir qalbi, baxt timsoli Onaning borligi, yomg'ir timsolida silqib turivchi iztirob anglashiladi. Bu kabi so'zlar she'r matnida ixcham tarzda ifodalansa-da, butun she'r darajasida voqealanib, obraz-metafora yaratilgan. Shoir she'rlarida obraz-metaforalarning mohirlik bilan qo'llanilishi uning badiiy maqsadi, ifoda ta'sirchanligini ta'minlagan.

Insonning tabiatida o'zini qoniqtirmaydigan har qanday narsadan uzoqlashish mavjud. Bu uzoqlashishga obyektiv va subyektiv omillar bor. Hayotiy tajribalar natijasida jiddiy xulosalarga kelinadi. Metafora individuallik xarakteriga ega va u inson fikrlash tarzining o'ziga xos ko'rinishlaridan biri. Hayotni istiorasiz tasavvur qilib, tushunib, biror narsani ikkinchi bir narsadan afzalligini aniqlab bo'lmaganidek, badiiy adabiyot ham istiorasiz yashay olmaydi. Agar she'rdan istiora olib tashlansa, u oddiy, quruq xabarga aylanib qoladi. So'zga sirlilik, ta'sirchanlik, emotsionallik bag'ishlaydigan istiora chegara bilmaydi.

Hassos shoira N.Afoqova "Ernest Xeminguey" nomli she'rida metaforik obraz yordamida insoniy kechinmalarni turli xil vosita va usullar bilan gavdalandiradi.

... O odamzod! O erk ovchisi,
 Temir tuzum naqqoshlari, o!
 O bozingar! Dil o'ynovchisi!
 O'ynarmisan umrimni hatto?

Jamiyatdagi chirkinliklarga murosasiz mashhur yozuvchi, to'g'riso'z va isyonkor Xemingueyning tabiatini ochib berish va ijtimoiy tuzumning asl qiyofasini ko'rsatishda "erk ovchisi", "Temir tuzum naqqoshlari", "Dil o'ynovchisi" kabi metaforalarni qo'llagan va badiiy niyatiga erishgan. Ishonchning yo'qolishi, tevarakatdagi odamlarning sotqinligi, ikkiyuzlamachiligi, laganbardorliklari, xushomadgo'yliklari uni juda charchatgan, hatto jonidan kechishgacha olib borgan.

Shoira Nodira Ofoq she'riyatida qanday ijtimoiy motivlar berilishidan qat'i nazar unda tafakkurning chuqur sarhadlariga kirib boradi, shoira ijodini faqatgina hissiyotlar chulg'ab olgan emas, u tasvirlanayotgan har bir mavzu, detal, g'oyalar, his-tuyg'ular idrok, tafakkur bosqichida turib tahlil va tasvir qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: "O'zbekiston", 2002.
2. Afoqova N. Abdulla Oripov lirikasida badiiy san'atlar. – Buxoro: 1995.
3. Afoqova N. Jadid she'riyati poetikasi. – T.: "Fan", 2005.
4. Afoqova N. Bizning era. – T.: "Ijod press", 2019.
5. Afoqova N. Yolg'izning yori. – T.: "Muharrir", 2022.

Rayxon JUMANAZAROVA,
tadqiqotchi

NODIRA AFOQOVA SHE'RLARIDA BADIY-TASVIRIY VOSITALARNING QO'LLANILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada hassos shoira Nodira Afoqova she'rlari badiiyati xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *she'r, badiiylilik, tasviriy vosita, majoz, metafora, ko'chim*

Аннотация: в данной статье рассматривается художественная природа стихов чувствительной поэтессы Нодиры Афоковой.

Ключевые слова: *поэзия, искусство, изобразительные средства, метафора, метафора, движение.*

Annotation: this article discusses the artistic nature of the poems of the sensitive poetess Nodira Afokova.

Keywords: *poetry, art, pictorial means, simile, metaphor, movement.*

XX asr o'zbek she'riyatining taniqli vakilasi Nodira Afoqovaning "Bahorning boshlanishi", "Arosat fasli", "Ko'ngil shevasi", "So'z ayvoni", "Qora navo", "Vatan darslari" kabi to'plamlari nashr etilgan. "Fitratning tushlari", "Jazo" dostoni; "Muhammad (s.a.v) dedilar...", "Xayyom chodirinda", "Muhabbatnoma", "Faqat Sen bilursan", "Hazrat Navoiyning yetti go'zali", "Yolg'izning yori" she'riy turkumlari o'quvchilarga yaxshi tanish. Bundan tashqari Nodira Afoqova mohir tarjimon hamdir. Shoira hazrat Navoiyning "Ruh ul-quds" qasidasini fors tilidan, Leonid Andreyevning "Yahudo Iskariot" qissasi, Gi de Mopassan, Konstantin Paustovskiy hikoyalari ham Mixail Lermontov, Marina Svetayeva she'rlarini rus tilidan o'zbek tiliga o'g'irgan.

Shoiraning dilbar she'riyati inson qalbini nafosat tuyg'usi bilan oshno qiladi, hissiyotlarni to'yintiradi, diliga zavq bag'ishlaydi. "Haqiqiy shoir uchun, hayot she'riyat bo'lsa, she'riyat uning hayotidir. Men buni ko'plab shoiru shoirlar hayoti va ijodida kuzatib, shunga iqror bo'ldimki, tug'ma aql, qaynoq hissiyot, kuchli xarakter va adolatpeshalik kabi xislatlar shoir shaxsiyatida mujassam bo'lmog'i shart. Ana shu xislatlardan birortasi oqsasa, shoir ijodining mahsuli noqis bo'ladi"[1.3]

Adabiyotshunos olim B. Sarimsoqov ta'kidlagan barcha sifat-u fazilatlar Nodira Afoqovada mujassam, u she'riyatni hayot qadar qadrlaydi. Millatini, vatanini, erkini, ona tilini jonidek ko'radi, yurt kelajagi uchun qayg'u chekadi.

Uyg'otgil o'shani, uyg'ot yog'duni,
Nomus sanalmagan nomuslar haqqi.
Qonimizning alvon tanalarini,
Kuyaday yeb yotgan hibslar haqqi,
Uyg'otgil o'shani-uyg'ot yog'duni.[3]

Shoiraning "uyg'ot yog'duni" degan nidosi uning beg'ubor qalbini, orzularining shaffofligini,

olamning go'zal va maftunkorligini, inson umrining o'tkinchiligini, dunyoda ezguliklar mangu qolajagini, qora tun ketidan yorug' kunlar kelajagini anglatadi. Yovuzliklardan zada dunyoni yog'dular chulg'ashini istaydi. She'r misralarida ko'ngil dardlari suratlarini, orzu-armonlar fojiasi, ruhiy iztiroblar manzarasi mujassam.

Shodlanmoqqa qo'ymas nimadir hanuz,
Pisand etmas Vaqtini. Sudralib kelar.
Qichqirib, kul bo'lgan qaqnusmiz, qaqnus,
Shodlanmoqqa qo'ymas nimadir hanuz.[3]

Qaqnus degan afsonaviy qush bor. U qush o'zi yonib kul bo'lar va yana kuldand yangidan bunyod bo'lar ekan. Shoira o'zini, ya'ni haqiqat uchun jon olib jon bergan, haq so'zni aytishdan charchamagan insonlarni qaqnusga qiyoslagan. Ma'lumki, she'riy asarlarda shoir lirik kechinmalari, his-tuyg'ulari, falsafiy mushohadalarini yuzaga keltirishda badiiy obraz asosiy o'rinda turadi. Antik davrda Aristotel poeziya masalasiga to'xtalganda "o'xshatish garmoniya va ritm singari qadimdan o'q odamlarning tabiatiga xos xususiyatdir"[2.12] deb belgilarkan, so'z san'atida obraz yaratilishi zamirida ham o'xshatish zarurligiga ishora qiladi.

Ko'zyoshdan qo'rqmagan ayg'oq ko'ppaklar,
Qarg'ishdan qo'rqmagan bir to'da kibor.
Xundan qo'rqmagan shum ko'rshapalaklar,
Iymon ahlidurkim, eturlar abgor
Allohdan qo'rqmagan zulmparastlar.[3]

Shoira yurt boshiga qullik, millat farzandlarini mutelik zanjirida tutqunlikka solgan, iymonsizlik, erksizlik, zulmga duchor etganlarni "ayg'oq ko'ppaklar", "shum ko'pshapalaklar" "zulmparastlar" deya ta'riflab, istehzo usulida fosh etadi. Qadim ildizlarga, chinor kabi uzoq tarixga ega millatimizni "Qonga qon" deb qo'zg'olmaslaridan turib zolimlar ko'ngliga yorug'lik

sol, deya iltijo qiladi. Abdulla Oripov aytganidek: “Hayot, qo‘zg‘almasin bu qalb daf‘atan”. Mabodo qo‘zg‘alguday bo‘lsa, uni to‘xtatish mushkul.

Qo‘ng‘iroqlar chalinar tunda...
 Ko‘r zulmatga boshimni urib
 Qo‘rquvgami o‘xshash tuyg‘udan
 Derazaga bordim yugurib.

She‘rda qo‘llangan badiiy-tasviriy vositalar shoiraning kechinmaalarini yuzaga chiqishiga xizmat qilgan: *Ko‘r zulmat* (metafora, epitet), *Binafshalar yo‘lga tushgan yo?* (tashxis) *Mahbusgami o‘xshaydi yurak* – *Panjaraga o‘xshar qovurg‘a* (tashbih), *Uyg‘onishdan qo‘rquvga tushar, Tug‘ilishdan tushar qo‘rquvga?..* (tardi aks), *Derazaga bordim* (metonimiya-sinekdoxa).

Yodim aro uyg‘onar bir nom,
 Kurtak tugar bo‘g‘zimda yig‘i.
 O, qaylardan kelar bu isyon –
 Qisir-qisir muzlar sinig‘i [4.16]

“Ona tilim, onajonim” deb nomlangan she‘rida millatimiz o‘tmishiga nazar solingan, O‘rxun-Enasoy yodgorliklaridan tortib, Jahongir Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, Sadridin Ayniy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon singari yurtparvar zotlargacha nomi tili olingan, ularning hayot yo‘li bilan bog‘liq ayrim voqealar yodga olingan.

Shoira millat tarixi va tarixiy shaxslar haqida yozar ekan, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lponning nomi tilga olinmaydi, ularga daxldor kechmish ikki ijodkorning asarlari nomiga, ular ijodida o‘z haddi a‘losini topgan individual obrazlarga ishora qilish bilan metonimiya hosil qilinadi.

O‘tganu o‘tmagan kuningda sir ko‘p:
 Gulday o‘g‘illarga balchiq otarlar,
 Sen-ku binafshaning g‘amdoshisan, lek
 Yopishmagan gajjak – tuhmat bitarlar.
 Dorlarda chayqalgan qurbonim –
 Ona tilim, onajonim. [4.7]

“O‘tganu o‘tmagan kun” – birinchi milliy romanga ishora. Shoira o‘tmagan kun deyish orqali xalq boshiga tushgan musibatni nazarda tutgan. Badda tashbeh, talmeh, istiora, majoz va ko‘chim qo‘llangan. “*Balchiq*” – XX asrning qatag‘on siyosati; “*binafsha*” – yangilanishdan darak beruvchi, yangi hayot boshlanishining ramzi; “*Yopishmagan gajjak*” – A.Fitratning maqola-felyetoni. Uning to‘liq nomi “Boybo‘latovga ochiq xat” bo‘lib, u raddiya sifatida yozilgan.

Iblis shevasida so‘zlovchilar, ey!
 Men “Xamsa”da me‘roj etib qaytganman!
 Men endi o‘lmayman, O‘rxun soylarda
 Parvozim toshlarga naqsh etganman.
 Toshlarda uyg‘og‘im, tug‘yonim –
 Ona tilim, onajonim.[4.7.]

“Iblis shevasida so‘zlovchilar” – sho‘roning malaylari, vatan va xalq nomidan gapirib, vatani va millatiga xiyonat qilgan qo‘rqoq, sotqin, “qizil imperiyaning” yugurdak ijrochilari. Birinchi satrda metafora – iblis shevasi, sinekdoxa – iblis shevasida so‘zlovchilar, ya‘ni bu toifaning bir belgisi orqali uning butun umri, hayoti ko‘rsatilmoqda.

Nodira Afoqova she‘rlarida qo‘llangan badiiy-tasviriy vositalar – metafora, metonimiya, sinekdoxa kabilar poetik fikrning badiiyligini ta‘minlagan va ijodkor aytmoqchi bo‘lgan yashirin ma‘nolarni ifodalashga yordam bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Саримсоқов Б. “Қўшқанот ижод парвози”/ Афоқова Н. Аросат фасли. – Бухоро: “Бухоро”нашр., 2004.
- 2.Арасту. Поэтика. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.
- 3.<https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/nodira-afiqova-yangi-sheerlar.html>
Афоқова Н. Бизнинг эра. – Тошкент: Ijod press, 2019.

Muhabbat JO'RAYEVA,
BuxMTI akademik litsey ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
BuxDU mustaqil tadqiqotchisi

ABDULLA ORIPOV IJODIDA NAFS KO'RINISHLARINING TALQINI



Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy adabiyotda nafs talqini va uni Abdulla Oripov ijodida nafsning tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Nafsi zulmatga qiyoslagan shoir o'z lirik qahramoniga ibodatni chora qilib ko'rsatadi.

Abdulla Oripov nafs obrazining o'zini bevosita qo'llamay nafs oqibatida yuz bergan voqealar orqali ibrat beradi. Oллоh yo'qsillarga rahm qilib boylik beradi. Bu bilan sinaydi. Bir tarafga esa nafsni qo'yadi. Bu sinovning ko'prigi bo'ladi. "Oллоh marhamati" she'rida nafs nima uchun yaratilganiga javob yozadi So'z va ruh bilan yolg'iz qolgan shoir iymonli bo'lsa, bu jarayon ibodatdir. Agar bordi-yu so'z bilan yolg'iz qolgan shoir jismida nafsoniyat ustun bo'lsa, bu aysh va shaqovat. Undan ham battar – fitna va buzg'unchilik bo'lishi mumkin. Iymonli so'z va ruhning bir vujudga kechadigan umri xayrli toat bo'lib, o'z sohibini ezguliklar sari eltadi, o'zgalarga ham yaxshilik keltiradi...

Kalit so'zlar: *nafs, Oллоh, qanoat, haq, yo'qsil, iymon, jism, ruh, fitna.*

Annotation: this article discusses the interpretation of the self in modern literature and the educational significance of the self in the works of Abdulla Oripov. The poet who compares lust to darkness, shows prayer as a measure to his lyrical hero.

Abdulla Oripov does not directly use the image of lust, but gives an example through the events that happened as a result of lust. Allah has mercy on the poor and gives them wealth. Will try with this. On the one hand, he puts the ego. This will be the bridge of the test. In the poem "Blessings of Allah" he writes the answer to why the soul was created. If the poet, who is alone with words and spirit, is a believer, this process is a prayer. If sensuality prevails in the poet's body, who is left alone with words, it is greed and shame. Even worse - conspiracy and mischief can happen. The life of believing word and soul in one body is a good obedience, it leads its owner to virtues and brings good to others...

Key words: *self, God, satisfaction, truth, lack, faith, body, soul, conspiracy.*

Аннотация: в данной статье рассматривается трактовка Я в современной литературе и воспитательная значимость Я в творчестве Абдуллы Орипова. Поэт, сравнивающий похоть с тьмой, показывает молитву как меру своему лирическому герою.

Абдулла Орипов не использует напрямую образ похоти, а приводит пример через события, произошедшие вследствие похоти. Аллах милует бедных и дарует им богатство. Попробую с этим. С одной стороны, он ставит эго. Это будет мостик испытания. В стихотворении «Благословение Аллаха» он пишет ответ на вопрос, для чего была создана душа. Если поэт, находящийся наедине со словом и духом, является верующим человеком, то этот процесс является молитвой. Если в теле поэта, оставшегося наедине со словами, преобладает чувственность, то это жадность и стыд. Хуже того – может случиться заговор и пакость. Жизнь верующего слова и души в одном теле есть доброе послушание, оно ведет своего обладателя к добродетелям и приносит добро другим...

Ключевые слова: *Я, Бог, удовлетворение, истина, недостаток, вера, тело, душа, заговор.*

Zamonaviy o'zbek she'riyatida Abdulla Oripov ijodida nafsning, u keltirib chiqaradigan barcha yomon illatlarning qoralanishiga guvoh bo'lamiz. Abdulla Oripov bu masalalarni hajviy, falsafiy ohanglarda aks ettiradi. Shoirning "Haj daftari", "Ruhim", "Tanlangan asarlar", "Savob", "Jannatga yo'l" kabi to'plamlarida ma'naviyatimizni yuksaltirish yo'lidan boradi. "Hikmat sadolari" to'plamiga ham Abdulla Oripovning keyingi yillarda yozilgan e'tiqod ifodasi bo'lmish falsafiy ruhdagi she'rlari jamlangan.

Shoirning "Hayot muammolari" she'rida bu dunyoda yashash uchun ishlash ham oson emasligi, garchand tayyor zahmatli mehnat o'zingniki bo'lib turib shu mehnatni qilish uchun ham haq so'raydigan

badnafs insonlar obrazi g'oyibona tasvirlanadi. Asar kompozitsiyasi ota-bolaning sarson ish qidirish holati bilan boshlanadi. Muammo sifatida ish beruvchi biron dargohga quruq qo'l bilan yaqinlashib bo'lmasligi aytiladi. Ilmning kuchi emas, aqcha bilan lavozimga ko'tarilish mumkinligi zaharxanda kinoya ostiga olinadi:

Unut endi ilmning kuchin,

Aqcha seni ko'targay pastdan.

Bu dunyoda beta'ma insonlarning noyobligi, imkonin topsa, nafsiga qul odamlar "haq so'rashar chumolidan ham", – deydi shoir. She'rning oxirgi bandida nafsiga tobe insonni shoir shunday ta'riflaydi:

Tafakkurdan mosivo inson,

Nafsning quli bo'lgaydir, nahot.

Bir chekkada Insof va Vijdon
Sekingina chekadi faryod.

Didaktik mazmunga ega bunday asarlar mumtoz adabiyotda ham nasihat ko'rinishida yoki "sodir bo'lgan oqibat" mazmunida yoritiladi. Yassaviy ijodida nasihat ko'rishini ilg'asak, Abdulla Oripov ijodida "nafsnig oqibati" talqinini kuzatamiz.

Shoir nafs obrazining o'zini bevosita qo'llamay nafs oqibatida yuz bergan voqealar orqali ibrat beradi. Masalan, uning "Sharq qismati" she'rida:

Boylik qazib oldim yerning ostidan,
Tugab qolishini o'ylamay aslo.

Yuqoridagi misralarni o'qiganimizda Qorun obrazi esimizga tushadi. Shoir Boylik, aqcha bilan bog'liq nafs talqinini "qalbsizlik" deb ta'riflaydi, boylik inson nafsini qitiqlovchidir:

Afsus, qalbsizlikka yuz burdi inson,
Aqchadir suyangan murabbiysi ham.

"Mangu panoh" she'rida ham qadrdon insonlarning bir-biridan ajrab ketishiga Manfaat sababchi qilib ko'rsatiladi. Nafs obrazini u bilan bog'liq atributlar bilan bayon qilish shoir ijodida ko'p uchraydi. Masalan, "Bozor" nomli to'rtlikda ham shunga ishora mavjud:

Bozor hamma yo'lni yubordi burib,
Sohibqalblarning ham izlari qurib.

Yo Rab, anglaydigan odam topilsa,
Yig'lardim poyiga boshimni urib. [Oripov Abdulla. Tanlangan asarlar. –Toshkent: Sharq, 2019. 750-bet.]

O'zini va Oллоhni anglagan insonni manfaat, bozor, boylik yo'ldan ozdirolmaydi axir. Nafs insonga tug'ilganidan jo qilingan. Faqat uni boshqarish lozimdir.

Oллоh yo'qsillarga rahm qilib boylik beradi. Bu bilan sinaydi. Bir tarafga esa nafsni qo'yadi. Bu sinovning ko'prigi bo'ladi. "Oллоh marhamati" she'rida nafs nima uchun yaratilganiga javob yozadi shoir:

Oллоhim kimgadir berdi boylik, zar,
Balki rahm ayladi yo'qsil joniga.
Va lekin to'ymasin deya u battar,
Nafsni qo'shib qo'ydi yoniga.

Endi faqatgina inson bu nafsni yengib, anglab yashasa bo'lgani. Navoiy aytganiday: "Nafs itin qilsang zabun,

Olamda yo'q senday shujo".

Qanoat eng oliy tuyg'udir. Abdulla Oripovning "Qanoat" she'rida nafsning barchaga teng yaratilganligi aytiladi. Nafsga bino qo'yish, yo'ldan ozish tarozini ushlolmagan insonlarga xos:

Kattakon karvonga mansub bo'lsa ham,
Gadoning rutbasi gadodir doim.
Omad bilan imkon mangu biri kam,
Faqat teng yaratgan nafsni Xudoyim.

She'rdan nafs orqali insonga ato qilinadigan rizq

nazarda tutilmoqda.

Nafsga berilgan insonlar tasvirini shoir "Mulk" she'rida quyidagicha chizadi:

Yalintirmas hech arslon,
Chegarasin sotmaydi bo'ri.
Mulkin faqat pullaydi inson,

Kambag'alning quriydi sho'ri. [Oripov Abdulla. Tanlangan asarlar. –Toshkent: Sharq, 2019. 675-bet.]

Shoir "lymon" she'rida ham nafs va bozorni iymonga teskari qo'yadi:

Nafs degan hammani urdi yo'lidan,
Aylan avliyoning o'ng-u so'lidan.

Aqchasiz hech narsa kelmas qo'lidan,
Masjidni buzdi-yu cho'ng bozor qildi. [Oripov Abdulla. Tanlangan asarlar. –Toshkent: Sharq, 2019. 659-bet.]

"Osmondagi zilzila" she'ri syujeti boshida nafs yo'lga kirgan kampir, chol, olim, tanqidchi kabilarning tavbasiga duch kelamiz. She'rni o'qib boraversak, faqatgina bir bolakayning samolyot qimirlashidan onasiga: "qo'rqmang", degan tasallisini eshitamiz. Ammo yuqorida sanalgan kimsalar xavf o'tgach gunohlarini bo'yniga olishmaydi. Tanqidchi qorani oqlaganining sababini shoirlarning shuhratparastligi, olim pora olganiga talabaning o'zi keltirib berganini, bozorchi hoji boboning hajda savdo qilganiga hadislarda tijoratning taqiqlanmaganligini ro'kach qilishadi. Bu iymonning yo'qolganidan dalolatdir.

Buyuk shoir she'riyati haqida xulosa qilarkanmiz, quyidagi fikrlarni keltirib o'tamiz:

"Abdulla qaysi bir temaga qo'l urmasin, nima haqda she'r yozmasin, uning ko'zi oldida Ulug' Vatan turadi, o'sha ulug' Vatanning farzandi sifatida qo'lga qalam oladi. Shu sababdan uning she'rlari doim hayotbaxsh, pafosi baland, ovozi dadil, ruhi tetik", deb yozadi Matyoqub Qo'shjonov. Abdulla Oripov ijodida o'zbek she'riyatidagi eng ezgu traditsiyalar izchil ravishda davom ettirilgan. Shoir o'z she'rlarida Alisher Navoiy kuylagan insonparvarlik, ezgulik, yaxshilik, razolatga, nafsga ayovsiz nafrat, insoniy sevgi va muhabbat, Oллоh va inson birligi g'oyalarni o'ziga xos otashin misralarda talqin etadi, o'sha g'oyalarni mehr-u muhabbat bilan davom ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchi – o'zining shaxsiy subyektiv taassurotlarini ishlay oladigan, ularda umumahamiatli – obyektiv tomonlarini topa oladigan, tasavvurlarga o'z shaklini bera oladigan, hayotga, odamlarga va aynan shu faktga o'z subyektiv munosabatini topa oladigan hamda bu munosabatni o'z shakli, o'z so'zida gavdalantira oladigan talantli insondir. Badiiy adabiyotning birlamchi talablaridan biri bo'lgan mukammal obrazni yarata olgan kishigina haqiqiy ijodkorlikka da'vo qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komilov Najmiddin. Tasavvuf. – T.: "Movarounnahr" – "O'zbekiston", 2009.
2. Oripov Abdulla. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2019. 783-bet.
3. Qo'shjonov Matyoqub. Onajonim she'riyat. – T.: O'qituvchi, 1984.

Shohsanam BEGIMQULOVA,
Sharq tillari kafedrası o'qıtuvchısı

IBN SINO "DEVON"IDAGI MUMTOZ SHE'RIY JANRLAR

Annotatsiya: Ibn Sino ijodini o'rganar ekanmiz, uning ijodi juda keng qamrovli va serqirra ekanligiga amin bo'lamiz. Uning asarlarining aniq miqdori ma'lum emas. Ushbu ilmiy ishdan maqsad Ibn Sino devoni va undagi she'riy janrlarni o'rganish va tahlil qilish, ularning g'oyalarini yoritishdir.

Kalit so'zlar: janr, falsafiy qarashlar, bayt, sharhlar, qo'lyozma, tabobat, she'r, she'riyat.

Annotation: Studying Ibn Sino's work, we can be sure that his work is very comprehensive and multifaceted. The exact amount of his works is not known. The purpose of this scientific work is to study and analyze Ibn Sina's work and genre and to illuminate their ideas.

Key words: genre, philosophical views, the stanza, commentaries, manuscript, medicine, poem, poetry.

Аннотация: изучая творчество Ибн Сино, мы можем убедиться, что его творчество очень обширно и многогранно. Точное количество его работ неизвестно. Целью данной научной работы является изучение и анализ творчества и жанра Ибн Сины, а также освещение их идей.

Ключевые слова: жанр, философские воззрения, строфа, комментарии, рукопись, медицина, поэма, поэзия.

Ibn Sino ilmiy merosini shartli ravishda 4 qismga, ya'ni falsafiy, tabiiy, adabiy va tibbiy sohalarga bo'lish mumkin, olim shularning har birida chuqur iz qoldirgan. Lekin Ibn Sino asarlarining miqdoriy nisbatiga nazar salsak, olimning qiziqish va e'tibori ko'proq falsafa va tibga qaratilganini ko'ramiz. Garchi uni "Avitsenna" sifatida G'arbda mashhur qilgan uning tibbiy merosi, xususan, "Tib qonunlari" bo'lsa-da, "Shayx-ar-Rais" nomi, eng avval, uning buyuk faylasufligiga ishoradir.

Ma'lumki, Ibn Sinoning ilmiy faoliyati boshlangunga qadar arab tilshunosligining barcha yo'nalishlari batamom shakllanib bo'lgan edi. Halil ibn Ahmad davridan to Ibn Jinniy davrigacha arab grammatikasi, leksikologiyasi va tilning umumiy nazariyasiga oid eng yirik asarlar yaratilgan, shunga monand arab adabiyotida aruz vaznining barcha janrlari shakllanib, ularning yorqin namunalari satrlarga tushirilib ulgurgan edi. Ana shu boy ilmiy meros qatorida Ibn Sinoning "لحزجوا" (Ibn Sino devoni) va "انيس نبا ناويد" (Zuhul[Saturn]ning eng yuqori nuqtasi), "ف قزوجرا" (tibbiy urjuza) kabi asarlaridagi she'rlar alohida o'rin tutadi. Turli manbalarda Ibn Sinoning she'riy asarlari turlicha nomlar bilan saqlanib qolgan: "ناويد" (Ibn Sino devoni), "انيس نبا راعشا" ("Ibn Sino she'rlari") va "ناويد". Ushbu asarlarning bir necha qo'lyozmalari dunyoning turli kutubxonalarida saqlanib kelmoqda. She'riy asarlarning qo'lyozmalari bir-biridan nafaqat shakl jihatdan, balki ko'chirilish davri bilan ham farq qiladi. Ehtimol, shuning uchun ham hozirgi kunda tadqiq qilinayotgan she'rlarning aniq miqdori ko'rsatilmagan.

Ibn Sinoning Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari markazida 15303 inventar raqam ostida saqlanayotgan "انيس نبا ناويد" (Ibn Sino devoni) asari toshbosma nusxasi ham bizgacha saqlangan ma'naviy

merosimizning ajoyib namunalaridan biridir. Ushbu toshbosma nusxa Ibn Sino she'rlarining qo'lyozmasi asosida arab sharqshunos olimi doktor Husayn Ali Mahfuz boshchiligida 1957-yilda Iroqda nashr etilgan. [Qarang: روتكدلدا تاايحت عم انيس نبا ناويد، انيس نبا روتكدلدا تاايحت عم انيس نبا ناويد، قارعل، ظوفحم يلع نيسح - 1957] Asardagi barcha she'rlar arab tilida bo'lib, ular orasida Ibn Sinoning mashhur "Qasidai Ayniyya"si ham o'rin olgan. Devonda hammasi bo'lib 183 bayt ya'ni 366 misra she'r mavjud. Bu turli janrlardagi 27 ta saralangan mumtoz she'rlar namunasidir. She'rlar taxminan har 20 bayt oralig'ida [F. 41 a] – [F. 41 b], [F. 42 a] – [F. 42 b], [F. 43 a] – [F. 43 b], [F. 44 a] – [F. 44 b], [F. 45 a] shaklida taqsimlangan. Ular mavzu jihatidan ham rang-barangdir. Aynan shu bois biz tarjima va tahlil uchun mazkur devonga tayandik. Tarjimada matn asliyatining tilini va uslubini saqlab qolishga harakat qildik, faqatgina tushunish qiyin bo'lgan joylariga matn mazmunidan chiqib ketmagan holda, izoh va qo'shimchalar berishga urindik.

محي رل نم رل ل ل م س ب
انيس نبا ناويد
س يئ رل خيشل لاق
ربختسم لك نع رسلا نص
رزحلا ال مزحلا امف رذاح و
متنص نا كترس كريس ا
انيس نبا ناويد، انيس نبا . 21. ص [ر مظ نا هل ريس ا تنأ و
- 1957] قارعل، ظوفحم يلع نيسح روتكدلدا تاايحت عم

Bismillahir rohmanir rohiym

Mehribon va rahmdil Alloh nomi bilan

Ibn Sino devoni

Shayx ur-Rais aytdi(dedi): Siringni hammaga aytish (oshkor etish)dan ehtiyot bo'lgin. Chunki mulohazali degan so'z – ehtiyotkor bo'lish degandan

boshqa narsa emas. Agar siringni saqlasang, u seni asiringdir, agar siring oshkora bo'lsa, sen siringning asiri bo'lib qolasan.

Ibn Sino she'rlarida yoshlarga nasihat qiladi, har bir ishda mulohaza bilan fikr yuritishni, o'ziga do'st sirdosh tanlashda ehtiyot bo'lishni uqtiradi. Ibn Sinoning bunday purma'no nasihatlariga, falsafiy qarashlarga boy she'rlari uning (Zuhal[Saturn] ning eng yuqori nuqtasi) asarida ham ko'plab keltirilgan. Shoirning ham arabiy ham forsiy she'rlarini o'zida jamlagan bu asar O'zR FA fundamental kutubxonasida 19259 inventar raqam ostida saqlanadi. Bu asar Ibn Sino she'rlari jamlangan boshqa asarlardan ko'ra mukammalroq sanaladi. Majmuaning avvalgi qismida 4 g'azal, 5 qit'a, 38 ruboiy, va 2 ta fard hammasi bo'lib 122 bayt ya'ni 244 misra fors-tojikcha she'rlar o'rin olgan. [10] Undagi sara ruboiylar mavzu va g'oya jihatidan mukammal, shoirning teran fikrlari ularga jo bo'lgan:

لحز جوا ات هائيس لگ رقع ز
لح ار يتيگ تالكشم هم مدرک
لحي و رگم ره ديقي ز متسج نوري
انيس نبا يلع وبا [37] لجا دنب رگم دش هداشگ دنبره
Ushbu kitobning» . ص. ، 1980 نافرغ ، هينشود ، لحز جوا
deb nomlanishi ham aynan shu ruboiy bilan bog'liq deb hisoblanadi.]

Qora tuproq qa'ridan tortib to Zuhal(Saturn)ning eng baland cho'qqisigacha bo'lgan dunyoning hamma qiyin, mushkul masalarini hal qildim. Men har qanday makr-u hiyla tuzog'idan qutulib chiqa oldim. Hamma tugunlar yechildi. Lekin birgina ajal-o'lim tugunini yecha olmadim.

Mumtoz Sharq she'riyatida asl tarovat, teran ma'nolarni to'g'ri idrok qilish uchun tasavvuf ta'limotidan xabardorlik, uning istilohlarini bilish muhim ahamiyatga ega. Tasavvuf - insonning ilohiyotga munosabatini va umuman, yashamoqning ma'no-maqsadini o'ziga xos tarzda talqin etuvchi ma'naviy, diniy, falsafiy birlikdagi ta'limot tizimidir. Komil inson bo'lib yetishishga intilish va shu maqsadda uning ta'limotida belgilangan yo'llarni bosib o'tish zarurati tasavvufning asosiy muddaosi hisoblanadi. Shunga ko'ra tasavvufning eng ko'p qo'llanadigan istilohlari ishq, may, jom, ko'ngil, ma'shuqa, dunyo, raqib, oshiq va boshqalar.

O'zida boy ma'naviy merosni jamlagan Ibn sino she'riyatida ham tasavvufiy istilohlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, may bilan bog'liq bo'lgan ruboiylar. May tasavvufda ishq, sof ishq, ya'ni Ollohga bo'lgan muhabbatni ifodalaydi. Tasavvufga ko'ra agar oshiq ma'shuqasining ishqida may ichib mast bo'lsa bu ishqning haqiqiylikiga ishora. Har bir istilohning o'z ma'nosi borki, shu sababli mumtoz she'riyatda bunga alohida e'tibor qaratganlar. Lekin Ibn Sino she'riyatida bunga salgina boshqacharoq yondashiladi.

يتحار اي الابل اذه يف حارل
يتحار يف يتحار لرع اف دلل

يوهلا حورجم ءافش موركلل تنب
يتحارج ماركلل نبا اي اب جلاع

*Rohatijon erur may mushkilot ichra,
Rohatim qo'y Ollohim, shu kaftim ichra.
Tok qizi-may shifodir ishqdan yaradorlarga,
Ey karamli zot o'g'li jarohatimni emla.*

*“Bunday qiyinchiliklarda may jonning rohatidir,
Ollohim, mening rohatimni kaftim ichiga qo'y. Tok qizi(may) sevgidan yaralanganlarga shifobo'ladi. Ey karamli kishining o'g'li jarohatimni davolagin”.*

Bu ruboiysida Ibn Sino so'z o'yini qilyapti. May - karomatli va bog'bon, bog'bon o'g'li, tok qizi, ya'ni maydir. Ushbu ruboiy “ruboiyi xosa” a-a-b-a shaklida qofiyalangan. Ruboiy badiiy tasvir vositalari orqali yanada ohangdorlik kasb etadi. Birinchi va ikkinchi misralardagi so'zining takror qo'llanishi takrir san'atini hosil qilgan bo'lsa, oxirgi misradagi so'zi ularga ohangdosh bo'lib keladi. Bulardan tashqari so'zi bir misrada ikki marta ikkita ma'noda qo'llanilib, tajnis san'atini hosil qiladi. Mayni tok qiziga o'xshatilib tashbeh san'ati ham mohirona qo'llangan. Ruboiyda yuqorida aytib o'tganimizdek ishq azoblarida may davo bo'lmoqda. Ibn Sino bu masalaga ikkinchi tomondan, ya'ni tabiblik nuqtai nazaridan ham yondashadi.

Shu jihatdan Ibn Sino “Qonun” asarida ham, kichik risola va qasidalarida ham mayning zararli hamda dorivorlik xususiyatlari haqida so'z yuritadi, bu haqida baytlar keltirib o'tadi:

*May dushmani mastu do'stbo hushyorast,
Andak taryoku, besh zahri morast.
Dar bisyorash mazarrat andak nest,
Dar andaki u manfaat bisyorast.*

*(May mastning dushmaniyu, hushyorning do'stidir.
Uning ozi taryoq-zahar davosiyu, ko'pi ilon zaharidir.
Ko'pidan zarar oz emas, ozida manfaat ham kattadir).* Ushbu to'rtlikda birinchi, ikkinchi, to'rtinchi misralardagi ast so'zi takrir san'atini, misralardagi antonim so'zlar: dushman-do'st, andak-bisyor tazod san'atini yuzaga keltirgan. To'rtlik a-a-b-a shaklida qofiyalangan, forsiyda yozilgan. Sharq she'riyati an'alaridan farqli ravishda shoir ushbu she'rlarida nafaqat badiiy, balki ilmiy tomondan ham bizga ko'p ma'lumotlarni beradi. Ya'ni tibbiyot, falsafa, mantiq fanlarini she'riy usullar orqali insoniyatga yetkazib beradi. Ko'rib o'tganimizdek Ibn sino she'rlari orasiga chuqur fanni, kerakli bilimlarni jo etgan.

Ibn Sino may haqidagi she'rlarida ichkilik johillar(ya'ni haddan tashqari ko'p may ichuvchi kimsalar)ga qanday ta'sir etishini, ichilgandan keyin ularda yuz beradigan voqealarni ham tasvirlaydi. Tabib sifatida u ko'p may ichishni qoralaydi, uning salbiy oqibatlarini bayon etadi va bu yo'lga kirib qolganlarning ancha-muncha ahmoqliklari ko'p may ichganlarida yuzaga chiqishini ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, olim o'z davridagi mavjud fan taraqqiyotining barchasini egallaydi. Biroq o'lim haq ekanligi, uni davolashning iloji yo'qligini alohida ta'kidlab o'tadi. Har ikki devondagi boshqa she'rlar tarjimasini va tahlili, ular haqidagi batafsil ma'lumot keyingi ishlarda keltiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Irslov Abu Ali Ibn Sino - T.: Fan, 1980.
2. An-Naim arabcha-o'zbekcha lug'at, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. – T. 2003
3. قارغلا، ظوفحم يلغ نيسح روتكدلا تايحت عم انيس نبا ناويد، انيس نبا، - 1957
4. Ibn Sino ta'limoti fan taraqqiyotida VII xalqaro Ibn Sino o'qishlari. Ibn Sino ruboiylarining o'zbekcha tarjimalari. - Buxoro, 2013.
5. Abu Ali Ibn Sino. Avchi Zuhul. – Dushanbe, Irfon. 1980.
6. Abu Ali Ibn Sino. Lirika (tarjimonlar: Sh. Shomuhamedov, J. Kamol, A. Irslov).

Moxira SADULLAYEVA,
Qoraqalpoq davlat universiteti

NASRDA IJODKORNING BADIY PSIXOLOGIK MAHORATI MASALASI BO'YICHA BA'ZI MULOHAZALAR

Annotatsiya: mazkur maqolada adabiyotshunoslikdagi asosiy muammolardan biri bo'lgan badiiy psixologizm va uning nasrda, ayniqsa, hikoya janridagi o'rni masalasi bo'yicha ba'zi nazariy qarashlar aks etgan. Ruhiyatning zamon, vaqt, ijtimoiy muhit va boshqa omillar bilan bog'liqligi o'rganilgan. Nasrda boshqa adabiy turlarga qaraganda ruhiyatni mukammal darajada tasvirlash imkoniyati mavjudligi bo'yicha fikr-mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, "Qo'noq" hikoyasi bilan adabiyotda tom ma'noda burilish yasagan Luqmon Bo'rixonning ushbu asarida badiiy psixologizm muammosi va uning yoritilishi, inson ruhiyati va ruhiy holat tasvirlari kabi masalalar hikoyadagi obrazlar va asar syujeti asosida tahlil va talqin qilingan.

Kalit so'zlar: *badiiy asar, ruhiyat, badiiy psixologizm, psixologik tasvir, psixologik talqin, psixologik tahlil, adabiy tur, epik janr, hikoya, badiiyat, realistik, hikoyachilik, obraz, xarakter.*

Аннотация: в статье отражены теоретические взгляды на одну из основных проблем литературоведения – художественный психологизм и его роль в прозе, особенно в повествовательном жанре. Приводятся мнения о связи духа со временем, временем, социальной средой и другими факторами, а также о возможности идеального описания духа в прозе по сравнению с другими литературными жанрами. Также в этом рассказе Лукмана Борихана, который буквально совершил переворот в литературе повестью «Гостья», анализируются и интерпретируются на основе действующие лица повести и сюжет произведения.

Ключевые слова: *художественное произведение, психика, художественная психология, психологический образ, психологическая интерпретация, психологический анализ, литературный жанр, эпический жанр, рассказ, художественный, реалист, повествование, образ, персонаж.*

Annotation: this article reflects the theoretical views on one of the main problems in literary studies, artistic psychologism and its role in prose, especially in the narrative genre. Opinions are given on the connection of the spirit with time, time, social environment and other factors, and the possibility of describing the spirit perfectly in prose compared to other literary genres. Also, in this story of Luqman Borikhan, who literally made a turning point in literature with the story "Guest", issues such as the problem of artistic psychology and its illumination, images of the human psyche and mental state are analyzed and interpreted based on the characters in the story and the plot of the work.

Key words: *artistic work, psyche, artistic psychology, psychological image, psychological interpretation, psychological analysis, literary genre, epic genre, story, artistic, realist, storytelling, image, character.*

Badiiy asar ijodkorning tafakkur mahsuli ekan, baayni uning asosida inson va uning hayoti, taqdiri tasviri yotadi. Ijodkor umri davomida o'zi ko'rgan, eshitgan yoki guvohi bo'lgan voqea-hodisalarini qalb prizmasidan o'tkazib, badiiyat qonuniyatlari asosida sayqallab kitobxonga yetkazadi. Adabiyotshunoslik ilmida inson ruhiyati tasvirini tadqiq etish doimiy o'rganilishi lozim bo'lgan masalalardan biridir. Chunki zamon, vaqt, ijtimoiy muhit va boshqa turli xil voqea-hodisalar inson ruhiyatining o'zgarishiga sabab bo'luvchi asosiy faktorlar hisoblanadi. Demak, inson ruhiyati turg'un emas, doimiy dinamik jarayonda bo'ladi. Shuning uchun ham uni tushunish, anglash, qalb kechinmalarini his qilish nihoyatda murakkab hodisa. Ijodkor ahli esa ana shu murakkab jarayonni ko'nglidan

o'tkazib, o'z individual talantidan kelib chiqqan holda uni o'quvchiga yetkazadi va bu narsa, o'z navbatida, yozuvchidan yuksak mahoratni va didni talab qiladi. "Shaxsan men shoir va adiblarni doimo jamiyatning oldingi safida yuradigan, hayotni kuzatib, odamlarni yuragida, dunyoqarashida bo'layotgan o'zgarishlarni hammadan avval sezib, ularni ta'sirchan obrazlar, yorqin badiiy bo'yoqlar orqali yoritib bera oladigan, el-yurt uchun kuyinib yashaydigan fidoyi insonlar deb bilaman"[1:4]. Birinchi Prezident Islom Karimovning mazkur fikrlari hayotni, ijtimoiy islohotlarni, inson ruhiy dunyoqarashidagi o'zgarishlarni hammadan ko'ra teran anglay oladigan ijodkorlar haqidagi ayni haqiqat.

Adabiy turning qaysi biri bo'lmasin unda, albatta, ruhiy holat tasviri aks etganini ko'rish mumkin. Jumladan, dramatik turda xatti-harakatlar asosida aks etsa, lirikada intim va ijtimoiy tuyg'ular silsilasida shoir kechinmalari orqali ruhiy tasvir kuzatiladi. Shunisi ham borki, adabiy turning epikasida badiiy psixologizmni ifoda qilish uchun yozuvchida vaqt ham, imkoniyat ham yetarli darajada bo'ladi, ya'ni boshqa adabiy turlardan epik turning ifoda yo'sini, hajmi, mavzu qamrovi keng bo'lganligi bois, unda badiiy tasvir vositalari va psixologizmni mukammal darajada tasvirlash mumkin. Hattoki nasrdagi ba'zi bir obrazlarda qalb kechinmalar, tuyg'ular tadrijiy tarzda bir holatdan, ikkinchi holatga o'tishi ham, tub burilish yasashi ham mumkin. "Insonning his-tuyg'ulari, asosan, ikki narsaga bog'liq, ulardan biri – qamrab olgan tabiat olami, ikkinchisi – uning o'z faoliyati. U tabiat olamiga nazar tashlab, doim uning go'zalliklarini, ko'ngilni maftun qiladigan tomonlarini ko'rishni istaydi, o'zi biror faoliyat bilan band bo'lar ekan, doim o'zi va boshqalarning ko'ngil va diliga zavq bag'ishlaydigan g'oya va buyumlarni yaratishga harakat qiladi"[2:448]. Darhaqiqat, ko'ngilning eng nozik nuqtalarigacha kirib borish, kitobxon ruhiyatiga qahramonlar o'y-kechinmalari orqali ta'sir eta olish va obraz ruhiyatidagi o'zgarishlarning tagma'nosini kitobxonga anglata olish ijodkordan katta mehnat talab etadi.

Epik turning eng kichik janri bo'lgan hikoyada ham badiiy psixologik tasvirni mukammal tarzda ifodalash mumkin va bu narsa bevosita ijodkorning mahorat o'lchovi bilan bog'liq. Asar qanchalik hajman kichik bo'lmasin, undagi ruhiyatni ochib berish uchun ba'zida bir nuqta, bir jumla yetarlidir. Biz ushbu maqolada, psixologizmni "ruhiyat" atamasi bilan sinonim sifatida qo'lladik. Chunki bu ikki termin mazmunan bir xil va bu bo'yicha ilmiy qarashlar mavjud. Shu bois, bunga batafsil o'xtalib o'tishni joiz deb bilmadik. Lekin shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, psixologizm (ruhiyat), psixologik tasvir (ruhiyat tasviri), psixologik talqin (ruhiyat talqini) va psixologik tahlil (ruhiyat tahlili) kabi atamalarga tez-tez duch kelamiz. Va o'rni kelganda tushunib-tushunmay qo'llaniladigan holatlar ham

uchraydi. Bularning orasida psixologizm boshqa atamalarining umumlashmasi, ya'ni keng tushuncha bo'lib, qolgan atamalar uning atrofida bir-biridan farqlanadi. Ma'lumki, badiiy psixologizm muammosi rus ilmida ancha chuqur o'rganilgan bo'lsa, o'tgan asr o'rtalaridan o'zbek adabiyotshunosligida ham tadqiq etila boshlangan. Xususan, adabiyotshunos H.Umurov, A.Rasulov, N.Shodiyev, N.Yuldashev, A.Xoldorov va boshqalarning bir qancha ilmiy tadqiqotlari mavjud. Jumladan, H.Umurovning "O'zbek romanlarida ruhiy tahlil muammosi" doktorlik dissertatsiyasi, A.Xolmurodovning "Odil Yoqubov romanlarida psixologizm", P.Kenjayevarning "Hozirgi o'zbek hikoyalarda qahramon ruhiyatini tasvirlash tamoyillari" kabi ilmiy tadqiqotlarida badiiy psixologizm muammosi, nazariy asoslari va qonuniyatlari, shakllari, badiiy ijod namunalari asosida tahlil qilingan, munosabat bildirilgan.

Ma'lumki, ijodkor uslubi yillar davomida shakllanib boradi, ya'ni ijodining boshlanishida yozgan hikoyalari bilan, uning keyingi davrda yozgan asarlari birmuncha farqlanadi. To'plangan tajribalar, ijodiy hamkorlik, kitob mutolaasi va ijtimoiy hayotni kuzatish davomida yozuvchi uslubi ham sayqallanib mukammalashadi. Buning natijasida yozuvchida bevosita ruhiyatning ham tasvirida ancha ilg'orlik kuzatiladi. Jumladan, XX asrda yashab o'tgan adabiyotshunos olim A.Alimuhammedov: "Abdulla Qahhor hikoyalarda psixologizm juda katta o'rin tutadi. U o'z qahramonlarining qayg'u-alamlarini, nafrat va g'azablarini, shodlik va xursandliklarini, hayajon, dahshat va vahimalarni berishga urinadi. Biroq, ruhiy holatni tasvirlashda yozuvchining ilk hikoyalari bilan ijodining ikkinchi davrida yozgan asarlari o'rtasida juda katta farq bor"[3:51] degan fikrini keltirishning o'zi yetarli. Ya'ni olim Abdulla Qahhorning dastlabki hikoyalarda inson ruhiyatini ich-ichiga kirib tasvirlash ko'rinmasligiga ishora qiladi. Bunday tasvirlarni uzuq-yuluq gaplar, beo'xshov tashqi vositalar, ya'ni gap-so'zlar, harakatlar orqali ifodalagan. Ehtirosning tan va a'zoldagi ko'rinishini tasvirlamagan. Obrazlarning dod-faryodi, shovqin-suron bilan ruhiy holatni ochishga harakat qilganligi ta'kidlangan. Keyinchalik esa, yozuvchi qalami o'tkirlashib, hattoki, ruhiyat muhandisiga aylanganligini hech kim inkor eta olmasligi xulosa qilingan.

Darhaqiqat, bugungi davr ijodkorlarida ham xuddi yuqoridagi kabi jarayonni kuzatish mumkin. Nafaqat ijodiy tajriba, balki, davr almashinishi, fan-texnikaning rivojlanishi, ijtimoiy muhit va sharoit bevosita va bilvosita ijodkor uslubining farqlanishiga sabab bo'ladi. Ya'ni, mustaqillikdan oldin ijod qilgan yozuvchining asarlari, istiqbol davrida yozilgan ijodidan tubdan farq qiladi. Va bu narsa biz yuqorida aytgan ruhiyatning ham o'zgarishiga olib keladi. Aslida badiiy adabiyot ijtimoiy ong shakli sifatida tarixiy taraqqiyot qonuniyatlariga

bo'ysunadi. Jamiyatda, yon-atrofdagi yuz bergan voqea-hodisalar badiiy adabiyotda ham o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. "Uzoq davom etib kelayotgan tarixiy adabiy hayotda, – deydi A.B. Yesin, – psixologizmning sirli, ammo samarali jihatlaridan biri, ijodkor inson qalbi haqida so'zlay turib, har bir o'quvchi bilan uning o'zi haqida gaplashayotgandek bo'ladi"[4:].

Kichik epik janr – hikoyaning, ayniqsa, o'zbek realistik hikoyachiligi taraqqiyoti A.Qodiriydan boshlangan bo'lsa-da, janr rivojida Cho'lpon, Fitrat, G'.G'ulom, A.Qahhor, S.Ahmad, Sh.Xolmirzayev, O'.Umarbekov, O'.Hoshimov, U.Nazarov, N.Aminov, O.Otaxon, E.A'zam kabi adiblarning hissasi kattadir. Shuningdek, mustaqillikdan keyingi va hozirgi adabiy jarayonda hikoyachilikda o'ziga xos maktab yaratib ulgurgan ijodkorlar safida Isajon Sulton, Luqmon Bo'rixon, Ulug'bek Hamdam kabi yozuvchilar inson ruhiy dunyosiga kirib, tom ma'noda insonshunoslikka asos solganligi ayni haqiqat. "Ma'lumki, san'atkor to'g'ridan-to'g'ri hayotdan nusxa ko'chirmaydi, balki unga haqiqatan o'xshash qilib, yangi bir dunyo yaratadi, kashf etadi. Boshqacha aytganda, hayotiy haqiqatdan badiiy haqiqat yaratadi; hayotiy fakt va hodisalarni o'zining ruhiy laboratoriyasida "qaynatishi", ishlashi, sintezlashtirishi, ya'ni tasavvuri, xayoli, orzusi, tajribasi, qalbi, tabiati, dunyoqarashi bilan boyitgan va muayyan g'oyaga xizmat qiluvchi xarakterli va zaruriy detallarni, fakt va hodisalarni tanlagan holda tugallik kasb etgan (obrazli) badiiy hayotni yaratishi zarur; yaratganda ham bu hayot kitobxon ko'z o'ngida jonli va real, ishonchli va go'zal, ta'sirchan va yaxlit bo'lib g'aydalanishi shart" [5:13], – yozadi adabiyotshunos olim H.Umurov.

"O'zbek nosirlarining asosiy qismi dolzarb mavzuni emas, o'zini to'liqlantirgan, xayolotini bezovta qilgan insoniy taqdirni tasvirlamoqda. Bu bugungi o'zbek nasri inson ko'nglini, dardlarini, hayotiy tashvishlarini qalamga olishga o'tganini anglatadi va bu estetik tamoyil adabiy mezonga aylanib borayotganligi quvonarlidir. Ilgarilari nosirlar uchun inson faoliyatining oqibati bo'lmish ulkan tarixiy hodisalar, salmoqli ijtimoiy voqealar tasviri muhim sanalgan bo'lsa, endi yozuvchilar voqea-hodisalarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan, voqealarni harakatlantirgan, ulardan foyda topgan yoki jabr ko'rgan odamlar haqida qalam surmoqdalar. Bugungi o'zbek nasrida hodisa, ya'ni oqibatning o'rniga sabab, ya'ni odam ruhiyatining tasviri birinchi o'ringa chiqib bormoqda"[6:11-son]. Ana shu yo'nalishda ijod qilayotgan yuqorida nomlari keltirilgan ijodkorlar, ham an'anaviy, ham zamonaviy yo'nalishda, shuningdek, jahon hikoyachiligi ijodiy tajribalari bilan, ramziy-majoziy obrazlar va uslub jihatdan g'arb adabiyotiga xos modernistik shakl va usullarini keng qo'llab, hikoyachilikda yangicha badiiy-estetik tafakkur yangilanishiga hissa qo'shishgan. Voqea-hodisadan ko'ra, ruhiyat, ruhiy holat tasviri,

badiiy psixologizmning yangicha tasviriy vositalari, yangicha ramziy-psixologik timsollar yaratish, hatto yozuvchi fantaziyasi bilan yaratilgan badiiy-romantik to'qima obrazlar talqini ham uchraydi. Zotan, yozuvchi mudomi "hayotning o'zidan olgan zavqini, o'z yurak dardini, hayajonlarini izhor etadi, o'zi qalamga olgan hayot hodisalarini, personajlar qalbi va ruhiyatini murakkabligi, ziddiyatlari, chinakam nafasati bilan kitobxonga yetkaza oladi"[7:104]. Yozuvchi xarakter yaratish mahorati va ularning ruhiy dunyosini kashf etish darajasi an'analar uzviy aloqadorligi mahsuli hisoblanadi.

Yuqorida fikr yuritilayotgan masalalarni bir hikoya misolida tahlil qilsak. "Qo'noq" hikoyasi bilan adabiyotda tub burilish yasagan Luqmon Bo'rixonning mazkur hikoyasida insonning qalb kechinmalari o'ziga xos tarzda ramziylik, tasviriy bo'yoqlar asosida yoritib berilgan. Asarni tahlil qilish jarayonida g'arb adabiyoti ta'siri natijasi va shoirning ijodiy mahorati mahsuli yaqqol namoyon bo'ladi. Undagi voqealar, manzili tomon shovqin solib shoshib ketayotgan poyezdda yuz beradi. Aslida poyezd tasvirida yozuvchi badiiy niyati ma'lum bo'ladi. Uch yil deganda qamoqdan chiqqan, oddiy, ko'rimsiz, atrofdagi odamlar nazdida o'g'ri yoki lo'li bo'lib ko'ringan kimsaning poyezd tamburi burchagida o'tirishi, o'zi xohlamay unga suhbatdosh bo'lgan mehmonning unga nisbatan qarashlari, poyezddagi o'zga odamlarning o'zlarini olib qochishlari, qahramonning qamoqda va poyezdda yonida doim olib yuradigan ohak yordamida devorni bo'yashi, oppoq orzular, xayollar va umid bilan unga qarashikabi tasvirlar, bevosita kitobxonada ko'plab savollar, bahs-munozaralar tug'diradi. "Uni ko'rdim-u yuragim orqaga tortib ketdi. U tobutdek tebranib borayotgan vagon tamburining bir burchida cho'nqayib o'tirar, har bir o'tib qaytuvchini qon nuqsi urgan ko'zlari bilan qiziqsinib-qiziqsinib, bosh-oyoq kuzatib qolardi. Men tamburga chekish uchun chiqqandim. Unga ko'zim tushdi-yu, seskanib ketdim, bu ham yetmaganday, beixtiyor salomiga bosh iring'ab yuboribman. Bizni shu ahvolda chetdan ko'rgan kishi eski tanishlar ekan, degan o'yg'a borishi aniq edi"[8:550].

Hikoya shu tariqa poyezdning tamburida qahramonning "nusxa"ga nisbatan paydo bo'lgan qo'rquv aralash seskanishlari, voqea so'ngida esa unga qiziqishi va mehrining uyg'onishi bilan yakunlanadi. Muallif qahramonning tashqi ko'rinishini shunday tasvirlaydi: "Tamburdagi kirlanib ketgan chiroqning xira yorug'ida uning qoramag'iz yuzi battar qorayib ko'rinardi. Yuz-qovoqlarida, burnida bir vaqtlar orttirgan jarohat izlari yaqqol ko'zga tashlanib turar edi. Nazarimda, u har kuni do'pposlashadigan urushqoq ko'cha bezorilarga o'xshardi". Ma'lumki, inson ruhiyati tasvirini ochib berishda muallif nutqi, personaj nutqi, monolog, dialog, polilog, badiiy tasvir vositalari, jumladan, portret, peyzajlar alohida

ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mahoratli yozuvchi inson tan va a'zolar orqali ham uning ruhiyatini o'qirmanga yetkazadi. Yuqoridagi keltirilgan parchada esa obrazning portreti, ya'ni tashqi ko'rinishi orqali qahramonning boshqalar nazdida "nusxa" deyilishiga muvofiq tasvirlanganligini ko'rish mumkin. Bir qarashda, portret bilan u turgan muhit ham go'yo bir-biriga mos holda ifodalangan. Aynan poyezdning kupesida emas, tamburda o'tirishi, kirlanib ketgan chiroq va qoramag'iz yuzning xira chiroqda battar qorayib ketishi, voqea-hodisaning ham qora tunda ro'y berishi bir nuqtada o'zaro tutashadi. *"Poyezd pishqirib, halloslab yelgani-yelgan. Vagon asabiy-asabiy chayqalmoqda"* yoki *"Vagon bir maromda tebranmoqda. Temir g'ildiraklarning shovqini avj pardasiga ko'tarilgan. Kupening keng derazasidan qorong'ilik vahima solib turibdi"* parchalarda esa insondagi ichki kechinmalarni narsa-buyumga ko'chirish orqali psixologizmning yuksak namunasini yaratgan.

"Haligi nusxa hanuz ishshayib, mendan ko'z uzmay javob kutardi. Men labimni cho'chchaytirib yana yelka uchirdim. U esa chekib tugatgan sigareti qoldig'ini oyoqlari ostiga tashlab ezg'iladi-da, chopib borib, o'sha joyiga boyagiday cho'nqayib o'tirdi. Tizzalariga ikki tirsagini qo'yib, rapidadek qo'llariga iyagini tirab, menga kulimsirab qararkan...". Yuqorida esa yozuvchi tana a'zolari harakati orqali kimsaning ruhiy ahvolini ko'rsatishga harakat qilgan. Ya'ni, *"haligi nusxa hanuz ishshayib"*, *"ko'z uzmay"*, *"labimni cho'chchaytirib yana yelka uchirdim"*, *"oyoqlari ostiga tashlab ezg'iladida"*, *"cho'nqayib o'tirdi"* kabi birikmalar hikoya qiluvchi personajning nutqi orqali ifodalanib *"nusxa"* haqidagi salbiy tasavvurni yana-da konkretlashtirgan.

Ko'rinadiki, Luqmon Bo'rixon qahramon ruhiyatini, uning psixologik holatini ifodalashda ko'p hollarda insonning tan va uning a'zolari orqali ko'rsatishga urinadi. To'g'ri, bu adibdan ancha mahorat talab qiladigan jarayon. Ammo yozuvchi buni mukammal tarzda uddalagan: *"Ajab nusxa rohatlanib kerishdi. Ko'zlarini suzib jilmaydi. U ayni chog'da qorni to'ygan go'dakka o'xshab ketgan edi"*. Parchada birgina *"ko'zlarini suzib jilmaydi"* birikmasi bir vaqtning o'zida ham salbiy, ham ijobiy ma'no yuklagan. Ya'ni hikoya qiluvchida o'rni kelganda mehmonni yoqtirmaganligini, shu bilan birga, unga ich-ichidan mehri ham tushganligini ilg'ash mumkin. Keyingi voqealar tadriji bu fikrni biroz boyitadi: *"Men uning har bir xatti-harakatini kuzatarkanman, hayronligim tag'in kuchaydi. Qiziq, namuncha menga yopishib oldi bu nusxa? Negadir tamburdan ketishimni hech istamayapti? Uning "ketma" degandek yolvorib qarashlari, boshimni aylantirmoqqa o'lib-tirilishlari, negadir botqoqqa cho'kayotgan odamning duch kelgan xas-xashakka yopishishini eslatib yuborardi. Ob-bo, g'oyat antiqa chiqib qoldi-ku, bu og'aynim"*. Ko'rinadiki, bir vaqtda o'sha noma'lum shaxs *"nusxa"*dan *"og'aynim"*

darajasiga siljiydi. Demak, uning xatti-harakatlari borgan sari yo'ldoshining fikrlarini o'zgarishiga sabab bo'lgan.

Tamburni ohak bilan oqartirishi, Qulga maynavozlarcha harakat qilganday ko'rinishi uni *"maynavoz"* deb atashga ham sabab bo'ladi. Tamburda yonidan o'tgan begonani ham yotsiramay salom berib, hatto xuddi oshga taklif qilgandek mulozamat qilishlari nusxani birpasda *"ezma"* ga ham aylantiradi: *"Ezmaning lutfi karami, mening hiringlashim bir soniya bizga angrayib qolgan o'tkinchining ko'ngliga g'ulu soldi, hoynahoy, u zing'illab vagon ichkarisiga urib ketdi"* yoki *"Ezma o'z burchagiga borib yana cho'nqaydida, bir-ikki yutinib olgach gapida davom etdi"* kabi. Faqatgina nusxaning uch kun oldin qamoqdan chiqdim degan gapidan so'nggina *"nusxa"* *"jabrdiyda"* ga aylanadi: *"Bo'g'zimdan ma'nisiz "e" degan qisqa va zaif tovush chiqdi. Jabrdiyda bu mahal xira chiroqqa termilib turardi"*. Ya'ni nusxaning o'zi haqidagi birgina ma'lumot, u haqidagi butun salbiy tasavvurlarning yo'q qilib, kitobxonda achinish hissini uyg'otadi.

Ko'rinib turibdiki, muallif hikoyada so'z yuritayotgan qahramonga aniq bir ism tanlamaydi. Uni turli holatlarda, turlicha nom bilan ataydi. Jumladan, asar boshlanishida *nusxa, lo'lisifat-devona, o'g'ri deya tanishtirilsa, hikoya tadriji davomida lo'livor, jabrdiyda, nusxa, og'ayni, maynavoz, ezma, yaramas, yopishqoq, oshno, mehmon, shilqim, lo'libashar, kartaboz* kabi obrazlarda qiyofalanadi. Bu esa nusxaning (hikoyada ko'proq nusxa nomi faol qo'llangan) xatti-harakatlari, gap-so'zlari, atrofida qilgan munosabati, poyezdagi voqea-hodisalar, o'y-kechinmalari bilan bog'liq. Ya'ni muallif qahramoni qanday qiyofada harakatlansa shunga mos tarzda nom beriladi. Bu ham yozuvchining o'ziga xos uslubi. Asar personaj tilidan hikoya qilinadi, u o'zini *"Qul"* deb tanishtirib o'tadi.

"Shu oqlikka termilsam o'zimni ko'm-ko'k osmonda, oppoq bulutlarning orasida ozod uchib yurganday his qilaman. Termilganim sayin shu oqlikka singib ketayotganday bo'laveraman. Eh, nimasini aytay, o'sha beton devorlarning oqqa bo'yalgan bir qulochcha joyi meni uch yil omon saqladi, uch yil!..." Mazkur parcha tom ma'noda *"Qo'noq"* hikoyasining kulminatsion nuqtasi, avj pallasi deyish mumkin. O'zgarlar nazdida har xil nomlar bilan atalgan *"nusxa"* uchun bu oqlik – umid, ishonch, hurlik, hayotga bo'lgan muhabbatdir. Uch yillik umid va sabr o'laroq shu oqlikka erishdim deganida esa hammasi sarob ekanligini anglagani uni yana o'z xayollari domiga tortadi: *"Unga yana beixtiyor ko'zim tushdi. U hamon cho'nqayib o'tirar, o'sha bo'yalgan joyga toliqmay tikilar edi. Ajab nusxa xuddi shu o'tirishida qushga o'xshardi. Ha, bahaybat, mag'rur qushga o'xshar edi! U, nazarimda, o'zining bepoyon oqlik o'lkasi tomon mangu parvozga shaylanayotganday tuyuldi."*

Poyezd o'kirib shiddat bilan yelib borar edi". Asar shu tarzda yakun topadi. O'kirib shiddat bilan yelib borayotgan poyezd bu – o'tib borayotgan umrimizdir. Ya'ni muallif go'yo, hayotda hamma narsa sen o'ylaganday bo'lib chiqmasligiga, inson o'y-xayollari, tasavvurlari bilan asl haqiqat boshqa-boshqa jarayon ekanligiga urg'u berayotgandek.

Yozuvchi o'z hikoyalarida oliy xilqat bo'lgan Inson va uning botiniy olami, hayot va umr mohiyati hamda "o'z-o'zini anglash yo'lida borayotgan qahramon ruhiyatini teran ko'rsatish" yo'lidan boradi. U "Qo'noq" hikoyasida inson va uning ruhiyati tasviri orqali adabiyotimizda badiiy kashfiyot qildi. Badiiy psixologizmning yuksak tasvirlangan namunasi sifatida hikoya kitobxonning ham ichki sezimlariga turtki beradi. Albatta, asardagi psixologik kayfiyat jahon adiblari va faylasuflari tomonidan necha ming yillardan beri o'rganilib kelinayotgan umumbashariy hodisadir. Yozuvchi esa buni jahon va milliy an'ana sintezi asosida yoritib

o'tgan.

Xulosa qilib aytganda, bugungi o'zbek nasrining barcha janrlarida, ayniqsa hikoyachilikda poetik yangilanishlar, adabiy-estetik qarashlardagi yuksalishlar, oliy xilqat – Insonni kashf qilish, uni anglash yo'lida yaratilayotgan asarlarda ifoda yo'sinining betakror va jozibali bo'lishiga e'tibor qaratilayotir. Istiqloq davri hikoyachiligi inson ichki dunyosini, ruhiy-psixologik olamini badiiy tadqiq qilish, realizm imkoniyatlaridan keng foydalanish, yozuvchi badiiy olamida poetik tasvir uslubining rang-barangligi va ifoda samimiyatiga erishish yo'lidan bormoqda. Badiiy psixologizm, ayniqsa, hikoya janrida uning aks etishi, asarning badiiylik mezoni sifatida namoyon bo'lishi badiiyat qonuniyatlarining birlamchi qoidasi sifatida xizmat qilishi ijodkorlarimiz tan olgan haqiqatdir. Ya'ni asar kitobxoniga ta'sir eta olsagina u yashaydi, tirik qoladi. Bu esa bevosita ruhiyat masalasi bilan bog'liq jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I. A. Karimov. Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – T.: O'zbekiston, 2009. 4-bet.
2. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. II tom (Adabiy-tarixiy jarayon). – T.: "Fan" nashriyoti. 1979. 448-bet.
3. XX asr o'zbek antologiyasi. A. Alimuammedov. Abdulla Qahhor hikoyalarida psixologik tasvir. 51-bet.
4. Есин А.Б. Психологизмрусской классической литературы: учебное пособиею. – М.: Флинта: Наука.
5. Umurov N. Badiiy ijod asoslari. – T.: «O'zbekiston», 2001. 13-bet
6. Йўлдошев Қ. Дунё билан бўйлашиб // "Жаҳон адабиёти" журнали. 2007. 11-сон.
7. Normatov U. Ijodsehri. – T.: Sharq, 2007. 104-bet.
8. XX asr o'zbek hikoyasi antologiyasi (To'plovchilar Karimov B., Abdiyev H.) – Toshkent: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi", 2016. 550-bet.

Farrux SATTAROV,

*Samarqand davlat chet tillar instituti
mustaqil (PhD) izlanuvchisi*

AMERIKA ADIBI MARK TVENNING "GEKLBERRI FINNING BOSHIDAN KECHIRGANLARI" ASARIDAGI QAHRAMONLARNING O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTI RIVOJIGA TA'SIRI

Annotatsiya: ushbu maqolada Amerika bolalar adabiyotining yorqin vakili Mark Tvenning "Geklberrri Finning boshidan kechirganlari" romanidagi obrazlar va o'zbek adabiyotining mashhur vakili G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasidagi obrazlarning o'xshash taqdirleri va ushbu asarning o'zbek bolalar adabiyoti rivojiga ta'siri qiyosiy tahlil qilinib misollar bilan keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: bolalik, o'rta asr adabiyoti, bolaning ichki dunyosi, ratsionalistik maktab, badiiy mushtaraklik, kattalar uchun.

Аннотация: в данной статье проводится сравнительный анализ образов яркого представителя американской детской литературы Марка Твена в его романе «Приключения Гекльберри Финн» и аналогичной судьбы и влияния героев в повесть «Озорник» Гафура Гуляма, известного представителя узбекской литературы.

Ключевые слова: детство, средневековая литература, внутренний мир ребенка, рационалистическая школа, кулачный бой, каталог.

Abstract: this article provides a comparative analysis of the images of Mark Twain, a bright representative of American children's literature, in his novel "The Adventures of Huckleberry Finn" and the similar fate and influence of the characters in the story "Naughty Boy" by a well-known representative of Uzbek literature Gafur Gulam.

Keywords: Childhood, medieval literature, the inner world of a child, a rationalist school, a body fistfight, and a catalog.

Bolalik dunyosi juda murakkab bo'lib, o'z ichiga boshqa dunyolarni ham oladi. Bu bolaning odamlar bilan muloqoti dunyosi, ijtimoiy munosabatlar dunyosi. Badiiy adabiyotda bolalikka qiziqish va bolalik tushunchasining o'zi deyarli XVIII asrgacha bo'lmagan. Olimlarning tasviriy san'at sohasidagi tadqiqotlariga ko'ra, XVIII asrgacha san'at bola obraziga murojaat qilinmagan edi.

Bolalik dunyosi, bolaning ichki dunyosi – bizning hayotimizni ko'plab xavotirga solayotgan muammolar kalitidir. Kattalar dunyosida o'zining qonunlari bilan yashovchi bolalarning sirlari “qabila”sining ochilishi nazariy va amaliy natijalarga ega. Bolaning ijodiy, intellektual, axloqiy imkoniyatlari bitmas-tuganmasdir. Bolalikka mos dunyosini o'ziga xos qabul qilishi izsiz yo'qolmaydi. Qayerdadir, “kattalar ongi”ning xilvat burchaklarida u yashashda davom etmoqda. Vaqti-vaqti bilan o'zi haqida eslatib turibdi.

Bola va bolalik – adabiyotning eng oldi va muhim mavzularidan biri. Ma'lum ma'noda bu mavzu, garchi u ba'zi davrlarda o'ziga xos mazmunga ega bo'lsa ham, universal, qanaqadir milliy adabiyotning ramkasi yoki davrning aniq vaqti bilan cheklanmagan. Bu universallikda bolalik – xuddi tug'ilish, hayot, o'lim kabi umuminsoniy kategoriyalardek tushuntiriladi. Har bir odamga tegishli bo'lgan va bir umrlik hodisalar adabiyotda o'z aksini shubhasiz topadi.

Bolalik haqidagi romantik tasavvur ratsionalistik maktabga teskari edi. Agar ta'lim sohasiga murojaat qilsak, unda bu farq yanada yaqqol ko'rinib qoladi. Ratsionalizm bola tabiatini deyarli hisobga olmasdi va u bilan xuddi kichiklar kattaga murojaat qilgandek murojaat qilardi. Romantiklar uchun ta'lim xuddi bolaning tabiiy ishtiyoqi rivojidek muhim edi (“Emil” J.-J.Russo).

1830-1840-yillarda poeziya tomonidan tilga olingan bolalik obrazi prozaga ko'chib o'tib, unda markaziy o'rinni egallaydi. Qator tadqiqotchilar fikriga ko'ra, aynan XIX asr o'rtasiga kelib bolalik mavzusiga bo'lgan qiziqish avjiga chiqdi. Bola hayotning barcha ijtimoiy va madaniy sohalarining markaziy shakliga aylanadi.

“Ingliz adabiyotida bolalik R. Pattinsonning “Ingliz adabiyotida bola shakli”, P.Kavenining “Shaxsiyat va jamiyat: bolalik obrazi” mavzularida ko'rib chiqilgan bo'lib, ingliz adabiyotida mavzuning o'rganilish ishlariga bag'ishlangan” [20]. Mualliflar asosiy e'tiborni romantizmning yangi bolalik konsepsiyasi va Charlz Dikkins asarlaridagi bolalar obraziga qaratgan. L.S.Markus o'z tadqiqotining chegaralarini vaqtinchalik toraytirgan. Uning ishlari predmeti ijtimoiy-madaniy kontekstdagi XVII asr bo'ladi. XVII asrning adabiyotida bola obrazlarining tahlili o'z vatanining adabiyotshunosligidagi M.I.Sverlovning “XVII-XIX asrlar boshi ingliz qasidasida bolalik mavzusi” [18] bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasida ham davom ettirilgan.

“Amerika-o'zbek adabiy aloqalariga ham o'tgan asrning 30-yillarida asos solindi. AQSH adiblarning o'nlab kichik janrlardagi nasriy va nazmiy asarlari, yirik janrlardagi asarlardan olingan parchalar zikr etilgan jurnallar sahifalarida hamda alohida kitoblar shaklida chop etildi. Qator taniqli o'zbek adib va shoirlari qatori G'afur G'ulom ham bu aloqalarni kuchaytirishga o'z hissasini qo'shdi” [5, 42].

Taniqli shoir va tarjimon G'afur G'ulomning adabiy faoliyatida jahon adabiyoti namunalarini rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish katta o'rin tutadi. U M.Gorkiy, M.Lermontov, V.Mayakovskiy, A.Pushkin kabi rus yozuvchilarini, belarus adibi Yakub Kolos, shuningdek, U.Shekspir, Yohannes Bexer, Pyer Bomarshe, Antol Gidash, Lengston Hyuz, Nozim Hikmat singari chet el adiblarning asarlarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.

Mark Tven bilan bizning yozuvchimiz G'afur G'ulom, garchi turli vaqtda va turli mintaqalarda yashashgan bo'lsalar ham, ularning asarlaridagi ba'zi tafsilotlar o'rtasida badiiy mushtaraklik borligini quyida keltirilgan misollardan ko'rishimiz mumkin:

“And here was Auntie pegging away at the questions, and me a shaking all over and ready to sink down in my tracks I was that scared; and the place getting hotter and hotter, the butter beginning to melt and run down my neck and behind my ears; and pretty soon, when one of them says, “I'm for going and getting in the cabin FIRST and right NOW, and catching them when they come”, I most dropped; and a streak of butter come a trickling down my forehead, and aunt Sally she sees it, and turns white as a sheet, and says: “For the land's sake, what is the matter with the child? He's got the brain-fever as shore as you're born, they're oozing out!” And everybody runs to see, and she snatches off my hat, and out comes the bread and what was left of the butter, and she grabbed me, and hugged me and says” [16, 275].

Odil Rahimiy tarjimasi:

“Salli xolaning mendan nuqul gap so'rayverganini aytmayisizmi! O'zim qo'rqib ketganimdan dir-dir titrab o'tiribman, uying ichi tobora isib, shlyapam tagidagi moy erib, bo'yinlarimdan va yelkalarimdan oqib tusha boshladi; fermerlardan biri: “Hozirning o'zida bostirmaga kirib, o'sha yerda poylab o'tirish kerak, ular kelishi bilan tutib olish kerak” – degan edi, o'tirgan yerimdan yiqilib tushishimga sal qoldi, buning ustiga moy peshonamdan ham oqib tusha boshladi. Salli xola uni ko'rib qolib dokaday oqarib ketdi-da” [1, 313].

“For the land's sake, what is the matter with the child? He's got the brain-fever as shore as you're born, and they're oozing out!” [16, 275].

“Yo xudoyim! Bolaga nima bo'ldi-ya? Miyasi yallig'langanga o'xshaydi, qaranglar, miyasi oqib tushyapti!” [1, 313].

G'afur G'ulomning “Shum bola” qissasidan

quyidagi misolni ko'rib chiqamiz:

– “Noiloj qoldim, tuxumni qalpoqchamga solib, kiyib oldimda, oshxonaga kirdim. Onam meni tergay boshladi. Men jimgina quloq solib, o'choqning yoniga cho'qqayib, o't qalashni boshladim.

Men bilmagan ekanman o'tning taftiga lippamdagi yog' erib, pochamdan oqmoqda ekan. Oyim qo'lidagi xamir yoyib o'tirgan o'qlov bilan boshimga astagina urdi. Oyim boshimga o'qlov bilan urganda qalpoq tagida bo'lgan tuxum pachaqlangan edi. Uning sarig'i oqqa aralashib, chakkamdan sirqib, yuzimga oqmoqda edi. Oyim: “Bola bechoraning boshini yorib, qatig'ini chiqarib yubordimmi” – deb esi chiqib ketgan edi” [3, 12].

Misollardan ko'rinadiki, Mark Tven asaridagi bosh qahramon yerto'ladan moy bilan nonni o'g'irlab chiqqanda xolasiga duch kelgani, shlyapasi ostida yashirishi va issiq xonada erib peshonasidan oqib tushgani, va G'afur G'ulom asaridagi bosh qahramon Shum bolaning o'g'irlagan yog'i ham issiqda erib ketishi va tuxum pachaqlanib chakkasidan oqib tushganida har ikkala ayol bolaning miyasi oqib tushyapti, deb o'ylashi, ushbu asarlardagi ikki yozuvchining uslublarida badiiy o'xshashlik borligini ko'rsatadi.

Har ikkala adibning mahorati obrazlar yaratishda yaqqol namoyon bo'ladi. Shum bola bilan Omon Tom bilan Gekni yodga soladi.

Bu asarlarda realistlik obrazlar yaratilgan. Jumladan, Tom Soyer ham, Geklberri Finn ham, Shum bola ham yetim hisoblanishadi. Tom kichik ukasi va singlisi bilan Polli xolasinikida yashaydi. Gekning onasi yo'q, otasi ham unga otalik qilmaydi. Shum bolaning ham otasi yo'q, u oilada katta farzand, bir ukasi va singlisi bor. Tom ham, Gek ham, Shum bola ham ertalabdan kechgacha ko'chada, tengdoshlari bilan daydib yurishadi.

Gek ham bir muddat o'zini boqib olgan beva Duglas xonimning uyida yashab tursa-da, uning Gekni tergashlari, har xil tartib-qoidalarga amal qilishga undashi Gekka yoqmaydi. Gek ham xuddi Tomga o'xshab bir muddat uydan chiqib ketadi, u ham Tomga o'xshab qaytib keladi. Biroq Gek (“Geklberri Finning boshidan kechirganlari”) otasi bilan uchrashganidan so'ng butunlay ko'chaga chiqib ketishga majbur bo'ladi.

Gek pionista otasidan faqatgina qochib qutuladi. Dastlab u bundan xursand bo'ladi. Biroq uyidan ketgan kunining ertasigayoq u yolg'izlikni his qiladi: “Qorong'i tushganda, trubkamni tutatib, gulxan yonida xursand bo'lib o'tirardim. Biroq sekin-asta meni yolg'izlik qayg'usi bosdi. Qirg'oqqa borib, daryo to'lqinlarini tomosha qilib o'tirdim, charaqlagan yulduzlarni, daryodan oqayotgan xodalarni sanay boshladim, keyin yotib uxladim. Yolg'izlik balosidan qutulishning eng yaxshi chorasi – uyqu” [1, 46].

G'afur G'ulomning “Shum bola”sidagi bosh

qahramonning boshidan kechirganlari Gek bilan Jimning sarguzashtlaridan qolishmaydi. O'zbek adibi Shum bolaning sarguzashtlari bayonida o'zbek xalq afsona va latifalari, qo'shiqlaridan keng foydalandi.

Shu o'rinda aytish kerakki, “Tom Soyerning boshidan kechirganlari” ham, “Geklberri Finning boshidan kechirganlari” ham, “Shum bola” ham avtobiografik asarlar emas. Biroq ularda hikoyaga yorqin joziba beruvchi adiblarning bolalik davri taassurotlari, xotiralari va hayotlaridan olingan real faktlar talaygina.

“Tom Soyerning boshidan kechirganlari”ga yozilgan so'z boshida Mark Tven Tom Soyer “birgina bolaning emas, o'zim bilgan uch bolaning xarakteriga ega” [15, 16] deb yozadi. Keyinchalik bu uch bolaning shaxsi aniqlangan: ularning biri muallifning o'zi, uning maktabdosh o'rtog'i Uill Bouyen va Illinoys shtatidagi Shounitaun shaharchasidan bo'lgan bir bola ekan. O'n ikki yoshdagi bu o'yinqaroq bolakay Mark Tvenga maktabda o'zining boshidan o'tgan voqealarni so'zlab bergan; uning ismi Tomas Soyer Spivi bo'lgan. U oradan bir necha yildan so'ng Mark Tven bilan Nyu-Yorkda “Waldorf-Astoria” mehmonxonasida uchrashgan. Spivi fermer bo'lgan, yozuvchilik bilan ham shug'ullangan. U 1938-yili vafot etgan.

“Tom Soyerning boshidan kechirganlari”da M.Tven o'z ijodida ilk bora qahramonlarning to'laqonli va yakunlangan obrazlarini yaratdi. Bu romanning yagona ustunligi emas. Bu asarda Mark Tven o'zining bundan oldingi asari “Yaltiroq asr”dagi kabi to'g'ridan-to'g'ri tanqidni qo'llamay, AQSH jamiyatining ichki, yashirin dunyosini yoritib berdi.

Mark Tven yumorining ishqibozlari mahorat bilan yozilgan, boshdan-oyoq kontrastlardan tuzilgan Tom Soyer va Alfred Templ o'rtasidagi jang sahnasini unutmaydilar. Bu yuksak mahorat san'ati haqida Mark Tvenning o'zi keyinroq shunday degan edi: “Yumor, eng avvalo qalblarimizni qutqaruvchi buyuk kuch. Bir daqiqadan keyinoq, qayg'ularimiz yo'qoladi, qalbdagi jarohatlar va xafagarchiliklar yoddan chiqadi va dillar quvonchga to'ladi” [13, 12].

Kitoblarning asosiy g'oyasi o'laroq, tug'ilgan kontrast uslubi (Tom va Gekning zo'ravonliklari) ayrim sahnalar va jumalarning tuzilishida ham ko'zga tashlanadi.

“Tom Soyerning boshidan kechirganlari”da:

“Meri ham tez vaqt ichida kiyinib olganidan keyin, uchovlari birgalashib yakshanba kunlik maktabga qarab jo'nadilar. Tom bu maktabni jon-u dili bilan yomon ko'rar, Meri bilan Sid esa, uni yaxshi ko'rar edilar” [2, 33].

Yoki:

“Huckleberry was cordially hated and dreaded by the mothers of the town because they thought he was idle, lawless, vulgar and bad, because all their children admired him so much, and wished they dared to be

like him" [17, 53].

–“Shahardagi hamma bolalarning onalari Geklberrini chin ko'ngildan yomon ko'rar, lekin shu bilan birga, undan juda qo'rqar edilar, chunki u juda yalqov, yaramas, axloqsiz bola bo'lib, hech qanday tartib va qonunlarga bo'ysunmas edi” [2, 54].

Biroq u ochiqko'ngil, mehribon va samimiy do'st. Shu sababli uni Sankt-Peterburgning barcha bolalari, qora tanlilar, Grenjerford oilasi a'zolari, Uilks oilasidagi yetimcha qizlar, Felpslar fermasidagi barcha-barcha yaxshi ko'radi.

V.G.Belinskiy bolalar adabiyotining asosiy xususiyati uning emotsionalligi, deb ko'rsatib, bolalar kitobi “samimiy hislarga to'lib-toshmog'i” lozimligini qayta-qayta ta'kidlagan edi. Hissiyotning samimiyligi faqat lirika uchungina emas, balki yumorga ham xos fazilatdir. Zotan, “quvnoq yumor”, “beozor yumor” iboralari zamirida yumorga xos samimiyat tuyg'usi zuhur topgandek. N.G.Chernishevskiy ana shularni hisobga olib, “bolalarga mo'ljallangan badiiy asarda “O, qanday dahshat?!” yoki “Bay-bay, muncha yaxshi!” Yoinki, “Ey, muncha kulgili!?” kayfiyatlarini qo'zg'ovchilik alomatlari bo'lmasa, yosh kitobxonlarni to'lqinlantira olmaydi” [13, 24] deb hisoblar edi.

Ruhshunos olimlar o'tkazgan tajribalar ham bugungi kunda bolalar xotirasida lirik ko'tarinkilik yoki quvnoq yumorga sug'orilgan holda tasvirlangan voqealar mustahkam muhrlanishini, uzoqroq yashay olishini tasdiqladi. Zotan, hikoya qilishda lirizm qancha chuqur yoki yumor qancha yorqin va quvnoq bo'lsa, estetik ta'sirchanligi, hayajonbaxshligi ham shuncha chuqur va samimiy bo'ladi. “G'.G'ulomning “Shum bola” asarini kulmay turib, o'qib bo'lmasligi siri shundadir. H.Nazirning “Yonar daryo”, X.To'xtaboyevning “Besh bolalik yigitcha” asarlarida lirik mayl ustun bo'lsa, “Sariq devni minib” va “Sariq devning o'limi” dilogiyasida, “Sehrgarlar jangi”, yoxud, “Shirin qovunlar mamlakati” romanida, shuningdek, Anvar Obidjonning quvnoq she'rlari, qissalari va pyesalarida yumoristik ruhning ustuvorligi sezilarlidir” [5, 110].

G'afur G'ulomning “Shum bola” qissasi ham Mark Tvenning ikki mashhur asaridan siraqolishmaydi. “Jahon adabiyotining yuksak saviyali komik va yumoristik asarlaridagi kulgili holat

va xarakterlarda ba'zan achchiq alamli achinish tuyg'ularini bera olishdek ulkan mahorat G'afur G'ulomning “Shum bola”sida ham balqib turadi” [6, 68].

Yuqorida aytib o'tganimizdek, “Shum bola” ham avtobiografik asar emas. Biroq ayrim adabiyotshunos olimlar “Shum bola”ni avtobiografik asar deb hisoblashadi. Jumladan, H.Yoqubov “Shum bola” povesti ma'lum darajada avtobiografik asardir” deb yozsa, A.Abrorov “Shum bola” o'z janr e'tibori bilan ma'lum ma'noda avtobiografik asar” deb hisoblaydi. Olim o'z fikrini quyidagicha izohlaydi:

“Asar syujeti aniq voqea-hodisalar, real shaxslarga asoslanganligi badiiy avtobiografik janrning o'ziga xos xususiyatlaridan bo'lib, boshqa badiiy asarlarga nisbatan mazkur janr xarakteri buni ko'proq taqozo etadi... Voqea bo'layotgan joyning aniq nomini berish ham avtobiografik asar uchun xos bo'lgan xususiyatdir” [4, 6].

Biroq qator olimlar bu fikrga qo'shilishmaydi. Jumladan, S.Mamajonov “Shum bola”da badiiy avtobiografik asarlarga xos fazilatlar ko'p” deb hisoblasa, U.Normatov ravishda “Shum avtobiografik emas, “Shum

qat'iy
bola”
asara



bola” qismatida muallifning o‘zidan o‘tgan nimalardir bor” deb yozadi.

Biz “Shum bola” qissasini avtobiografik janr unsurlariga ega bo‘lgan sof badiiy asar deb hisoblaymiz. Chindan ham, qissada juda ko‘p avtobiografik janr unsurlari uchraydi. Undagi ayrim joylar nomlari (adib tug‘ilib o‘sgan mahalla – Qo‘rg‘ontagi, adibning bolaligi o‘tgan maskanlar) va qahramonlar ismlari shular jumlasidandir.

Bunga “Shum bola”dan olingan va G‘afur G‘ulomning tarjimai holi hamda adabiy-tanqidiy maqolalarida keltirilgan qator misollar orqali ham ishonch hosil qilish mumkin.

Eng avvalo, G‘afur G‘ulom bilan Shum bola o‘rtasidagi yaqinlik haqida gapirsak. G‘afur G‘ulomning bir akasi va uch singlisi bo‘lgan:

“Otam 1912-yilda, 44 yoshida mazkur Qo‘rg‘ontagi mahalladagi o‘z hovlimizda vafot qildi... Biz besh yetim bola qolaberdik. Men 9 yoshda, eng kichik singlim Bahri 6 oylik edi...” [7, 12].

Taniqli adabiyotshunos olim Umarali Normatovning fikricha, G‘afur G‘ulom asardagi bir necha o‘rinlarda latifanoma voqealar orqali o‘sha davr uchun juda qaltis va jiddiy mulohazalarni bildiradi. Xususan, “xushyor kitobxon jinnilar tilidan aytilgan bu latifanoma gaplarda jiddiy, o‘ta qaltis ma‘no borligiga – gap Nikolay poshsho zamoni emas, balki barchani bir yo‘ldan bir tomonga zo‘rlab yurgizish siyosati ketayotgan sho‘rolar davri ustida borayotganini sezadi. Bu fikrni adib ongli ravishda o‘tkazganmi yoki bu hol bexos “ong osti” shuuri, ruh erkinligi hodisasimi, bundan qat‘i nazar, baribir, aytilgan so‘z – otilgan o‘q, u ayni nishonga tekkan; bunday zo‘ravon siyosatning xunuk oqibati haqidagi ogohlantirishlar haq bo‘lib chiqqanini, hammani bir yo‘ldan bir tomonga kaltak bilan zo‘rlab yuritish tufayli hayot posongisi ost-ust bo‘lib ketganligini bugun ko‘rib-bilib turibmiz” [11, 12].

“Shum bola” badiiy tafakkur tarzi, ifoda, uslub yo‘nalishi jihatidan ham milliy adabiyotimizda noyob hodisa. Uning YUNESKO tomonidan bolalar va o‘smirlar haqidagi eng sara asarlar qatoriga kiritilgani ham bejiz emas.

Mark Tvenning “Tom Soyerning boshidan kechirganlari” va “Geklberri Finning boshidan kechirganlari” romanlari va G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasida hodisalar ifodasi, an‘anaga ko‘ra qat‘iy mantiq, muayyan maqsadga yo‘naltirilgan chiziqli ziddiyatlar silsilasi tarzida emas, yagona chiziqqa tushmaydigan, tartibsiz, beqaror, ayqash-uyqash shaklda beriladi. Xaos ko‘rinishidagi tartibsiz, tasodifiy hodisalar orasidagi g‘aroyib sirli-sehrli o‘zaro bog‘liqlikni, teran ma‘nodorlikni topish, kashf etish san‘ati jihatidan bu asarlar hozirgi zamon fanida kashf etilgan va katta qiziqish uyg‘otayotgan sinergetik tafakkur xususiyatlarini yodga tushiradi.

Har ikki asar (Geklberri Finning boshidan

kechirganlari va “Shum bola”)da avtobiografik ma‘lumotlardan keng foydalanilganliklari qissalarning avtobiografik asarlar degan xulosa chiqarishimiz uchun yetarli emas. Bu yerda ulardan boshqa maqsadda – oddiy hayotiy voqealar orqali umuminsoniy mazmuni berishda foydalanilgan.

“Bolalar obrazlari G‘.G‘ulom prozasida juda katta o‘rin tutadi. Muayyan darajada bu obrazlar yangi jamiyatning ramzlari kabi namoyon bo‘ladilar. G‘.G‘ulomning bolalar haqidagi hikoyalardan eng mashhuri so‘zsizki “Shum bola” (1936-yil) asari hisoblanadi. Unda bir bolakayning boshidan kechirganlari tasvirlangan. Uni Mark Tvenning Tom Soyeri bilan qiyoslash mumkin”, deydi David Montgomeri.

G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasida ham mavjud voqelik bosh qahramon shum bola va undagi boshqa yosh qahramonlar tomonidan idrok etiladi. “Shum bola” qissasi, mohiyat e‘tibori bilan, Birinchi jahon urushi arafasidagi o‘zbek xalqi hayoti, undagi qiyinchiliklar va mashaqqatlar bolalar ko‘zi va nigohi orqali, sarguzashtnamo hangomalar asosida va yumorga yo‘g‘rilgan bir uslubda badiiy gavdalanitirilgan sarguzasht asardir.

G‘afur G‘ulom asarda har bir narsani, buyumni, voqea-hodisani shum bolaning ko‘zi bilan ko‘radi, uning tili bilan tasvirlaydi. Bunga hikoyaning birinchi shaxs tilidan olib borilishi dalildir.

“Shum bola” esa quyidagi satrlar bilan yakun topadi:

“Qora-qurum bosgan sassiq takyaxonadan tashqariga chiqib, ko‘kragimni to‘ldirib nafas oldim. Endi men pok-pokiza, qushday yengil, ko‘nglim tongday tiniq. To‘rt tomonim qibla. Lekin qayoqqa qarab yo‘l olsam ekan?” [3, 158] deya so‘raydi o‘zidan o‘zi Shum bola. O‘tmish (qora-qurum bosgan sassiq takyaxona) ortda qoldi. Kitobxon esa Shum bola Chorsuda do‘sti Turobboyga qishloqqa, onasi va singillari huzuriga “Kelgusi haftada albatta o‘zim boraman” deb va‘da bergani sababli o‘z va‘dasining ustidan chiqadi va oyisi, suyuqli singillari yoniga qaytadi, deb umid qilib qoladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, taniqli yozuvchi Mark Tven ham, G‘afur G‘ulom ham o‘z asarlarida bolalar obrazi va xarakterini ochib berishda bolalik davri taassurotlari, hayotlaridan olingan real voqealar va faktlardan foydalanishgan. Shuningdek, ushbu yozuvchilar asarlarida tilga olingan va tasvirlangan personajlarning hayotdagi real prototiplari mavjud. Bu personajlar adiblarning yaqin qarindoshlari, qo‘shnilari, do‘st-birodarlari hisoblanadi. Asar qahramonlarning portretlarini adiblar real hayotdagi insonlar boshidan kechirganlariga asoslanib yaratganlar. Ushbu romanlarda bolalar obrazi va ularning xarakteri o‘zining yorqin ifodasini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tven M. “Geklberri Finning boshidan kechirganlari”, (Odil Rahimiy tarjimai). – Toshkent: “Qobus media” nashriyoti, 2020. 336-bet.
2. Tven M. “Tom Soyerning boshidan kechirganlari”, (I. Muslim tarj.) “SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. – T., 2019. 272-bet.
3. G‘ulom G. “Shum bola” qissa. – Toshkent: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2019. 160-bet.
4. Абrorов А., Соyимов Б. Фафур Фуломнинг бадиий олами. – Т., 1984. 54 б.
5. Бабаева С.Р. Ўзбек ва АҚШ адабиётида болаликнинг бадиий талқини (Ф. Фулом ва М. Твен ижоди мисолида): Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 20. 44 б.
6. Ф. Фуломнинг бадиий олами. – Т.: Фан. 1984. 168 б.
7. Фафур Фулом замондошлари хотирасида. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2003. –104 б.
8. Ёқубов Ҳ, Фафур Фулом (ҳаёти ва ижоди). – Т.: Ўздавнашр, 1959. 96 б.
9. Зуннунов А. Фафур Фуломнинг ҳаёти ва ижоди: мактаб кўргазмаси ва болалар кутубхонаси учун материаллар нашри. – Т.: 1983. 36 б.
10. Мамажонов С. Фафур Фулом прозаси. – Т.: 1966. 156 б.
11. Норматов У. “Шум бола” мафкуравий-сиёсий тазйиқ ва руҳ эркинлиги // Жаҳон адабиёти. – Т., 2003, №5.
12. Mark Twain in His Times, University of Virginia Department of English (April 14, 2006).
13. Mark Twain’s Satires Burlesques. Ed. Franklin R. Rogers. – Berkeley and Los Angeles: University of California Press, 1967. 254 p.
14. Mark Twain’s Own Autobiography: The Chapters from the North American Review. Ed. Michael J. Kiskis. – Madison: of Wisconsin Press, 1989. 356 p.
15. Pattee F.L. A History of the American Literature since 1870. – Y.: The Century Co., 1987. 222 p.
16. Twain M. “The Adventure of Huckleberry Finn”. – New York: “A Glassbook classic” presm., 2019. 295 p.
17. Twain M. “The Adventures of Tom Sawyer”. – New York: “Planet eBook.com” press, 2019. 285 p.

Internet manbalari

18. <http://elibrary.ru/item.asp?id=29369010>
19. <https://fayllar.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-maxsus-talim-vazirligi-bu-v41.html>
- <https://harrypotter.fandom.com/ru/wiki>

Shamsiya EGAMBERDIYEVA,

Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

O‘ZBEK VA TURK ALLALARIDA ONA RUHIYATINING QABARIQ TASVIRLARI

Annotatsiya: alla janri nafaqat yer yuzidagi ilk janrlardan, balki inson qalb kechinmalarini ifodalay oladigan, uning hech kimga ayta olmaydigan dardlarini aytib yengillashadigan qalb otashidir. Qardosh o‘zbek va turk onalarining dardlari va quvonchlari ham bir-birini takrorlaydi, shuningdek, bir-birini to‘ldiradi ham. Ularni tahlil qilar ekanmiz, bu ikki millat onalari asrlar davomida hamnafas bo‘lgani, poetik jihatdan hamkorlik qilgani guvohi bo‘ldik.

Kalit so‘zlar: og‘zakilik, mazmun, mohiyat, jamiyat, musofirlik, g‘ariblik.

Adabiyotning ibtidosi – folklor. Folklorshunoslarning bir guruhi “yashash shakli og‘zakilik bo‘lgan folklor asarlarining”[Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Darslik. – T.: Musiqachi, 2010. 12-bet.] ilk janri sifatida yig‘i-yo‘qlovni aytsa, ikkinchi bir guruhi dastlabki janr sifatida allani e‘tirof etadi. Ikki fikr ham mantiqan to‘g‘ri. Alla butun yer yuzidagi onalarning umumiy bayotidir. O‘zbek allalari va turk ninnilari shakl, mazmun, mohiyat va maqsadning yakdilligi jihatidan ko‘p ham farq qilmaydi. Ikki millat onalari ham quchog‘ida, oyog‘ida, beshikda yo belanchakda bolani tez va oson uxlatish, ovutish maqsadida qo‘shiq kuylashgan. Musiqqa, tahayyul va tafakkur olamiga ochilgan eshik, albatta, onalar va ular tomonidan yaratilgan durdonalardir. Bu

yaratilgan muallifi ham, bastakori ham onalardir. Bola ilk musiqa zavqini, ta‘sirini ona tilida onasi quchog‘ida birinchi daf‘a his qiladi. Alladagi me‘yoriy monoton ohang bolaning tinchlanishiga sabab bo‘lsa, alla matnidagi izhorlar onaning osudalashishiga olib keladi. Turk folklorshunosi Dursun Ali Tökel “Alla kuylagan ayollarga guvoh bo‘ldim. Go‘dak uxlagani holda ham, kuylamoqni davom ettirmoqda. Alla aytarkan ayol ne qadar muqaddaslashmoqda. Bolaning uyquda bo‘lishi uning allani hali ham davom ettirishiga mone‘ bo‘lmayotgan edi. U vaqt allalar faqat uxlatmoq uchun kuylanmas edi. Aksincha, allalarga boqqanimda shuni ko‘rar edimki, allalar uxlatmoq uchun emas, uyg‘otmoq uchun aytilayotgan edi” deb e‘tirof etadi.[

Dursun Ali Tökel. Künye: Ninni Deyip geçme: Okusun da Öğrensin Ninni”, Buruciye Dergisi, Sivas Yaz 2008, S.2, s. 43-47.] Shoir Usmon Azim baxshiyonalaridan birida “uyg‘on” deb yozar ekan, “U paytlarda onalar bolasini uxlasin debmas, uyg‘onsin”, – deb ham alla aytishar ekanlar,” – deb hukmron mafkura tazyiqidan o‘zini himoya qiladi.

Sahar vaqti bo‘libdi, alla-yo alla,
Ichim g‘amga to‘libdi, alla-yo alla,
Qaddim gulday so‘libdi, alla-yo alla,
Bolaginam, alla.[9,19]

Ona o‘z qalbidagi dardning nechog‘lik ulkan ekanini yaxshi biladi. To‘rt devor asiriga aylangan ayol dardini faqat farzandiga so‘ylay oladi. Allasiga butun vujudi sel bo‘lib qo‘shiladi.

Ninni desem birim birim
Dert yürekte dürüm dürüm
Dört duvar sırrın örtüsü
Ben derdimi kime derim
Nenni kuzum sana nenni [5,18]

Butun yer yuzida ayolning jamiyatdagi va oiladagi rolga qaraylik. Ayol-oila o‘chog‘ining posponi, uying shifokori, xonadon xizmatchisi. O‘zbek xonadonlarida ham, turk xonadonlarida ham u avvalo – kelin. Turkiy millatlar hayotidagi – an‘anaviy oilaga ko‘ra kelin bobo, buvi, qaynota, qaynona, aka-ukalar va singillar bilan birga katta xonadonda istiqomat qiladi. Zamoni kelib bularning farzandlari ulg‘ayib, katta bir oila ajralib chiqmagunicha odat shunday bo‘lur. Kelin, oiladagi kayvonilarning, qaynota-qaynonasining oldida imkon qadar kam so‘zlashishga harakat qiladi. Hatto o‘z bolasini kattalar oldida o‘pib suyish ham ta‘qiqqlangan va uyat hisoblangan. Sahar quyoshning ilk nurlari bilan boshlangan uy yumushlari oqshomga qadar davom etadi. Har doim faqat jim yurgan ayol, faqat bolasining oldidagina o‘zini erkin his qiladi. Faqat bolasini uxlatish yoki emizdirish uchun kirgan vaqtidagina ozroq dam oladi. Hech qachon o‘z o‘y-tashvishlarini so‘zlamagan ayol/ona shu onda alla kuylarkan butun ong ostini erkin qoldiradi. Satrlar qalb-qalbidan quyilib keladi. Qofiya, ohang o‘z-o‘zidan kuyga yo‘g‘riladi.

Dardim aytsam daryolar,
Tinglamaydi sendan bo‘lak.
Bolajonim baxting ko‘rmoq–
Qalbidagi oliy tilak. [9,103]

Ona kun bo‘yi mehnat qiladi. Oilasining xotirjamligi, sog‘-salomatligi uchun qayg‘uradi. “Qo‘li kosov, sochi supurgi”ga aylanadi. Ammo uning mehnati hech ham ko‘zga ko‘rinmaydi. Kun bo‘yi horib mehnat qilgan ayol, mehnatiga yarasha bir og‘iz shirin so‘z eshitmas

ekan, go‘dagining oldiga kirib nola qiladi.

Beşğim beştir benim,
Yaram on beştir benim.
Ev ettim emek ettim,
Emeğim hiçtir benim.[5,23]

Alla matnidagi shu qadar qabariq ma‘no, shu qadar qalbning nozik tarjimalari va teran hikmatlar ong ostida alla kuylayotgan ayolning faylasuf emasligiga shubha uyg‘otadi.

Shu tog‘larning boshiga boq,
Ko‘zimning yoshiga boq.
Bir topdim, bir yo‘qotdim,
Falakning ishiga boq, alla.[9,105]

Dunyoda ayriliq ta‘mini totib ko‘rmagan odamning o‘zi yo‘q. Ayol ham ota-onasi, aka-singlisi balki biron yaqinini yo‘qotgan, bundan dard chekkan bo‘lishi mumkin. Armonga aylangan orzulari baland tog‘ misoli olisda bo‘lsa, bu yo‘ldagi yo‘qotishlari ham o‘ziga xos. Dunyoni g‘ariblar yotog‘iga mengzagan ona dardining sherigi farzandini uyquga chorlaydi.

Ninni dağların eteği,
Bükü garipler yatağı .
Anasının dert ortağı,
Ninni yavrum ninni.[5,38]

Agar biz alla tushunchasini faqat uyqu bilan bog‘lasak, onaning butun ijtimoiy hayotdagi mavqeyi, ayol borlig‘i falsafasining orqa planlari, inson ruhiyatining dur-gavhar hikmatlari bilan o‘ralgan qayg‘ulari o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Allada ona nafaqat ichini to‘kadi, o‘zini sevmaganlardan allasi ila intiqom oladi. Qanday hayotni orzu qilishi, kelajagini qanday ko‘rishni xohlashini o‘z allasi orqali hayqiradi. “Bolasining qanday inson bo‘lishi kerakligi, eri bilan orasi qanday, qaynonasiga qaysi ko‘z bilan boqmoqda, qanday bir ta‘lim axtarmoqda, oila, uy, er-xotin tushunchalari nima, ya‘ni qanday kelin, qanday kuyov izlamoqda. Unga ko‘ra sevgi nedir, bir oila qanday qilib oila bo‘lur, askarlik bilan bog‘liq tushunchalari nima”[Amil Çelebioğlu, Türk Ninniler Hazinesi, Kitabevi, İstanbul, 1995.] kabi o‘nlarcha fikr, xayollar teran va go‘zal ifodalar tasavvurimizda poetik figuralar hosil qiladi. Ona o‘zi boshidan o‘tkazgan og‘ir kunlarni farzandi ko‘rmasligi uchun jon-jahdi bilan harakat qiladi.

Istiqboling porloq sening
Jajjiginam alla-yo.
Men sho‘rlikday bukilma,
Hazon bo‘lma,alla. [9,11]

Ona har zamon butun umidini, orzularini farzandiga qadaydi. O'zi yetolmagan orzularining ro'yobini ko'radi farzandi siyratida. Begona bir uyda, ko'pchilik ichida "yolg'iz" ayol go'dagi bilan birga o'ynaydi, kuladi, yig'laydi. Bolasi uning eng yaqini. Ham otasi, ham onasi, ham opa-singlisidir.

Evcilik oynarken bana eş olur,
Hem anne, hem baba, hem kardeş olur.
Oynayıp gülüyor bizi süzüyor,
Mamasını yemiyor beni üzüyor.[5,45]

Ona barcha g'am-tashvishlarni yengib o'tadi. Faqat uning yonida farzandining otasi madad berib tursa bas. Xo'sh, u ham musofirga o'z rizqini izlab ketgan bo'lsachi? Kun bo'yi horigan ayol ko'ziga endi kechalari ham uyqu kelmaydi. Bir tomonda sevimli yori hijroni, ikkinchi tomonda oila boshi qaytguniga qadar bu go'daklarining ahvoli uni o'ylantiradi.

Akşamınan güneş battı
Uykusuzluk cana yetti .
Benim yavrumun babası
Uzak gurbetlere gitti. [5.38]

O'zbek allalarida ham otaning musofirda ekanligi ta'kidlangan alla matnlari ko'p uchraydi. Shuningdek kun sanayotgan ona otaning qaytar vaqtini ham hisoblab, go'dagi bahona o'z qalbini ham tinchlantiradi.

Bordim quduq boshiga,
Boshimni qo'ydim toshiga.
Chiqqan oyning o'n beshiga ,
Sening otang kelar, alla. [9.107]

Xulosa qilib aytganda, onalar dunyoning qaysi bir burchida yashamasin, dardlari, orzulari, umidlari uyg'un bo'ladi. Har ikki millatning ona sezimlari, tuyg'ulari, ruhiyat tasvirlari hamohang. Dunyoda bittagina go'dak tug'ilar ekan, "alla" deb nomlangan tarona o'z jilvasini ayol nolasi orqali namoyon qilaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov O. O'zbek bolalar folklori . – Toshkent, 2007. 17-bet
2. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Darslik. – T.: Musiqachi, 2010. 12-bet.
3. O'zbek folklori. 1- kitob. – Toshkent, 1939
4. Gulyor . Farg'ona xalq qo'shiqlari. – Toshkent, 1967.
5. www.okumay ISEV.com.TÜRK NİNNİLERİNDEN SEÇMELER.isev.org.tr
6. Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. – Toshkent, 1975.
6. M. Jo'rayev. "Oy oldida bir yulduz".
8. Â m il Çelebioğlu, T ü rk Ninnileri Hazînesi, İstanbul, 1982.
9. Eng sara allalar. Adabiyot uchqunlari. – Toshkent, 2017.
10. Egamberdiyeva Sh. O'zbek allasi va turk ninnisi: uyg'unlik va alohidalilik. "O'ZBEK BOLALAR FOLKLORINI TO'PLASH VA O'RGANISH VA NASHR QILISH MUAMMOLARI" XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI. 2023-yil 8-9-noyabr.
11. Dursun Ali Tökel. Künye: Ninni Deyip geçme: Okusun da Öğrensin Ninni", Buruciye Dergisi, Sivas Yaz 2008, S.2, s. 43-47.

Surayyo ARZIKULOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA TALABALARNING O'Z- O'ZINI PERSONALLASHITIRISH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI



Annotatsiya: mazkur maqolada kredit-modul tizimida mustaqil ta'limni tashkil etish, talabani kreativ fikrlashga, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga, Oliy ta'lim tizimining joriy holati va mavjud muammolari, talabalarning o'z-o'zini personallashitirish jarayonini tashkil etishning pedagogik muammolari haqida fikr yuritilgan bo'lib, mazkur muammo mavzusining tadqiqot metodologiyasi, mavzuga oid tahlil va natijalar hamda mavzuning xulosa va takliflari haqida yoritilgan. Maqola mazmunida berilgan ma'lumotlardan bakalavr bosqichidagi talabalar, magistrlar va shu mavzuga oid muammolar bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar foydalanishlari mumkin.

Kalit so'zlar: kredit, modul, kredit-modul, mustaqil ta'lim, tanqidiy fikr, ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish.

Аннотация: в данной статье рассматриваются организация самостоятельного обучения по кредитно-модульной системе, обучение студентов творческому мышлению, навыкам творческого мышления, современное состояние и существующие проблемы системы высшего образования, педагогические проблемы организации процесса самоперсонализации студентов. освещаются методология исследования, анализ и результаты темы, а также выводы и предложения по теме. Материалы, представленные в содержании статьи, могут быть использованы студентами, магистрами и специалистами, проводящими научные исследования по проблемам, связанным с той же темой.

исследования по проблемам, связанным с той же темой.

Ключевые слова: кредит, модуль, кредит-модуль, самостоятельное обучение, критическое мышление, творческое мышление, системный анализ.

Annotation: this article discusses the organization of independent education in the credit-module system, training students to think creatively, creative thinking skills, the current state and existing problems of the higher education system, pedagogical problems of organizing the process of self-personalization of students. research methodology, analysis and results of the topic, and conclusions and suggestions of the topic are covered. The materials provided in the content of the article can be used by undergraduate students, masters and specialists conducting scientific research on problems related to the same topic.

Key words: credit, module, credit-module, independent education, critical thinking, creative thinking, systematic analysis.

Kirish (Introduction).

Jahon ta'limida kredit-modul tizimi mustaqil ta'limni tashkil etish, talabalarning mustaqil ta'lim jarayonida amaliy ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish, kreativ fikrlashga, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga va shu bilan birga ilg'or tajribalarni optimallashtirish, ta'lim jarayonining pedagogik-psixologik imkoniyatlari asosida shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish bo'yicha ilmiy

tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan

yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida quyidagilar belgilab olindi:

- oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish;
- xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish;
- talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari shakllantirilmagan;
- mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish;

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

N. F. Golovanov fikriga ko'ra "O'z-o'zini tarbiyalash faoliyati – bu mavjud bilim, ko'nikma va rivojlanishni chuqurlashtirish va takomillashtirishga qaratilgan shaxsning bilishga faol munosabati namoyon bo'lishining kognitiv, aqliy kuch va qobiliyatlarni, intellektual darajani o'zgartirishning obyektiv-subyektiv shaklidir. Bu talabani o'zi tomonidan boshqariladigan: maqsadli tizimli kognitiv; ichki motivlarga va majburiyatning yetishmasligiga muvofiq amalga oshiriladigan oldingi ta'lim shakllariga asoslangan va ularning natijasi va dialektik davomi bo'lgan kognitiv faoliyatidir".

L. K. Markova, S. A. Suslanovlarning fikriga ko'ra, kuzatish, anketa so'rovi va o'qituvchilar bilan suhbatlar uchun o'zgartirilgan diagnostika usullari majmuasi yordamida aniqlandi. Keyinchalik, so'rovnomalar muallifi tomonidan ishlab chiqilgan faoliyat mahsulotlarini tahlil qilishdan foydalangan holda o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni modelini amalga oshirishni ta'minlaydigan pedagogik shartlarning samaradorlik darajasi o'rganildi.

Oliy o'quv yurtlari talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish va samaradorligini oshirishning bugungi muammolari doimiy e'tibor va yuqori sifatli yechimlarni talab qiladi. Psixologik-pedagogik adabiyotlarni shu nuqtayi nazardan tahlil qilish XX asr o'rtalarida o'quvchilarning bilimlarni mustaqil o'zlashtirishi masalalari bo'yicha tadqiqotlar faol boshlanganligini ko'rsatdi, garchi o'tgan asrning boshlarida I. Gessen bu masalani alohida ta'kidlagan edi.

Ayrim zamonaviy olimlar, xususan A. Krivileva,

A. Kucheryavy, I. Mostovaya, N. Sagina va A. Chij mustaqil ishlashga shakllanmagan psixologik tayyorlik, o'z-o'zini tashkil etishning umumiy qoidalarini bilmaslik, malakaning yetishmasligi mavjudligini ilmiy adabiyotlar bilan ishlash qobiliyatlari va ko'plab o'quv fanlariga kognitiv qiziqishning yetarli darajada yuqori emasligini ta'kidlaydilar.

Talabalarining har qanday o'quv fanlari doirasidagi mustaqil ishlarining asosi bo'lgan o'quv materiallari bilan ishlashning oqilona yo'llari va usullarini o'zlashtirish bilan bir qatorda o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlay olishlari juda muhim. Bu malakalar orasidan Y. Miroshnichenko va O. Troyan quyidagilarni ajratib ko'rsatishadi:

- vaqtdan oqilona foydalanish, mehnat va dam olishni almashtirish, tarbiyaviy ish gigiyenasi qoidalari;
- ma'lumot qidirish, kataloglar, lug'atlar, ensiklopediyalar, tarmoq resurslari va boshqalar bilan ishlash;
- tez o'qish texnikasi;
- matnlarga semantik ishlov berish, asosiy narsani (g'oyalar, qonunlar, tamoyillar) ajratib ko'rsatish;
- diqqatni jamlash va yodlash;
- tinglash va nutq madaniyati;
- axborotning qisqacha ratsional qaydi (ko'chirmalar, tezislar, reja, konspekt, annotatsiya, taqriz, referat va boshqalar);
- ma'ruzalar, seminarlar, laboratoriya va amaliy ishlarga, shuningdek, modullarning yakuniy darslariga tayyorlanish.

A. Furmanning fikricha, kredit-modulli tizim sharoitida mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga o'quv jarayonida uch turdagi muammoli-modulli ma'ruzalarni qo'llash yordam beradi: ilmiy-axborot, ilmiy-loyihaviy va dunyoqarash-refleksiv.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Kredit – bu qandaydir kompozitsion o'quv rejasini yoki talaba tomonidan o'qish davomida bajargan alohida fanni (kursni) o'rganishda talabani o'quv yukini o'lchashning shartli birligi hisoblanadi. Kredit to'g'ri hujjatlashtirilgan eng kichik birlik bo'lib, ko'pincha bir haftalik o'qish to'lovini bildiradi (talabani auditoriyadagi va mustaqil ishining yig'indisi)

Modul – o'qitish tizimida talabalar bilimi, malakasi hamda ko'nikmasini baholashda reyting baholash tizimidan foydalaniladi. Unda talabani barcha o'quv faoliyati, ya'ni auditoriya va auditoriyadan tashqarida olgan, o'zlashtirgan bilimlari ball berish orqali baholanadi. Bu o'z navbatida oliy ta'limda tahsil olayotgan yosh kadrlardan o'z sohalari bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lish bilan birgalikda o'zlari egallayotgan sohalari bo'yicha mustaqil faoliyat yurita oladigan, zarur paytda mustaqil fikr yurita oladigan raqobatbardosh kadrlar bo'lishlarini talab qilmoqda.

Kredit modul tizimi – bu ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va

kredit o'Ichovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi:

- talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash;
- talabalar bilimni reyting asosida baholash.

Kredit-modul – o'qitish tizimiga o'tish oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilariga bo'lgan majburiyat hamda talabni ham oshiradi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, modulli o'qitish tizimi bilan o'qituvchi nafaqat axborot beruvchi va nazorat qiluvchi funksiyalarini, balki maslahatchi hamda muvofiqlashtiruvchilik vazifalarini ham bajaradi. Pedagogik jarayonda o'qituvchining yetakchilik roli saqlab qolinadi. An'anaviy oliy ta'lim tizimimiz dunyoda tan olinmaganidan keyin, biz ilg'or standart va tizimlarni oliy ta'lim muassasalariga tatbiq etishga majburlamiz. Shunday ekan, yangilikka intilish, oliy ta'lim tizimini tubdan qayta isloh qilish bo'yicha boshlangan harakatlarni davom ettirish har tomonlama to'g'ri qarordir.

Kredit-modul tizimining afzalliklari va kamchiliklari.

Afzalliklar:

– tizimning barqarorligi, uning hamma uchun bir xilligi, yaxshi ishlab chiqilgan.

– jarayon nosozliklarsiz, tizimning tushunariligi va uzoq yillar davomida prognoz qilinishi mumkin bo'lgan holda amalga oshirilishi;

– o'quv jarayonini ta'lim natijalarini baholash jarayonidan ajratish;

– o'qituvchi darslarni olib boradi, joriy baholarni qo'yadi, lekin uning faoliyati natijalarini yakuniy baholash test markazi tomonidan o'tkazilishi;

– jarayonning asosiy elementi sifatida talabaga katta huquqlar beradi.

– talabaning mustaqil fikrlash qobiliyati.

Kamchiliklar:

– yakuniy mahsulotni nazorat qilish (talaba sessiyadan sessiyagacha yashaydi, imtihondan uch kun oldin darsliklarni eslab qoladi);

– talabalarga asosan repressiv usullar orqali ta'sir etish, o'quv jarayonida talabaning nafaol roli;

– o'zlashtirilgan bilimlarning fundamental xususiyatini pasaytiradi;

– katta moddiy xarajatlarni talab qiladigan ish sharoitlarining tez-tez o'zgarishi.

O'zbekistonda axborot manbai va turli xildagi xalqaro ma'lumotlar bazalariga kirish, ulardan foydalanish ma'lum darajada cheklanib qolgandi. Oqibatda, oliy ta'limda professor-o'qituvchilarning asosiy diqqati axborotni qidirib topish, uni o'zlashtirish hamda dastlabki qayta ishlagandan so'ng talabalarga tarqatishga qaratildi. Ya'ni o'qituvchilar shunchaki axborotni qabul qiluvchi va uzatuvchi subyekt edi, xolos.

Bunda talaba o'quv jarayonining obyekt sifatida axborotni qabul qiluvchi vazifasini bajarar, asosiy vaqtini

auditoriyada ma'ruza mashg'ulotlarini tinglashga sarflar edi. Bugungi kunga kelib esa axborotlar olamidan bahramand bo'lishning tezlashgani, xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyatlarining kengaygani, globallashtirish jarayonlari jadallashgani bois talabalarning mustaqil ta'limini rivojlantirish masalasi kun tartibiga ko'tarildi.

Ma'lumki, an'anaviy ta'limda o'qituvchi tayyor bilim va ko'nikmalarning tarjimoni, talaba esa, asosan, passiv so'zlovchi vazifasini bajarsa, kredit-modul tizimida o'qituvchi talabaning kognitiv va aqliy faoliyatida bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning tashkilotchisi hisoblanadi. U ta'limni umrbod ta'lim (faol hayot davomida o'rganish) shaklida tashkil qiladi.

Olimlarning fikriga ko'ra, bu sekinlashuvning sabablaridan biri bu texnik taraqqiyot emas, balki kreditga o'tish bilan birga o'z-o'zini ta'lim faoliyatida yetarli ko'nikmalarning yo'qligidir. Ta'limni tashkil etishning modul tizimi, butun o'quv vaqtining uchdan ikki qismi o'qituvchi rahbarligida talabaning mustaqil ishiga bag'ishlanadi. Biroq, universitetda (va ilgari maktabda) qolgan nazoratsizlik va pedagogik faoliyatning ushbu jihatini nazorat qilmaslik ko'pincha talabalar o'rtasida o'z-o'zini tarbiyalash faoliyatini tashkil etishning mantiqsiz usullarini shakllantirishga olib keladi. Universitetda ta'limni tashkil etishning kredit-modul tizimi doirasida, birinchi navbatda, o'z-o'zini tarbiyalash faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish muammosini hal qilish kerak. Ta'lim tizimini kreditlash yo'li bilan tashkil etishda texnologik yutuq yaratgan ijobiy mahalliy tajriba va boshqa mamlakatlar tajribasidan foydalaniladi.

Boloniya jarayonining qonunlariga ko'ra, talabalarga amaliyot, imtihonlarga tayyorgarlik ko'rish uchun kredit berish me'yor hisoblanadi. Darhaqiqat, bu ma'lum bir mehnatsevarlikka ega bo'lgan haqiqiy tarbiyaviy ishdur. Uning qiymatini imkon qadar xolisona aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shubhasiz, talabalardan tegishli ravishda ko'p sonli manbalarni o'rganishni talab qiladigan konspekt va kurs ishlarini yozish uchun kreditlar berilishi kerak va bu turdagi ishlarning akademik mehnat zichligi juda yuqori bo'ladi. Kreditlar talabaga faqat o'quv rejasida belgilangan fan bo'yicha yakuniy nazorat shaklini (imtihon, oraliq test yoki yakuniy test va h.k.) muvaffaqiyatli topshirganlik natijalari asosida hisoblanadi.

Janubiy Koreyaning Pusan chet tillar universiteti professori Azamat Akbarov Boloniya deklaratsiyasi xususida shunday fikr yuritadi. Boloniya jarayoni odamlar bir ta'lim tizimi yoki mamlakatdan boshqasiga o'tishi, faoliyat yuritishini osonlashtirish uchun ko'priklar qurishga harakat qiladi. Tadqiqotchi Azamat Akbarov, shuningdek, Boloniya jarayonining imkoniyatlarini quyidagicha sanab o'tadi:

– o'quv dasturlarini tuzish va talabalar tahsil olish yo'llarini tuzishda ko'proq erkinliklar;

– Yevropa kredit to'plash va ularni o'tkazish tizimini (ECTS) joriy qilish;

– talabalar, o'qituvchilar va tadqiqotchilar uchun milliy va Yevropa universitetlariga borib o'qib tahsil olish, ishlash, tadqiqot olib borish borasida ko'proq imkoniyatlar;

– olingan ixtisos kvalifikatsiyani ta'lim doirasi va kasbiy sohada tan olinishini ta'minlash uchun diplom ilovasi berish;

– Yevropa oliy ta'lim hududini tuzish jarayonida qatnashuvchi ko'plab mamlakatlarda diplomlar tan olinishi uchun oliy ta'lim tuzilmalarini standartizatsiya qilish va umumiy ko'nikma-malakalar doirasini qabul qilish;

– ixtisos kvalifikatsiyalarning tan olinishi;

– sifatni kafolatlash: umumiy standartlar va umumiy tartibotlar ishlab chiqish;

– avtonom muassasalar;

– talabalar qatnashuvi: oliy ta'lim boshqaruvida ular to'laqonli hamkorlar sifatida tan olinishi;

– oliy ta'lim uchun ijtimoiy javobgarlik.[]

Bilimlarni baholashning modul-reyting tizimi 100 ballik shkalani nazarda tutadi, ya'ni 100 ball – bu talaba kontent modulini o'rganish jarayonida akademik muvaffaqiyati uchun olishi mumkin bo'lgan maksimal ball sonidir. Kontent[] moduli bo'yicha talaba bilimni baholashda o'tkazilgan barcha turdagi darslar, joriy va yakuniy testlar (masalan, amaliy, laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish va h.k.) uchun vazn koeffitsientlarini hisobga olgan holda olingan baholar hisobga olinadi.

Fanning o'quv materialini o'zlashtirishning umumiy bahosi vazn koeffitsientlarini hisobga olgan holda barcha tarkibiy modullarning o'zlashtirilishini kompleks baholash sifatida semestr imtihonlarisiz aniqlanadi.

O'quv rejasida imtihon nazarda tutilgan fanlar bo'yicha talabalar bilimni baholash joriy modul nazorati va yakuniy modul nazorati (imtihon) natijalari asosida amalga oshiriladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendations).

Ta'lim jarayonida talabaning mustaqil ta'lim olishini faollashtirish zarur. Mustaqil ta'lim masalasining qo'yilishi, yechish, o'z-o'zini nazorat qilish va baholashning yo'llarini talaba tomonidan tanlanishi va bajarilishi bilan xarakterlanadi. Hozirgi vaqtda oliy ta'limda o'quv jarayoni mutaxassislarni har tomonlama shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning ma'lum kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash sharoitida talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish va boshqarish bo'yicha har tomonlama tizimli ish olib borishni talab etadi. Oliy ta'limda dars jarayoni ko'plab ma'lumotlar sig'imini egallashga, samarador, ijodiy tafakkurni shakllantirishga, shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantirishga, mantiqiy tahlil va ma'lumotlarni har tomonlama qayta ishlashga bo'ysundirilmog'i lozim. Mutaxassislar tayyorlashda zamonaviy talablarga binoan ta'lim jarayonini tashkil etishning muhim shartlaridan biri talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini faollashtirish hisoblanadi. Talabalarning mustaqil ta'lim olish tizimida mustaqil ta'lim mazmuni uning asosini tashkil etadi. Mustaqil ta'lim mazmunini mustaqil ta'lim materiallari, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning faoliyati tashkil etadi. Bunda o'qituvchi va talaba muloqoti asosiy rol o'ynaydi. Mustaqil ta'lim olishning asosiy vositasi – bu mustaqil ta'lim materiallaridir. Ular uzviy bog'langan tizim bo'lib, darsliklar, o'quv-metodik qo'llanmalar va ma'ruza matnlaridan farq qiladi. Ularda teran va mazmundor uslubiy ko'rsatmalar, ta'lim oluvchining bilish faoliyatini boshqarish bloki, kasbiy tayyorgarligi jarayonida mustaqil o'qish mezonlari, uning o'z-o'zini mustaqil o'qishga yo'naltirib borishi, o'z-o'zini nazorat qilishi, o'z-o'zini namoyon etishi va shaxsiy bilish faoliyati jarayonida o'z-o'zini baholay olishi uchun psixologik-pedagogik tavsiyalar mavjud bo'ladi. Mustaqil ta'lim materiallari o'quv-uslubiy qo'llanmalari, ma'ruza matnlari, kompyuter dasturlari, audio va videomateriallar, mavjud an'anaviy darsliklardan foydalanishga doir tavsiyalar, axborotning boshqa manbalari ko'rinishida bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Усмонов Б. Ш, Хабибуллаев Р. А. Олий ўқув юртларида ўқув жараёнини кредит-модуль тизимида ташкил қилиш. Ўқув қўлланма. – Т., 2020. 120 бет.

2. Ismailova Zukhra Karabayevna, Maxsudov Po'lat Maxsudovich, Ergashev Oybek Karimovich. "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" darslik. – Т., 2022. 262-bet.

3. D. Tojiboyeva, A. Yo'ldoshev "Maxsus fanlarni metodikasi" darslik. –Т.: «Aloqachi», 2009. 568-bet.

D. Tojiboyeva "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" darslik. – Т.: "Iqtisod-Moliya", 2020. 426-bet.

Dilafro'z RAHMONOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA OILA QADRIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI



Annotatsiya: mazkur maqola mazmunida maktabgacha yoshdagi bolalarning oilaga nisbatan qadriyatli munosabatlarini rivojlantirishda o'yin faoliyatining imkoniyatlari mavzusi bugungi kunning asosiy muammolaridan biri ekanligi izohlangan bo'lib, bu muammoning metodologik asoslari, mavzu muammosining natijalari, muammo muhokamasi hamda muammoning xulosasi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: qadriyat, akseologiya, umumbashariy qadriyat, milliy qadriyat, shaxsiy qadriyat, oilaviy qadriyat, o'yin terapiyasi, hamkorlik.

Annotation: in the content of this article, it is explained that the topic of the possibilities of play activities in the development of valuable relationships of preschool children towards the family is one of the main problems of today, and the methodological foundations of this problem, the results of the topic problem, the discussion of the problem and the conclusion of the problem are explained.

Key words: value, axeology, universal value, national value, personal value, family value, play therapy, cooperation.

Аннотация: в содержании данной статьи поясняется, что тема возможностей игровой деятельности в развитии ценностных отношений дошкольников к семье является одной из основных проблем современности, а также методические основы этой пробле-

мы, результаты. поясняется тема проблемы, обсуждение проблемы и заключение проблемы.

Ключевые слова: ценность, асеология, общечеловеческая ценность, национальная ценность, личностная ценность, семейная ценность, игровая терапия, сотрудничество.

Kirish (Introduction).

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan takomillashtirilgan "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida belgilanishicha, o'quv-tarbiyaviy jarayonning maqsadi bolalarda umumiy asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratishdan iboratdir. Mazkur hujjatda maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim 4 ta kompetensiyalari aks ettirilgan: kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi; o'yin kompetensiyasi – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi bo'lib, u o'quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi; ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tuta olish mahorati; bilish kompetensiyasi – atrofda olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni bajarish uchun foydalanish.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yin hisoblanadi. To'g'ri tashkil etilgan o'yinda bolaning jismoniy, aqliy va shaxsiy

sifatlarini rivojlanishi, o'quv faoliyatiga tayyorlik shakllanishi va maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy muvaffaqiyatini ta'minlash uchun sharoitlar yaratiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, jumladan, pedagogika va psixologiyada oila, bolalarni oilada tarbiyalash masalalari dolzarb masalalar hisoblanib, mamlakatimiz olimlarining doimiy diqqat markazida bo'lgan. Xususan, oilaning demografik muammolarini hal etish masalalari D.Sharipova, M.Inomova, X.Yo'ldoshev, M.Kaxxarova, oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi O.Musurmonova, X.Norqulov, oilaviy tarbiyaning psixologik asoslari V.Karimova, G.Shoumarov, E.G'oziyev, S.Tadjiyeva va pedagogik masalalari O.Musurmonova, O.Xasanboyeva, M.Inomova, X.Tojiboyeva kabi olimlarimiz tomonidan keng qamrovli tadqiq etilgan.

Shuningdek, o'zbek adiblari va pedagoglari T.Malikning oila haqidagi qarashlari, xulosalari, maxsus tadqiqotlar natijalari bo'lmasada, muhim ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatga molik manba sifatida oilaviy tarbiya masalalari bilan shug'ullanuvchilar uchun muayyan qiziqish uyg'otadi.

Tahlil va natejalar (Analysis and results).

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishda rag'batlantirish va ta'lim olish uchun xavfsiz muhitning yaratilishi, ta'limning samaradorligi har bir bola ta'lim olishining keyingi bosqichlarida yutuqlarga erishishi uchun zaruriy shartdir.

Bolalarning o'yin faoliyatlari ularning jismoniy va ruhiy jihatdan mujassam ravishda rivojlanishi uchun yagona didaktik vositadir. O'yin bolalar hayotidagi shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda kattalarga mansub bo'lgan mehnat ham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xom xayol surish, dam olish va xushchaqchaqlik jarayonlarining barchasi o'yin faoliyatida aniq bo'ladi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, o'yin faqat tashqi muhitdagi narsa-hodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarning barcha ruhiy jarayonlari bilan birgalikda ularning individual xislatlari ham shakllanadi. Demak, oila va maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishiga bog'liqdir.

O'yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo'lgan ta'lim faoliyatiga tayyorlaydi. Ijtimoiy tajribalarni faol egallashi uchun bola, avvalo, nutq ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining oilaga nisbatan qadriyatli munosabatini shakllanishi asosan, bolalarning kattalar xarakterini kuzatishlari asosida tarkib topadi. Bolalik davrlaridan boshlab, bolada ahamiyatli hisoblangan – iroda, mustaqillik va tashabbuskorlik kabi shaxsiy xususiyatlar rivojlana boshlaydi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari atrofidagi odamlar bilan turli faoliyatlarda muloqot va munosabatlarga kirishishga o'rganadilar. Bu esa ularning kelajakda odamlar bilan muloqotga kirisha olishlarida, ish yuzasidan va shaxsiy munosabatlarini samarali o'rnatishda foyda keltiradi. Bu yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida ularning ota-onalari haqidagi fikrlari va ularga beradigan baholari nihoyatda ahamiyatlidir.

Quyida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida oilaga nisbatan qadriyatli munosabatlarni shakllantirish imkonini beruvchi ayrim o'yin mashg'ulotlardan namunalar keltiriladi.

“Yo'l ko'rsatuvchi” o'yini

Maqsad: ota-ota yoki katta yoshdagi inson va bola o'rtasida ishonchli munosabatlar o'rnatish; diqqatni rivojlantirish; bolaning o'z-o'ziga bo'lgan bahosini ko'tarishga ko'maklashish.

Ota-ona yoki katta yoshdagi insonning ko'zlari bog'lanadi. Bola uning qo'lidan ushlab yo'l ko'rsatadi va to'siqlar atrofidan, ularga tegib ketmaslikka harakat qilib, olib o'tadi.

“Tuxumlarni yig” o'yini

Maqsad: ota-onalarga begona bolaning

muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizliklariga bo'lgan munosabatini his qilishiga yordam berish; bolaning sezgisi, tafakkuri, motor-ko'rish koordinatsiyasini rivojlantirish.

Bola va begona katta yoshdagi inson stol atrofida bir-birlariga qarama-qarshi o'tiradilar. Stolda turli bo'laklarga bo'lib qirqilgan karton tuxum qo'yilgan. Bolaga tuxumni yig'ish taklif etiladi, katta yoshdagi inson bolaga faqat so'zlar bilan yordamlashishi mumkin.

Ota-onalar uchun kichik ma'ruzalar. Ba'zi MTTlarda ota-onalar uchun ma'ruza xonalari tashkil etilgan bo'lib, ularda ota-onalarni qiziqtiruvchi turli mavzulardagi mashg'ulotlar yoki suhbatlar (asosan, onalar uchun) o'tkaziladi. Suhbatlar kichik guruhlarda yoki individual ravishda o'tkazilishi mumkin. Quyida kam vaqt talab etadigan (5-10 daqiqa) ma'ruzalardan namunalar keltirilgan.

Bolalar va televideniye. Nutqning shakllanishi bosqichida bola uchun uning atrofidagi katta insonlar bilan yaxshi emotsional muloqot muhim hisoblanadi.

Har kuni teleko'rsatuvlarni ko'p soatlab tomosha qilish va bolalardagi nutq rivojlanishining ortda qolishi bir-biri bilan bevosita bog'liqdir. Ularda diqqatni jamlash, nutq rivojlanishining ortda qolishi muammolari kuzatiladi, ularning lug'at boyliklari juda ozdir. Birinchi qarashda, mazkur ma'lumotlar taajjubli tuyuladi – chunki bolalar televizor ekranidan doim inson nutqini eshitadilar. Shu bilan birga bolalar miyasi shunday tuzilganki, bola texnik vositalar yordamida o'rgana olmaydi. Bolalarning to'laqonli rivojlanishlari uchun ularga jonli muloqot zarur, bunda jonli muloqot nafaqat eshitish organlari, balki go'dakning his-tuyg'ulari va fikrlarini ham ishga tushiradi. Olimlar televideniye bolaning nutqiga salbiy ta'sir etishining birinchi sababi, bunda ota-onalar o'z farzandlari bilan muloqotdan chalg'iydilar deb hisoblaydilar. Uyda qancha ko'p vaqt televizor ishlasa, ona va ota bolaga shunchalik kam e'tibor qaratadilar. Natijada, bolalar barcha psixik jarayonlar, ayniqsa, nutq rivojlanishi uchun muhim hisoblangan, kichik yosh davridanoq muloqot yetishmasligini his qiladilar.

“Oila rasmi” metodikasi. Bola ota-onaning faqatgina tarbiyaviy ta'sir etish mahsuli emas. U o'z oilasini o'zicha tushunadi va qabul qiladi. Oiladagi o'z o'rnini o'zaro aloqada belgilaydi va oilada o'zini o'zicha anglaydi. Bolalar ro'y berayotgan hodisalarga kattalarga nisbatan boshqacha baho beradilar. Biz qachonki, atrofimizdagi olamni bola ko'zi bilan ko'rishga o'rganib olganimizdan so'nggina, ularni to'g'ri tushunamiz, hayajonlariga, qayg'ulariga yordam bera olamiz.

Oila rasmi bola shaxsining psixologik portretidir. Bu testni 3 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarda qo'llash mumkin. Psixologlar mazkur testdan bolaning oiladagi “Men”ini o'rganish maqsadida foydalanadilar.

Bu testni o'tkazish pedagogik va psixologik amaliyotda qulay va ommabop. Ushbu testni tarbiyachi-pedagoglar, maktab psixologlari va ota-onalar o'tkazishlari mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

S. L. Frankning fikriga ko'ra "Oilaviy meyorlar va qoidalar bu-oila hayoti barpo etiladigan qadriyatli asoslardir. Oila a'zolarining voqelikni tushinishida oilada o'rnatilgan qoidalarga asoslangan huquq va majburiyatlarini anglashlari muhim hisoblanadi. Qoidalar oilaga yordam beradi, unga barqarorlik baxsh etadi. Oilada bu qoidalarning yetishmasligi dilxiralik va tortishuvlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Oilaviy qadriyatlar bu ochiq, ahamiyatli bo'lgan, oila davrasida ma'qullanadigan va shakllanib boradigan narsadir. Muvaffaqiyat va yutuqlarni qadrlash, agar u haddan tashqari ifodalangan bo'lsa, perfekcionizmga – hayot va faoliyatning maksimal darajada yuqori standartlariga olib kelishi mumkin".

P.F.Lesgaftning fikricha, oilaparvar insonni tarbiya qilish, gumanistik-pedagogik nuqtai nazaridan oilani qadriyatlar tuyg'usini kamol toptirishning yetakchi maqsadlarini, vazifalarini, mazmuni va metodlarini aniqlab beradi. Bolaning ulg'ayib borishi chog'ida, to'g'ri va mahsuldor tarbiyalash uchun ijtimoiy omillar, shu jumladan, oilada bola ishonishi mumkin bo'lgan yaqin insonning borligi yetakchi rol o'ynaydi.

V.A.Suxomlinskiy bola hayotida onaning tutgan o'rniga, shuningdek, oilada bolalarda ayolga, onaga bo'lgani kabi oliyjanob munosabatni qaror toptirish masalasiga alohida ahamiyat qaratadi. Farzandlar tarbiyasida pedagog otaga maxsus rol ajratadi, uning roli bir so'z bilan ifodalanadi – mas'uliyat: ota fikr-o'y

va xatti-harakatlarni intizomli qila oladi.

H.D.Norqulovning fikricha, "zamonaviy oilalar xilma-xilligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi (tashqi qoidalar va cheklovlarga bog'liq bo'lmagan holda mustaqilligi), shuning uchun oilani maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan hamkorlikda (shu jumladan, undan tashqari tadbirlarda) jalb qilishning universal retsepti to'g'risida gapirish mumkin emas.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Tahlil natijalarini umumlashtirib, shunday xulosa qilish mumkinki, hozirgi aksariyat tadqiqotchilarning umumiy fikricha, o'z tarbiyaviy sa'y-harakatlarini boshqa ijtimoiy institutlar bilan integratsiyalar ekan, oila ta'lim va jamiyat rivojining yangi sharoitlarida yaxlit pedagogik jarayonning yetakchisi sifatida gavdalanadi. Oilada bolalarni tarbiyalash majmuaviy, tabiiy tavsif kasb etadi. Bola shaxsiyatini kamol toptirishda oilaviy turmush tarzi, oilaviy tarbiya usullari, oilaviy tarbiya an'analari va qoidalari sezilarli ta'sir etadi. Bunda bola uchun shunday muhit yaratiladiki, unga ko'ra, bola birinchi marta o'zining ijtimoiy sifatlarini kashf etadi. Umuman olganda, tadqiqotchilarning oila tarbiya muhiti sifatida bolalarning kattalar bilan doimiy va faol muloqot qilish uchun optimal imkoniyatlarga ega, tarbiyachi va tarbiyalanuvchining betakror yaqinligiga asoslangan munosabatlar boshqa holatlarida qayta ishlanmaydigan, emotsional-psixologik mikroiklimning manbai hisoblanadi. Jamiyatda qadriyatlar o'zgarishiga yo'l qo'ymaslik uchun oila va ijtimoiy ta'lim muassasalari zamonaviy MTT tarbiyalanuvchilarida aksiologik yo'nalishdagi sa'y-harakatlarni birlashtirib, ularni kelajakdagi ota-onalar rolga tayyorlagan holda ularda oilaga nisbatan qadriyatli munosabatlarni shakllantirib borish kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O.Hasanboyeva. «Oila pedagogikasi» darsligi. – T.: «Aloqachi» nashriyoti, 2007-yil. 384-bet. (149-152)
2. G'. B. Shoumarov, I. O. Haydarov, N. A. Sogunov, F. A. Akramova, G. Solihova, G. Niyozmetovalar. «Oila psixologiyasi» o'quv qo'llanma. – T.: «Sharq», 2008-yil. 296-bet. (53-68)
3. O'. M. Asqarova, M. Xayitboyev, M.S. Nishonovlar. «Pedagogika» darslik. – T.: «Talqin» nashriyoti, 2008. 288-bet. (232-235)
4. Matbua Ahmedova. «Falsafa» darslik. «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti. 2006-yil. 496-bet. (432-440)

G. A. G'ANIYEVA,
244-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi,
M.I.TOSHPULATOVA,
TDPU Boshlang'ich ta'limda matematika
kafedrasida dotsenti, PhD.

BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARINING FUNKSIONAL SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH (Xalqaro baholash dasturi TIMSS misolida)

Annotatsiya: maqolada TIMSS testlari – boshlang'ich sinf o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish vositasi ekanligi va Xalqaro baholash dasturida aqliy salohiyati yuqori bo'lgan o'quvchilarning ishtiroki, uning ahamiyati, afzalliklari, imkoniyatlari, yurtimiz rivojiga ham muhim bir jarayon ekanligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro baholash dasturi, tadqiqot, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, intellektual, funksional savodxonlik, boshlang'ich ta'lim, pedagog, geometrik.

Аннотация: тесты TIMSS являются средство развития функциональной грамотности учащихся начальных классов и участие учащихся с высоким интеллектуальным потенциалом в Международной программе оценивания, ее значение, преимущества, возможности, является важным процессом для развития нашей страны.

Ключевые слова: международная программа оценивания, исследование, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, интеллектуал, функциональная грамотность, начальное образование, педагог, геометрик.

Annotation: TIMSS tests are the key for developing the functional literacy of primary school students and the participation of students with high intellectual potential in the International Assessment Program are playing significant and beneficial role and becoming very important for the development of our country.

Keywords: international Assessment Program, research, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, intellectual, functional literacy, primary education, pedagogy, geometry.

Ta'lim tizimini rivojlantirish har bir davlatning muhim maqsadlaridan bo'lganidek, O'zbekiston Respublikasining ham eng oliy maqsadlaridan biridir. Chunki yurt ravnaqi, kelajagi o'sib kelayotgan bilimga chanqoq yosh avlod qo'lidadir. Hozirgi kunga kelib, ta'lim sifatini oshirish bilan birga malakali, mahoratli pedagog kadrlarni tayyorlashga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Yurtimizda ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadida yangi milliy dastur yaratildi va shu asosida o'quv darsliklarning yangi avlodi bosqichma-bosqich chop etilmoqda. O'quvchilarning egallagan bilim va ko'nikmalarining sifat darajasi nafaqat milliy dastur talablari asosida, balki Xalqaro baholash dasturi tadqiqotlari asosida ham baholash yo'lga qo'yilmoqda. Xalqaro baholash dasturi PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS tadqiqotlari ta'lim tizimiga astalik bilan kirib kelmoqda. Boshlang'ich sinfda PIRLS (4-sinf o'quvchilarining o'qish va matn tushunish savodxonligini baholash), TIMSS (4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonliklarini baholash) dasturlariga tayyorgarlik jarayonlari olib borilmoqda.

TIMSS tadqiqotining yana bir eng afzal va muhim tomonlaridan biri – o'quvchilarning funksional savodxonligini shakllantiradi.

Funksional savodxonlik – olingan bilim, ko'nikma va malakalarni turli sohalarida hayotiy muammolarni hal qilish uchun qo'llash qobiliyatidir. Funksional

savodxonlik, sodda qilib aytganda, maktabda olgan bilim va malakalarini hayotga tatbiq eta olishdir. Bu maktabda o'qish jarayonida erishish mumkin bo'lgan ta'lim darajasi bo'lib, uning turli sohalarida hayotiy muammolarni hal qilish qobiliyatini nazarda tutadi. "Funksional savodxonlik" tushunchasining boshqa, ko'proq ilmiy ta'riflari ham mavjud – masalan, insonning tashqi muhit bilan munosabatlarga kirishish, unga moslashish va unga imkon qadar tezroq ishlash qobiliyati.

Funksional savodxonlikning mohiyati insonning o'quv faoliyatini mustaqil ravishda amalga oshirish, hayoti davomida olingan barcha bilim, ko'nikma va malakalarni turli vaziyatlarda qo'llash, muammolarni hal qilish kompetensiyalarini, shuningdek, kommunikativ va axborot kompetensiyalarini tashkil etuvchi faoliyat usullarini shakllantirishga imkon beradigan shart-sharoitlarni yaratishdir, muammolar yechimini topish qobiliyatidir. TIMSS tadqiqotidagi topshiriqlarga e'tibor bersak, aynan funksional savodxonlikni shakllantiruvchi test topshiriqlarini ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumotlardan kelib chiqib, TIMSS Xalqaro baholash dasturi quyidagi vazifalarni qamrab oladi:

– O'quvchilarni matematika fanlariga qiziqishni uyg'otish;


– O'quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirish;

- 5-sinf o‘quvchilarining muvaffaqiyatli moslashuviga ko‘maklashish;
- Sinf o‘quvchilarini o‘quv jamoasi sifatida shakllantirish;
- Ta‘lim va kognitiv motivatsiyani rivojlantirish.

Yuqorida keltirilgan faoliyat turlarini o‘quvchi egallashi uchun ularni boshlang‘ich ta‘limdan boshlab matematik savodxonligiga e‘tibor qaratishimiz kerak. Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash, muammolarga kognitiv va kreativ yondoshish ko‘nikmasini shakllantirib borish lozim.


Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik savodxonligini rivojlantirishda quyidagi topshiriqlarni namuna sifatida ko‘rsatish mumkin:

1. Sonlar juft va toq sonlar to‘plamlariga ajratilgan. Ushbu sonlardan “Uch xonali sonlar” to‘plamiga mansub sonlarni ajrating:




- oA. 243, 401, 723, 100
- oB. 1324, 5204, 6015
- oD. 243, 100, 723

2. Yashil uchburchaklarni Venn diagrammasining qaysi qismiga joylashtiriladi?



- oA. 1 - qism
- oB. 2 - qism
- oD. 3 - qism

3. Diagrammada nechta uchburchaklar bor?



oA. 2 ta

oB. 5 ta

oD. 3 ta

4. Ikki guruhda o'yinchilar soni teng bo'lishi kerak. Buning uchun guruhlarni qanday tenglashtirish mumkin?



- oA. 1- guruhdan 2-guruhga 1 nafar o'yinchi o'tadi.
- oB. 2 - guruhdan 1-guruhga 1 nafar o'yinchi o'tadi.
- oD. 1-guruhdan 2-guruhga 2 nafar o'yinchi o'tadi.

5. O'qituvchi tomonidan sonlarni ikki to'plamga, ya'ni 2 ga bo'linadigan va 3 ga bo'linadigan sonlar to'plamiga ajratish vazifasi berildi. Muslima bu vazifani birinchilardan bajarib, namunali baholandi. Qaysi javobda Muslimaning ishi ko'rsatilgan?


- o A.

302	412	102	603
724	808		525 291
- o B.

302	412	102	603
724	808	525	291
- o D.

302	102	102	603
724	808	525	291


6. Qaysi to'plamda ko'paytma aniqlanadi?




- oA. A to'plamda
- oB. B to'plamda
- oD. C to'plamda

7. Qaysi to'plamda ifodalar qiymati to'rt xonali sonlardan iborat?


A.



B.




D.



8. Maktab bog'ida 80 ta atirgul ko'chati ekilgan. Ko'chatlarning qismi oq, qolganlari qizil atirgullar. Maktab bog'iga qaysi atirgullar to'plami ko'proq ekilgan?

- oA. Oq atirgullar
- oB. Qizil atirgullar
- oD. Ikkala gullar ham teng miqdorda

9. Sinf o'quvchilari rus va ingliz tilini puxta o'rganish uchun to'garaklarga qatnaydilar. Rus tili to'garagiga 15 nafar o'quvchi, ingliz tili to'garagiga 17 nafar o'quvchi, ikkala to'garakka 8 o'quvchi qatnasa, sinfda nechta o'quvchi o'qiydi?



- oA. 24 nafar
- oB. 32 nafar
- oD. 40 nafar

10. Quyida berilgan hayvonlar turlari bo'yicha Venn diagrammasiga to'g'ri joylashtirilgan javobni aniqlang:



- o A.

Quruqlikda yashaydigan		Suvda yashaydigan
Sher	Begemot	Kit
Jirafa	Timsoh	Akula
Ayiq		
Bo'ri		
- o B.

Quruqlikda yashaydigan		Suvda yashaydigan
Sher	Ayiq	Kit
Jirafa	Begemot	Akula
Bo'ri		Timsoh
- o D.

Quruqlikda yashaydigan		Suvda yashaydigan
Sher	Ayiq	Timsoh
Jirafa	Bo'ri	Kit
		Begemot
		Akula

Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga shu kabi mazmundagi test topshiriqlarni bajarish yuzasidan ko'nikma va malakalari shakllantirilib borilsa, o'quvchilarning matematik savodxonligi rivojlanishiga va xalqaro baholash dasturi tadqiqotlariga ma'lum ma'noda tayyorgarlik jarayoni olib borilgan bo'lar edi. Shu bilan birga o'quvchining kelajakdagi hayot yo'lida, kundalik turmush jarayonida uchraydigan muammolarni qiyinchiliklarsiz hal etishga, faqatgina o'zi tanlagan bir yo'nalishda kasb egasi bo'libgina qolmay, aqliy salohiyatidan kelib chiqib bir vaqtning o'zida turli xil hunar egallashiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. YUNESKO xalqaro me'yoriy hujjatlar // O'zbekcha nashrining mas'ul muharriri L.Saidova. – T.: Adolat, 2004, 19-62-betlar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabridagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» PF-5847-sonli Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprelidagi PF-5712-son O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019-y., 06/19/5712/3034-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi 997-son Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.12.2018-y., 09/18/997/2289-son.
5. Тoшпулатова М.И. Методика совершенствования профессиональной подготовки будущих учителей начальных классов. SCIENCE AND WORLD international scientific journal Volgograd-2014, № 2, 78-80 ст.
6. Toshpulatova M.I. Psychological And Pedagogical Conditions Of Formation Of Research Competences In ounger Schoolboys Jour of Adv Research in Dynamical & Control Systems, Vol. 12, Issue-06, 2020. Pages:1154-1158

Aziza AXMEDOVA,

TKTI O'zbek tili va professional ta'limi kafedrasida

katta o'qituvchisi,

Malika G'AFUROVA,

22-62PT guruhi talabasi

PEDAGOGIKANING DOLZARB MASALALARI YECHIMI HAQIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada pedagogikaning jamiyatdagi o'рни, ushbu sohoning dolzarb muammolari tahlil qilinadi. Bu muammolarni hal qilishning bir qancha usullari va bu fan tarixidan ma'lumotlar keltirilgan.


Kalit so'zlar: *pedagogika, ta'lim, yosh avlod, faoliyat, ahamiyat, kasb, tegishli, ota-ona, tajriba.*

Аннотация: в данной статье анализируется роль педагогики в обществе, актуальные проблемы данной отрасли. Приводятся несколько пути решений этих проблем и сведения из истории этой науки.

Ключевые слова: *педагогика, воспитание, подрастающее поколение, деятельность, значение, профессия, актуально, родители, опыт.*

Annotation: this article analyzes the role of pedagogy in society, current problems of this industry. Several ways to solve these problems and information from the history of this science are given.

Key words: *pedagogy, education, younger generation, activity, significance, profession, relevant, parents, experience.*



Mustaqil O'zbekistonimizda islohotlar tobora keng quloqch yoymoqda.

Hayotimizning barcha jabhalarida, jumladan yosh avlod ta'lim-tarbiyasida ham keskin o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ma'naviyatimizni qayta tiklash, yanada boyitish borasida umumxalq kurashi boshlandi. Quyosh nuriga zor bo'lgan allomalarimizning o'tmish qaridagi purma'no asarlari yorug'lik yuzini ko'rmoqda. Respublikamizning ijtimoiy, iqtisodiy kamoloti yosh avlodning sa'y-harakatlariga bog'liq ekanligi endi hech kimga sir emas. O'sib kelayotgan yosh avlod va ularning kelajakda qanday kasb-kor egallashlariga qarab, respublikamiz kelajagini tasavvur qilsa bo'ladi. Kelajak — yoshlarniki. Yoshlar faoliyati farovon hayotimiz mezonidir. Xuddi shu ma'noda yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga jiddiy e'tibor bermog'imiz lozim. Yoshlar ta'lim-tarbiyasi har bir ota-onaning, o'qituvchi-tarbiyachining Vatan oldidagi muqaddas burchlaridir.

Manbalarda yozilishicha, kishilik jamiyati paydo bo'lgach, ijtimoiy hayotda orttirilgan tajribalarni quyi avlodga o'rgatish ehtiyoji tug'ildi. Tajribalarning to'planishi natijasida ta'lim-tarbiyaning dastlabki omillari vujudga

keldi. Tabiat, ijtimoiy hayot haqidagi tajribalar asosida ma'lum bilimlar boyib bordi. Ta'lim-tarbiya ishlari bilan shug'ullanuvchi tarbiyachilar kasb-hunar homiyolari sifatida ajralib chiqqan boshlashdi. Ularning ta'lim-tarbiya borasidagi faoliyatlari va to'plagan tajribalaridan o'rinli foydalanishlari pedagogika fanining vujudga kelishiga olib keladi. Pedagogika ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari, ularning mazmuni, usullari hamda tashkil etish shakllari haqida ma'lumot beruvchi fanga aylandi. Pedagogika fani o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun ta'lim-tarbiyaning mazmuni, umumiy qonuniyatlari va amalga oshirish yo'llarini o'rgatuvchi fandır.

«Pedagogika» atamasi «Payne»—«bola» va «agogein»—«yetaklamoq» degan ma'noni bildiruvchi lotincha «daydagogos» so'zlaridan paydo bo'lishi quyidagicha izohlanadi: Eramizdan oldingi III—I asrlarda qadimgi Gretsiyada, quldorning bolasini ovqatlantiradigan, sayrga olib boruvchi, tabiat qo'ynida o'ynatuvchi tarbiyachi — qullar «pedagog» deb atalgan. U bolaning kamolga yetishiga mas'ul bo'lgan. Quldorning bolasini yetaklab maktabga olib borgan va olib kelgan. Maktabda ishlovchi o'qituvchilarni «didaskallar» (didayko—men o'qitaman) deyishgan. Feodalizm jamiyatiga kelib esa har ikki kasbdagi kishilar hamkorligi natijasida ta'lim-tarbiya bilan maxsus shug'ullanuvchilar vujudga kelgan. Ularni chex pedagogi Y. A. Kamenskiy ta'kidlaganidek, «pedagog» deb nomlaganlar va bu so'z hozir ham ta'lim-tarbiya beruvchi o'qituvchilarga nisbatan qo'llaniladi.

Pedagogika samarali bo'lishi uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar tizimini: bilim, bolani tushuna olish, kuzatuvchanlik, nutq malakasi, tashkilotchilik, kelajakni ko'ra bilish, diqqatni taqsimlay olish, vaziyatni to'g'ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan har xil ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etish, o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirish kabilar tashkil etadi. Kasbga doir topshiriq va vazifalarni yechish uchun o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish, unga rahbarlik qilishda pedagogik-psixologik ta'limot nuqtayi nazaridan yondashish, ta'lim-tarbiyani milliy an'analimiz ruhida zamonaviy metodlar asosida modellashtirish, o'quv-tarbiyaviy jarayonda ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish uchun o'qituvchi mahoratining zarurligi haqidagi ma'lumotlar va ularni takomillashtirish tizimlari o'rin olgan. Shunga ko'ra, Pedagogika kasbga oid bilim va qobiliyatlarni o'qituvchilarda shakllantirish, ijodkorlikni tarbiyalash, mahorat, ko'nikma va malakalarni egallashlari uchun, pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik, pedagogik nazorat, nutq madaniyati to'g'risida ma'lumotlar berib boradi.

Bu maqsad bo'lajak pedagoglar quyidagi vazifalarni muntazam bajarib borish orqali amalga oshiriladi:

1. Bo'lajak o'qituvchilar pedagogikaning nazariy va metodologik asoslari bilan qurollantiriladilar.

2. Pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik (muloqot), pedagogik nazorat, pedagogik qobiliyat, tarbiyachi mahorati, o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish, nutq madaniyati, pedagogik ijodkorlik kabi tarkibiy qismlari to'g'risidagi bilimlar tizimini egallaydilar.

3. Bo'lajak o'qituvchilar milliy urf-odat va an'analimizda va O'rta Osiyo mutafakkirlarining boy ijodiy meroslarida aks etgan pedagogik mahorat sirlarini mustaqil egallashga nisbatan o'zlarida ehtiyoj va havasni rivojlantirib boradilar.

4. Egallangan pedagogik-psixologik va metodik bilimlar, ko'nikma va malakalar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida har bir bo'lajak o'qituvchi o'zining shaxsiy pedagogik mahoratini shakllantiradi.

5. O'quv-tarbiyaviy jarayonni jahon andozalariga xos so'nggi zamonaviy metod va shakllar asosida tashkil etish va boshqarishni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslarini muntazam o'zlashtiradilar.

6. O'qituvchilar o'z kasbiy mahoratlarini takomillashtirish uchun shaxsiy-ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalarini egallaydilar.

7. Tarbiyachi mahoratining mohiyati, funksiyasi, tuzilishi to'g'risida o'qituvchilar uzluksiz ma'lumotlarni o'rganib boradilar.

8. Yuksak zamonaviy axborot texnologiyalari va internet tizimidan foydalanish asosida o'z kasbiy mahoratlarini shakllantiradilar.

Bu maqsad va vazifalarning hal etilishi pedagogikani zamon bilan hamnafas bo'lishga, yoshlarni tarbiyalash dardi bilan yashash va kelajakni aniq ko'ra olishga o'rgatadi. Har bir o'qituvchi shaxsida mamlakatimizning dolzarb muammolarini, maqsad va vazifalarini vijdonan tasavvur qilib, aniq bajarib borishi uchun shijoat bilan o'z imkoniyati, bilimi, tajribalarini ishga solishga o'rgatadi, hamda pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish malakalariga ega bo'lishni tarbiyalaydi.

Pedagogika – o'qituvchining shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, o'qituvchining ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyat bo'lib qolishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T., 2017.
2. В.А.Сластенин Общая педагогика. – Москва, 2003г.
3. П.И.Пидкасистый. Педагогика. – Москва, 2003г.

Feruz RAJABOV,
QarDU, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

O'ZBEK TILIDA OMONIM QO'SHIMCHALAR (AFFIKSAL OMONIMIYA)NING O'RGANILISHI VA TASNIFI

Annotatsiya: maqolada affiksali omonimiyaning alohida e'tibor berilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalardan ekanligi nutq madaniyatiga bag'ishlangan birinchi respublika tilshunoslari anjumanida alohida ta'kidlangani xususida so'z yuritiladi. Shuningdek, rus va roman-german tilshunosligida affiksali omonimiya masalasiga oid ba'zi fikrlar bahs va munozaralar doirasidan chiqib, darslik va qo'llanmalardan, ommabop nashrlardan ham o'rin olgani tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: omonimiya, tilshunoslik, manba, ta'lim, olimlar, munozara.

Аннотация: в статье говорится о том, что аффиксальная омонимия является одним из актуальных вопросов, которому следует уделить особое внимание на первой республиканской конференции лингвистов, посвященной культуре речи. Также анализируется, что в русском и романо-германском языкознании некоторые идеи по вопросу аффиксальной омонимии вышли за рамки дискуссий и дискуссий и заняли место в учебниках, пособиях, популярных изданиях.

Ключевые слова: омонимия, лингвистика, источник, образование, учёные, дискуссия.

Abstract: the article mentions the fact that affixal homonymy is one of the urgent issues that should be given special attention at the first republican conference of linguists dedicated to speech culture. It is also analyzed that in Russian and Romano-Germanic linguistics, some ideas on the issue of affixal homonymy have gone beyond the scope of debates and debates, and have taken place in textbooks, manuals, and popular publications.

Key words: homonymy, linguistics, source, education, scientists, discussion.

Ma'lumki, L.A.Bulaxovskin, V.V.Vinogradov,
Y.I.Shendels, A.Y.Shaykevich, L.Y.Yegerman,
G.P.Rixter, A.I.Vasilyev, K.A.Levkovskaya,
N.M.Shanskiy, V.A.Nikitevich L.A.Vvedenskaya,
O.S.Axmanova, K.A.Levkovskaya, N.L.Shanskiy,
M.D.Stepanova, N.M.Shanskiy, K.A.Levkovskaya,
V.K.Shigaryova, B.Yunusaliyev, A.Xasenova, M.
Mirtojiyev, R.Bekjonova kabi tilshunos olimlar
tomonidan olib borilgan ilmiy manbalarda aks etgan.

O'zbek tilshunosligida, umuman, affiksali omonimiyaga oid dastlabki fikrlar A.G'ulomovning ishlarida uchraydi. Unda affikslardagi shakliyl tenglik bir turkum doirasida ham, turli turkum doirasida ham, so'z yasovchi bilan so'z o'zgartuvchi orasida ham uchrashi mumkinligi ta'kidlangan.

O'zbek tilshunosligida 70-yillarga qadar affiksali omonimiyaning ba'zi masalalariga bag'ishlangan sanoqli ishlargina mavjud edi. Shulardan biri Y.D. Pinxasovning «Hozirgi zamon o'zbek tilida omonimiya va sinonimik affikslarga doir» nomli maxsus ishidir. Bu kichik tezisda o'nga yaqin affiksali formaning polisemantik va omonimik holatlari izohlangan. M.T.A'lamovning «Hozirgi zamon o'zbek tilida -(i) sh omomorfemasi haqida» maqolasini esa o'zbek tilidagi affikslar omonimiyasini maxsus o'rgangan dastlabki ishlardan desa bo'ladi. Maqolada -(i) sh omomorfemasining omonimik holatlari misollar asosida birma-bir ko'rsatib berilgan.

M.A'lamova shu masalaga bag'ishlangan keyingi ishida o'zbek tilidagi omomorfemalarni 3 turga ajratadi: affiks- affiks, affiks-yuklama, affiks-qisqargan

holat ko'rinishidagi omomorfemalar. Zero, affiksali omonimiya masalasini u yoki bu til materiali misolida o'rganish maqsad qilib qo'yilar ekan, o'sha tildagi barcha affiksali birliklar, qanday vazifa bajarishidan qat'i nazar, shakllari teng bo'lsa, o'zaro chog'ishtirib o'rganilishi shart. Busiz omoaffikslarni belgilashning maxsus mezonlarini ham aniqlash qiyin. Demak, affiksali omonimik holatni semantik mezon asosida belgilashda shakliyl tenglikka ega bo'lgan qo'shimchalarning qaysi tur o'zaklarga birikayotganligiga, qanday ma'no guruhiga mansub so'zlarni yuzaga keltirayotganligiga alohida e'tibor berish, bu hodisaning affiksali ko'p ma'nolilik bilan o'xshash va farqli tomonlarini o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Affiksali omonimiyaga oid ba'zi qarashlarni so'z yasalishi, umumiy leksikologiyaga bag'ishlangan ayrim ishlarda ham uchratish mumkin. So'z yasovchi suffikslar omonimiyasi haqida to'xtalib, bu hodisani affiksali polisemiyadan chegaralash haqidagi fikrlarini ilgari suradilar.

M.Jo'raboyeva «O'zbek tilida affiksali omonimiya» nomli ilmiy tadqiqot ishi shunday yo'nalish namunasi sifatida maydonga kelgan. Bu tadqiqotda o'zbek tilida affiksali omonimiya to'laqonli ochib berilgan.

O'zbek tilida 83 ta omoqatorga birlashgan 235 ta shakldosh affiks mavjud. Talaba va o'quvchilar amaliy mashg'ulotlarda, grammatik tahlil jarayonida, mana shu omoaffikslarni bir-biridan farqlay olmay qiynaladilar. Mavjud qo'llanmalarda esa affiksali omonimiya haqida umumiy va nihoyatda qissa ma'lumot berish bilan cheklaniladi. Holbuki, o'zbek

tilidagi har bir omoaffiksning tabiatini bilish ulardan har birining kelib chiqish sababini, ma'nodagi farqini aniq belgilab olishni taqozo qiladi. Zero, bunday qiyos so'z yasash tahlili, morfem tahlil, etimologik tahlil, so'z turkumlari tahlilini chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Shu sababli hozirgi o'zbek tilini o'qitilishida affiksial omonimiyaning mohiyati tavsiflab berish dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, bugungi kunda affiksial omonimiyaga yangi ilmiy qarashlar asosida yondashishni talab qiladi. Shu masala yuzasidan ushbu maqolamizda hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'shimchalarning tasnifiga binoan talqin keltirilgan va omonim qo'shimchalar tasnif qilindi. Bilamizki, amaldagi darslik, qo'llamalarda qo'shimchalar vazifasiga ko'ra ikki guruhga bo'lib tasnif qilinmoqda. Shu tasnifga, asosan, omonim qo'shimchalar guruhlarga bo'lib tasniflandi:

I. So'z yasovchi qo'shimchalar orasidagi omonimiya:

1. *Ot yasovchi va sifat yasovchi qo'shimchalar orasidagi omonimiya:* 1) – a: jizza, ko'tara; 2) – ak: g'ijjak, qirmizak; 3) – aki: tarsaki, xomaki; 4) – bin: folbin, kaltabin; 5) – bon: darvozabon, mehribon («i» harfi ortgan); 6) – boz: masxaraboz, va'daboz; 7) – diq: o'rindiq, tashlandiq; 8) – don: kuldon, qadrdon; 9) – dor: mulkdor, aybdor; 10) – dosh: sinfdosh, ohangdosh; 11) – gar: zargar, sitamgar; 12) – gi: supurgi, yozgi; 13) – gin: tizgin, g'amgin; 14) – gir: fazogir, sezgir; 15) – gich: ilgich, bilgich; 16) – gun: surgun, gulgun; 17) – go'y: kalimago'y, xushomadgo'y; 18) ham – : hamyurt, hamfikir; 19) – i: suyunchi, jannati; 20) – ik: ko'rik, egik; 21) – ildoq: chirildoq, akildoq; 22) – in: yig'in, to'kin; 23) – inch: qo'rqinch, shoshilinch; 24) – iq: chiziq, ochiq; 25) – im: bilim, ayrim; 26) – k: to'shak, chirik; 27) – kash: aravakash, mehnatkash; 28) – ki: tepki, kechki; 29) – kin: epkin, keskin; 30) – kor: paxtakor, fusunkor; 31) – l: qamal, tugal; 32) – lik: qarshilik, kiyimlik; 33) – m: to'plam, qaram; 34) – ma: tugma, yasama; 35) – on: to'zon, shodon; 36) – oq: o'roq, qo'rqqoq; 37) – os: uvvos, sharros; 38) – q: taroq, yumshoq; 39) – qi: chopqi, sayroqi; 40) – qin: to'lqin, sotqin; 41) – qich: ochqich, yirtqich; 42) – qoq: botqoq, yopishqoq; 43) – qun: uchqun, tutqun; 44) – uq: yutuq, yumuq; 45) – xo'r: merosxo'r, tekinox'o'r; 46) xush – : xushxabar, xushmanzara; 47) – g'in: quvg'in, so'lg'in; 48) – g'ich: chizg'ich, yulg'ich; 49) – g'oq: to'lg'oq, toyg'oq; 50) – loq: toshloq, ovloq; 51) – ch: quvonch, tinch; 52) – cha: qizilcha, farg'onacha; 53) – chak: belanchak, kuyunchak; 54) – chi: ishchi, ayirmachi; 55) – chiq: suyanchiq, qizg'anchiq; 56) – choq: o'yinchoq, erinchoq.

2. *Ot va fe'l yasovchi qo'shimchalar orasidagi omonimiya:* 1) – a: jizza, qona;

2) – i: suyunchi, tinchi; 3) – ik: ko'rik, birik; 4) – in: yig'in, berkin; 5) – iq: chiziq, yo'liq; 6) – it: chiqit, berkit; 7) – ot: ma'lumot, yo'qot; 8) – q: bo'yoq, orziq («u» «i»ga almashgan); 9) – chi: ishchi, ko'pch; 10) – t: qurt

(quri+t=qurt), to'lat.

3. *Ot va ravish yasovchilar orasidagi omonimiya:* 1) – a: jizza, chippa; 2) – aki: tarsaki, yodaki; 3) – in: yig'in, oldin; 4) – un: tugun, ostin-ustun; 5) – cha: qizilcha, o'zicha.

4. *Sifat va fe'l yasovchilar orasidagi omonimiya:* 1) – a: ko'tara, qona; 2) – an: tuban, kuchan; 3) – i: jannati, tinchi; 4) – ik: egik, birik; 5) – in: to'kin, berkin; 6) – iq: ochiq, yo'liq; 7) – q: yumshoq, orziq («u» «i»ga almashgan); 8) – qir: topqir, hayqir; 9) – chi: ayirmachi, ko'pch; 10) – qa: loyqa, ochqa.

5. *Sifat va ravish yasovchi qo'shimchalar orasidagi omonimiya:* 1) – a: ko'tara, chippa; 2) – an: tuban, umuman; 3) – aki: xomaki, yodaki; 4) ba –: bama'ni, qadam-baqadam; 5) bar –: barqaror, barvaqt; 6) be –: bedavo, betinim; 7) – day: kaftday, o'qday; 8) – dek: balodek, shamoldek; 9) – in: to'kin, oldin; 10) – li: baxtli, vaqtli; 11) – namo: darveshnamo, uyalgannamo; 12) no –: nosha'riy, noiloj; 13) – simon: sharsimon, erkalangansimon; 14) – siz: tuzsiz, to'xtovsiz; 15) – cha: farg'onacha, o'zicha; 16) – chan: yashovchan, mahsichan.

6. *Fe'l va ravish yasovchi qo'shimchalar orasidagi omonimiya:* 1) – a: qona, chippa; 2) – an: kuchan, umuman; 3) – in: berkin, oldin.

7. *Ot, sifat va ravish yasovchi qo'shimchalar orasidagi omonimiya:* 1) – a: jizza, ko'tara, chippa; 2) – aki: tarsaki, xomaki, yodaki; 3) – in: yig'in, to'kin, oldin.

8. *Ot, sifat va fe'l yasovchi qo'shimchalar orasidagi omonimiya:* 1) – a: jizza, ko'tara, qona; 2) – i: suyunchi, jannati, tinchi; 3) – ik: ko'rik, egik, birik; 4) – in: yig'in, to'kin, berkin; 5) – iq: chiziq, ochiq, yo'liq; 6) – q: taroq, yumshoq, orziq («u» «i»ga almashgan); 7) – chi: ishchi, ayirmachi, ko'pch.

9. *Ot, ravish va fe'l yasovchi yasovchi qo'shimchalar orasidagi omonimiya:*

1) – a: jizza, chippa, qona; 2) – in: yig'in, oldin, berkin.

10. *Sifat, ravish va fe'l yasovchi qo'shimchalar orasidagi omonimiya:*

1) – a: ko'tara, chippa, qona; 2) – an: tuban, umuman, kuchan; 3) – in: to'kin, oldin, berkin.

11. *Ot, sifat, ravish va fe'l yasovchi qo'shimchalar orasidagi omonimiya:*

1) – a: jizza, ko'tara, chippa, qona; 2) – in: yig'in, to'kin, oldin, berkin.

Yordamchi so'z turkumlari orasidagi omonimiya:

1. Ko'makchilar va yuklamalar orasidagi omonimiya:
– la: qalam-la oldi (qalam bilan oldi), kelib-la ketdi (kelib ketdi).

Xulosa qilib aytganda, omonim qo'shimchalarni bunday tasnif qilib o'rganish tilshunoslikning boshqa bo'limlari: so'z yasalishi, morfemika, morfologiya bilan bog'liq bo'lib, o'quvchi yoki talaba uchun bu bo'limlarni ham chuqurroq o'rganishga talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tili nutq madaniyatiga bag'ishlangan respublika tilshunoslik konferensiya. – Toshkent, 1969.
 2. Jo'raboyeva M. O'zbek tilida affiksial omonimiya. (O'quv qo'llanma, I qism) – T.: ToshDU, 1992.
 3. Jo'raboyeva M. O'zbek tilida affiksial omonimiya. (O'quv qo'llanma, I qism) – T.: ToshDU, 1992.
 4. Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm ziyo, 2015.
 5. Mengliyev B. Ona tili (Qomus). – Toshkent, 2009.
 6. Rajabov F. Omonimiya. – Toshkent: Yangi kitob nashriyoti, 2019.
 7. Tursunov U. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 1992.
- O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.

Sevara BOZOROVA,

“TIQXMMI” Milliy tadqiqotlar universitetining
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti o'qituvchisi

TINISH BELGILARIGA AMERIKA VA INGLIZ TILSHUNOSLARINING YONDASHUHLARI

Annotatsiya: tinish belgilari kichik, ahamiyatsiz belgilardek tuyulishi mumkin, ammo ular yozma muloqotda muhim rol o'ynaydi. Tinish belgilari jumlaning yakunini ko'rsatishdan tortib, urg'u berish, ma'noni aniqlashtirish, o'quvchini matn bo'ylab yo'naltirish va mo'ljallangan xabarni yetkazishga yordam beradi. Ushbu maqolada tinish belgilari va ularning qo'llanilishi bo'yicha amerikalik va ingliz tilshunoslarining o'z asarlari orqali taklif etayotgan mulohaza va yondashuvlarini ko'rib chiqamiz.

Tayanch so'z va iboralar: *orfografiya, pragmatik yondashuv, kommunikativ maqsad, retseptiv yondashuv, apostrof*

Annotation: Punctuation may seem like small, unimportant symbols, but they play an important role in written communication. Punctuation marks help with everything from marking the end of a sentence to giving emphasis, clarifying meaning, guiding the reader through the text, and conveying the intended message. In this article, we will consider the opinions and approaches offered by American and English linguists through their works on punctuation marks and their use.

Key words and phrases: *orthography, pragmatic approach, communicative purpose, receptive approach, apostrophe*

Аннотация: Пунктуация может показаться маленькими и неважными символами, но они играют важную роль в письменном общении. Знаки препинания помогают во всем: от обозначения конца предложения до выделения акцента, разъяснения смысла, руководства читателем по тексту и передачи предполагаемого сообщения. В этой статье мы рассмотрим мнения и подходы, предложенные американскими и английскими лингвистами в их работах о знаках препинания и их использовании.

Ключевые слова и фразы: *орфография, прагматический подход, коммуникативная цель, рецептивный подход, апостроф*

Tinish belgilarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi “orfografiya” deb ataladi, ya'ni yozma tildagi yozuv tizimlari, jumladan, alifbolar, bo'g'inlar, shuningdek, imlo va tinish belgilarining qo'llanilish qoidalarini o'rganadi. Orfografiya yozma tilni shakllantirish va samarali muloqotni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tinish belgilari va yozuv tizimlarining boshqa jihatlarini o'rganish orqali tilshunoslar til qanday tuzilganligi va uning vaqt o'tishi bilan rivojlanishini chuqurroq tushunishlari mumkin. Taniqli amerikalik kognitiv olim va tilshunos Stiven Pinker o'zining “Uslub hissi: 21-asrda fikr yurituvchi shaxsning yozish bo'yicha qo'llanmasi” kitobida yozuvning turli jihatlarini, jumladan, tinish belgilarini o'rganadi. Kitobda

Pinker zamonaviy davrda samarali va nafis yozish bo'yicha tushuncha va tavsiyalar beradi. [2:102]. Pinkerning ta'kidlashicha, tinish belgilari shunchaki ixtiyoriy qoidalar to'plami emas, balki yozuvchilarga mo'ljallangan ma'no va ohangni yetkazishga yordam beradigan tizimdir. U yozishda tiniqlik va izchillik muhimligini, tinish belgilarining bu maqsadlarga erishishga qanday hissa qo'shishini tushuntiradi.

Pinker, shuningdek, tinish belgilari haqidagi keng tarqalgan noto'g'ri tushunchalarni muhokama qiladi va vergul, nuqtali vergul, tire kabi tinish belgilaridan qanday foydalanish bo'yicha amaliy maslahatlar beradi. U yozuvchilarni tinish belgilarining moslashuvchanligini qabul qilishga va undan yozuv uslubini yaxshilash

uchun vosita sifatida foydalanishga undaydi. [2:105]

Vaholanki, Pinker tinish belgilariga oid eskirgan ko'rsatmalar va tushunchalarga qat'iy rioya qilishga qarshi. U aniq muloqot maqsadlariga mos keladigan yanada moslashuvchan va pragmatik yondashuv tarafdori. Quyida Pinker taqdim etgan bir nechta asosiy fikrlar mavjud:

1. Ta'riflovchi yondashuv

Pinker tinish belgilaridan qanday foydalanishni belgilaydigan faqat ko'rsatuvchi qoidalarga tayanishdan ko'ra, samarali yozishda tinish belgilaridan qanday foydalanilishini kuzatuvchi tavsiflovchi yondashuvni qo'llashni taklif qiladi. Malakali yozuvchilarning qo'llagan tinish belgilarini o'rganish orqali tinish belgilaridan qanday samarali foydalanishni yaxshiroq tushunishimiz mumkin.

2. Tinish belgilari san'ati

Pinker tinish belgilari yozuvda tiniqlik va ma'noni kuchaytirish vositasi bo'lib xizmat qilishi kerakligini ta'kidlaydi. U yozuvchilarni tinish belgilarini o'quvchilar uchun qo'llanma sifatida ko'rishga undaydi, ularga matnni o'qishda va muallifning mo'ljallangan ma'nosini tushunishda yordam beradi. Tinish belgilari ritm yaratish, pauzalarni ko'rsatish, so'zlar va iboralar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash uchun ishlatilishi kerak.

3. Vergul va nuqtali vergul

Pinker vergul va nuqtali verguldan foydalanish bo'yicha ba'zi an'anaviy qoidalarga e'tiroz bildiradi. Uning ta'kidlashicha, ulardan foydalanish bilan bog'liq qat'iy qoidalar yozma ravishda aniqlik va oqimga to'sqinlik qilishi mumkin. Buning o'rniga, u ushbu tinish belgilaridan uyg'unlikni saqlab, fikrdagi tabiiy pauza va tanaffuslarni aks ettiradigan tarzda ishlatishni taklif qiladi.

4. Kontekstga oid mulohazalar

Pinker tinish belgilarini tanlashda o'z yozuvining mazmuni va maqsadini hisobga olish muhimligini ta'kidlaydi. Turli janrlar va uslublar turli xil tinish belgilarini talab qilishi mumkin. Maqsadli auditoriyani va aniq kommunikativ maqsadlarni yodda tutish tinish belgilaridan to'g'ri foydalanishga yordam beradi. [2:110]. Demak, Pinkerning "Uslub hissi: 21-asrda fikr yurituvchi shaxsning yozish bo'yicha qo'llanmasi" kitobida keltirilgan tinish belgilari haqidagi nazariyalarini ko'rib chiqdik. Pinker tinish belgilariga nisbatan moslashuvchan va pragmatik yondashuv tarafdori bo'lib, uning yozuvdagi ravshanlik va ma'noni kuchaytirishdagi rolini ta'kidlaydi. U yozuvchilarni tavsifiy yondashuvni qo'llashga va tinish belgilarini tanlashda kontekst va maqsadni hisobga olishga undaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, bu fikrlar Stiven Pinkerning "Uslub hissi: 21-asrda fikr yurituvchi shaxsning yozish bo'yicha qo'llanmasi" kitobidagi tinish belgilariga oid fikrlarining qisqacha mazmunini ifodalaydi.

Shuningdek, tinish belgilari va uning zamonaviy yozuvdagi roli haqida yangi nuqtai nazarni taklif etadi. Bu o'z yozuv mahoratini oshirish va yozma til orqali samarali muloqot qilish san'atini o'zlashtirishni istagan har bir kishi uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Ingliz yozuvchisi va jurnalisti Lin Truss esa o'zining "Tinich belgilariga nol tolerantlik yondashuvi" kitobida an'anaviy qoidalar va standartlarga qat'iy rioya qilishni talab qilib, tinich belgilariga ko'proq retseptiv yondashuvni qo'llaydi. U tinich belgilarining to'g'ri qo'yilishi orqali yozuvda tiniqlik va izchillikni saqlash, shuningdek, insonning bilim darajasi va tafsilotlarga tasvirlay olishi muhimligini ta'kidlaydi. [3:64]

Truss tinich belgilarini o'z o'rnida, to'g'ri qo'llash kerakligini va zamonaviy yozuvda tinich belgilaridan noto'g'ri foydalanish holatlari ko'p uchrayotganligini yozadi. U tinich belgilarining keng tarqalgan xatolariga ko'plab misollar keltiradi va tinich belgilaridan to'g'ri foydalanish bo'yicha aniq ko'rsatmalar beradi.

Darhaqiqat, Trussning yondashuvi Pinkernikiga qaraganda ancha qat'iy va an'anaviy deb hisoblanishi mumkin. O'z navbatida, uning kitobi yozishda aniqlik va belgilangan qoidalarga rioya qilishni birinchi o'ringa qo'yadiganlar uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Unda tinich belgilarining nozik jihatlarni o'zlashtirish va samarali muloqotda uning ahamiyatini saqlash bo'yicha keng qamrovli qo'llanma taqdim etilgan. Ushbu kitobida Truss an'anaviy tinich belgilariga rioya qilish muhimligi haqida ishonchli dalil taklif qiladi. [3:66] Ba'zilar uning yondashuvini qat'iy va an'anaviy deb hisoblasa-da, uning kitobi yozishda aniqlikni birinchi o'ringa qo'yadiganlar uchun qimmatli yo'l-yo'riq beradi. Quyida Truss targ'ib qiladigan muhim fikrlar berilgan:

1. Tinich belgilarining ahamiyati shundan iboratki, tinich belgilari shunchaki o'zboshimchalik bilan belgilangan qoidalar to'plami emas, balki ma'noni samarali etkazishga yordam beradigan tilning muhim jihati hisoblanadi. Uning ta'kidlashicha, noto'g'ri qo'yilgan yoki e'tiborsiz qo'llanilgan tinich belgilari chalkashlik va noto'g'ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin.

2. Truss apostrofga alohida e'tibor beradi, chunki aynan apostrof ko'pincha noto'g'ri qo'llaniladigan yoki e'tibordan chetda qoladigan tinich belgisi hisoblanadi. Bu tinich belgisi ingliz tilida so'zlarning qisqartma shakllarida (I'm, she's, you're) va egalik shaklini ifodalashda (Tom's, my daughter's) ishlatiladi. [1:211] Yozuvchi apostrof bilan bog'liq keng tarqalgan xatolarni ta'kidlaydi va ularning oldini olish bo'yicha ko'rsatmalar beradi.

3. Truss ko'p qirrali tinich belgisi – vergul va uning pauzalarni ko'rsatish, gaplarni ajratish va ma'noni aniqlashdagi rolini muhokama qiladi. U vergul bilan bog'liq keng tarqalgan tushunmovchiliklarni ko'rib chiqadi va verguldan to'g'ri foydalanish bo'yicha

takliflar beradi. [3:70]

Shuni ta'kidlash kerakki, Trussning kitobi, birinchi navbatda, Britaniya tinish belgilariga qaratilgan bo'lib, ular Amerika tinish belgilaridan biroz farq qilishi mumkin. Umuman olganda, imlo va tinish belgilariga oid munozaralar samarali yozma muloqotda ushbu elementlarning ahamiyatini ta'kidlaydi. Ular ma'noni yetkazish, ravshanlikni targ'ib qilish va o'quvchilar bilan muvaffaqiyatli muloqotni osonlashtirish uchun

vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, tinish belgilarini to'g'ri qo'llay olish uchun mashq qilish, tafsilotlarga e'tibor berish va ma'lum bir tilga xos qoidalar bilan tanishish talab etiladi. O'qish, yozish mashqlari va boshqalarning fikr-mulohazalarini izlash bilan shug'ullanish bu ko'nikmalarni yaxshilashga katta hissa qo'shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Crystal, David. "Punctuation." The Cambridge Encyclopedia of Language, Cambridge University Press, 1987, pp. 211-215.
2. Pinker, Steven. The Sense of Style: The Thinking Person's Guide to Writing in the 21st Century. Penguin Books, 2015.
3. Truss, Lynne. Eats, Shoots & Leaves: The Zero Tolerance Approach to Punctuation. Gotham Books, 2004.
4. <https://web.stanford.edu/>

Firuz SAFAROV,
*Buxoro davlat universiteti doktoranti (DSc),
 filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

O'ZBEK ADABIY TILIDA II SHAXS MA'NOSINI BILDIRUVCHI VOSITALAR MA'NODOSHLIGI

Annotatsiya: maqolada o'zbek adabiy tilidagi II shaxs ma'nosini bildiruvchi vositalar ma'nodoshligi va ma'nodosh vositalarning nutq (gap, matn)da qo'llanishi tahlil qilinadi. Shaxs ma'nosining nutqda bitta, ikkita, uchta vosita bilan ifodalanishi bayon qilinadi. Shu bilan bog'liq ravishda kishilik, o'zlik olmoshining tejab tejalmay ishlatilishiga e'tibor qaratiladi. Shuningdek shaxs ma'nosini bildiruvchi vositalarning almashinib qo'llanishi, umumlashishi, shaxs ifodalaydigan shakllarning kontekst yordamida shaxs ma'nosini ifodalashi ham tahlil qilinadi. Uzvli tahlil tuslovchi vositalar va kishilik, o'zlik olmoshi ikki xil ma'nosi (shaxs, son va hurmat) o'zaro o'xshash ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *shaxs ma'nosi, so'z va qo'shimcha ma'nodoshligi, ma'nodosh vositalarning denotativ xususiyati, ma'nodosh vositalarning konnotativ xususiyati, kishilik olmoshi, subyekt, tema, rema, II shaxs vositalari paradigmatic xususiyatining o'zgarishi.*

Аннотация: в статье анализируется синонимия средств второго лица в узбекском литературном языке и употребление таких средств в речи (предложении, тексте). Излагается выражение значения II лица в речи одним, двумя, тремя средствами. В связи с этим обращается внимание на экономное употребление личных местоимений. Также анализируются употребление форм первого лица в значении других лиц, обобщение значения средств, выражающих первое лицо, выражение значения лица с помощью контекста форм, не выражающих лица. Компонентный анализ показывает, что три значения (лицо, число и уважение) аффиксов спряжения и личных местоимений совпадают.

Ключевые слова: *значение лица, синонимия слов и аффиксов, денотативное свойство синонимичных средств, коннотативное свойство синонимичных средств, личное местоимение, субъект, тема, рема, изменение парадигматического свойства средств II лица.*

Abstract: the article analyzes the synonymy of second person means in the Uzbek literary language and the use of such means in speech (sentence, text). The expression of the meaning of the first person in speech is described by one, two, three means. In this regard, attention is drawn to the economical use of personal pronouns. Also analyzed are the use of second person forms in the meaning of other persons, the generalization of the meaning of means expressing the first person, the expression of the meaning of a person using the context of forms that do not express faces. Component analysis shows that the three meanings (person, number and respect) of conjugation affixes and personal pronouns are the same.

Key words: *meaning of a person, synonymy of words and affixes, denotative property of synonymous means, connotative property of synonymous means, personal pronoun, subject, theme, rheme, change in the paradigmatic property of means of the second person.*

Kirish. 20-asr an'anaviy o'zbek tilshunosligida til hodisalarining xususiyati ko'p holda o'zbek tilining o'ziga xos qurilishiga emas, rus tili qolip va andozalariga tayanib belgilandi. Oqibatda rus tilshunosligidagi kabi so'z bilan so'zning, qo'shimcha bilan qo'shimchaning ma'nodoshligi o'rganildi-yu so'z bilan qo'shimchaning ma'nodosh bo'lishi e'tibordan chetda qoldi [2: 231]. G'. Zikrillayev Istiqlol va ona tili qurilishi ta'limi to'plamida so'z va qo'shimcha ma'nodoshligini quyidagicha izohlaydi: Ko'pchilik qo'shimcha asli so'z bo'lganidan ular orasida ma'nodoshlik mavjud. Shunga ko'ra ayrim so'zdan anglashiladigan ma'no qo'shimcha bilan ham ifodalanadi. Shaxs, son va hurmat ma'nosi bunga misol bo'ladi, ularni -m, -man, -(a)y va men; -ng, -san va sen; -k, -miz, -(a)ylik va biz; -siz, -(i)ngiz va siz anglatadi. Ta'kid nazarda tutilmasa gapda olmosh qo'llanmaydi, faqat qo'shimcha ishlatiladi: Keldim. Olding. Borasiz. Demak bunday holda so'z tejaladi. Uning ma'nosini ham qo'shimcha anglatadi. Shunga ko'ra ega tushib qoldi deyish to'g'ri bo'lmaydi. [1: 59 – 60]. Aytilganlardan ko'rinadiki so'z va qo'shimcha ma'nodoshligi o'zbek adabiy tili qurilishining bosh xususiyati (tejamkorlik) bilan bog'liq bo'lib muayyan ma'no qo'shimcha bilan ifodalansa ta'kid nazarda tutilmaganda unga ma'nodosh so'z tejaladi. Bu maqolada II shaxs ma'nosini bildiruvchi vositalar ma'nodoshligi, ularning nutq (gap, matn) da qo'llanib bir-birining ma'nosini oydinlashtirishi va kuchaytirishi tahlil qilinadi.

Asosiy qism. O'zbek adabiy tilida II shaxs ma'nosi quyidagi vositalar bilan ifodalanadi: 1) fe'ning o'zak, negizi, 2) tuslovchi qo'shimchalar (-san, -ng, -siz, -ngiz, -sanlar, -sizlar, -nglar, -ngizlar, -(i)nglar, -(i)ngizlar, -laring), 3) kishilik olmoshi (sen, siz, senlar, sizlar) 4) o'zlik olmoshi (o'zing, o'zingiz, o'zlaring, o'zlaringiz), 5) egalik qo'shimchasini olgan jamlovchi, ayiruvchi, so'roq olmoshi (hammangiz, har biringiz, qaysingiz, nechtangiz), 6) otning o'zak, negizi (undalma vazifasida), 7) harakat nomi, sifat-dosh (borishing, borganing).

Uzvi tahlil fe'ning o'zak, negizi, tuslovchi qo'shimchalar bilan II shaxs kishilik, o'zlik olmoshlariining uch xil grammatik ma'nosi (shaxs, son va hurmat) o'xshash ekanligini ko'rsatadi. Bu esa ularni o'zaro ma'nodosh (sistem, paradigmatic sinonim) deb qarashga imkon beradi.

Ma'nodosh vositalarning o'zaro farqini aniqlashga I shaxs vositalari kabi kontekstual va matniy tahlil imkon beradi. Kontekstual va matniy tahlil ularning uslubiy (konnotativ) xususiyati mos kelmasligini ko'rsatadi. Ma'nodosh vositalardan fe'ning o'zak, negizi, shaxs, son va hurmat qo'shimchalari kesimlikni shakllantirib ish-harakat bajaruvchisi (subyekt, ega)ni ham anglatadi. Gapda asosan tejalmaydi. Kishilik (va o'zlik – F. S.) olmoshi subyekt (ega)ni ta'kidlash uchun xizmat qilganidan tejab ishlatiladi [2: 237].

Kishilik va o'zlik olmoshining qo'llanib qo'llanmasligi

bayonning hissiy-nohissiyliги aniqroq qilib aytganda tuslanish vositasi (kesimni shakllantiruvchi vosita)ning valentligi va gapning aktual (kommunikativ, nutqiy) bo'linishi bilan bog'liq. Nutqiy maqsadu vazifa ixcham tarzda xabar (fikir, so'roq, buyruq, istak) bildirishni taqozo qilsa o'zbek tilida gap birgina so'zdan iborat bo'ladi. Bu so'z asosan kesim vazifasini bajaradi. Demak bunday gapda aktual bo'linishning ikkala uzvi (tema va rema) ayni bir vositada mavjud bo'ladi. Nutqiy amal temani konkretlashtirishni taqozo etsa mikro- yoki makrokontekstda lug'aviy vosita (olmosh) qo'llanadi.

Tinglovchini ta'kidlash (temani oydinlashtirish yoki rema sifatida ko'rsatish) zarur bo'lmasa II shaxs ma'nosi fe'ning o'zak, negizi tuslovchi qo'shimcha bilan ifodalanadi. Bunda eng kichik gap birgina so'z (kesim)dan iborat bo'ladi. Bunday gapning ixcham ko'rinishi mustaqil fe'ning o'zagidan iborat. Kontekstual tahlil nuqtayi nazaridan bunday gap hajmiga ko'ra minimal kontekst, xususiyatiga ko'ra betaraf kontekst hisoblanadi. Quyidagi misollarda tinglovchi ma'nosi mustaqil fe'ning o'zagi orqali ifodalangan: – Tur! (S. Ahmad, Ufq, 9) [– Endi men nima qilayin?] – Qoch. (T. Murod, Otamdan qolgan dalalar, 24) Ikkala misolda ham sen olmoshi tejalgan. Fe'ning o'zagidan tinglovchi ma'nosidan tashqari son (birlik), buyruq, kelasi zamon, tasdiq, hurmatga betaraflik, bosh nisbat, tarz (aspekt)ga betaraflik ma'nolari anglashilib qo'shimcha va so'z (olmosh) tejalgani, shu bilan birga u fikr ifodalab gap bo'lib kelganidan tejamkorlik oliy darajada namoyon bo'ladi.

Bir so'zdan iborat gapda tinglovchi ma'nosi tuslovchi qo'shimcha bilan ifodalanishi mumkin: – Ikrommisan? (S. Ahmad, Ufq, 7) Bu gapda ot va yuklama (Ikrommi) remani, -san tuslovchi qo'shimchasi temani bildirib kelgan. Bunda ham tejamkorlik mavjud bo'lib sen olmoshi tejalgan. Quyidagi misollarda sen, senlar, siz, sizlar olmoshlari tejalgan: – Ketmaysanmi? (S. Ahmad, Ufq, 164) – Keldilaringmi? (S. Ahmad, Ufq, 127) – Tanimayapsizmi? (T. Murod, Otamdan qolgan dalalar) – Qo'rqmanglar. (Sh. Xolmirzayev, Ot yili, 447)

Yuqoridagi misollarda faqat ega tejalgan bo'lsa quyidagi misollarda bundan tashqari to'ldiruvchi (obyekt) ham tejalgan: [–O'zbekcha gapiravering.] Bilasiz-ku. (S. Ahmad, Ufq, 88) [– Trassada edim. Esh polvonni iniga tiqib kelyapman.] – Urdingmi? (S. Ahmad, Ufq, 188) Birinchi misolda qo'llanmagan to'ldiruvchi oldingi gapda hol bo'lib kelgan. Ikkinchi misolda to'ldiruvchi oldingi gapda mavjud. Shuning uchun bu gaplarda bu bo'lak qo'llanmagan.

Mikromatnda ham subyektini ta'kidlash zarur bo'lmasa II shaxs ma'nosi tuslanish vositalari bilan ifodalanib olmosh tejaladi: – Yana o'zing bilasan, o'g'lim. Jigarchilik, bir kun kelib afsus qilib yurmasang bo'lgani. Yoshsan, bolasan, bilmaysan. Otaga farzand dog'i qanaqa bo'lishini bilmaysan. Bu gaplarni ota bo'lganingda bilasan. (S. Ahmad, Ufq, 41) Bu mikromatnda faqat birinchi gapda o'zlik olmoshi

qo'llanib qolgan gaplarda kishilik olmoshi (sen) tejalgan.

Nutqiy maqsadu vazifa tinglovchini ta'kidlashni taqozo qilsa gap, matnda olmosh (sen, siz, senlar, sizlar, o'zing, o'zingiz, o'zlaring) ishlatiladi. Bunday gap, matn II shaxs vositalari uchun oydinlashtiruvchi kontekst hisoblanadi. Bunday holda gap kamida so'zdan iborat bo'ladi: – Sen boraver. (S. Ahmad, Ufq, 35) – Siz bormaysiz. (S. Ahmad, Ufq, 535) Maqsad tinglovchini ta'kidlash bo'lganidan ikkala misolda ham olmosh (sen, siz) qo'llangan. Bu olmoshlar tema vazifasini bajaruvchi qo'shimcha ma'nosini ta'kidlaydi.

Tinglovchi so'zlovchi bilan qiyoslanganda, qarama-qarshi qo'yilganda ham ta'kid nazarda tutilganidan olmosh qo'llanadi: – Yo'q, oyim ruxsat bermaydilar, men yoshman, siz qarisisiz... (M. M. Do'st, Galatepaga qaytish) – Sen bormasang, o'zim ketaman. (S. Ahmad, Ufq, 536) Birinchi misolda so'zlovchi o'zini tinglovchi bilan yosh jihatdan qiyoslayapti. Ikkinchi misolda esa so'zlovchi o'zini tinglovchiga qarama-qarshi qo'yyapti. Shuning uchun birinchi gapda men va siz, ikkinchi misolda sen va o'zim olmoshlari qo'llangan. Tinglovchi o'zga bilan ham qiyoslanishi mumkin: – Odamlar ishini qilib tushlikka chiqdi. Sen hali ham bolishdan boshingni uzmapsan. Ahmoq! (S. Ahmad, Ufq, 9) Bu misolda ta'kid nazarda tutilganidan birinchi gapda subyekt ot bilan, ikkinchi gapda olmosh bilan ifodalangan.

Tinglovchini ta'kidlash olmoshni qo'llash va uning o'rnini o'zgartirish bilan ham amalga oshirilishi mumkin: Tuproqni senlar qazimaysanlar, Jo'ravoy aka ikki yigit beradi. (S. Ahmad, Ufq, 121) Maqsad tinglovchini ta'kidlash bo'lganidan senlar olmoshi qo'llanib kesim oldiga olib borib qo'yilgan. Bunday holda olmosh rema tarkibiga kiradi.

Rema vazifasidagi olmosh mikromatnda ham ta'kidni kuchaytirish uchun bir necha marta qo'llanishi mumkin: Butun umrini, jonini, rohatini bag'ishlagan onaga shumi mukofot? Alifdek qomatini sen bukding, yuzlariga ajinlarni sen solding, ko'zlaridagi nurni sen o'g'irlading, shu yorug' dunyoni qorong'i zindon qilding. (S. Ahmad, Ufq, 466) Bu misolda so'zlovchi ota (Ikromjon), tinglovchi uning urushdan qochib to'qayda yashirilib yurgan o'g'li (Tursunboy). Onasi Tursunboy och qolmasin deb kasalligiga qaramay unga har kuni ovqat olib boradi. Oxiri farzandini o'ylab chekkan ruhiy azoblari va kasallik tufayli aqldan ozib vafot etadi. Tursunboy onasini dafn etishga olib ketayotganlarini ko'ra turib to'qaydan chiqmay loqayd qarab turadi. Ikromjon o'g'liga onang o'ldi deganida u bilaman. Ko'mishga olib olib ketayotganlaringda ko'rib turgan edim deydi. Shunda ota o'zini yo'qotib qo'yib alam, nafrat bilan o'g'liga yuqoridagi gaplarni aytadi. Olmoshning kesim oldida qo'llanib bir necha marta takrorlangani tinglovchini yuqori darajada ta'kidlab oydinlashtiruvchi kontekst hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyot

1. Зикриллаев Ф. Истиқлол ва адабий тил. –Тошкент: Фан, 2004.
2. Зикриллаев Ф. Рух ва тил. –Тошкент: Фан, 2018.

ko'rsatadi va so'zlovchining his-tuyg'usi (salbiy munosabati)ni ko'rsatishga xizmat qiladi. Binobarin olmosh konnotatsiya ifodalashga xizmat qilgan.

Oydinlashtiruvchi kontekstda tinglovchi turli vosita orqali konkretlashtirilishi ham mumkin. Quyidagi misolda tinglovchi turdosh ot vositasida konkretlashtirilgan: – **O'g'lim, turdingmi.** (S. Ahmad, Ufq, 12) Otning o'zagi aslida III shaxsni bildiradi. Bu gapda noqulay vosita (fe'ning II shaxs shakli) ta'sirida tinglovchini bildiriyapti. Aniqlashtiruvchi vosita vazifasini atoqli ot ham bajaradi. Atoqli ot yakka shaxsning nomini bildirganidan tinglovchining kimligini juda aniq ko'rsatadi: – **Jannat, Ikromga o'zing xabar qil.** (S. Ahmad, Ufq, 13) Bir gapda ham turdosh ham atoqli ot qo'llanishi mumkin. Bunda tuslovchi qo'shimcha bilan ifodalangan tinglovchi turli jihatdan oydinlashtiriladi: **Tursunboy, bolaginam, qanisan?** (S. Ahmad, Ufq, 9) Bir gapda turdosh ot bilan birga kishilik olmoshi qo'llanadi. Bunday holda turdosh ot tinglovchini oydinlashtirishga, kishilik olmoshi esa uni ta'kidlashga xizmat qiladi: – **Otaxon, siz Aziz polvonning dadasimisiz?** (S. Ahmad, Ufq, 112) Kesim bo'lib kelgan so'z (dadasini) ham tinglovchini aniqlashtirib kelyapti.

Xulosa. O'zbek adabiy tilida II shaxs ma'nosi quyidagi vositalar bilan ifodalanadi: 1) fe'ning o'zak, negizi, 2) tuslovchi qo'shimchalar (-san, -ng, -siz, -ngiz, -sanlar, -sizlar, -nglar, -ngizlar, -(i)nglar, -(i)ngizlar, -laring), 3) kishilik olmoshi (sen, siz, senlar, sizlar) 4) o'zlik olmoshi (o'zing, o'zingiz, o'zlaring, o'zlaringiz), 5) egalik qo'shimchasini olgan jamlovchi, ayiruvchi, so'roq olmoshi (hammingiz, har biringiz, qaysingiz, nechtangiz), 6) otning o'zak, negizi (undalma vazifasida), 7) harakat nomi, sifatdosh (borishing, borganing). Uzvli tahlil fe'ning o'zak, negizi, tuslovchi qo'shimchalar bilan II shaxs kishilik, o'zlik olmoshlarining uch xil grammatik ma'nosi (shaxs, son va hurmat) o'xshash ekanligini ko'rsatadi. Bu esa ularni o'zaro ma'nodosh (sistem, paradigmatic sinonim) deb qarashga imkon beradi. Ma'nodosh vositalarning o'zaro farqini aniqlashga I shaxs vositalari kabi kontekstual va matniy tahlil imkon beradi. Kontekstual va matniy tahlil ularning uslubiy (konnotativ) xususiyati mos kelmasligini ko'rsatadi. Ma'nodosh vositalardan fe'ning o'zak, negizi, shaxs, son va hurmat qo'shimchalari kesimlikni shakllantirib ish-harakat bajaruvchisi (subyekt, ega) ni ham anglatadi. Gapda asosan tejalmaydi. Kishilik va o'zlik olmoshi subyekt (ega)ni ta'kidlash uchun xizmat qilganidan tejab ishlatiladi. Nutqiy maqsadu vazifa tinglovchini ta'kidlashni taqozo qilsa gap, matnda olmosh (sen, siz, senlar, sizlar, o'zing, o'zingiz, o'zlaring) ishlatiladi. Bunday gap, matn II shaxs vositalari uchun

Munira TO'YCHIYEVA,
O'zDJTU katta o'qituvchisi

O'ZBEK VA ISPAN TILLARIDA METAFORALARNING LEKSIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek va ispan tillarida metaforalarning ishlatilishi, so'zlashuv nutqida tutgan o'zni, metaforalarning turlari, o'zbek va ispan adabiyotidagi ahamiyati, badiiy asarlarda ishlatilishi va ularning leksik va semantik xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *metaforalar, zoologik metaforalar, maishiy, gastronomik, etnik metaforalar.*

Аннотация: в данной статье рассматривается употребление метафор в узбекском и испанском языках, их роль в разговоре, виды метафор, их значение в узбекской и испанской литературе, а также их лексико-семантические особенности.

Ключевые слова: *метафоры, зоологические метафоры, бытовые, гастрономические, этнические метафоры.*

Abstract: this article examines the use of metaphors in the uzbek and spanish languages, their role in conversation, typis of metaphors, their meaning in uzbek and spanish literature, , as well as lexical and semantic features.

Key words: *metaphors, zoological metaphors, gastronomic, ethnic metaphors.*

O'zbekistonda xorijiy tillarni o'qitishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayni vaqtda rivojlangan davlatlar bilan raqobatlasha olish uchun yoshlarga zamon talabiga mos darajada ta'lim berish va ular o'rtasida chet tilini rivojlantirishga alohida e'tibor berish davr taqozosi bo'lib bormoqda.

Xorijiy tilni mukammal o'rganish uchun shu tildagi xususiyatlarni ona tilimizdagi o'xshash xususiyatlar bilan taqqoslab o'rganish yaxshi samara beradi. O'zbek tili va ispan tillarida metaforalar muhim o'rin tutadi.

Metafora ispan tilida keng qo'llaniladi. Kastil yoki ispan tili juda boy tillardan bo'lib, unda metaforalar ko'plab uchraydi. Ammo metafora nima? Bu ma'lum bir obyekt yoki g'oya bilan bog'liq bo'lgan ibora sifatida tushuniladi, lekin boshqa so'z yoki iboraga nisbatan qo'llanilganda, bu ikki so'z o'rtasida ma'lum o'xshashlik borligini anglatadi.

Ispan tilida u tez-tez ishlatiladi, masalan: "Sizda osmondagi ikkita yulduz kabi ikkita ko'z bor". Ushbu metaforada ko'zlar osmondagi yulduzlar singari yorqin bo'lgan joyda taqqoslash amalga oshiriladi, biz ko'zlar chiroyli ekanligini anglashimiz mumkin.

O'zbek tili ko'plab xususiyatlarga ega bo'lgan til hisoblanadi. Bu tilda ijod qilgan ko'plab yozuvchi – adiblar, shoirlar bu tilning o'ziga xosligini juda ko'p bora aytib o'tishgan. O'zbek tilida muhim o'rin tutuvchi xususiyatlardan biri bu metaforalar. Metaforalar ko'pgina tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilida ham uchraydi. So'zlashuv nutqimizda metaforalardan ko'p foydalanamiz.

Masalan: "Sovuq niyat qilma do'stim" degan gapdagi "sovuq" so'zini yakka holda qo'llab ko'ramiz "sovuq" so'zi havoga, suvga nisbatan o'z ma'nosida qo'llaniladi. "Sovuq niyat", "sovuq nafas", "sovuq bashara" bunday birikmalar bilan gaplarda kelganda "sovuq" so'zi o'z ma'nosidan chiqib ko'chma ma'noda qo'llanilayotgan bo'ladi.

O'zbek adabiyotida badiiy asarlarda ko'plab

metaforalarni uchratishimiz mumkin. Masalan:

Unashilg'anig'a bu kun yettinchi kun, — dedi Oftob oyim, — shundan beri Kumushingiz tun ham yig'laydi, kun ham, sababini so'rasam sira javob bermaydirda, do'lonadek ko'z yoshisini oqiza beradir. Bu kun tag'in yig'isi oshib tushdi. Haytovur yalinib, yaltog'lanib arang hammomga yubordik.

(*Abdulla Qodiriy "O'tgan kunlar" romanidan*)

Qizlar majlisi — gullar, lolalar, to'tilar, qumrilar majlisi! Bu uyda — Kumushbibining tog'asining uyida qizlar majlisi, gullar majlisi!

(*Abdulla Qodiriy "O'tgan kunlar" romanidan*)

Metafora-metaphora "ko'chirma" demakdir. Predmet, narsa, hodisalarning tashqi o'xshashligiga, shakliy, ichki belgilariga asoslanib ma'no ko'chishiga metafora deyiladi. Metafora usulida nom ko'chishi narsa va hodisalar o'rtasida nisbiy o'xshashlikka ko'ra bo'ladi va ularning rangi, shakli, harakati ikkinchi shunday predmet belgisi bo'lgan nomini oladi. Bu usul bilan ma'no ko'chishi uchun umumiy belgi tushuncha saqlanadi. Misol uchun "qora niyyat" bunda qora so'zida ma'no ko'chishi kuzatilyapti. Qora qalam bo'lganda o'z ma'nosida bo'lardi, qora rang bilan ichidagi yomon niyyatni o'xshatganligi sababli metafora usulida ma'no ko'chyapti.

Qoshlari kamon, kipriklari o'q, lablari g'uncha, tishlari inju, oy yuzli, gul yuzli, pariroy kabi go'zal so'z arni o'zbek adabiyotida ko'rishimiz mumkin.

Xuddi shunday metaforalarni ispan adabiyotida ham uchratish mumkin.

Masalan: 1. Que sus cabellos son de oro, su frente de campos elíseos, sus cejas arcos del cielo, sus ojos soles, sus mejillas rosas, sus labios corales, perlas sus dientes, alabastro su cuello, mármol su pecho, marfil sus manos, su blancura nieve.

(*Miguel de Cervantes, Don Quijote de La Mancha.*)

Mashhur ispan adibi Migel de Servantesning

Manchalik Don Kixot asaridan olingan bu parchada qizning sochlarini oltinga, peshonasini jannat dalalariga (xristianlar uchun eliseos jannat deb tushuniladi), ko'zlarini quyoshga, yanoqlarini atirgulga, lablarini dengiz tubidagi pushti rang marjonga, tishlarini durga, ko'ksini marmarga, qo'llarini fil suyagiga va ranggi oppoq qorga o'xshatilgan.

2. Nuestras vidas son los ríos/ que van a dar a la mar/ que es el morir.

(Jorge Manrique, *Coplas por la muerte de su padre*).

Ispan mumtoz yozuvchisi Xorxe Manrike *Coplas por la muerte de su padre* nomli she'rida umri daryoga o'xshatgan va bu daryoning quyilish joyi dengiz bo'lishini ya'ni o'limni dengizga o'xshatgan.

Ispan tilida metaforalarning quyidagi turlari mavjud: zoologik metaforalar, maishiy metaforalar, gastronomik metaforalar, ranglar orqali ifodalanuvchi metaforalar, etnik metaforalar.

Masalan: shaxsning tashqi ko'rinishi (fizikasi, go'zalligi, tozaligi, yoshi) va tana a'zolarini ifodalash uchun:

zoologik metaforalar: foca — tyulen, so'zlashuv nutqida -semiz (insonga nisbatan); yegua — biya, so'zlashuv nutqida jozibali ayol; pata — panja, so'zlashuv nutqida insonning oyog'i; garra — turnoq, panja, so'zlashuv nutqida insonning qo'li; zarpa — panja. so'zlashuv nutqida, qo'l ma'nolarini bildiradi; gastronomik metaforalar: bombon — shokoladli konfet, so'zlashuv nutqida. jozibal;, caramelo — karamel; so'zlashuv nutqida yoqimli odam; yogur — yogurt, so'zlashuv nutqida yoqimtoy qiz; fideo — vermeshel, so'zlashuv nutqida ozg'in; cebolla — piyoz; so'zlashuv nutqida bosh degan ma'noni bildiradi; maishiy metaforalar: fachada — fasad, so'zlashuv nutqida insonning tashqi ko'rinishi; percha — veshelka, so'zlashuv nutqida insonning qomadi; antenas — antenalar; so'zlashuv nutqida quloqlar; buzon — pochta qutisi, so'zlashuv nutqida og'iz; tejado — tom, so'zlashuv nutqida bosh degan ma'noni bildiradi; ranglar orqali ifodalanuvchi metaforalar: negro — qora; so'zlashuv nutqida . kir; quyoshda qoraygan ma'nosida qo'llaniladi.

Shaxsning xarakteri va uning axloqiy fazilatlarini baholashda qo'llaniladigan metaforalar quyidagicha ishlatiladi:

zoologik metaforalar : animal — hayvon, so'zlashuv nutqida qo'pol, qoloq odam; bicho — mahluq, hayvon: so'zlashuv nutqida. yovuz odam ma'nosini anglatadi;

cerdo/guarro/cochino — cho'chqa, so'zlashuv nutqida, axloqsiz; borrego — qo'zichoq, so'zlashuv

nutqida sodda ahmoq; gallina — tovuq, so'zlashuv nutqida qo'rzoq ma'nolarini bildiradi; gastronomik metaforalar: pera — nok; so'zlashuv nutqida surbet, qo'pol; chuleta — kotlet; ko'chma ma'noda dimog'dor ma'nosini anglatadi; maishiy metaforalar : lata — konserva bankasi, so'zlashuv nutqida zerikarli; plomo — qo'rg'oshin, so'zlashuv nutqida ko'p bezovta qiladigan odam; farol — fonar, so'zlashuv nutqida yolg'on, aldov; maleta — chemodan; so'zlashuv nutqida —noqulay, qo'pol ma'nolarini bildiradi; ranglar orqali ifodalanuvchi metaforalar: verde — yashil, so'zlashuv nutqida yosh, tajribasiz; blanco — oq, so'zlashuv nutqida qo'rzoq; violeta — binafsha rang, so'zlashuv nutqida jinoyatchi, zo'ravon ma'nolarini bildiradi; etnik metaforalar: moro — arab, so'zlashuv nutqida rashkchi; ingles — ingliz, so'zlashuv nutqida ziqna degan ma'nolar ni bildiradi.

Shaxsning aqliy qobiliyati, xususiyatlari, o'rganish va bilimga bo'lgan munosabatlarini quyidagi metaforalar yordamida ifodalash mumkin:

zoologik metaforalar: lince — silovsin, yovvoyi mushuk, so'zlashuv nutqida aqlli;

águila — burgut, so'zlashuv nutqida tez tushinadigan, ziyrak va zukko odam;

burro, asno — eshak, so'zlashuvda ahmoq; atun — tunets balig'i, so'zlashuv nutqida qoloq, rivojlanmagan odamlarga nisbatan ishlatiladi; gastronomik metaforalar: melon — qovun, so'zlashuv nutqida ahmoq; berza — karam, so'zlashuv nutqida ahmoq; calabaza — osh qovoq, so'zlashuv nutqida qobiliyatsiz insonlarga nisbatan qo'llaniladi; maishiy metaforalar: empollar — qavargan joylarini tozalash, so'zlashuvda bilim olmoq, o'z ustida ishlamoq; fumarse — tamaki chekmoq, so'zlashuv nutqida darsdan qochib ketmoq; etnik metaforalar: mongolo — mo'g'il, so'zlashuv nutqida qoloq, ahmoq ma'nolarini bildiradi.

So'zlashuv nutqida ko'p ishlatiladigan metafora variantlaridan biri uning turli xil idiomalar yordamida ifodalanishidir.

Zoologik metaforalar : abrir/cerrar el pico, de piquillo, beber a morro, caer de hocicos, echar la garra.

Gastronomik metaforalar : pan comido, hacerse tortilla, darle calabazas, hecho una sopa, bueno como el pan, estar como un flan.

Etnik :metaforalar : disciplina prusiana, despedirse a la francesa, puntualidad suiza, va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda ispan va o'zbek tillarida metaforalarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bu har ikki tilga o'zgacha jilo berib uni yanada go'zal tillarga aylanishiga hissa qo'shuvchi omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арутюнова Н.Д. Языковая метафора // Лингвистика и поэтика. — М.: Наука, 1979.
2. Varela F., Kubarth H. Diccionario fraseológico del español moderno. — Madrid: Gredos, S.A., 1994.
3. Фирсова Н.М. Испанский речевогой этикет. — М.: ИНФРА-М, 2001.
4. Симеонова С.С. Словарь испанской разговорной речи. — М.: Эдиториал УРСС, 2006.
5. Diccionario de la Lengua Espanola (DRAE) [Electronic resource] // www.rae.es

Dilzodaxon SAYDALIYEVA,
Qo'qon davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

TILSHUNOSLIKDA TILNI SISTEMAVIY ASOSDA O'RGANISH MASALALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada jahon tilshunosligida tilni o'rganish masalalari va tilshunoslik ham boshqa qator fanlar kabi tadqiqotlar, tajribalar, izlanishlar, g'oyalar, kuzatishlar natijasi, "mahsuli" sifatida o'zining alohida o'rganish obyektiga va tekshirish metodiga ega ekanligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *tilshunoslik, qiyosiy tilshunoslik, struktura, sistem tilshunoslik, matn, strukturalizm, glossematika va deskriptiv lingvistika.*

Абстрактный: в данной статье рассматриваются вопросы изучения языка в мировой лингвистике и сведения о том, что языкознание, как и другие дисциплины, в результате исследований, экспериментов, исследований, идей, наблюдений, «продукта» имеет свой объект изучения и метод изучения. проверка.данный.

Ключевые слова: *лингвистика, сравнительное языкознание, структура, систематическая лингвистика, текст, структурализм, глоссематика и описательная лингвистика.*

Annotation: in this article, the issues of language learning in world linguistics and information about the fact that linguistics, like other disciplines, as a result of research, experiments, research, ideas, observations, "product" has its own object of study and method of verification. given.

Key words: *linguistics, comparative linguistics, structure, systematic linguistics, text, structuralism, glossematics and descriptive linguistics.*

Kirish. Har qanday fikr nutqda namoyon bo'lar ekan, so'zlovchi axborotni tinglovchi shaxsiga nafaqat yetkazib berishni, balki bu fikrning tinglovchiga ta'sir etish ko'lamini ham deyarli doimo nazarda tutadi. Shu boisdan ham nutqning ifodaliligi, ta'sirchanligini, ya'ni ekspressivligini ta'minlovchi til birliklariga, vositalarga malakali so'zlovchi, ya'ni yozuvchilar har doim o'ta sezgir nigoz bilan qaraydilar. Ma'lumki, tilda ekspressivlikni ifoda etishning turfa xil imkoniyatlari mavjud. Bu kabi imkoniyatlarning naqadar kenglikda ekanligi tilning ham nechog'lik boy ekanligini ko'rsatib beruvchi mezonlardandir. Keyingi yillarda dunyo tilshunosligida tilni undan foydalanuvchi shaxsning nutqiy faoliyati, ruhiyati, ijtimoiy holati, yoshi, jinsi kabilar bilan bog'liq holda o'rganishga, tilning inson nutqiy faoliyati jarayonida kuzatiluvchi funksional imkoniyatlari tadqiqiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasida o'tgan asrning oxirida tilni shaxs omili bilan bog'liq holda o'rganish metodologiyasiga asoslangan va o'ziga xos tahlil usullariga ega antroposentrik tilshunoslikning turli yo'nalishlari ajralib chiqdi. Bugungi kunda kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, lingvokulturologiya, etnolingvistika, neyrolingvistika kabi mazkur yo'nalishlar o'z tadqiq obyektiga, predmetiga, aniq qo'yilgan maqsad, vazifalari, tahlil usullariga ega. Darhaqiqat, XX asr boshqa fanlar taraqqiyotida bo'lgani kabi lingvistika tarixida ham asosiy e'tiborning obyektiga substansional nuqtayi nazardan yondashuvdan struktur-funksional nuqtayi nazardan yondashuvga o'tishi bilan xarakterlanadi. Bunga F.de Sossyurning «Umumiy lingvistika kursi»da bayon qilingan «til substansiya emas, balki shakldir» degan bosh g'oyasi sababchi bo'ldi. Bu g'oyaga muvofiq, strukturaning substansiyadan

ajratilishi va uning nisbiy mustaqilligi e'tirof etilishi tilshunoslikda keyingi davrda buyuk kashfiyotlar qilinishiga turtki bo'lish bilan birga, bir qator yangilash qarashlarning tug'ilishiga ham zamin yaratdi. F.de Sossyur substansiya va shakl atamaları ostida sezgi a'zolarimizga ta'sir qiluvchi moddiy vositalar va bu moddiy vositalar zamirida yotgan munosabatlarni tushunadi, til shakldir deganda tilning munosabatlar sistemasi ekanligiga urg'u beradi. Tilning moddiy tomoni, ya'ni tovush tomoni substansiya sifatida ikkinchi planga suriladi. Ana shuning natijasida u til va nutqni ajratdi.

Asosiy qism. Tilshunoslik alohida mustaqil fan sifatida XIX asrning birinchi choragida (1816 yilda) fanlar olamiga kirib keldi. Shak-shubhasiz, tilshunoslik ham boshqa qator fanlar kabi tadqiqotlar, tajribalar, izlanishlar, g'oyalar, kuzatishlar natijasi, «mahsuli» sifatida o'zining alohida o'rganish obyektiga va tekshirish metodiga ega bo'ldi. Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, jahon tilshunosligi fani ham shu kungi taraqqiyot bosqichiga etib kelguncha uzoq tarixiy taraqqiyot davrini, «o'sish» davrini bosib o'tdi. U turli maktablar, oqimlar, ta'limotlar ta'sirida bo'ldi, olimlar tomonidan lisoniy hodisalar haqida aytilgan fikrlar qarama qarshiligiga, til hodisalari haqida yaratilgan juda ko'plab manbalarga «guvoh bo'ldi», shakllandi. Aniqrog'i, tilshunoslik fani ham jahon fanlari sistemasida o'ziga xos va o'ziga mos doimiy mustahkam o'rin egalladi.

Tilga sistema sifatida qarash masalasi V. fon Gumboldtdan tortib Boduen de Kurtene, V.Brendal, A.G.Volkov, E.Koseriu, E.Benvenist, M.M.Pokrovskiy, G.Ipsen, Y.Trir, L.V.Shcherba, A.I.Smirnitskiy, Z.S.Xerris, G.P.Melnikov,

V.M.Solnsev, Y.G.Belyayevskaya, W.Labov, P.Postal, E.S.Kubryakova, S.V.Kezina, Y.V.Ponomarenko va boshqa bugungi kun olimlari tomonidan atroficha tadqiq qilingan. [1.62]

Mazkur davrda struktura tushunchasi barcha fanlar uchun ommaviy tushunchaga aylandi. Bundan tilshunoslik ham istisno emas. Ana shunday umumiy tendensiya ta'sirida sistemaviy-struktur tilshunoslik maydonga keldi. Barcha fanlarda struktura atamasi keng qo'llanayotgan bo'lsa-da, lekin bu atama talqinida xilma-xillik shakllandi. Ana shunday xilma-xillik tilshunoslikka ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Tilshunoslikda struktura atamasi turli ma'noda talqin qilinadi. Ulardan keng tarqalgani ikki xildir: Birinchisida struktura deb o'zaro bog'langan va shartlangan munosabatdagi elementlardan tashkil topuvchi butunlik tushuniladi. Strukturaga bunday yondashuv o'rganilayotgan obyekt va uni tashkil etgan elementlar o'rtasidagi ichki aloqa va bog'liqlikni yoritishni talab etadi. Ikkinchi yo'nalishda esa struktura sof shakllar va sof munosabatlar sifatida tushuniladi. Shaki esa konkret qo'llanilishdan uzilgan holda talqin qilinadi. Ana shundan kelib chiqqan holda struktur tilshunoslikning turli tarmoqlari dunyoga keldi. Ular funksional lingvistika, glossematika va deskriptiv lingvistika yo'nalishlaridir. Struktur tilshunoslikning mazkur tarmoqlari turli tadqiqot metodlaridan foydalanganlari bilan ham o'zaro farqlanadilar.

Tilshunoslik tarixida tilga strukturaviy-funksional qarashning tarqalishi, birinchi navbatda, F.de Sossyur nomi va uning "Umumiy tilshunoslik kursi" bilan bog'liq. Sossyurning asosiy tezislardan biri – bu "til modda emas, unda shakl bor". [2.120] Ushbu qarash bir necha o'n yillar davomida tilshunoslikning bir qator sohalariga oid rivojlanishni belgilab berdi. "Strukturalizm" umumiy nomi ostida birlashgan Sossyurning ko'plab takliflari an'anaviy tilshunoslikdagi turli sohalar tomonidan qabul qilingan. F.de Sossyur katta e'tibor bilan umumiy tendensiya zamonaviy fanlarning rivojlanish obyektlarining tuzilishi va funksiyalariga o'z qiziqishini ifoda etdi.

Tizim – bir til o'zaro bog'liq elementlarning birligi bo'lib, tuzilish deganda esa bir butun ichida bir jinsli bo'lmagan elementlarning birligi tushunilishi kerak. Elementlar to'plami (birliklar) berilgan obyekt struktura deb ataladi. Mavjud elementlar to'plami berilgan strukturaning elementlari orasidagi tizim sanaladi.

Tizim deganda o'zaro bog'langan qismlardan tashkil topgan har qanday murakkab birlik tushunilishi kerak. Binobarin, tuzilma, garchi eng muhim bo'lsa ham, lekin tizimning xususiyatlaridan faqat bittasidir. Tizimning ikkinchi, kam bo'lmagan muhim xususiyati uning mazmunidir va ayni paytda tizimlarni tadqiq qilishda eng katta semantik yuk ulanish tushunchasiga tushadi. [2.278]

F.de Sossyurning tilshunoslik oldidagi katta xizmati shundaki, u tilni substansiya emas, balki shakl

ekanligini e'tirof etdi va bu bilan tilshunoslik tarixida tilnutq zidlanishini birinchi o'ringa olib chiqdi. Tilshunoslar diqqatini nutqiy qurshovdan holi bo'lgan mohiyatini o'rganishga jalb qildi va tilning sistema ekanligini e'tirof etdi. U tilda sinxron va diaxron holatlarni farqlar ekan, tilning sinxron holati uchun tizim atamasi xarakterli ekanligini ta'kidlaydi. Bunda F.de Sossyur sistemaning ikki muhim xususiyatini ko'rsatadi:

- a) tizimning barcha a'zolari tenglikka ega;
- b) tizim yopiq hisoblanadi. [2.137]

Lekin keyinchalik til sistemasida ochiq sistemalar ham borligi aniqlandi. F.de Sossyur tushunchasida sistema atamasi bilan birgalikda struktura atamasi ham muhim ahamiyatga ega. Struktur atamasi ostida sistema a'zolarining munosabat tiplari tushuniladi. E.Benvenist turli sistemalarni tahlil qilish natijasida til shakllari ma'lum strukturaga ega, degan xulosaga keladi va uning quyidagi xususiyatlarini ko'rsatadi: [3.89]

- 1) u qismlari ustidan hukmronlik qiladigan ma'lum butunlikning birligi sanaladi;
- 2) bu birliklar ma'lum barqaror tamoyillar asosida shakliy tartibga solingandir;
- 3) butunning barcha qismlari u yoki bu vazifani bajarganligi tufayligina struktura xarakteriga ega bo'ladi;
- 4) bu qismlar ma'lum sathning har bir birligi boshqa yuqoriroq sathning kichik birligi, ya'ni butunning bo'lagi bo'lishi mumkin.

Tilshunos olim A.Hojiyevning tilshunoslikka oid atamalar lug'atida esa quyidagicha izohlanadi: struktura – tuzilish, qurilish. Strukturalizm esa - tilshunoslikda til komponentlarining ichki munosabatlarini, o'zaro bog'liqligini, tilning tuzilish tomonini yoritish asosiy maqsad qilib qo'yilgan yo'nalish. Tilshunoslikning o'z tekshirish predmetini til tizimidagi ichki munosabatlar va aloqalar bilan chegaralovchi, til va tafakkurning o'zaro munosabati, tilning jamiyat bilan aloqasi kabi masalalarni chetlab o'tuvchi sohasi. Sistema – (yun. Bir butunlik, qismlardan tuzilgan narsa) tizim, deya izohlanadi. [4.86-89]

Xulosa. Bu boradagi ko'plab fikrlar Sossyurni Boduen de Kurtene bilan fikrdosh olim ekanligini tasdiqlaydi. Biroq Boduen de Kurtenening qarashlaridan farqli o'laroq, til haqidagi juda chuqur mulohazalari turli asarlarda tarqoq bo'lgan Sossyur bir qator qarama-qarshiliklardan holi bo'lmasa-da, izchil va puxta o'ylangan til tushunchasini yaratdi. Sossyur konsepsiyasining umumiy g'oyasi, yuqorida aytib o'tilganidek, tilni substansiya emas, balki shakl sifatida tan olishdir. Boshqacha qilib aytganda, til tushunchasi, Sossyurning fikricha, tovush materiyasining tuzilishini, lekin bu tovush materiyaning o'zini emas, tashkil etilishini o'z ichiga oladi. [3.89] Sistema va struktura bir-biridan tubdan farq qiladigan ikki hodisalardir. [5.73] Sistema haqiqiy statik tushunchadir va shunga binoan uning vositasida tilning sinxron holati yoritiladi,

struktura esa dinamik tushuncha sifatida qo'llanishi lozim va uning asosida tilning diaxronik hodisalari (tadrijiy jarayonlar) o'rganilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 2-jild (Lingvistik ta'limotlar tarixi). – Toshkent.
2. Sosyur F. Umumiy tilshunoslik kursi. 1916.137-b
3. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. 62-b.
4. Xojiev A. Tilshunoslik terminlarining izoqli lug'ati. – Toshkent: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – Б.86-89.
5. Сафаров Ш. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. – Toshkent: Фан, 2007. - Б.73;

Shahzoda SOBIROVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
NTM O'zbek tili va adabiyoti
kafedrasida o'qituvchisi

ALISHER NAVOIYNING “HAYRAT-UL ABROR” ASARIDA QO'LLANGAN TASVIRIY IFODA VA BADIY O'XSHATMALARNING LISONIY TAHLILI

Annotatsiya: mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Hayrat-ul abror” asarida qo'llangan tasviriy ifoda va badiiy o'xshatmalarning til xususiyatlari tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganildi va dostonidagi aniqlanmagan tasviriy ifodalar ustida lisoniy tadqiq qilindi. Bundan tashqari, zamonaviy tilshunoslikda e'tibor qaratilayotgan presuppozitsiya hodisasi bilan bog'lab o'rganildi. Alisher Navoiyning “Hayrat-ul abror” asarida qo'llangan tasviriy ifodalar va o'xshatishlarning o'z va ko'chma ma'nolari batafsil tahlil qilindi. Ushbu tasviriy ifodalar va o'xshatishlar lisoniy nuqtayi nazardan to'liqroq yoritishga harakat qilinadi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, “Hayrat-ul abror”, leksema, lingvistika, pragmatika, proyeksiya muammosi, tasviriy ifodalar, presuppozitsiya, lisoniy tahlil, o'z ma'no, ko'chma ma'no, prafrazalar, semantik nazariya.

Buyuk bobokalonimiz, so'z mulkingning sultoni Alisher Navoiyning “Hayrat-ul abror” asari “Xamsa”dagi besh doston ichidan o'zining betakror tasvirlari va takrorlanmas hikmatli so'zlari bilan ajralib turadi. “Hayrat-ul abror” asari necha asrlardan buyon o'zining shirador ma'nosini yo'qotmaydi. Bunga sabab unda qo'llangan so'zlar barchaga tushunarli bo'lgan turkiy adabiy tilda yozilganligi bilan bir qatorda so'zlarning boy tasvirga ega ekanligidir.

Fors-tojik tilining ta'siri natijasida o'zbek tilining fonetik tizimi va grammatik qurilishida ham ayrim o'zgarishlar yuzaga keldi. Bularning muhimlaridan biri sifatida bevosita fors-tojik tilining ta'siri ostida yetakchi shahar shevalarida turkiy til fonologik tizimiga xos bo'lmagan tovushlarning paydo bo'lishini ko'rsatish mumkin. Bu hodisa o'zbek tilida singarmonizmning qisqarishiga, shahar shevalarida esa asta-sekin kuchsizlanib yo'qola borishiga olib keldi.

Ko'p asrlar davomida bir hududda yashash, bir xil turmush tarzi va madaniy hayot bu xalqlarning tillarida yaratilgan hikmatli so'zlar, maqol va iboralarda ham o'z aksini topdi.

Masalan: Bir kunga ho'kiz o'lmas, ikki kunga egasi bermas - Ba yek ro'z barzagov namemurad, ba du ro'z sohebash namedihad; odamning qo'li gul- Dasti odam gul; kabi hikmatli so'z va iboralar mazmuni bilan ham bir- biriga o'xshaydi. Bu kabi hikmatli so'z va iboralar

bu tillarda bir vaqtda yoki oldinma-ketin yuzaga kelgan.

O'zbek tili ham, o'z navbatida, fors-tojik tilining rivojlanishiga, uning leksikasiga va ayniqsa, grammatikasiga ma'lum darajada ta'sir qilgan o'zbek tilidan juda ko'p so'zlar, iboralar, lug'aviy birliklardan tashqari, bir qator so'z yasovchi va shakl yasovchi affikslar (-chi, -cha, dosh, siz, lik kabi) ham fors-tojik tiliga qabul qilingan. Tarixiy jihatdan o'zaro doimiy aloqada bo'lib turishi sababli fors-tojik tilida, ayniqsa, uning ko'pgina yetakchi shevalari morfologiyasi va sintaksisida paydo bo'lib, keng ishlatilayotgan yangi agglutinativ tipdagi tahliliy shakllar jumladan, omada budam, rafta istodaam, rafta istoda budam tipidagi ravishdoshli murakkab fe'l shakllari bevosita o'zbek tilining ta'siri asosida paydo bo'lgan grammatik hodisalar hisoblanadi.

O'zbek va fors-tojik tillarining o'zaro bir-biriga ta'siri bizning davrimizgacha davom etdi va yana ham mustahkamlanib bordi. Buning natijasida, ikki tilchilik hodisasi yuzaga keldi. [Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining turkiy qatlami. -Toshkent, 2000.]

Turkiy tillarga, jumladan, o'zbek tiliga ko'proq uning lug'at tarkibi boyishiga arab tili ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Mahalliy xalqlarning tillariga arab tilining ta'siri bevosita VIII asr boshlarida arablarning O'rta Osiyoni bosib olishi, arab xalifaligi hukmronligining boshlanishi va bu yerdagi xalqlarning musulmonlikni,

islom dinini qabul qilishi bilan bog'langan. O'rta Osiyo xalqlari islom dini bilan birga arab yozuvini ham qabul qildilar. Arab tili esa mamlakatning ijtimoiy-madaniy hayotida asosiy o'rinni egallay boshladi. Arab tili faqat islom dinini targ'ib qilish, islom falsafasi va aqidalariga doir g'oyalar, fikr va tushunchalarni ifodalash va diniy ibodat majburiyatlarini bajarish sohasidagina emas, balki davlat idora ishlarida, mamlakatning ilmiy-madaniy hayotida ham hukmron til sifatida qo'llanar edi. Arab tilining fan va adabiyotda keng ishlatilishiga uning islom dini bilan birga va uning tili sifatida juda katta hududga tarqalishi va umumiy tilga aylanishi ham sabab bo'ldi. Bu tarixiy hodisalar mahalliy xalqlarning ijtimoiy-siyosiy hayoti va madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu davrlarda diniy aqidalarni targ'ib qiluvchi shuningdek, turli fanlarga oid ilmiy asarlar, asosan, arab tilida yozilar edi. Jumladan, O'rta Osiyo xalqlari orasidan yetishib chiqqan yirik olimlar-Al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg'ariylar o'z asarlarini ona tilida emas, balki arab tilida yozishga majbur bo'ldilar.

Yuqorida ko'rsatilgan tarixiy jarayon natijasida mahalliy xalqlarning tillariga arab tillaridan ko'plab so'z va iboralar qabul qilindi.

Alisher Navoiyning "Hayrat-ul abror" asarida ko'plab tasviriy ifodalar va o'xshatishlar qo'llangan. Quyida ularning ayrimlarini ko'rib o'tamiz.

"Dema quyosh Ravzai rizvon degil,

Ravza ichinda guli xandon degil"[Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1979.-213 b.]

Ushbu baytda quyidagi ma'noni ko'rishimiz mumkin: "Buni (quyoshni) quyosh dema mamnuniyat bog'i degin, uni bog' ichida ochilgan gul deyish mumkin, bundan kelib chiqadiki, Quyosh "mamnuniyat bog'i" (ravzai rizvon) hamda "bog' ichida ochilgan gul" (ravza ichinda guli xandon) kabi o'xshatishlar bilan ta'riflangan.

Yana bir o'rinda nihoyatda chiroyli o'xshatishga guvoh bo'lamiz:

**"Mehr yuzin oynarang aylading,
Yuzda kusufin anga zang aylading.
Ko'kni qilib sahfa'i minu kibi,
Aylading ul sahfa'i ko'zgu kibi".**

Birinchi baytda Navoiy O'lohg'a murojaat qilib, "Quyosh yuzini ham oynarang qilding, Quyosh tutilishi esa uning zanglagani belgisidir"-deya quyoshni ta'rif etadi. Keyingi baytda "Ko'kni zangori varoqqa o'xshatib, o'sha sahfa'i esa ko'zgu aylantirding"-degan ma'no anglashiladi. Ushbu to'rtlikda Mehr (quyosh)-oynarang, quyosh tutilishi-zanglash; Ko'k(osmon)-zangori varoq va ko'zgu kabi o'xshatmalar bilan berilgan.

Quyidagi baytda Navoiyning so'zdan naqadar go'zal ifoda yaratishiga guvoh bo'lamiz:

**"Sunung etib konni mualamma' guhar
Hukmung etib tog'ni murassa' kamar".**

Ma'nosi: "Senining kuch qudrating tufayli konlardagi gavharlar rang-baranglik kasb etdi." Sening buyrug'ing bilan qimmatbaho toshlarni tog' beliga kamar qilib bog'lab olgandir. Bilamizki, tog'larda har xil qimmatbaho toshlar mavjud bo'lib, ular tog'-u toshlarda yashiringan bo'ladi. Ulug' shoirimiz buni ajoyib o'xshatish bilan "tog'ning beliga bog'langan kamar" ga o'xshatyapti.

Oddiygina hayot hodisalarini shunchaki qog'ozga tushirmasdan har bir so'zga jon baxsh etib, go'zal o'xshatishlar bilan yozilgan bunday misralar "Hayrat ul-abror" dostonida juda ko'p. Quyidagi baytda ham ajoyib tashbehga guvoh bo'lamiz:

"Gunbadi mino bila toqi sepehr,

Kim anga sham' anjum erur, shamsa-mehr"

Ma'nosi: Havorang gumbaz bilan osmon toqidagi yulduzlar sham, Quyosh esa naqshinkor qubba.

Yana bir baytda ko'makchilar orqali ajoyib o'xshatish yuzaga kelgan:

"Sarsari qahring chu bo'lib ko'hkan,

Tog' bulut yanglig' bo'lib na'razan"

Ushbu baytning ma'nosi "chu" (go'yoki), "yanglig'" (kabi) ko'makchilari orqali betakror o'xshatish yuzaga kelgan.

Ikkinchi na'tda payg'ambarimiz ta'riflarida so'z borar ekan, ularning tug'ilishi, "yangi chiqqan oydek" deb ta'riflanadi:

"Ey ko'runub g'urra kibi tiflzod"

Tifli rahing charxi qadimiy nihod"

(Ey tug'ilishidanoq yangi chiqqan oydek ko'ringan zo't! Yo'lingning bolalik chog'i qadimiy osmon odaticha edi.)

"Qo'ydi chu ul dom il aul dona g'or,

Ko'rki ne davlat qushin etti shikor.

G'orda yori bila ul tezhush,

Tog' ichida o'ylaki oltun-kumush"

To'rtinchi na'tdagi bu baytning ma'nosi quyidagicha: U (Payg'ambarimiz) shu taqlidda tuzoq qo'yib, g'or oldiga esa don sochib, qarang qanday baxt qushlarini ovlay oldi. G'orda xushyor do'sti Abu Bakr Siddiq bilan berkinib turar ekan, go'yo ular tog' qatida yotgan oltin bilan kumush edilar.

Yuqoridagi baytda Muhammad (s.a.v) va Abu Bakrning g'orda yashirinishi "tog' qatida yotgan oltin bilan kumush" deb o'xshatiladi. Ushbu na'tdagi yana bir baytda o'xshatish san'atidan mahorat bilan foydalanilgan:

"Sura dema, "qof" ila "nun" yoki "sod",

Ya'nikim har harfig'a oning savod.

Sunbulidek borcha parishon edi,

Jomi' anga jomi Qur'on edi."

Ma'nosi: "Suralari hali (to'la ma'noda) sura emas, "Qof", "Nun", "Sod" harflariga oid qismlar bo'lib, bular turli harflarga oid qoralamalar edi. Ular

payg'ambarning sochlaridek tarqoq edi. Hazrati Umar "Qur'on bo'laklarini yig'ib jamlagan to'plovchi" bo'ldi. Bu tabdildan kelib chiqadiki, Qur'on suralari – Payg'ambarimiz sochlaridek tarqoq holatda, hali to'liq yig'ilmagan.

XII bobda Xusrav Dehlaviy ta'rifi keltirilgan bo'lib, ushbu bobda Dehlaviy Farhodga qiyoslanadi :

"Xusrav o'lub mulk etib obod ham,
Yolg'uzi Xusrav dema , Farhod ham
Ranj tog'in qazmoq aning peshasi,
Tog'i aning nazmu tili-teshasi. "

Nasriy bayonda quyidagicha tabdilda berilgan: "Uni Xusravgina emas, Farhod deb atasa ham bo'ladi. Uning hunari mehnat-mashaqqat tog'ini qazish, bunda tog' uning she'riyati, tesha esa uning tilidir".

Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" asarida qo'llanilgan ushbu o'xshatishlar zamonaviy tilshunoslikdagi presuppozitsiya hodisasiga tayanib tahlil qilinganda, matndagi yashirin va ichki ma'noda qo'llangan so'zlar o'z-o'zidan kelib chiqadi. Lingvistik presuppozitsiyaning shakllanishida ularga ishora qiluvchi grammatik vositalarning ma'noviy belgixususiyati muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga , zamonaviy tilshunoslikdagi presuppozitsiya gap semantikasining yashirin uzvi sifatida to'g'ridan-to'g'ri ifodalanadi. Ma'lumki, Navoiy asarlarida so'z tejash va so'zning ko'chma ma'nolaridan keng qo'llanilgan. Bu esa Navoiy asarlarining boy mazmunini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, "Hayrat ul-abror" asarini

o'rganib chiqish davomida yana ko'plab o'xshatmalarga guvoh bo'lamiz. Quyida ularning yashirin ma'nolarini ko'rib o'tamiz.

1)Quyosh – mamnuniyat bog'i, 2) Quyosh tutilishi –oyning zanglashi, 3)Ko'k – zangori varaq , 4) Qimmatbaho toshlar – tog' beliga bog'langan kamar, 5)Osmon toqidagi yulduzlar – sham, 6) Quyosh – naqshinkor qubba, 7)Allohning qahri – pahlovon toshyo'nar, 8) Alloh – odil hukmdor, 9) Payg'ambar – yangi chiqqan oydek, 10) Abu Bakr va Pavg'ambarning g'orda yashirinishi – tog' qatida yotgan oltin bilan kumush, 11) Qur'on suralari – payg'ambar sochlaridek tarqoq...

Bundan ko'rinib turibdiki, so'zlarning ichki va yashirin ma'nosi bir qancha vositalar (signallar) orqali o'quvchiga anglashiladi. Tilshunoslikdagi ushbu signallarni tilshunoslar quyidagicha tartiblashgan: leksik vositalar, morfologik vositalar va sintaktik vositalar.

Tilshunos olim U. Rahimov presuppozitsiyani ochib beruvchi leksik vositalarga shakldosh, ma'nodosh hamda zid ma'noli so'zlarni kiritadi.[Rahimov U. "Tagma'no va presuppozitsiya" maqolasi.] Morfologik vositalarga esa o'xshatish-qiyoslash ko'makchilari , yuklamalar, -dek, -day qo'shimchalari hamda ayrim bog'lovchilarni kiritish mumkin. Sintaktik vositalarga esa so'roq gaplar, o'xshatishli qurilmalar hamda prafrazalar misol bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati. E.I.Fozilov tahriri ostida. I tom. –Toshkent. 1983-656-b; II tom. –Toshkent, 1983-642-b; III tom. –Toshkent, 1984-622; IV tom. 1985. 634-bet.
- 2.Sobirov A. O'zbek tilining leksik sathini sistema sifatida tadqiq etish. Filol. Fan. nom. ...Diss. avtoref. –Toshkent, 2005.50-b.
- 3.Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. –Toshkent: G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.1979. 213-b.
- 4.Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati (arab so'zlari va ular bilan hosilalar). –Toshkent: Universitet, 2003. 599-b.
- 5.Abdulxayirov M. Navoiy asarlarida so'z va iboralar.–Toshkent: Tafakkur bo'stoni,2009. 240-b.

Matluba AHMEDOVA,

Chirchiq shahridagi

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti

Tillar va maktabgacha ta'lim fakulteti

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

O'QUV LUG'ATLARINI YARATISH ZARURATI VA TARAQQIYOTI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'quv lug'ati aslida nima ekanligi, unga bo'lgan zarurat, lug'atning ijtimoiy zarurat va davlat buyurtmasi ekanligi haqida nazariy ma'lumotlar bayon etilgan.

Bundan tashqari O'zbekistonda o'quv lug'atchiligi borasida qilinayotgan ishlar xususida nazariy fikrlar yoritilgan. O'zbek tilida o'quv lug'atlari yaratishga qaysi davlatlar tajribasiga tayanilayotganligi kabi fikrlar ilmiy asoslangan. Lug'atchilik sohasida Respublikamizda va jahonda qilinayotgan ishlar ham bayon etiladi.

Kalit so'zlar: o'quv lug'ati, o'quv lug'atchiligi, ijtimoiy buyurtma, qaynoq soha, rivojlanayotgan fan tarmog'i, leksikografik izoh, illustrativ misol, leksikografik pomita,

Annotation : this article presents theoretical information about what the educational dictionary is, its necessity,

the fact that the dictionary is a social necessity and a state order. In addition, theoretical ideas about the work being done in Uzbekistan in the field of educational vocabulary are covered. Opinions relying on the countries experience of creating educational dictionaries in the Uzbek language are scientifically based. The described works being done in the field of vocabulary in our Republic and in the world.

Key words: *educational vocabulary, educational vocabulary study, social order, well developing field, developing science*

Аннотация : в данной статье представлены теоретические сведения о том, что такое учебный словарь, его необходимость, о том, что словарь является социальной необходимостью и государственным заказом. Кроме того, освещены теоретические представления о работе, проводимой в Узбекистане в области учебной лексики. Научно обоснованы мнения о том, какие страны опираются на опыт создания учебных словарей на узбекском языке. Также описаны работы, проводимые в области лексики в нашей республике и в мире.

Ключевые слова: *учебная лексика, учебная лексика, социальный заказ, горячее поле, развивающаяся наука*

Bugungi kunda butun jahonda “o’quv lug’atchiligi” tarmog’i tilshunoslikning eng jadal rivojlanayotgan sohalari safidan o’rin oldi. O’quv lug’atlarining amaliy ahamiyati tilni o’qitishni osonlashtirish bo’lsa, “o’quv izohli lug’atlar” ning vazifasi o’quvchiga har bir so’zning “mag’zini chaqib” muayyan bir so’zdan qaysi vaziyatlarda foydalanish uchun dasturilamal bo’lishi lozim. Zero insonning og’zidan chiqayotgan so’z uning ham ma’naviy, ham axloqiy, ham intellektual salohiyatini ko’rsatib beradi.

O’zbek tilshunosligida o’quv izohli lug’atlar tuzish g’oyasi tilshunos H.G’.Ne’matov nomi bilan bog’liq. Hamid Ne’matov Ayyub G’ulomov bilan hamkorlikda yozgan va 1995-yilda chop etilgan “Ona tili ta’limi mazmuni” kitobida maktab o’quvchilari uchun ona tili darsliklariga yordamchi qo’llanma sifatida o’quv lug’ati ham bo’lishini takidlagan. Kitobda o’quv lug’atlarining ro’yxati ham berilgan. Eng ahamiyatlisi shundaki, ushbu ro’yxatning eng avvalida “ O’zbek tilining o’quv izohli lug’ati” qayd etilgan. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bizdan ancha yillar, hatto asrlar oldin o’quv lug’atlarini yaratishga, ta’limning yordamchi vositasiga aylantirishga bo’lgan harakatlar boshlangan va jadal rivojlangan edi. Bizda esa yuqorida ta’kidlaganimizdek tilshunoslikning bu yo’nalishiga XX asrning boshlarida ilk nazar tashlandi. Shundan buyon sekin astalik bilan rivojlanib kelmoqda. Ungacha asosiy e’tibor ikki tilli lug’atlarni yaratishga qaratilgan. Buning sababi hammamizga ma’lum bo’lgan mustamlaka siyosati va jiddiy cheklovlar bo’lganligidir. Mustaqilikka erishganimizdan so’ng boshqa sohalar qatorida tilshunoslikda ham asta sekin siljishlar bo’la boshladi. Tilshunos olimlar chet tillarini o’rganish, aqliy salohiyatni rivojlantirish, o’z mustaqil fikrini aniq va ravon ifodalash uchun o’quvchining so’z boyligi yuqori darajada bo’lishi va har bir so’z ifodalagan tushunchani miyamizning til xotirasda saqlab faol iste’molda qo’llanilishi uchun o’quv lug’atlar eng muhim vosita ekanligi ko’p bor takrorlandi. Xususan filologiya fanlari doktori professor B.Bahriddinova bu haqida quyidagi fikrlarni keltiradi. XX asrning

boshlariga kelib ko’pgina rivojlangan davlatlarda nafaqat til o’rganish, balki intellektual salohiyatga ega, yuksak ma’naviyatli, umummilliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq shaxsni tarbiyalashning muhim vositasi deb “o’quv lug’atlari” tan olindi. Bugungi kunga kelib o’quv lug’atchiligini rivojlantirish davlat ahamiyati darajasiga ko’tarilmoqda. Endilikda leksikografiya fani oldiga “uzluksiz ta’limdagi mavjud lug’atlar asosida uzluksiz ta’limning barcha turlari uchun o’quv lug’atlarini yaratish” vazifasi qo’yilmoqda. Bugungi tezkor va shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda o’quv lug’atlarining nafaqat kitob holida chop etilishi, balki elektron tarzda jahon hamjamiyati uchun ochiq formatda yaratilishi til siyosatining muhim belgilaridan biridir.

“O’quv lug’ati” va “O’quv lug’atchiligi” tushunchalari hammaga birday tushunarlimi? Bu tushunchalarining farqi nimada? Lug’at - har qanday mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy, iqtisodiy rivojlanishining ramziy timsoli. Lug’atning paydo bo’lishi unga ehtiyoj tug’diradigan muhitning paydo bo’lishi bilan bog’liq. Aniqrog’i muayyan davrda lug’atchilikning taraqqiy etishi shu davrda mamlakatning ham taraqqiy etganidan darak beradi.

Bizga ma’lumki “o’quv lug’atlari” asosan maktab ta’limi uchun yaratiladi. Bu tur lug’atlarning ikkinchi nomi “maktab lug’ati” deb ham yuritiladi. Shuning uchun o’quv lug’atlari maksimal darajada ta’limga yo’naltirilgan bo’ladi. Xo’sh “o’quv lug’ati”larining asosiy xususiyati nimada? Fanda “o’quv lug’ati” tushunchasi qachon paydo bo’ldi “O’quv lug’ati” termin sifatida ilk bor E.D. Polvonovning 1926-yilda nashr etilgan “Qisqacha o’zbek icha o’zbekcha lug’ati” so’z boshida uchraydi. “hajmiga ko’ra spravochnik, lug’at deb bo’lmaydi. Uni o’quv lug’ati toifasiga kiritish o’rinli” degan fikrni bildiradi. Ko’rinib turibdiki Polivanov asosiy e’tiborni hajmga qaratgan. “O’quv lug’ati” terminining ishchi ta’rifi 1990-yilda B.B. Markovkinning “O’quv leksikografiyasining nazariy asoslari” deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasida “Ma’lumot olish, til o’rganishga yordam berish maqsadida maxsus

yaratilgan har qanday janr va hajmdagi leksikografik asar” tarzida beriladi. Markovkin ta’rifida esa har qanday janr va hajm deyilmoqda. Bizning o’rganishlarimizdan kelib chiqib bu fikrga qo’shilmaymiz. Chunki o’quv lug’ati maktab o’quvchilari uchun yaratiladi va hajmi jihatdan qat’iy chegaralanishi kerak. Aks holda o’quvchi sumkasida olib yurishi va kundalik foydalanishi uchun jiddiy noqulayliklar tug’dirishi mumkin. Yana bir tilshunos P.N.Denisovning ta’rifida “O’quv lug’ati-so’zligi ma’lum bir mezon asosida tartiblangan, o’quv-uslubiy talabga javob beradigan, odatda, hajman kichik bo’lgan, ma’lumotni tezkor va qulay taqdim etadigan lug’at turi” deb ta’rif beriladi. Ushbu ta’rif bugungi kunda o’quv lug’atiga qo’yilayotgan eng so’nggi talablarga mos keladi deb aytish mumkin. “O’quv lug’atchiligi” terminining ilk ta’rifi esa L.A Navikovga tegishli: “Akademik leksikografiya bilan taqqoslaganda o’quv leksikografiyasi hajman kichik va katta ta’limiy maqsadga yo’naltirilgan leksikografiya”

O’quv lug’atchiligi leksikografiya va pedagogika oraliqidagi amaliy fan ekanini ta’kidlaydi. Yuqoridagi nomlari keltirilgan olimlar fikriga tayangan holda o’quv lug’atchiligi leksikografiya va pedagogika fanlari kesishuvida hosil bo’lgan fan va o’quv lug’ati shu fanning amalda ishlab chiqariladigan mahsulotidir degan hukmni chiqarish o’rinli bo’ladi. O’quv lug’atlarining eng muhim belgilaridan biri hajman chegaralanganligidir. O’quv lug’atidan “zaruriy va yana faqat zaruriy ma’lumot”lar joy oladi. “O’quv lug’ati” shu tipdagi katta lug’atni qisqartirish yo’li bilan yartilmaydi. Shuningdek estetik didga moslik, qo’shimcha materiallar (grammatik topshiriq, test, mashq, o’yin, she’r, elektron lug’atlar, multimedia, ovoz) bilan boyitilishi ham o’quv lug’atining xarakterli belgisi hisoblanadi deb yana quyidagi fikrlarni beradi. B.Bahriddinova.”Demak, so’zligi ma’lum bir mezon asosida tartiblangan, o’quv uslubiy talabga javob beradigan, ta’lim oluvchining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladigan, ma’lumotni tezkor va qulay taqdim etishga mo’ljallangan antroposentrik vositaga o’quv lug’ati deyiladi. O’zbekistonda Bahriddinovagacha o’quv lug’atchiligi sohasida salmoqli biror ish qilinmagan edi. O’zbekistonda o’quv lug’atchiligi:lingvistik asoslari, tarixi va istiqbollari mavzusida yozilib, 2020-yilda himoya qilingan doktorlik dissertatsiyasida O’zbekistonda o’quv leksikografiyasini rivojlantirish va bu borada qilinishi lozim va shart bo’lgan vazifalar aytib o’tilgan. Mustaqillik yillarida O’zbekistonda yaratilgan o’quv lug’atlari soni ham ortib bormoqda. Bularga misol qilib B.M. Mengliyev va B.Bahriddinovalarning “O’zbek tilining so’z tarkibi o’quv lug’ati”, O.Shukurov, B.Boymatovning. “O’zbek tilining ma’nodosh so’zlar o’quv lug’ati”, T. Nafasov va V. Nafasovalarning “O’zbek tilining talaffuzdosh so’zlar o’quv lug’ati”, N. Ochilov va T.Kenjayeularning. “Folklorshunoslik terminlarining

o’quv izohli lug’ati”, A.Hojiyevning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati”, D.A.Xudayberganovanning “Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug’ati”, To’rayeva U. Shodmonova D. “O’zbek tilining zid ma’noli so’zlar o’quv lug’ati”, Islomov I. Bobojonov Sh. “O’zbek tilining so’zlar darajalanishi o’quv lug’ati”, Xamrayeva Y “O’zbek tilining o’zlashma so’zlar o’quv lug’ati” Mengliyev B. Xudoyberdiyeva M. “O’zbek tili iboralari o’quv lug’ati” kabi o’quv lug’atlari yaratilgan. Ushbu o’quv lug’atlarining yaratilgan bo’lsada ularning ko’pchiligi aynan kim uchun, masalan boshlang’ich sinflar uchun, yuqori sinflar uchun deb izohlanmagan va umumiy xarakterga ega. Bizning tadqiqotimiz boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun o’quv izohli lug’at tuzish metodikasini ishlab chiqish masalasiga qaratilgan. Ammo bu o’nalishda bizning tilshunoslikda tayanish mumkin bo’lgan biror aniq tadqiqot, yo’ki lug’atni topolmadik. Ba’zi o’rinlarda ma’lumotlar olish uchun Gulando Mirxanovanning “O’zbek tilining sinonimlari o’quv izohli lug’atini tuzishning lingvistik asoslari nomli nomzodlik dissertatsiyasidan ayrim adabiyotlar bilan tanishdik.. 2016-yilda Nizomiddin Mahmudovning boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun mo’ljallangan “So’z sandiqchasi” nomli o’quv izohli lug’atchasi nashr etildi. Lug’atda 700 ga yaqin so’zning ma’nolari sodda ixcham va lo’nda shaklda izohlangan. Lug’at so’zligi bolalarning nutqidagi faollik darajasidan kelib chiqqan holda tuzilgan. Mazkur kitobcha O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat tilini rivojlantirish departamenti buyurtmasiga asosan 10 ming nusxada nashr etilgan va mamlakatimizdagi barcha umumta’lim maktablariga yetkazish uchun Xalq ta’limi vazirligiga beg’araz taqdim etilgan. (Ammo hali hech qancha vaqt o’tmagan bo’lsada xatto Toshkent shahri markazida joylashgan maktablar kutubxonalarida ham bugun bu kitob yo’q)

Tadqiqotimiz doirasida kuzatishlardan kelib chiqqan holda shuni aytishimiz kerakki, boshlang’ich sinflarning har biri uchun alohida alohida o’quv izohli lug’atlar yaratilishi lozim. Buning sababi bolaning yosh xususiyatlari bilan bog’liq deyishimiz mumkin. Yosh bola kundalik darsliklariga qo’shimcha ravishda katta hajmdagi lug’atni ko’tarib yurishi jismoniy zo’riqishni keltirib chiqaradi. Bugungi kunda o’quv lug’atlari ta’lim jarayonining bir bo’lagiga aylandi, yuqorida ko’rib o’tilganidek xalqaro elektron axborot tizimi – internetda o’zbek tilida yaratilgan elektron lug’at namunalari ham paydo bo’ldi. Biroq ushbu lug’atlardan foydalanuvchilar leksikografik kompetensiyaga egami, undan samarali foydalanilyaptimi degan savolning tug’ilishi tabiiy. Bundan rosa bir asr oldin mashhur fransuz yozuvchisi, akademik, Nobel mukofoti sohibi Anatoliy Frans lug’atga shunday ta’rif beradi Lug’at – bu alifbo tartibida joylashtirilgan yaxlit olam! Agar yaxshiroq o’ylab ko’rsangiz, lug’at – kitoblarning kitobi. U boshqa barcha kitoblarni o’z ichiga oladi, siz shunchaki undan o’zingizga kerakli narsani

topa bilishingiz lozim deb yozgan edi. Anatoliy Fransning bergan ta'rifi "lug'at" tushunchasi paydo bo'lgandan to bugungi kunga qadar ham o'z kuchini saqlab kelmoqda. Lug'at undan muntazam foydalana bilgan kishi uchun chinakam xazina. Zarur ma'lumotlarni tez va qulay izlab topa bilish zamonaviy shaxsning muhim ko'rsatkichi. Inson hamma narsani bilishga qodir emas, ammo har qanday vaziyatda bilishi zarur bo'lgan narsalarni topish imkoniga ega. Lug'at aynan shu ish uchun maxsus yaratilgan. Bunga misol sifatida XX asr mo'jizalaridan biri mashhur Vikipediya keltirish mumkin deb yozadi Bashorat Bahriddinova. Yana bir yirik tilshunos olimimiz Professor Hamid Ne'matov leksikografiya sohasida O'zbekistonda qilinayotgan va qilinishi zarur bo'lgan ishlar xususida "Axborot asrining tilshunoslikka talabi" nomli maqolasida shunday fikrlarni bildirgan edilar. "Kompyuter texnologiyasi bilan uzviy bog'liq va sun'iy intellekt ibtidosi bo'lgan axborot asri tilshunoslik oldiga ikki – biri ommaviy tarzda amalga oshirilayotgan, ikkinchisi amalga oshirilishi zarur bo'lgan – vazifani qo'yadi. Amalga oshirilayotgan vazifaning o'zi ham ikki turli. Ulardan biri axborot bazasini, ya'ni Arastu bobomizdan boshlab shu kungacha jahon tilshunosligida yaratilgan muhim tadqiqotlarni, lug'at-u, grammatika-yu, darsliklarning elektron variantlarini yaratib, erkin foydalanilishini keng yo'lga qo'yish. Ikkinchisi esa, lingvistik (lisoniy) korpuslar, ular asosida WordNetlarning xilma-xil turlarini yaratish va ommalashtirish, til birliklarining nutqiy voqelanishlari chastotasi, lisoniy birliklarning bir-birini almashtira olishi, ayni bir xil qurshovda kela olishi va uning oqibatlarini ... kabi hodisalarni empirik tavsif usullarida o'rganish va natijalarini ommalashtirish kabi hozirgi kunda korpus va kompyuter lingvistikasi G'arbda katta tezlik, o'zimizda asta-sekinlik bilan amalga oshirilayotgan ishlardir" So'nggi o'n yillik leksikografiyaning tilshunoslikning eng tez taraqqiy etayotgan va eng tez o'zgaruvchan sohasi

ekanligini yana bir bor isbotladi. Lug'at – davr mahsuli, xalq tarixidagi muayyan davrning ko'zguisi. Uning yuzaga kelishi muayyan tarixiy-madaniy sharoit, nazariy va amaliy tilshunoslikning holati, lug'atlarga ehtiyoji bo'lgan turli sohalar taraqqiyoti va yana ko'pgina jihatlarga bog'liq. Muayyan tilda davrga aloqador turli omillarga bog'liq ravishda lug'atlarning rang-barang ko'rinishlarining yuzaga kelishi, umuman, lug'atchilik taraqqiyoti – til va uning egasi bo'lgan millatning taraqqiyoti bilan bog'liq, uning porloq kelajagi haqida gapirish imkonini beradi. O'sib kelayotgan avlodni ma'naviy barkamol, hozirjavob, mustaqil fikrli, izlanuvchan, umummilliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq qilib tarbiyalash talabi o'quv lug'atlarining zamonaviy ko'rinishlariga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Shu sababli bugungi kunda o'quv lug'atchiligi tarmog'ini ilmiy asosda rivojlantirish, o'quv lug'atlarini yaratish tamoyillarini ishlab chiqish tilshunoslikning dolzarb vazifasi sifatida kun tartibiga qo'yishni talab etayotgan masaladir. Mustaqillikka erishganimizdan so'nggi yillarida yaratilgan o'quv lug'atlarida ona tili va boshqa xorijiy tillarni, milliy tilning leksik qatlamlarini, yozma va og'zaki nutq meyorlarini o'rganish, o'quvchilarning so'z boyligi, tafakkurini kengaytirish, yozma savodxonligini oshirish bosh vazifa qilib olingan bo'lsa, ayni paytda o'quv leksikografiyasi oldida davr talablaridan kelib chiqib yangi avlod o'quv lug'atlarini yaratish, mavjud lug'atlarni kompyuterlashtirish bilan bog'liq vazifalar yechimini amalga oshiradigan jonkuyar tadqiqotchilarni kutmoqda. Shunday ekan biz ham ta'lim sohasini rivojlantirmoqchi bo'lsak lug'at yaratish masalasiga jiddiy qarashimiz lozim. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasini o'rganib milliy qadriyatlarimizga moslashtirgan holda barcha yoshdagi foydalanuvchilar uchun hayotning barcha jabhalarini qamrab oladigan turfa xil lug'atlar yaratishimiz bugunning va kelajakning talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. (Ona tili o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma) – Toshkent: O'qituvchi, 1995. 46-b.
2. Bahriddinova B.M. O'zbekistonda o'quv lug'atchiligi: lingvistik asoslari, tarixi va istiqbollari: F.f.d(DSc) diss. – Samarqand, 2020.,
3. O'z. Res. P.2020y 20-oktabr PF-6084-sonli "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi farmoni. //www.lex.uz
4. Polivonov. E.D. Краткий русского-узбекский словарь. Ташкент. 1926-С.4
5. Марковкин В.В. Основы теории учебной лексикографии: Дисс... д-ра филол наук(в форме научного доклада) -М.: Институт русского языка им А.С.Пушкина, 1990, С-9.
6. Денесов П.Н. Лексека русского языка принципы СС описания Русский язык 1993. С 216-217
7. Новиков Л.А Учебная лексикография и её задачи // Вопросы учебной лексикографии/ Под.ред П.Н. Денисова и Л.А. Новикова -М..Изд МГУ, 1969, -С...3-11.
8. В.Г.Гак. Общие вопросы учебной лексикографии. М.: Русский язык. 1977.; Гак В.Г. О некоторых закономерностях развития лексикографии (учебная и общая лексикография в историческом аспекте) / В.Г. Гак // Актуальные проблемы учебной лексикографии. – М., 1977.
9. Tursunov J. "Ta'limiy lug'at yaratish tamoyillari" Scientific Journal Impact Factor Januariy 2022 P-387.
10. Mirxanova G.R. O'zbek tilining sinonimlar o'quv izohli lug'atini tuzishning lingvistik asoslari . Buxoro- 2021
- Неъматов Ҳ., Турсунова О. Ахборот асрининг тилшуносликка талаби // Филология масалалари: Илмий ва илмий-методик маколалар тўплами. –Тошкент: Фан, 2013. – Б.9-12

Taxmina QUZIYEVA,
Buxoro davlat universiteti 3-bosqich talabasi

INGLIZ, RUS VA O'ZBEK TILLARIGA OID ABBREVIATURALARNING SOHALARDA QO'LLANILISHI (TA'LIM SOHASI MISOLIDA)

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek, ingliz va rus tillariga oid ta'lim sohasida faol qo'llaniluvchi abbreviaturalar tahlil qilingan. Ta'lim jarayonlarida abbreviaturalarning ko'p ishlatilishiga nimalar sabab bo'layotganligi izohlangan. Ingliz, rus va o'zbek tilshunoslarining abbreviaturalarga oid olib borgan ilmiy ishlari chog'ishtirilgan. Ta'lim sohasiga oid matnlar keltirilgan va ularda qo'llanilgan abbreviaturalar dekodlangan. O'zbek tilshunosligida abbreviaturalarning sohalarda qo'llanilishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, maxsus yo'nalishlarga oid abbreviatura lug'atlarini yaratish g'oyasi ilgari surilgan. Ta'lim sohasidagi uzun nomlarni qisqaroq va tushunarliroq shaklga almashtirish taklifi bildirilgan.

Kalit so'zlar: *axborot, til, abbreviatura, dekodlash, tendensiya.*

Abstract: this article analyzes abbreviations actively used in the field of education related to Uzbek, English and Russian languages. It is explained what causes the frequent use of abbreviations in educational processes. The scientific works of English, Russian and Uzbek linguists on abbreviations are mixed. Texts related to the field of education are presented and abbreviations used in them are decoded. In Uzbek linguistics, the idea of conducting scientific research on the use of abbreviations in fields, creating dictionaries of abbreviations related to special areas has been put forward. A proposal was made to replace long names in the field of education with shorter and more understandable ones.

Key words: *information, language, abbreviation, decoding, tendension.*

Kirish. Ko'pgina milliy tillar uchun qisqartmalarning keng rivojlanishi va qisqartirilgan leksik birliklarning qo'llanilishi umumiy tendensiyaga aylangan. Zamonaviy ingliz tilida qisqartmalarning soni rus va o'zbektillariganisbatan anchako'p. Xalqaro integratsiya jarayonlari va fan-texnika taraqqiyoti natijasida yangi tushunchalarning paydo bo'lishi borgan sari ortmoqda va tabiiyki ularni nomlashga ehtiyoj bor. Ingliz va ruslarda aksariyat yangi tushunchalar qo'shma so'zlar yordamida ifodalanadi. Biroq atamalarni murakkab so'zlar orqali ifodalash so'zlovchiga noqulaylik tug'diradi. Shuning uchun nutqda imkon qadar qisqalikka tayaniladi va abbreviaturalar muloqot jarayonining asosiy obyektiga aylanadi. Qisqartma xabarni optimallashtirish natijasi bo'lib, ma'lumotni eng adekvat va tejamlil tarzda yetkazish imkoniyatini beradi. Bugungi zamonaviy tilshunoslikda qisqartmalarni o'rganish va tasnif qilishda turli xil qarashlar mavjud. Qisqartmalarning hajmi, xilma-xil turlari mavjudligi, abbreviatsiya jarayonining murakkabligi abbreviatura tasniflarining ko'payishiga sabab bo'lgan. Qisqartirish jarayonlarining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari bo'yicha D.I. Alekseyev, V.V.Lopatin, A.V.Staxeyeva, M.I.Tibilova, L.P.Krisin, S.I.Shumarinlar ilmiy izlanishlar olib borgan [7]. Devid Kristal o'zining "Tilshunoslik va fonetika" lug'atida qisqartma atamasining so'z yasali sh bo'limida o'rganilishini ta'kidlagan. L.L. Nelyubin o'zining "Izohli tarjima lug'ati" da so'zlarning bosh harflari yoki boshlang'ich tovushlaridan hosil bo'lgan so'z qisqartma deb atalgan [8]. Inglizlar hatto sohaga oid abbreviaturalar lug'atini ham ishlab chiqishgan. Ammo

o'zbek tilshunosligida qisqartmalarning sohalarda qo'llanilishi, boshqa tillarga oid abbreviaturalar bilan qiyosiy tarzda tahlil etilishi borasida chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan. Bu esa ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Ingliz terminologiyasida cheksiz nominativ imkoniyatlarga ega bo'lgan qisqartirish so'z shakllanishining eng samarali usuli hisoblanadi. Ayniqsa, ingliz tiliga oid ilmiy va professional matnlarda har xil turdagi qisqartmalar muhim o'rin tutadi. Ular leksikografik manbalarda qayd etilganligi va ko'pincha faol qo'llanilganligi sababli ilmiy tilning leksik birliklari deb hisoblash mumkin.

Qisqartma asosida uning to'liq shaklini chiqarish dekodlash deb ataladi [8].

Har bir til foydalanuvchisi qisqartmaning mohiyatini aniqlashga e'tibor qaratish lozim. Mohiyat asosida tahlil etish esa abbreviaturalarning turlarini farqlash imkoniyatini yaratadi.

Asosiy qism. Zamon rivojlangan sari kitob, gazeta, teatr, muzeylar o'z o'rnini internet va yangi axborot texnologiyalariga bo'shatib bermoqda. Hayot tezligining oshishi til resurslarini tejash tendensiyaga olib keldi va tilning zarur funksiyasiga aylangan qisqartirishni faollashtirdi. Natijada abbreviaturalar ta'lim, tibbiyot, diplomatiya, biznes, media, moliya, axborot texnologiyalari va boshqa sohalarning muhim leksik boyligiga aylanib ulgurdi. Jumladan, ta'lim sohasiga oid adabiyotlarda ingliz, rus va o'zbek tillariga oid ko'plab qisqartmalar mavjud.

Ma'ruza paytida foydali ma'lumotlarni qayd etib

borish afzalliklarga ega. Ammo bir vaqtning o'zida tinglash va yozish ko'pchilik uchun oson kechadigan jarayon emas. Shu sababli qisqartirish orqali yozish eng qulay yechim sanaladi. Qisqartirish – insoniy tabiatga xos tushuncha. Manzilga eng qisqa yo'lni topish, muayyan vazifani bajarish uchun ajratilgan vaqtni minimallashtirish, uzundan uzun matnlarni qisqartmalar asosida hajman kichraytish va hokazolar yuqoridagi fikrning amaldagi isbotidir. Bu turli sabablarga ko'ra sodir bo'ladi. Ularning asosiysi esa vaqtni tejash istagi hisoblanadi. 2017-yil 29-noyabrda lordaniya Bengkulu universiteti olib borgan tadqiqotga ko'ra, ushbu universitetda Facebookdan foydalanuvchi talabalarining 65% muloqot jarayonida qisqartmalardan foydalanishi aniqlangan. Misol uchun: tq=thank you, u=you спс=спасибо

M. Dubenets qisqartmalarni leksik va grafik turlarga ajratadi[2]. Grafik qisqartmalar shartli qisqartmalar deb ham yuritiladi va yozuvda (hujjat, xat, qaror matnlarida) vaqt va joyni tejash maqsadida qo'llanilib, to'liq so'z shaklida o'qiladi. Leksik qisqartmalar, asosan, ot so'z turkumiga oid so'zlar bo'lsa, grafik qisqartmalar ulardan farqli ravishda boshqa so'z turkumlariga oid bo'lishi ham mumkin. Grafik qisqartmalar qancha qisqa shaklda bo'lsa, shuncha ko'p va keng qo'llaniladi [1]. Ingliz tilida abbreviaturalarning grafik (shartli) qisqartmalar turi ta'lim sohasiga oid ilmiy adabiyotlarda tez-tez uchrab turadi. Jumladan:

Akademik- ak.
Professor – prof.
Dotsent- dots.
n.(noun) – существительное- ot
v. (verb) – глагол- fe'l
adj. (adjective)- прилагательное - sifat
adv. (adverb) – наречии - ravish
prep. (preposition) – предлог- predlog
conj. (conjunction)- союз- bog'lovchi
e.g. (for example – ushbu qisqartma so'z lotin tilidan olingan bo'lib, to'liq shakli exempli gratia) – na-
пример- masalan

etc. (lotincha etcetera) – и так далее- va hokazo
par.(paragraph)- параграф- paragraf
app.(lotincha appendix) –приложение – ilova
Aksariyat ixtisoslashgan kasblarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham pedagoglar o'zlari uchun tushunarli, ammo omma uchun notanish bo'lgan atamalardan foydalanish holatlari uchrab turadi. Natijada, ota-onalar va yangi kelgan o'quvchilar ayrim tushunmovchiliklarga duch kelishadi. Buning oldini olish maqsadida inglizlar ta'lim sohasiga oid abbreviaturalar va ularning ma'nolar ro'yxatini ishlab chiqishgan[10].

Ta'lim sohasida qo'llaniladigan inglizcha abbreviaturalardan namunalar:

ERP- interprise resource planning
STEM- Science, Technology,Engineering and

Mathematics (Fan, texnologiya, muhandislik va matematika)

GPA – grade point average
CV- curriculum vitae
PDF – portable document format
WPS – Writer, Presantation,Spreadsheets
KPI – Key Performance Indicator
FLEX – Future leaders exchange program
SUSI- study of the U.S. Institute
IT-information technology
u- credit units
h- hours per week
lab-laboratory
lec. - lecture
yr- year
sem-semester
wks – weeks
B- bachelor
C/Cert- certificate

Xo'sh, o'zbek tilshunosligida vaziyat qanday?

Misol uchun:

OTM talabalari uchun ishlab chiqilgan HEMIS dasturi qator qulayliklarga ega.

Ushbu gapda qo'llanilgan OTM (Oliy ta'lim muassasasi) qisqartmasi ko'pchilik uchun yaxshi tanish. Ammo bugun faol qo'llanilayotgan HEMIS (Higher Education Management Information System ya'ni Oliy ta'limni boshqarish axborot tizimi) so'zi ham qisqartma ekanligini talabalar bilishadimi? Bilishmasa, demak, ular so'zning mohiyatini anglamagan holda nutq jarayonida foydalanishmoqda. Buning oldini olish uchun ta'lim sohasiga oid abbreviaturalarni izohlovchi lug'atlarga ehtiyojimiz bor.

Ta'lim sohasiga oid ruscha abbreviaturalar:

ППЭ – пункт проведения экзамена
УПК – учебно-производственный комбинат
Нацпроект - национальный проект
Госстандарт – государственный стандарт
Завуч – заведующий учебной частью
ГБОУ СОШ – государственное бюджетное общеобразовательное учреждение средняя общеобразовательная школа

Eng so'nggi misolda keltirilgan qisqartma hajman juda uzun va tushunilishi qiyin. Bu kabi abbreviaturalar Xalq ta'limi vazirligi tizimida ko'p uchraydi. Birgina misol, bugun tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limi deb ataladigan tashkilot 2019-yil 30-sentabrgacha Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limi – **XTMFMVTETB** deb yuritilgan. Ammo Xalq ta'lim vazirligi tizimidagi ba'zi uzun nomlar va abbreviaturalar hanuz saqlanib qolmoqda:

1.Avloniy nomidagi Xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarni belgilash instituti
– **ANXTMO'VIBITI**
2.O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va

psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi – O'KHYVPPRTM

3. Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazlari – **XTXQTVMOHM** va hokazo.

Abbreviaturalardan foydalanishning asosiy sababi qisqalik va ixchamlikka erishish, lekin yuqoridagi qisqartmalarning hajmi odatiy so'zlardan ancha uzunroq. Demak, uzun nomlarni qisqaroq va tushunarliroq shaklga almashtirish orqali ularni talaffuzga qulay qilib moslashtirishimiz lozim. Bu orqali abbreviaturalar ham hajman kichrayadi va tushunish osonlashadi.

Ta'lim sohasida qo'llaniladigan o'zbek tiliga oid abbreviaturalar:

PIIMA – Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi.

OTM – Oliy ta'lim muassasasi

HEMIS – Higher Education Management Information System (Oliy ta'limni boshqarish axborot tizimi)

TTJ– Talabalar turar joyi

OAK – Oliy attestatsiya komissiyasi

MS– milliy sertifikat

BSB – boblik summativ baholash

CHSB – choraklik summativ baholash

BBA – Bilimni baholash agentligi

DTS– davlat ta'lim standarti

Ta'lim sohasida qo'llaniladigan inglizcha qisqartmalarning ko'pchiligi bugun o'zbek tili doirasida ham ancha keng ishlatiladi. GRE, GMAT, SAT, IELTS, TOPIC xalqaro sertifikatlari, SUSI, FLEX singari grantlar, GPA, CV, HEMIS, PISA, WPS, STEAM, ID, QR cod, IQ, ERP va hokazo abbreviaturalar ingliz tilidan tayyor holda o'zbek tiliga o'zlashib, bugungi kunda ta'lim sohasida faol qo'llanilib kelinmoqda.

Ta'lim sohasiga oid abbreviaturalar ishtirok etgan gaplardan misollar:

1. PISA- 15 yoshli maktab o'quvchilarining bilim darajasini baholash bo'yicha xalqaro dastur.

To'liq shakli: Programme for International Student Assessment - 15 yoshli maktab o'quvchilarining bilim darajasini baholash bo'yicha xalqaro dastur.

2. BBA test natijasini bilishni yanada osonlashtirdi.

To'liq shakli: **Bilimni baholash** agentligi test natijasini bilishni yanada osonlashtirdi.

3. OTM talabalari Hemis dasturi asosida kredit-modul hisobida o'qitiladi.

To'liq shakli: Oliy ta'lim muassasalari talabalari Higher Education Management Information System dasturi asosida kredit-modul hisobida o'qitiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алексеев Д.И. Аббревиатуры как новый тип слов // Развитие словообразования современного русского языка. - М.: Наука, 1966. - С. 47-61.
2. Алексеев Д. И. Сокращенные слова в русском языке / Д.И. Алексеев. – Саратов: СГУ, 1979. – 328 с.
3. Борисов В. В. Аббревиация и акронимия. Военные и научные технические сокращения в иностранных

4. Hukumat qaroriga ko'ra, 1-maydan boshlab IELTS, GMAT, GRE va SAT imtihonlaridan yuqori ball to'plagan yoshlarga imtihon xarajatlari to'lab beriladi.

To'liq shakli: Hukumat qaroriga ko'ra, 1-maydan boshlab **International English language testing system, Graduate Management Admission test, Graduate Record Examinations, Scholastic Assessment test** imtihonlaridan yuqori ball to'plagan yoshlarga imtihon xarajatlari to'lab beriladi.

5. PIIMA tizimida ta'lim olayotgan o'quvchilar uchun CHSB imtihonlari bo'lib o'tmoqda.

To'liq shakli: Prezident, ijod, ixtisoslashgan maktablar agentligi tizimida ta'lim olayotgan o'quvchilar uchun choraklik summativ baholash imtihonlari bo'lib o'tmoqda.

Ta'lim sohasiga oid ba'zi qisqartmalar borki, ular boshqa tilga o'z shakli asosida emas, balki tarjima orqali ko'chadi. Misol uchun: **KWL chart- know, want to know, learned**. Ushbu abbreviatura o'zbek tiliga tarjima asosida ko'chgan va uning tilimizdagi muqobil shakli **BBB (bilaman, bilmoqchiman, bilib oldim)** metodi hisoblanadi. Yoki rus tiliga oid **ВУЗ (Высшее учебное заведение)** qisqartmasini olaylik. Bu abbreviatura o'zbek tiliga tarjima qilinishi natijasida **OTM (Oliy ta'lim muassasasi)** qisqartmasi paydo bo'lgan.

Xulosa. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz va rus tilshunosligida qisqartma so'zlar anchagina chuqurroq o'rganilgan. Ushbu mavzuga oid qator ilmiy maqolalar, qo'llanmalar, hatto maxsus lug'atlar ham yaratilgan. O'zbek tilshunosligida maxsus sohalarda eng ko'p qo'llaniladigan qisqartmalarning dekodlash jarayonini osonlashtiruvchi qo'llanmalar yaratish, bu mavzuni ilmiy jihatdan kengroq tadqiq etish haligacha dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Gavhar Salomovanning "Qisqartma so'zlarning inglizcha-o'zbekcha lug'ati" uslubiy qo'llanmasi ta'lim sohasiga oid 1000 dan ortiq inglizcha qisqartmalar, ularning izohi va o'zbek tilidagi tarjimalarini qamrab oladi. Kitob "GlobeEdit" nashriyatida o'zbek tilida chop etilgan va u abbreviaturalarga oid internetda mavjud bo'lgan ilk o'zbekcha uslubiy qo'llanma hisoblanadi. Ta'lim sohasi ilmiy uslubga tayanganligi uchun unda terminlar juda ko'p qo'llaniladi. Qisqartmalar esa terminologiyada muhim o'rin tutadi. Chunki ular uzun terminologik atamalarini qisqa, ixcham va qulay tarzda ifodalay oladi. Shuning uchun sohaga oid terminlarning qisqartgan shakli ya'ni abbreviaturalarni yanada chuqurroq o'rganish, uni turli qirralardan tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

языках / В.В. Борисов. – М.: Военное изд-во МО СССР, 1972. – 320 с.

4. Волков А. Аббревиатуры – Православная энциклопедия. Под ред. Патриарха Московского и всея Руси Кирилла. Москва: 2000. С. 35–37.

5. Воробьева И.А. Аббревиация как способ словообразования современного английского языка. Казанский вестник молодых ученых Педагогические науки. Теоретические и практические вопросы современной лингвистики. 2018. Том 2. N=4 (7)

6. Виноградов В. В. Грамматика русского языка. Том 1. Фонетика и морфология. М. : АН СССР, 1953. С. 278-279.

7. Дубенец Э.М. Лексикология современного английского языка: лекции и семинарии. Пособие для студентов гуманитарных вузов. М:Глосса-Пресс, 2002. 192 с

8. Ицкович В.А. Современные аббревиатуры //Русская речь, 1971, №2. -С. 52-60.

9. Косарева О. Г. Аббревиация в языке современной прессы: На материале французского, английского и русского языков: Автореферат. – Тверь, 2003. – С. 13.

10. Курило Н.А. Сокращения в современном английском языке: функциональный аспект: Автореферат. – Минск, 2005. – С.8.

11. Лойфман Н.Я. Аббревиатуры. Оренбург, 1960.

12. Могилевский Р.И. Является ли аббревиатура новым словом, а аббревиация словообразованием? // Проблемы структуры слова и предложения. Пермь, 1974. - С. 28 - 39.

13. Никишина С. А. Аббревиатуры: генезис, словообразовательный статус, морфемная структура, тематические группы, употребление и прогнозы // Вестник Нижневартковского государственного гуманитарного университета. 2011. № 4. С. 37—47.

14. Quziyeva T. O'zbek tiliga o'zlashgan ingliz abbreviaturalari tahlili. //International Conference on Teaching, Education, and new learning technologies. — Toshkent 2023/2, 136-140-betlar.

15. Quziyeva T. Ingliz va rus tillariga oid abbreviaturalar xususida. // Scholar nomli xalqaro ilmiy jurnal. 2023/1, 142-151-betlar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7581756>

16. Quziyeva T. Ingliz tili va o'zbek tillariga oid media qisqartmalari va ularning ahamiyati. // Innovative Development in Educational Activities (IDEA) — 2023. Vol.2, 143-147-betlar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8044800>

Qahramon SOBIROV,
*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Xorazm viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga
o'rgatish milliy markazi, Tillarni o'qitish
metodikasi kafedrasida dotsenti*

PERSONAJLAR NUTQIDA METONIMIYA

Annotatsiya: maqolada o'zbek dramaturgiyasi personajlari nutqida metonimiya, aslida, metaforadan farqli ravishda predmet va narsalar o'rtasidagi nisbiy o'xshashlikka emas, balki yaqinlikka ko'ra ko'chma ma'no hosil qilishi, nutqning obrazlilikini ta'minlashga xizmat qilishi asoslangan.

Kalit so'zlar: dramaturgiya tili, personaj nutqi, metonimiya, metofora, metonimik ko'chim, polisemiya, nomlarining metanimiyalashuvi.

Abstract: the article is based on the fact that metonymy in the speech of the characters of Uzbek dramaturgy, in fact, unlike metaphor, creates figurative meaning based on proximity, and serves to ensure the figurativeness of speech, not on the relative similarity between objects and things.

Key words: language of dramaturgy, speech of the character, metonymy, metaphor, metonymic migration, polysemy, metonymization of names.

Metonimiya polisemiyaning asosiy turlaridan biridir. Ilmiy manbalarda tildagi bu xil nom ko'chishlari polisemiya tiplari, polisemiya ko'rinishlari, polisemiya usullari, troplar va boshqa xil nomlar bilan ataladi. Metonimiya, aslida, metaforadan farqli ravishda predmet va narsalar o'rtasidagi nisbiy o'xshashlikka

emas, balki yaqinlikka ko'ra ko'chma ma'no hosil qilishiga asoslanadi. Metaforada bir xil nomlangan ikki predmet yoki hodisa bir-biriga nimasi bilandir, qandaydir belgi-xususiyatiga ko'ra o'xshash bo'lishi kerak. Metonimiya paytida esa bir xil nom oladigan ikki predmet, hodisa o'zaro yaqin bo'lishlari kerak. Bu yerda yaqinlik ma'nosini yonma-yon turishigina deb emas, balki ancha keng – bir-biri bilan o'zaro mustahkam bog'langanligi ma'nosida tushunish kerak bo'ladi. Bu aloqadorlik o'rin, zamonga ko'ra, muallif va uning asari, tashkilot, xo'jalik va uning nomi hamda boshqa sohalarda bo'lishi mumkin. Ularning biri nomlanganda, ikkinchisi anglashuvi va shu anglanishdagi nom ko'chishi metonimiyaga asos bo'ladi.

Masalan, «General Rahimov» dramasida personajlar nutqida shunday holatlarni uchramiz.

Kedrov. Dushmanning tinkasini qurit, kombatga yordam ber, unga minamyotdan ko'proq uzat. Zagoruyko mahkam turadi.

Rahimov. Hali bu oyoq bilan Visla, Oderdan o'tib, Berlingacha kirib bormoqchi edi-ku!

Sasha. Salom, bu kim?

Sohib. Tanimadingmi? Angliyaman, deydi.

Bu misollarda metonimiyaning bir necha ko'rinishlari uchraydi. «Dushman» so'zi ham aslida metonimiyalashgan deb tushunish mumkin. Chunki dushman deganda yakka ma'no ham, jamlik (ya'ni guruhli taraf) ma'nosi ham tushuniladi. Kedrov nutqida dushman tarafining jangga tushgan, ya'ni tinglovchi tarafga ro'baro' kelayotgan qismi, guruhi nazarda tutiladi. Kombat - qisqartma so'z, batalon komandiri demakdir. Kedrov yordam berishga undaganda, komandirning o'zini nazarda tutayotgani yo'q, balki batalonni butunicha ko'zda tutadi. Zagoruyko ham komandir. Kedrov nutqida «Zagoruyko mahkam turadi», deganda u boshliq jangchilar anglashiladi. Rahimov nutqida daryolar, shahar nomi orqali ularning o'zi anglashiladi.

Sohib nutqida metonimik ko'chim yanada qiziqarliroq chiqqan: bir kishi butun mamlakat nomi bilan atalgan.

Ma'lum yerda, hududda yashovchi aholi ma'nosida o'sha joy nomi qo'llanib, bu xil metonimiya hosil bo'lishini quyidagi misollarda ham ko'rishimiz mumkin.

Po'latov

Sizni sog'ingandir go'zal Samarqand.

(«Hamza»)

Ko'r qalandar

... Xo'sh, bir viloyat Samarqandga bo'ysunmabdi ozodlik istab.

Ulug'bek

Biz Sayhunda qayta tikdik tinchlik tug'ini, Samarqand ta'zimida Toshkent bir ini.

Buroqbek

Samarqandga mute' bo'lmoq istamaymiz biz.

Devonbegi

Hoy, navkarlar, jadal bo'lg'in! Samarqandni kut!

Ulug'bek

O'z o'g'lini nahot chetga qo'ysa Samarqand.

(«Mirzo Ulug'bek»)

Sayidbek. G'ijdivonda shunday katta bog'im bor ediki ...

(«General Rahimov»)

Marchenko. Agar u shaxtalarni, u texnikani Amerikang ko'rsa, bormi, hasaddan jig'ibiyroni chiqib, vahimadan surobi tortilib ketar edi... Sasha, sen Makeevkadansan-a?

Sasha. Krasniy Sulinda ishlar edim. («General Rahimov»)

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, joy nomlarining metonimiyalashuvi so'zlovchining turli xil maqsadlari bilan bo'ladi. Po'latovning nutqida Samarqand so'zi to'la Samarqand shahri aholisi ma'nosini emas, balki u yerdagi madaniyat va san'at, ma'rifat ahli ma'nosini bildiradi. Ko'r qalandar nutqida viloyat so'zi to'la aholi ma'nosini berayotganday ko'rinsada, ko'proq u yerdagi fitnachi, qo'zg'olonchilar ma'nosini nazarda tutadi. Uning nutqida Samarqand so'zi shahar aholisi ma'nosini emas, shu shahar markaz bo'lgan shohlik, hukumat, Ulug'bek saltanati ma'nosida qo'llangan.

Ulug'bekning nutqidan olingan birinchi parchada Sayxun so'zi Sirdaryo bo'yida joylashgan viloyat ma'nosini, Samarqand so'zi shu shahar poytaxt bo'lgan shohlik saltanati, Toshkent so'zi ushbu nom bilan bog'liq viloyat hududida yashovchi aholi ma'nosida kelgan. Agar e'tibor berilsa, bu yerda nutqda o'xshatish, jonlantirish, metafora hodisalari ham qo'shib kelishi ro'y bergan. Chunki Samarqand aka-yu, Toshkent iniga o'xshatilgan, ta'zimda bo'lish metaforik ma'no tashiydi, shu o'rinda joy nomlari ushbu ma'nolarda jonlantiriladi. Ulug'bek nutqidan olingan ikkinchi parchada Samarqand so'zi ushbu tug'ilgan shahri aholisi, qarindoshlar ma'nosida kelgan.

Buroqbek nutqida Samarqand so'zi bu shahar poytaxt bo'lgan podshohlik, hukumat ma'nosida, Devonbegi nutqida boshqa shahardan keladigan mehmonlar ma'nosida qo'llangan.

Sayidbek nutqida G'ijdivon so'zida bu so'z bilan bog'langan hudud ma'nosi tushuniladi. Marchenko nutqida Amerika so'zi shu nom bilan ataluvchi hududidagi ijtimoiy tuzum ma'nosini beradi, u Makeevka deganda shaharning o'zi tushuniladi, shahar so'zi tushib qodirilgan. Sasha nutqida korxonalar ma'nosi uning nomi orqali ifodalaniib, metonimiya ro'y bergan.

Qismning butun ma'nosida kelishini nutqda samovar so'zining qo'llanishida aniq kuzatish

mumkin.

Oysara. Men samovar qo'yib yuboray. («Gulsara»)

Netayxon. Nusrat akam telefon qildilar, ishlar besh! Ulfatlariga samovarda osh qilib berar emishlar. («Tobutdan tovush»)

Mavlon. Hozir samovarga qarab ketdi. («Shohi so'zana»)

Bu yerda birinchi misolda Oysara nutqida "samovar" so'zi o'z ma'nosida - choy qaynatishga mo'ljallangan idish ma'nosida qo'llangan, ikkinchi va uchinchi misollarda Netayxon hamda Mavlon nutqida choyxona ma'nosida kelgan, ya'ni nutqda metonimiya hosil bo'lgan.

Nutqda sonlarning metonimiyalashuvi ham qiziqarliqdir. Quyidagi misollarga e'tibor beraylik.

Farmon. Sottiniso, manavi yigirman ham yozib qo'y.

O'rinboy. Oyim hozir necha yoshga kirdilar.

Hamma. 75 ga.

Farmon. Agar shu ishingizni to'g'rilab bersak, qancha pul bermoqchisiz?

Xotin. Besh ming. O'g'lim chiqqandan keyin yana o'n ming beraman.

Xotin. Bir og'iz gapga 15 ming olsangiz yomonmi? («Kelinlar qo'zg'oloni»)

Idish nomining uning ichidagi taom, ya'ni yeyimlik-ichimlik ma'nosida qo'llanishi ham nutqda keng uchrovchi metonimik hodisalardandir. Masalan:

O'rinboy. Bir shishagina olib kelaylik. Agar joning chiqib ketsayam. Bir shisha. («Kelinlar qo'zg'oloni»)

Muallif otining uning ijodiy faoliyati mahsuli bo'lgan asarlari ma'nosida qo'llanishi ham metonimiyaning yaxshi ko'rinishlaridandir. Masalan:

Sakkokiy

Qanday qilib muhabbatni izhor aylayin...

Ichib qolmay Nizomiydan sevgi kosasin?

Bu yerda ham, yuqorida ko'rganimizdek, metonimiya bilan yonma-yon yoki qo'shilib metafora (sevgi kosasi) birgalikda qo'llanilgani kuzatiladi va ular nutqning obrazlilikini ta'minlashga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Алиқулов Т. Полисемия существительных в узбекском языке: Автореф. канд. дисс. Т.: 1975.
- 2.Begmatov E. va boshqalar. Adabiy norma va nutq madaniyati. – Toshkent: O'zbekiston, 1983.
- 3.Begmatov E., Tursunpo'latov U. O'zbek nutqi madaniyati asoslari. – Toshkent: Fan, 1991. 176-b.
- 4.Doniyorov X., Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil, – Toshkent: Fan, 1988. 208-b.
- 5.Imomov B. Dramaturgik mahorat sirlari. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. 176-b.
- 6.Mirtojiev M. O'zbek tilida polisemiya. – Toshkent: Fan, 1975.
- 7.Mutallibov S. Omonim va polisemiya so'zlar. // Sovet maktabi, 1954,-9-son.
- 8.Mukarramov M. O'zbek tilida o'xshatish, – Toshkent: Fan, 1975.
- 9.Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent: Fan, 1977.

Alijon SAFAROV,
O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Bosma OAV va noshirlik ishi fakulteti, Harbiy va sport jurnalistikasi kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TATAR ZIYOLISINING E'TIBORINI TORTGAN “SADOI TURKISTON”

Annotatsiya: mazkur tadqiqotda “Tatar vaqtlı matbuotida Turkiston” nomli kitobda Ibrohim Tohiriy muallifligida berilgan bir maqola misolida “Sadoi Turkiston” gazetasiga tatar ziyolilarining munosabati ochib beriladi. Muallifning Turkiston jadidchilik harakatida muhim o'rin tutgan mazkur gazeta haqidagi muhim fikrlari, tahlillari o'rganiladi. Natijada, tatar ziyolilari millatni g'aflet va jaholatdan uyg'otishda Turkiston jadidlariga katta umid, ishonch bilan qarashgani, jadid bobolarimiz tomonidan nashr etilayotgan gazeta va jurnallarni ma'naviy qo'llab-quvvatlashgani xususida xulosalarga kelinadi.

Kalit so'zlar: *Turkiston; “Sho'ro”; “Sadoi Turkiston”; tatar; jurnal; gazeta; nashr; jadid.*

Аннотация: в данном исследовании на примере статьи, опубликованной в книге “Туркестан на страницах татарской периодической печати” за авторством Ибрагима Тахири, раскрывается отношение татарской интеллигенции к газете “Садои Туркестан”. Будут изучены важные мысли, анализы автора о газете, сыгравшей важную роль в Туркестанском джадидском движении. В результате делается вывод о том, что татарская интеллигенция с большой надеждой и доверием относилась к Туркестанским джадидам в пробуждении нации от невежества, оказывала моральную поддержку газетам и журналам, издаваемым нашими предками-джадидами.

Ключевые слова: *Туркестан; “Шура”; “Садои Туркестан”; татар; журнал; газета; издание; джадид.*

Abstract: in this study, using the example of an article published in the book “Turkestan on the pages of the Tatar periodical press” the authorship of Ibrahim Tahiri reveals the attitude of the Tatar intelligents to the newspaper “Sadoi Turkestan”. The author's thoughts and analyses about the newspaper, which played an important role in the Turkestan Jadid movement, will be studied. As a result, it is concluded that the Tatar intelligents treated the Turkestan Jadids with great hope and trust in awakening the nation from ignorance, provided moral support to newspapers and magazines published by our Jadid ancestors.

Keywords: *Turkestan; “Shura”; “Sadoi Turkestan”; Tatar; magazine; newspaper; publication; jadid.*

“Tatar vaqtlı matbuotida Turkiston” nomli kitobning elektron nusxasida yaqin tariximizdagi muhim voqealarni ochib beradigan materiallar juda ko'p ekan. [Татар вакытлы матбугаты сәхифәләрендә Төркестан (XX гасыр башы) / төз.: Л.Ш. Гарипова, И.Г. Гомәров. – Казан: ТӘҺСИ, 2021. – 240 б.] Kitob XX asr boshlarida tatar vaqtlı matbuotida Turkiston haqida chop etilgan maqolalardan saralangani ham shundan dalolat beradi. Xususan, tatar ziyolilarining Turkiston xalqi madaniyati, tarixi, urf-odatları haqidagi fundamental ahamiyatga ega materiallari e'tiborni tortadi. Mualliflarning safar ocherklari orqali davrning ijtimoiy-siyosiy nafasini sezish mumkin. Mana shunday ocherklardan biri “Ko'rgan-kechirganlarim” deb nomlanib, Ibrohim Tohiriy muallifligida “Sho'ro” jurnalida 1914-yilda chop etilgan [“Шүро” журна-ли, 1914 йил, 23-сон.]. Ma'lumot o'rnida aytish joizki, “Sho'ro” ijtimoiy-ma'rifiy va adabiy-publitsistik jurnal bo'lib, 1908-yilning 10-yanvaridan 1917-yilning 31-dekabrigacha Orenburg shahrida tatar tilida chop etiladi. [<https://miras.info/projects/mirasxane/periodicals/297-shura-.html>]

Maqolaga keladigan bo'lsak, muallif uni “Turkistonga

sayohat etmoq orzusida shu qish Toshkent shahriga kelib, uch-to'rt hafta shu shaharda qolib ketdim. Toshkent shahriga kelib, muhtaram yurist Ubaydulla Xo'jayev (Asadullaxo'jayev, muallif izohi) janoblari tomonidan Turkiston mahalliy tilida haftasiga ikki marotaba chop etilayotgan “Sadoi Turkiston” gazetasini uch-to'rt kun topmadim” deb boshlaydi. “Sho'ro” jurnalida “Sadoi Turkiston” gazetasi chiqi boshlagani haqidagi xabar bosilganini filologiya fanlari nomzodi Sayyora Halimova ham tadqiqotida keltirib o'tadi [Халимова С.А. Убайдулла Асадуллахўжаев ва “Садои Туркистон”. Монография. Тошкент. “Университет”. 2021 Б.11]. Biroq olim keltirgan ma'lumotda “Sho'ro” jurnalining 1914-yil 5-may soni, deb qayd etilgan. Biz yuqorida tilga olgan manbada esa jurnalning 1914-yil 23-soni, deb yozilgan. Har oyda jurnal 2 marta chop etilganini hisobga olsak, may oyida nashrning 23-soni chiqishi mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Demak, “Sho'ro” jurnali “Sadoi Turkiston” gazetasi haqida yana alohida material chop etgan bo'lishi mumkin. Ubaydulla Asadullaxo'jayev 1913-yilning 21-dekabrida Sirdaryo viloyatining harbiy gubernatoridan Toshkentda “Sadoi Turkiston” nomli xususiy gazeta chiqarish uchun 37882

raqamli ruxsatnoma olishga erishadi [ЎзМДА. ТФ.461, 1-èзув, 1910 иш, 64-варақ]. Filologiya fanlari nomzodi Sayyora Halimovaning yozishicha, 1914-yilning 4-aprel kuni Toshkentdagi V.M.Ilin bosmaxonasida “Sadoi Turkiston” gazetasining 1-soni bosilib chiqadi [Халимова С.А. Убайдулла Асадуллахўжаев ва “Садои Туркистон”. Монография. Тошкент. “Университет”. 2021 Б.11.].

Ibrohim Tohiriyning maqolasi “Sho‘ro” jurnalida 1914-yilda chop etilganiga qaraganda, u Toshkentda “Sadoi Turkiston” ning ilk sonlarini o‘qishga muvaffaq bo‘lgan. Qolaversa, muallifning maqolada “Bu yilning aprelida chop etila boshlagan “Sadoi Turkiston” gazetasining o‘qishli bo‘lishi muhtaram yurist, Ubaydulla afandi Xo‘jayevga bog‘liq” degan so‘zlari ham buni tasdiqlaydi.

Maqola avvalida muallif bir muammoni o‘rtaga tashlab, “turkistonliklar yashil-qizil” rangli kitoblarini qo‘yib, gazeta o‘qishga odatlanishsa, “Sadoi Turkiston” mushtariylari 6-7 mingga yetgan bo‘lardi, deydi. Ibrohim Tohiriy Turkistonning har bir joyidagi kitob sotuvchilar ham turli hikoyat, rivoyatlarini qo‘yib, quvvatning ko‘zgusi bo‘lgan gazeta o‘qishga odatlansa, bo‘sh o‘tirganida axborotlarga ega bo‘lsa, yaxshi bo‘lardi, deya fikrini davom ettiradi. Bundan shunday xulosa chiqadiki, muallif turkistonliklarning gazetxonlik madaniyati bilan bog‘liq muammoni ham o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan. Muallif o‘z navbatida masalaning ikkinchi tomoniga ham e‘tibor qaratadi. Ya‘ni gazetxonlik madaniyati oshishi uchun nashr sifatini ham yaxshilash kerakligi borasida fikrlarini yozadi. Masalan, “Turkiston lahjasida chop etilayotgan gazetalarga qaraganda “Sadoi Turkiston”ning boshqaruvi, uslubi, tili taraqqiy etgan ko‘rinsa-da, o‘zidan oldin chop etilgan ikkita nashr yo‘lidan uzoq keta olmaydi”, deydi. Ya‘ni oldinroq chop etilgan nashrlar bilan bir xil bo‘lib qoldi, degan fikrni aytadi. Bu savolga maqolaning davomida javob berar ekan, Ibrohim Tohiriy gazeta o‘z o‘quvchilariga “miskin qalandar, darveshlar uslubida so‘fiyona falsafadan

va‘z so‘zlaydi”, deydi. Hikoyalar, maqolalarda ta‘rif- ifodalar, ilg‘or fikrlar berilishini maqtab, shu yo‘sinda davom etsa, har jihatdan taraqqiy etishini bildiradi. Muallif nashrning qanday davom etishini istagan? Buni quyidagi fikrida yaqqol sezish mumkin: “Bu gazetaga ishtirok etadigan qalamkashlar orasida qalami-da, fikrlari-da go‘zal, shaxd bilan yozuvchilar ko‘rinadur. Nomeri xotiramda qolmagan. “Sado” ning (“Sadoi Turkiston” nazarda tutilyapti, muallif izohi) bir sonida muhtaram Indamas afandi feleton shaklida “Madaniyat to‘lqinlari” sarlavhali bir maqola yozgan”. Ibrohim Tohiriy aynan shu maqoladan ta‘sir lanib, Turkiston madaniyati rivojidagi og‘riqli muammolar haqida fikrlari, mulohazalarini yozadi va uning yechimlarini ko‘rsatib beradi.

Muallifning fikrlaridan shunday xulosa chiqarish mumkin:

- tatar ziyolilari millatni g‘aflat va jaholatdan uyg‘otishda Turkiston jadidlariga katta umid, ishonch bilan qarashgan;
- Turkiston jadidlari tomonidan nashr etilayotgan gazeta va jurnallarni ma‘naviy qo‘llab-quvvatlashgan;
- turkistonliklarning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘zgarishlarga, zamon bilan hamnafas taraqqiy etishiga befarq bo‘lishmagan.

Filologiya fanlari nomzodi Sayyora Halimovaning keltirishicha, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev “Sadoi Turkiston” gazetasining maqsad va maslagini belgilashda Ismoilbek G‘asprali tomonidan 1883-yilda Qrimda chiqarilgan va Turkistonda ham keng tarqalgan mashhur “Tarjumon” ilgari

surgan ma‘rifatparvarlik g‘oyalaridan ilhomlangan [Халимова С.А. Убайдулла Асадуллахўжаев ва “Садои Туркистон”. Монография. – Тошкент. “Университет”. 2021 Б.12.]. Shu sababli ham jadid matbuoti, xususan, “Sadoi Turkiston” gazetasi tatar ziyolilarining diqqat markazida bo‘lgan va Ibrohim Tohiriy kabi ijodkorlarning maqolalarida aks etgan, deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tatar vaqitly matbugaty sèxifèlèrendè Tèrkestan (XX gasyr bashy) / tèz.: L.Sh. Garipova, I.G. Gomèrov. – Kazan: TèhSI, 2021. – 240 b..
2. Halimova S.A. Ubaydulla Asadullaxo‘jayev va “Sadoi Turkiston”. Monografiya. – T.: “ Universitet”, 2021. 148-b.
3. O‘zMDA. TF.461, 1-èzuv, 1910 ish, 64-varaq
4. “Sho‘ro” jurnali. 1914 yil, 23-son.
5. <https://miras.info/projects/mirasxane/periodicals/297-shura-.html>.

Xolisxon AKBAROVA,
 Qo'qon davlat pedagogika instituti
 mustaqil tadqiqotchisi

ASQAD MUXTOR IJODIYOTINING O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya: maqolada Asqad Muxtor ijodi va uning o'ziga xos bo'lgan qirralariga ijodiy yondashilgan. Adib ijodining o'rganilish darajasini yoritishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: *Asqad Muxtor ijodini asarlarida fonetik jihatlarini, Asqad Muxtor asarlarida unililar lingvopoetikasi, Asqad Muxtorning fonetik mahorati.*

Annotation. the article presents a creative approach to Asqad Mukhtar's work and its unique aspects. He tried to illuminate the level of study of the writer's work.

Key words: *phonetic aspects of Asqad Mukhtar's creativity in his works, linguopoetics of vowels in Asqad Mukhtar's works, phonetic skill of Asqad Mukhtar.*

Аннатация. в статье представлен творческий подход к творчеству Аскада Мухтара и его уникальные аспекты. Он попытался осветить уровень изученности творчества писателя.

Ключевые слова: *фонетические аспекты творчества Аскада Мухтара в его произведениях, лингво-поэтика гласных в произведениях Аскада Мухтара, фонетические навыки Аскада Мухтара.*

Fonetika sohasi fonetik birliklarning poetik matnda estetik namoyon bo'lishi masalalari bilan shug'ullanadi. Ijodkor tafakkurida paydo bo'lgan turli-tuman g'oyalar, tasavvurlarni nutqiy jarayonda rang-barang, jilolangan, she'riy ritmlarni o'zining strukturasiga qamrab olgan, talaffuzi va aytilishida ohangdoshlik, qofiyadoshlik kabi hodisalarni singdirgan tovush va tovushlar birikmasi orqali ham ifodalaydi. Bunday fonopoetik uslub ularda tabiatan shakllanadi. Ba'zan nasriy asarlarda fonetik vositalar uslubiy bo'yoqdorlikni yuzaga keltirishi mumkin. Bizga ma'lumki, sh'riyatda alliteratsiya, assonans, geminatsiya kabi usullardan samarali foydalaniladi. Nasrda esa unilarni cho'zish, undoshlarni qo'shaloq qo'llash, tovushlari takrorlash, tovush orttirish yoki tovush tushishi kabi fonetik usullardan foydalanish orqali qahramonlar nutqi aks ettiriladi. Fonetik uslubiy vositalar og'zaki nutqda to'laroq yuzaga chiqadi, yozma nutqda esa uning ayrim xususiyatlarinigina ifodalash mumkin.

Tovushlar tovlanishi Asqad Muxtor asarlarida ma'lum bir uslubiy vazifa bajarib, matnning hissiy-ta'sirchanligini oshirishda sezilarli ahamiyat kasb etadi. Adib asarlarida nutq tovushlar tizimida ekspressiv-emotsionallikni ifodalash jihatidan unli tovushlarning vazifasi ko'proq.

Unlilar tarkibida yuzaga keluvchi fonetik hodisalar (tovushlarni cho'zish, qavatlash, orttirish, tushirish) ning yozuvchining poetik maqsadiga ko'ra qo'llanishi quyidagi misollar tahlilida ko'rishimiz mumkin.

Unlilar cho'zilishi. Unli tovushlarni cho'zib talaffuz qilish orqali qahramonlarning voqelikdagi munosabati, holati oydinlashtiriladi. Yozuvchi mazkur

usul orqali belgining me'yordan kam yoki ortiq ekanligini ko'rsatib berishda foydalanadi. Masalan, a) belginig ortiqligi: - Bayt yozadiganlar osmonga qarab, o'yla-ab, ichidan ashula chiqazaverar ekan, - dedi u. - Mana roman-kitob yozadganlar odamlar nima qilsa shuni yozadi. Juda qiziq... ("Opa-singillar"). Parchada a unlisini cho'zib talaffuz qilish orqali belgining me'yordan ortiqlik ma'nosi anglashiladi. Ushbu tasvir usuli asar qahramoni Bashoratning bolalarcha soddalik bilan aytilgan fikrlarini ko'rsatib bergan. Odatda bolalar nutqida unli tovushlari cho'zib talaffuz qilish holatlari ko'p uchraydi. Bu bola nigohi bilan anglangan borliq, voelikning o'zgacha ifodasidir. Bolalar nutqida unilarni cho'zib talaffuz qilish, belgining, miqdoring ortiqligini ifodalash barobarida, g'urur, faxr, maqtanish ma'nolarini anglatishga xizmat qiladi.

b) e'tiroz: - Yo'o'o'q... - dedi Quadratillaxo'ja xayol surib,-u o'zini-o'zi ahmoqlikka solidi. Turgan-bitgani aql buning, lekin ichida. Men sezib yuribman bundan bir maslahat chiqadi. ("Opa-singillar"). Ushbu parchada zamonasidan bir qadam oldinda yuradigan Afg'on cho'yfurushning tanish insonlariga bergan maslaxatiga amal qilmay, soddalik qilganliklari natijasida, cho'yfurushning ularga bildirgan e'tirozidan so'ng Quadratillaxo'ja va Naimiyning fikrlari keltirildi. Unli tovushni cho'zib talaffuz qilish orqali jumlada avvalgi bildirilgan fikrga so'zlovchining keskin qarshilik ifodasi mavjud.

- Yo'o'q! deb boshini chayqadi Zargarov uning qulog'ida Haydarovning ovozi yangrab ketdi: "Tayyor loyihalarni rad ilasiz! Muddatlarning mas'uliyatini kimdan so'raymiz?" ("Bo'ronlarda bordek halovat"). Ushbu parchada asar bosh qahramoni Zargarov -

o'z ishini sevadigan, qat'iy fikrli tadbirkor rahbar, - hamda uning tanish do'sti Mkrtchyan o'rtasidagi suhbat aks etmoda. Inkor ma'noli so'z yordamida Zargarovning nutida o'ziga va o'z fikriga bo'lgan qat'iy ishonch ma'nosi mujassamlashgan.

E-e-e! Belni sindirasan! Cholga mundo rahming kelsa-chi! ("Opa-singillar"). Ushbu jumlada asarning asosiy qahramonlaridan biri bo'lgan Yefim Danilovich va Ergashning suhbat berilgan. Kuch-quvvatga to'lgan abjir yigit Ergash Yefim Danilovichni quchoqlab, dast ko'tarib olganda Yefim Danilovich undan bu holatni kutmaganligi sababli, unga e'tiroz bildirgandagi holatdir.

-Yo'-o'-o'q, axir! Kelib siz bilan suhbatlashib o'tirdi-ku? Xushbichim, xushmuomala... ("Chinor").

d) hayrat va hayqiriq: - Ohho-o! - dedi u ingichka ovoz bilan, cho'zib. Ikki qo'li bilan boshini ushlab ko'zlarini kata ochdi. - Vot masala! Yefim Danilovichning qarindoshlari-ku, kelinglar, kelinglar. - U ichkariga qarab qo'lini karnay qilib, qichqirdi: - Ma-a-ster! O'rtoq Nadejdin! ("Opa-singillar").

- Vax-va-ax!.. O'sha kuni bu bolalarni ko'rmabsan! - dedi u zavlanib. - Men ular bilan uddi atakaga borgandek bo'ldim-da! ("Bo'ronlarda bordek halovat"). Parchada Zargarov va Sandroning suhbat berilgan. Unli a tovushini cho'zibroq talaffuz qilish orqali Sandro payvandchilarning ishlaridan hayratlanish ma'nosini ifodalomoda.

Asqad Muxtor uslubiga xos jihatlardan yana biri oddiy insonlar obrazini yaratish jarayonida ularning nutqiga xos individuallikni ko'rsatish maqsadida unilarni cho'zib talaffuz qilishga alohida e'tibor beradi. Bu usul o'rni bilan qahramonning taajjub to'la nigohi hamda hayrat, achinish, zerikish yoki baxtiyorlik aks etgan holatlarni kitobxonning ko'z o'ngida gavdalantirishga xizmat qiladi.

e) taajjub: -O-o! Alximik! - deb quchoqladi Ziyodani, sergaplik bilan uzundan uzoq so'rashib ketdilar ("Bo'ronlarda bordek halovat").

-E-ha-a! Ismoil aka bish tebratib qoldi, boshliqning qattiq tashvishga tushganicha bor ekan ("Bo'ronlarda bordek halovat").

Bu usul qahramonning taajjubga to'la nigohini yoritib berishda muhim rol o'ynagan.

- Nima gap o'zi, nima bo'lyapti bu hovlida?

-O-o-o jiddiy tadbir, xonim, jiddiy tadbir! Shahar sho'basi rahbarligida maorif oyiligi o'tkazmodamiz ("Opa-singillar")

Adib asarlarini tahlil qilar ekanmiz uning qahramonlari nutqini qanchalar xalqona, soda ekanligini guvohi bo'lamiz. Adib bunday usul orqali har bir qahramonini yaratishda xalq qo'llaydigan oddiy jumlar va birikmalardan foydalanadi. Natijada asarning alqimiz orasida sevib o'lishiga va kitobxonlarning sevimli kitoblari

qatoridan joy olishiga sabab bo'ladi.

Alliteratsiya hodisasi undosh tovushlar takrorining alohida ko'rinishi sifatida fonopoetikaning muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Undosh tovushning badiiy matnda poetik aktuallashuvi ularning takrorlanishi natijasida sodir bo'ladi. Badiiy nutq ta'sirchanligi va ohangdorligini ta'minlashda ana shu kabi tovushlar takrorining o'rni muhimdir. Bu hodisa nutqning barcha ko'rinishlarida qo'llanadi.

f) kuyunish: - Voy sho'rim! Voy sho'ri-im! - dod voyiga ichkaridan kichik otin ham o'shildi. - Shu qulvachchani-ya, bizing ustimizga-ya! ("Opa-singillar"). Parchada Matqovul Mardonqulovning moliya odimlarining to'lovidan qochish uchun uyidagi cho'ri qiz Xolnisoni nikohiga olganligini eshitgan xotinlarining so'zlari berilgan. Adib ushbu dialogda i unlisini cho'zib ko'rsatish orqali ayoldagi hasratni, alamni yuqori bosqichda ekanligini ko'rsatishga harakat qilgan.

j) vaqtning davomiyligi, cho'zqligi: Tursunoy birpas jim bo'ladi-yu, yana toqat qilolmaydi.

-Opa ji-i-im bo'lsa chigirtka chirillaydi, yomon ko'raman, ashula ayta qolay? ("Opa-singillar"). Asar voqealari davomida bizga ayon bo'lganidek roman opa-singil Bashorat va Tursunoy atrofidagi voealar rivojiga asoslanadi. Asardagi Tursunoy obrazi biroz quvnoq, qiziquvchan qiz ekanligini bilib olamiz. Ushbu jarayonda onalarini majlisdan qaytishini kutib o'tirishgan opa-singillarning kattasi Bashorat ariza yozishga harakat qilmoda, singlisi esa o'lik sukunatni buzish uchun ashula hirgoyi qilgisi kelib turgan vaziyat tasvirlangan. Ji-i-m so'zining cho'zib talaffuz qilinishi orali yozuvchi singilni uzoqroq tinchlikni saqlab turishi kerakligini tasvirlamoqda.

Qofiya fonopoetik birlik sifatida lingvopoetikaning o'rganish obyekti hisoblanadi. Chunki bunda fonetik vositalardan hisoblangan tovushlarning mosligi, ohangdoshligi, variantlashuvi muhim o'rin tutadi. Odatda, "qofiya (arabcha - misra oxiridagi so'zlarning bir-biriga mos kelishi) - she'riy misralar ohiridagi qo'shimcha so'z, ba'zan so'z birikmalarining ohangdosh bo'lib kelishi, anirog'i, ularning tarkibidagi tovushlar guruhining ohangdoshligi" ga asoslanadi. Mazkur usul faqat she'riyatdagina qo'llanilmasdan, balki nasriy nutq fonopoetik tahlilida ham muhim o'rin tutadi. Chunki nasriy matnlarning badiiy-estetik va psixologik ta'sir kuchi o'zgacha xususiyatga ega bo'ladi. Ushbu vosita yozuvchi Asqad Muxtorning san'atkorlik mahoratini yanada namoyon qiluvchi vositadir. Chunki adib asarlaridagi "unlilar ohangdoshligiga asoslangan dissonans qofiya" ko'rinishlaridan unumli foydalangan. Masalan, - Tamara, Samara, sizmisiz? Azbaroyi qoqindiq, bormisiz, qulog'ingizni burayverib soqolim o'sib

ketdi. A? Alo, gorod! Tamaraxon! Ha endi sizga muhabbatimiz kundan- kunga ortaveradi-dalanovo-Voznosenskdan yuklarimiz yo'lga chiyapti, ha. A? Ha, ha boy kuyovmiz-da, ko'chlarimiz shunaqa besh poezdga joy bo'lib karvon-karvon bo'lib keladi. Tamara bizga yana Samara! (Opasingillar"). Jumladagi Tamara, Samara; bormisiz, sizmisiz; so'zlari ohangdoshlikni vujudga keltirgan hamda evfonik, musiqiylik, ohangdoshlik kabi vazifalarni bajargan. Asqad Muxtor asarlarida fikrning bunday ifodalanishi uning o'ziga osulubiy va poetik mahoratidan darak beradi.

Asqad Muxtor asarlarida geminasiyadan o'rinli foydalangan. Undosh tovushlarni qavatlab, cho'zib qo'llash natijasida asarda o'sha so'zlar

kuchli poetik ta'kid olgan. Masalan: -Ha, yaxshi ko'radi...- dedi Zargaroni qo'ltlab olib yumshoq gilamni asta bosarkan.

-O'zingiz-chi?

-Mm...men ham yaxshi ko'rishni yaxshi ko'raman,- deya, so'z o'yinini boshlab yuborganiga o'zi ham qoyil bo'lib, yayrab kuldi Abbosov. ("Bo'ronlarda bordek xalovat"). Parchada birbirlarini xushlamaydigan Abbosov va Zargarov suhbatini berilgan. Tavakkal berilgan savolga Q. Abbosovning o'zicha topqirlik bilan berilgan javobidagi m tovushini cho'zib talaffuz etilishi orqali Abbosovga biroz noqulaylik yuzaga kelganligini ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sharofiddiov O. Yillar va yo'llar/Adabiyotimizning yarim asri.—T.: Adabiyot va san'at. 1967. 1-kitob. 164-244-b.
2. Sharofiddinov O. Ijodning katta yo'lida. / Iste'dod jilolari.—T.: Adabiyot va san'at, 1976. 153-182-b.
3. Sharofiddinov O. Asqad Muxtor/ XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Univer. va pedag. Institutlari bakalavrlari uchun darslik.—T.: O'qituvchi, 1999. 363-378-betlar.
4. Рахимджонов Н.К Лирическая поэма (на основе материалов узбекской поэзии). Авореф дисс канд филолог наук. 1975. 25-с
5. Rahimjonov N. Faylasufning aytganlari. // O'zbekiston madaniyati, 1978. 23-dek.
6. Rahimjonov N. Ilmiy tafakkur jilolari. — T.: Fan, 1961. 64-b.

Mohigul RASULOVA,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Magistratura bosqichi 2-kurs talabasi

CHINGIZ AYTMATOVNING "KASSANDRA TAMG'ASI" ASARI TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada mashhur qirg'iz adibi Chingiz Aytmatov hayoti va ijodi haqida ma'lumot, "Kassandra tamg'asi" asari tahlili xususida so'z yuritildi.

Kalit so'zlar: *adabiyot, samoviy rohib, embrion, futurolog, kosmos, Kassandra tamg'asi, ommaviy ongsizlik.*

Аннотация: в данной статье рассказывается о жизни и творчестве знаменитого киргизского писателя Чингиза Айтматова, проводится анализ произведения "Знак Кассандры".

Ключевые слова: *литература, эмбрион, футуролог, небесный монах, космос, «Знак Кассандры», массовое бессознательность.*

Abstract: this article contains information about the life and work of the famous Kyrgyz writer Chingiz Aitmatov, and an analysis of the work "The Mark of Cassandra".

Keywords: *literature, celestial monk, embryo, futurist, space, Cassandra's mark, mass unconscious.*

Kirish. Bugungi kunda O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga qadam qo'yimoqda. Biz milliy tiklanishdan – milliy yuksalishga erishishni o'z oldimizga eng muhim va ustuvor vazifa qilib qo'ydik. Bu ulug' maqsadga esa jahon ahli bilan hamjihat va hamkor bo'lib yashash, ochiq demokratik jamiyat qurish, hayotimizda milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini yanada keng qaror toptirish orqaligina erishish mumkinligini biz yaxshi anglaymiz. Ayni shu nuqtayi nazardan qaraganda,

o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilish, ko'pqirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish katta ahamiyatga ega. Mamlakatimiz hududida asrlar davomida yaratilgan badiiy adabiyot durdonalari har bir avlod ijodkorlari tomonidan yangilanib, boyitilib, badiiy jihatdan yanada takomillashtirilib kelingan. Hozirgi davrda adiblarimiz ijodini o'rganish

va ular yaratgan o'lmas asarlar bilan o'quvchilarni tanishtirish, ularga o'rgatish adabiyotshunoslikning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Buning yaqqol namunasi sifatida shuni aytib o'tish joizki Prezidentning 2.04.2018 yildagi «Buyuk adib va jamoat arbobi Chingiz Aytmatov tavalludining 90 yilligini keng nishonlash to'g'risida»gi qarori imzolandi. Unga ko'ra O'zbekistonda taniqli qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning (1928–2008) badiiy merosi yuqori baholanib. Uning asarlari mamlakatimizda millionlab nusxalarda nashr etilmoqda, O'zbekiston Milliy universitetida doimiy faoliyat ko'rsatadigan «Chingiz Aytmatov va O'zbekiston» ekspozitsiyasi tashkil etildi. Adib tavalludining 90 yilligini nishonlashga bag'ishlangan bayram tadbirlari rejasi doirasida quyidagilar nazarda tutilgan: «Chingiz Aytmatov va O'zbekiston» nomli xotira kitobini nashrga tayyorlash va chop etish; Chingiz Aytmatov hayoti va ijodiy faoliyati haqida hujjatli film yaratish; yozuvchi asarlari asosida yangi spektakl sahnalashtirish va badiiy film suratga olish; Chingiz Aytmatov xotirasini abadiylashtirish maqsadida Toshkent shahrining markaziy ko'chalaridan biriga adib nomini berish; Toshkent viloyati Parkent tumanidagi 33-maktabda adib byustini o'rnatish; «Chingiz Aytmatov va o'zbek adabiyoti» mavzusida ilmiy konferensiya o'tkazish; mamlakatimizdagi oliy o'quv yurtlari, kollej va litseylar, umumta'lim maktablari, harbiy qismlar, mehnat jamoalari va mahallalarda taniqli shoir va yozuvchilar, olimlar ishtirokida uchrashuvlar, adabiy kechalar tashkil etish; O'zbek Milliy akademik drama teatrida atoqli adib xotirasiga bag'ishlangan ijodiy kecha o'tkazish (2018 yil dekabr oyining ikkinchi o'n kunligida). O'ziga xos poetik uslubga ega bo'lgan adib Chingiz Aytmatov ijodi butun dunyo ahlini o'zining haroratli so'zi ila hayratga soldi. Yozuvchi ijodining originalligi, xalq og'zaki ijodining badiiy unsurlaridan unumli foydalanib, insonlarni ezgulikka, bashariyatni esa ogohlikka da'vat etishi bilan xarakterlanadi.

Asosiy qism. *Kassandra tamg'asi...* Bu hali embrionlik davridayoq bolaning borliqqa nisbatan ilk nidosi. *Kassandra tamg'asi...* Bu adolatsizlik va adolat nimaligini aniq bila olgan sado. *Kassandra tamg'asi...* Bu dunyoning oxir bo'lishi yaqinlashayotganini ona qornidayoq butun borlig'i bilan va umidsizlanish hissi ila kutayotgan oxirzamon homilasining kadr orti ovozidir. Aytmatov bu asarida embrion, ayol peshonasidagi dog' haqida so'z yuritmaydi. Asarga boshqa rakursdan qaraymiz. «Oxirzamon nishonalari» dunyo razolat botqog'iga botib ketayotgani, fahsh, yolg'on, o'g'irlik, adolatsizlik, johillik haddan ziyod ortib borayotganini bildirib qo'yuvchi bir sado, go'yo. Kitobni o'qish mobaynida borliqqa nisbatan, atrofingizdagi bo'layotgan voqealarga nisbatan mulohaza ila qaray boshlaysiz. Eng achinarlisi, bu kabi muammolar tashqaridan emas, insoniyatning qilayotgan xatti-

harakatlari, xudbinligi, axloqsizligi oqibatida yuzaga kelgan. Asarda tabiat va ilm bir nuqtada, bir muammo ustida kesishgan. Asarda devqomat kitlar o'zini qirg'oqqa otib o'limni qabul qilishida o'ziga xos ramz bordek, go'yo. Bu insoniyat o'z-o'zini oxir zamonga yetaklab boryapti ma'nosida. Dahshat! Odamzod o'z-o'zi bu tubsizlikka olib bormoqda! Keling, avval nega aynan «Kassandra tamg'asi» deya nom olganiga to'xtalsak. *Kassandra* davrda yashab o'tgan troya hukmdori Priamning qizi. Unga bashorat qila olish qudrati beriladi. Ammo u Apollonni aldagani uchun, uning muhabbatiga javob bermagani uchun la'natga uchraydi. Shundan keyin uning so'zlariga hech kim ishonmaydi. Asarda bosh qahramon samoviy rohib Filofey. U hayotning achchiq qismati davrida tug'ildi. Ana shundan keyin onasi uni tashlab ketgach, ulg'aygancha ham hayotning yorug' tomonini ko'rmadi. Mana shu sabablar ta'sir qilmadimikan uning mana shunday inqilob yasashiga? O'ying faqat qorong'u 15 kunida yashagan Filofey odamzod mana shunday achchiq qismatda yashashini oldindan sezib, embrionlik davridayoq tug'ilishni rad etadi degan qarorga keladi. U ruhiy jihatdan ezilib yashadi doim. Tibbiyot institutidalik paytidayoq homiladorlik mo'jizasi va odamning dunyoga kelish sirlarini o'rganishga qiziqib qoldi. Va mana shundan uning shuhratparastlik pillapoyasidagi ilk qadami boshlandi. Bu o'z-o'zidan paydo bo'lgan narsa emas. U hayotning g'am-azoblarini tatib yashadi. Nihoyat, u hammasiga yechimni izladi va topgandek sezdi o'zini. Shundagina unda psixoanalitik Adler konsepsiyasi bo'yicha shuhratparastlik boshlandi. Adlarning fikriga ko'ra, insonni harakatga undovchi asosiy kuch shuhratparastlik. Filofeyda shu narsa yuzaga chiqdi. Uning o'zi ham oxirgi iqrorida bu narsani tan oladi. Robert Bork esa adolat va adolatsizlik orasida qurbon. Fikr erkinligi deb atalmish jarayonning shafqatsizlarcha buzilishining dalili. U fikrini bayon etmoqchi edi. Ammo...

Oliver Ordok. Jamiyatda niqob taqib yurgan insonlar in'ikosi. Entoni Yunger. Insoniyatning asl ko'rinishi. Odamlar xuddi shunday bo'lishini chin dildan istagan Aytmatov. Asar fantastik usulda yozilgan bo'lsa-da, realistlik asar sifatida tan olingan. «Kassandra tamg'asi» siz o'qishingiz kerak bo'lgan asarlar ro'yxatini yuqori o'rinida turishga arziydi. «Kassandra tamg'asi» romanini yozganidan keyin unga kosmopolit-yozuvchi sifatida qarashganini u goh kulib, goh afsus bilan eslardi. Shuni ham unutmaslik kerakki, dunyodagi global jarayon milliy o'zlikni belgilash, o'zini o'zi anglash, o'zini identifikatsiyalash bilan dialektik jihatdan bog'liqdir. Bular birini-biridan ajratib bo'lmaydigan kategoriyalardir. Ularning munozarasi bugungi kunda tarixni harakatga keltiruvchi kuchga aylandi. Biz o'lim muqarrar ekanligini bilamiz. Biroq butun insoniyat halokatga mahkum bo'lishi mumkinligini XX asrdagina anglab yetdik. Aynan

mana shu tuyg'u — "inson azob chekishining umumiy muvozanati" (Ch.Aytmatov) insonni Iso Masih va Pontiy Pilat munozarasini qayta idrok qilishga majbur etdi. Rivoyat yangicha talqin qilinganini ko'pchilik avval sezmad. "Qiyomat" asaridagi Avdiyning ko'rganlari bilan Gefsiman bog'ida Xristosning ko'rganlari bir-biriga o'xshash — olamshumul, umumhalokatni his qilishiga asoslangan. Zamin xarobaga aylangan, bironta tirik jon yo'q. "Nahotki shafqatsiz dunyo insonni ham, xuddi chayon o'zini o'zi o'ldirgani kabi, o'zini o'zi mahv etishga majburlasa?!".

Xulosa. Ch.Aytmatov ijodiy tafakkuri va badiiy dahosining o'ziga xos tomoni shundaki, u biron-bir asarida, adib xoh "Oq kema", xoh "Asrga tatigulik kun" yo keyingi asarlari bo'lsin, o'zining ona yurtini tasvirlash bilangina cheklanib qolmaydi. U qanday mavzu yo masalani ko'tarmasin, nimani tasvirlamasin, haqiqiy san'atkor va faylasuf sifatida hamisha o'zining mulohazalari va yaratgan asarlarida ularni umuminsoniy manfaat va muammo darajasida

anglashga harakat qiladi. Shu bois Ch.Aytmatov milliy qobiqni yorib chiqib, jahoniy miqyosga yuksaldi. Uning chuqur umumlashmalar va mulohazalarga boy asarlari amerikalikka ham, olmonga ham, yapon va polyak, qozoq va rus kitobxoniga ham bir xil kuch va qudrat bilan ta'sir ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, F.Shelling ta'kidlaganidek, Ch.Aytmatov "zamon va olamni qalbiga sigdirish salohiyatiga ega bo'lgan"¹ insonlar sirasidandir. Aynan shuning uchun ham u ko'pchilikdan o'zib, g'oyalar ifodachisi sifatida tanildi va faqat o'zibgina ketmasdan, balki o'z davrining yo'qotishlari, yutuqlarini ham belgilab bera oldi. Ishonchim komilki, yillar o'tgani sari Chingiz Aytmatov asarlari butun jahon adabiyotida yanada ko'proq ahamiyat kasb etib boradi, ulug' adibning nomi, xuddi yulduzlar joyida qoim turganidek, yanada yangicha jilolanaveradi. Uning qutlug' nomi buyuk adib, faylasuf va insonparvar zot sifatida manguликка doxilligicha qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibrohimova R. Fantastikada an'ana va adabiy ta'sir masalasi. — URL: <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/rano-ibrohimova-fantastikada-anana-vaadabiy-tasir-masalasi/>
2. Fayzullaev O. Yozuvchining ilmiy fantaziyasi. — URL: <https://ziyouz.uz/ilmva-fan/adabiyot/omonulla-fayzullaev-yozuvchining-ilmiy-fantaziasi/>
3. Aytmatov Ch. Cassandra tamg'asi. Roman. Rus tilidan Suyun Qoraev tarjimas. — T.: Adabiyot uchqunlari, 2009. 285-b.
4. Aytmatov Ch. Asrga tatigulik kun; Qiyomat. Romanlar. Rus tilidan A. Rashidov

Gulnora XOLMUROTOVA,
Termiz davlat universiteti talabasi

LUQMON BO'RIXONNING "SIRLI MUALLIM" QISSASIDA MUALLIM OBRAZINING BADIY TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada yozuvchi Luqmon Bo'rixonning "Sirli muallim" qissasi tahlilga tortilgan. Shuningdek, yozuvchining davr va inson muammolarini yoritishdagi badiiy mahorati, muallim obrazining badiiy talqini masalalariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: kompozitsiya, uslub, muallim obrazi, portret, davr muammosi, ichki ruhiyat.

Аннотация: в данной статье анализируется повесть «Таинственный учитель» писателя Лукмана Борихана. Также внимание уделяется художественному мастерству писателя в освещении проблем времени и народа, художественной интерпретации образа учителя.

Ключевые слова: композиция, стиль, образ учителя, портрет, проблема периода, внутренняя психика.

Abstract: in this article, the story "Mysterious Teacher" by the writer Luqman Borikhan is analyzed. Also, attention is paid to the artistic skills of the writer in covering the problems of the time and people, and the artistic interpretation of the image of the teacher.

Keywords: composition, style, image of the teacher, portrait, period problem, inner psyche.

Kirish. Kishi dunyoga kelibdiki, unga ta'lim tarbiya beradigan, turmush past-balandliklaridan voqif qilib, to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatadigan bir muallimga ehtiyoj sezadi. Insonning barkamol shaxs bo'lib, hayotda o'z o'rniga ega bo'lishida ustozning o'rnini beqiyos. Jamiyatning ajralmas qismi bo'lgan muallimlar to'g'risida nasrda ham, nazmda

ham bir qancha sara asarlar yaratilgan. Xususan, zamonaviy o'zbek adabiyoti vakili Luqmon Bo'rixon qalamiga mansub "Sirli muallim" asarida ham ustozlar masalasi qalamga olingan. "Muallim haqida so'zim ushbu: Muallim kamolot ichra ko'zgudir"... Abdulla Oripovning ushbu misralari epigraf qilib keltirilganidan bilishimiz mumkinki, asar tom ma'noda MUALLIM atalmish zot to'g'risidadir.

Qissada yozuvchi kichik hayotiy hodisani tasvirlash orqali katta ijtimoiy-ma'naviy muammoni badiiy tadqiq qilgan. "Sirli muallim" qissasi nafaqat badiiy tilining jozibadorligi, balki noodatiy kompozitsion qurilishi bilan kitobxon diqqatini tortadi. Bu borada yozuvchi o'ziga xos usuldan borgan, ya'ni voqealar muallif tilidan emas, balki qahramonlarning har biri tomonidan tushuntirish xati yozish orqali bayon etilgan. Jami bo'lib oltita tushuntirish xati olti nafar boshqa-boshqa qahramonlar tilidan yozib olingan, bu esa faqat bir kishining gap-so'zlari orqali hukm chiqarmaslikka, vaziyatni turli tomondan kuzatib baho berishga undaydi. Hodisalar jurnalist tomonidan o'rganilib, tahlil qilinadi, ammo aniq va oshkora hukm chiqarish kitobxonning o'ziga havola qilinadi.

Asosiy qism. Asar voqealari tugundan – tahririyatning bosh muharriri bir jurnalistni maktabning geografiya o'qituvchisi Najot G'aybulla ustidan ochilgan jinoiy ishni atroflicha o'rganib, "qalamga ilashgulik holi bo'lsa shartta biror narsa qoralab kelish" uchun 41-posyolkaga yuborishdan boshlanadi. Jinoiy ish nimalardan iborat ekanligi, Najot G'aybullaga jinoiyatni sifatida qarash qanchalik o'rinni ekanligini esa tushuntirish xatlari orqali asar davomida bilib olamiz.

Asar qahramonlari tomonidan ta'rif va tavsif etilgan, barchaning e'tiboriga tushib, "Sirli muallim" nomini olgan obraz – Najot G'aybulla. Tushuntirish xatlarini o'qir ekanmiz, Najot G'aybullaning chekka bir qishloqda joylashgan oddiygina bir maktabga ismiga monand tarzda NAJOT NURI bo'lib kirib kelganiga guvoh bo'lamiz. Direktor Qalqonov tomonidan Najot G'aybullani ilk bor ko'rgandagi holati quyidagicha ta'rif etiladi: "Bir payt bo'sag'amga bir sharpa ko'ndalang bo'ldi. Shartta bosh ko'tarib qaradim. Qaradimu beixtiyor o'rnimdan turib ketdim. Taftishchi-yov?! – lip etib o'tdi xayolimdan. Bunday o'y kallamga behuda urilmadi. Axir, bo'sag'ada baland bo'yli, kelishgan, yap-yangi, qimmatbaho kostyum-shim, oppoq ko'ylak kiygan yigit turar edi. Yuz-ko'zlaridan allanechuk nur yog'iladi" [1: 82].

Adabiyotshunos olim D.Quronov badiiy adabiyotda inson obrazini to'laqonli yaratish, uni o'quvchi ko'z oldida konkret jonlashtirish uchun xizmat qiladigan qator vositalar haqida so'z yurita turib, bularga muallif xarakteristikasi, portret, badiiy psixologizm, personaj nutqi kabi unsurlarni kiritadi [3: 67]. Personajning so'z vositida tasvirlangan tashqi ko'rinishi (qiyofasi, jussasi,

kiyimi, yuz-ko'z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari), o'quvchi tasavvurida jonlanadigan to'laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri bo'lgan, epik asarning kompozitsion unsuri bo'lmish tavsifning bir ko'rinishini portret deb ataladi [4: 226]. Luqmon Bo'rixon yuqoridagi tasvirda portret unsuridan mohirona foydalangan va kitoblarxonga Najot G'aybulla obrazini ijobiy kayfiyatda tanishtirgan.

Najot G'aybullaning muomalasi, o'zini tutishi, kiyinish uslubi, dars jarayonidagi pedagogik mahoratiga havas qiluvchilar bilan birga uningdek bo'la olmasligidan o'ksib, hasad qiluvchilar ham topilar edi. Doim bir xillikka, odatiy dars o'tish jarayoniga o'rganib qolgan o'qituvchilar nazarida Najot G'aybulla bir sehergardek, bir boyvachchaning to'qlikka sho'xlik qilib yurgan arzandasidek yoxud noma'lum jinoiy to'da a'zositdek tuyilaverardi. Xususan, Ulash agranom "sirli muallim"ga shunday ta'rif beradi: "Najot G'aybulla qandaydir boyvachchaning to'qlikka sho'xlik qilib yurgan arzandasi. Avantiyurist. Bunaqalarni kino va romanlarda ko'p uchratamiz. Ular ota-onalarining boyliklariga qanoat qilmay har xil sarguzashtlar ishtiyoqida yurishadi. Najot G'aybulla ham xuddi shunday. Muallimlikka ko'ngilchalari sust ketgan. Shu yo'l bilan yosh o'quvchi qizlarning bokira yuragini zabt etib, ishqiy maynavozchiliklar qilmoqchi bo'lgan" [1: 90]. Asar davomida bosh qahramonga shu qabildagi ko'pgina nohaq ayblovlar qo'yilgan. Luqmon Bo'rixon bu orqali Najot G'aybulla shaxsiyatini emas, balki shunday asossiz fikrlarga tayanadiganlarning saviyasini, shaxsiyati va dunyoqarashini ochib bergan, deyish mumkin. "Mevali daraxtga tosh otildi", deganlaridek, yangi kelgan o'qituvchini maktab jamoasi sig'dira olmadi, undan turli kamchilik, nuqson topishga urinaverishdi. Aksiga olib, Najot muallim tirishqoq, kasbiga fidokor, bolalarga muhabbatli, jamoa bilan kirishimli bo'lishga harakat qilardi. Uning kasbiga fidokorligidan biri maktabga o'z hisobidan darsliklar, o'quv anjomlari, turli xil eksponatlar, kassetalar keltirib, bularning barchasiga "viloyat markazidagi maxsus fond"ni sababchi qilib ko'rsatishida edi. "Bularning barchasiga o'zim homiy bo'ldim, geografiya kabinetini ham o'zim jihozladim", deb ko'krak kerib yursa bo'lar edi-ku. Yo'q, unga obro'-e'tibor, shon-shuhrat kerak emas, o'quvchilarning quvonchi, ilmga chanqoq yonib turgan ko'zlarini ko'rsa bas. U o'zida bor ilmni yangi texnologiyalar, metodlar asosida bolalarga tushuntirishga, ularni fanga qiziqitirishga jon-jahdi bilan harakat qilardi. Najot muallim direktor bilan ilk bor uchrashganda: "Muallimlik jonu dilim. Bolalar orasida bo'lishni juda-juda yoqtiraman. Ishoning, domla. Mana shu orzu meni bu yoqqa boshlab keldi. Bolalarsiz hayotimni tasavvur ham qilolmayman. Bolalar mening taqdirim. Ular bilan yuz soatlab shug'ullansam ham charchamayman. Ishoning, domla" [1: 84], – deya

qalb so'zlari bilan ustozlikka bo'lgan mehrini izohlaydi. Haqiqatan, bu muallim har bir mavzuga kreativlik bilan yondashar, bolalarni fanga qiziqtirish uchun qo'ldan kelgan barcha imkoniyatlarni yaratishga urinardi. Tropik o'lkalar mavzusida muhit bilan tanishtirish, bevosita shu mamlakatlarni xayolan his qilish maqsadida o'quvchilarning har biriga banan ulashib chiqishi ham buning yorqin dalili edi.

Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldosh epik asar tahlili xususida so'z yuritar ekan, qahramonlarni voqealar og'ushida ko'rsatish epik asarlarda insoniy kechinmalarni tafsilotlar zamiriga joylash imkonini berishi va o'qirman bu sezimlarni ilg'ab olgandagina asar mohiyatni anglab yetishi mumkinligi haqida qayd etadi. Asarni mutolaa qilar ekanmiz, Najot G'aybulla va uning atrofidagi personajlar bilan yuz bergan voqeliklarga e'tibor qaratish orqali asarning hayotiy va badiiy jozibasini ilg'ash muhim tamoyillardan biri hisoblanadi [5: 184-185].

Najot G'aybullani maktabdagi boshqa ustozlardan farqli ravishda o'z kasbiga mas'uliyatli, jonkuyar shaxs sifatida taniymiz. Afsuski, uning birgina kamchiligi bor – diplom soxtalashtirilgan. U bir necha yillar davomida pedinstitutga o'qishga topshirgan. Omadi kelmay, oxiri, boshqa yo'nalishda o'qishni davom ettirishiga to'g'ri kelgan. Avvalgi ish joyida Najot G'aybullaning vijdoni qiynalib, bor sirni direktorga aytib, vaziyatini tushuntirmoqchi bo'lgan-u, baxtga qarshi ishdan haydab solishgan. Ilojsizlikdan, bu sirni hech kimga aytmaslikka qaror qilib, yana boshqa maktab ostonasi tomon yo'l olgan. Najot G'aybullaning jonini tahlikaga qo'yib, soxtalashtirilgan diplom bilan yurishiga kim yoki uni nima majbur qilgan deysiz?! Hamkasblarining ta'biridek, u jinoiy to'da a'zosi yoxud nashafurush

firibgar emas, shunchaki haqiqiy USTOZ edi. Muallimlikka cheksiz muhabbati, o'quvchilarga bilim berish ishtiyoqi sabab qonunga xilof tarzda qalbaki diplom bilan ishga kirishga majbur bo'lgan edi. Uning o'zi shunday deydi: "Ha, mening diplomim qalbaki. Men bu haqda hech kimga ayto'lmasdim... Lekin, men... lekin men maktabsiz turolmayman, bolalarsiz yashay olmayman. Bilaman, ishonmaysiz, ammo haqiqat shunday. Bolalar kulgusining jarangidan zavq olaman, ularni ko'zlari, so'zlari beg'ubor. Ilmdan bolalargina hayratlanishadi. Murg'ak ongiga, o'y-xayoliga kirib kelgan ozgina yangilik ham jajjilarni chinakamiga quvontiradi, chinakamiga hayajonlantiradi. Ularning sevinchiga, hayratiga hayrat qo'shishdan-da ortiq qanday baxt bor? Bolalarning beg'ubor qalbida yangidan-yangi dunyo ochuvchi ko'ngliga ilm sehrini soluvchi inson – bu muallimdir. Shu sabab bu qutlug' kasb mening es-hushimni o'g'irlagan. Shu sabab o'qituvchilar safiga intildim" [1: 127-128]. Luqmon Bo'rixon jamiyatda o'qituvchi atalmish shaxs aslida qanday bo'lishi kerakligini Najot G'aybulla obrazini yaratish orqali ko'rsatib bergandek go'yo.

Xulosa. Luqmon Bo'rixonning ushbu qissasi davr muammolari, inson ichki ruhiyatidagi olishuvlar, jamiyatda o'qituvchi qadr-qimmatini o'zida aks ettirgan hajman kichik, salmog'i ulkan asar hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, "Sirli muallim" qissasi orqali jamiyatda ustozning qadr-qimmatini yuqori qo'yilishi kerakligi, har kim o'z sevgan kasbi bilan shug'ullanishi lozimligi, ba'zi masalalarda diplom emas, mahorat, ishtiyoq muhimligini anglash mumkin. Barcha pedagoglar va pedagog bo'lish orzusida yurganlar ushbu asarni o'qishi shart deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Luqmon Bo'rixon. Xizr ko'rgan yigit: qissalar va hikoyalar. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2007.
2. Luqmon Bo'rixon. Sirli muallim // www.ziyouz.com kutubxonasi.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
4. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. – T.: Akadernashr, 2013.
5. Qozoqboy Y., Mahliyo Y. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: 2016.

Shahlo HALIMOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti tayanch doktranti

XALQ OG'ZAKI IJODIDA QUSH MOTIVI

Annotatsiya: mazkur maqola dostonlarda uchraydigan mifologik qush obrazlariga, ulardagi mifologik, tafsiliy tahlillar va simbolizmlar, insoniy xususiyatlarga, davlat, ijtimoiy vaziyatlarga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Maqolada humo, burgut, mayna, quzg'un, semurg' kabilar tahlilga tortilgan va ularning o'zgacha vazifalari, obrazlardagi mifologik tavsiflari to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: mif, obraz, tush, motiv, syujet, personaj, simbol.

O'zbek xalq og'zaki ijodi asarlari o'ziga xos obrazlar tizimiga ega. Shunday obrazlar tizimiga mifologik obrazlar kiradi. Mifologik obrazlar insoniyatning ibtidoiy qarashlar tizimi mahsuli bo'lgan miflar zamonida paydo bo'lgan bo'lib, bu obrazlar xalq ertaklari, doston, ertak, topishmoqlarda uchraydi va unda maxsus poetik vazifa bajaradi. Mifologik obraz tizimida qush alohida o'ringa ega va ko'p vazifa bajarishi bilan ajralib turadi. Ular qahramonlarga homiylik qilish, yordam berish, himoya qilish kabi vazifalarni bajaradi. Syujet rivojining tabiiyligini ta'minlab, asarga fantastik ruh bag'ishlaydi. Mifologik qush obrazlari o'zbek xalq ertaklarida va dostonlarda ko'p uchraydi. Mifologik qush obraziga semurg', anqo, humo, qaldirg'och, g'oz, laylak, burgut kabilar uchraydi. Mazkur qushlar xalq tasavvurida g'ayrioddiy qushlar bo'lib, ular insonlarga Xudo tomonidan yordamchi qilib yuborilgan. Dostonlarda davlatqush, burgut, mayna, quzg'un, semurg' kabilarni uchratish mumkin.

Humo qushning mifologik shakli "quyoshga qo'ngan qush" deb atalgan. Humo qushining har bir harakati ilohiy qudrat bilan bog'liq deb tavsiflangan. Eposda u yordamchi personaj, qahramon homiysi sifatida faoliyat ko'rsatadi. G'ayrioddiy asotir qushning shakli tuzilishi ma'nosiga ko'ra zulmat dunyosi, ruhlar olamining vakili, ezgulikni ato etuvchi obraz. Uning yaratish xususiyati va qo'sh qanoti ilohiylik, jihatlaridandir. Diniy-e'tiqodiy g'oyalarni tashviq etuvchi xayoliy, ammo shakli tuzilishi semantikasi, vazifaviy harakati, mazmun-mohiyati o'ziga xos xarakterli belgilaridandir. Humo qushining qadimdan mashhurligini arxeologik topilmalar ham tasdiqlaydi. Varaxsha tarixiy obidalarida yarmi qush, yarmi ayol bo'lgan rasmlar uchraydi. Unda qanotli, qo'shoyoq ayol tasvirlanadi. Unda Semurg' siv piri Anaxita bilan bog'liq holda tasvirlangan. Humo davlat qushi tushunchasining tarixiy ildizi "Avesto"da mujassam. Uning yuzaga kelishi "Avesto"dagi Far qushi bilan bog'liq bo'lib, Xvarna Far olov ma'budi, omad va tole' timsoli. U kimning boshiga qo'nsa yoki soya solsa, unga baxt va iqbol ato etadi. Humo qushining "Kuntug'mish" dostonidagi vazifaviy harakati ham mazkur tavsifni isbotlaydi. "U vaqtda podsholarga rasm shu edi: davlatqush degan qushini uchirar edi, kimning boshiga qo'nsa, podsho

qilar edi. Shu davlatqush uch kundan beri uchib, goh daraxtga, goh devorga qo'nib yurar edi....davlatqush borib to'raning boshiga qo'ndi.", shundan so'ng uch marta uchirilganda ham davlatqush Kuntug'mishning boshiga qo'nadi va xalq uni podshoh deb tan oladi. Shundan ham ko'rinib turibdiki, davlatqush orqali, to'raning og'ir vaziyati, kulfatli kunida unga davlat, boylik, podshohlik nasib etdi.

Kuntug'mish dostonida Xolbekaning tushi ham qush obrazi bilan tasvirlangan.

"Yotib edim, vallamatim, tush ko'rdim
Men tushimda bir qabohat tush ko'rdim,
Mabodo ko'nglungga og'ir olmasang
Ikki qanoti mayib bo'lgan qush ko'rdim.
....Tushimda qo'lingdan shunqoring qochdi,
Bordi-da sayyodning to'riga tushdi,
Mabodo ko'nglingga olmasang
Ikki yongan chirog'ing o'chdi
....Qo'lingdan uchirgan turna, g'ozingdir,
Endi senga duo qilmoq lozimdir.
Ikki qanoti mayib bo'lgan o'zingdir,
Qochgan shunqor sho'rli sarvinozingdir,
O'chgan chiroq ikki birday qo'zingdir"

Matnda shunqor baxti qarolik, kulfatga, turna, g'oz ayolga, chiroq farzandga ishora qilgan.

Mazkur dostonidagi yana bir voqeani eslamalikning iloji yo'q. Xolbeka va Kuntug'mishning sevgisiga qarshi chiqqan Buvraxon podshoh ularni qanday o'limga mahkum qilishni bilmay, katta tulupga solib cho'lga ravona qiladi. Tulup kundan kunga siqib ikki sevishganga qiynoq bera boshlaydi. Shunda bu azobdan qush orqali xalos bo'ladilar:

Yoronlar xudoning qudrati kuchli,
Hu tog'dan bir quzg'un davr olib uchdi,
U jonivor parvoz aylab osmonga,
Nogahondan ko'zi qudoqqa tushdi.
Qanotin chimirib qo'nib ustiga,
Amri Xudo bo'ldi, cho'qidi, teshdi, - avvalo Xudoning
amri va qushning sabab bo'lishi bilan shu qudoqdan
xalos bo'lib yorug' olamga chiqishdi.

Semurg' tarixiy taraqqiyot yuzaga kelgan epik qahramonning poetik transformatsiyasi. Semurg' Eron eposida ikki xil tipga ajratilgan. Biri marhamatli qush, qahramonga homiy yordamchi personaj sifatida

faoliyat ko'rsatadi. Ikkinchisi esa darg'azab zolim shaklida tasvirlangan. Turkiy xalqlar eposida esa u doimo bir xil ijobiy ma'no tashuvchi obraz sifatida talqin qilingan. U o'zbek xalq eposida yordamchi personaj, qahramonga do'st, homiy, safardosh, yo'ldosh, uzoqni yaqin, mushkulni oson qiluvchi, sirli hodisalardan voqif etib, yo'l ko'rsatuvchi madadkor kuch, yovuzlikning ashaddiy dushmani sifatida namoyon bo'lgan. Semurg' qahramon sarguzashtida mo'jiza ko'rsatadi va ezgulik yaratishda hal qiluvchi kuchga aylanadi. O'zbek folklorining gultoji "Alpomish" dostonida Semurg' qushi ikki o'rinda tilga olinadi:

Davlat qo'nsa bir chibinning boshiga
Semurg' qushlar salom berar qoshiga.

Mazkur parcha Qorajon tilidan Alpomishga do'st tutingan voqealar rivojida aytilgan. Matndagi chibin - chivin. Agar davlat, boylik, obro' hatto kichkina bo'lgan bir chivinning boshiga nasib etsa ham, muqaddas, ilohiy semurg' qushlari ham unga tiz cho'kib salom beradi.

Alpomish dostonida burgut, musicha, bulbul, qarchig'ay kabi qushlar nomlari ham uchraydi. Dostondagi burgut tush motivi bilan birga qo'llangan.

Barchinoy bir kun tush ko'radi. Tushida:

Cho'lladrdra ko'rindi qirqta aydahor,
Qirq aydahor bir burgutni ko'tarar.
Shul burgut kelib tushdi qoshima,
Qanotining uchi tegdi boshima....
Qirq aydahor qirq chiltan pirlar bor,
Ko'targan burguti bobong Chibori
Ustiday Qarchig'ay Hakim shunqori
Shul bo'lar, buvishim, tushing tabgiri,
Ertan choshka kelar bobongning uli.

Matndan anglashilib turibdiki, burgut yorga, yaxshilikka, kuchga ishora sifatida, yorug'likdan belgi sifatida kelyapti.

O'zbek xalq dostonlarini qushlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ma'lumki, tarixiy davrdan beri qushlar xat tashuvchilik vazifasini o'tagan. Ammo ko'pgina asarlarda bu vazifani kabutarlar bajarishgan. "Ravshan" dostonida esa mayna qushi Zulxumor va Ravshanga yordamchi obraz sifatida tavsiflangan. Zindonga tushgan Ravshanning holini o'z yurtiga qanday qilib xabar berishni bilmagan Zulxumoroyimga mayna qushi yordam beradi. Bu vaziyatda doston davomida qush juda aqlli, ziyrak qilib tasvirlanadi. "... Zulxumor maynasiga : "E jonivor, mening boshimga mushkuldanda mushkul ish tushib qoldi, aqlim shoshib qoldi. Shunday kunda sen yarasang men ham bergan

tuzimga rozi bo'laman... Jonivor! To'ramning xon Dalli enasiga, ikki pari enasiga salom degin...

Dushman olgan tegra-doshim
Xasim bo'lib tengu to'shim
So'zni eshit mayna qushim
Bor, Chambilning xoni kelsin
Yovmitning erlari kelsin!
Yetgan gavhar donasiga,
Ayab boqqan panosiga
Azimni yetkaz, maynajon,
Xon Dalliday enasiga.
Bor Chambilning xoni kelsin, maynajon
Yovmitning sirtloni kelsin!

Doston voqealaridan ayonki, aqlli "esli mayna" yordamida mard Ravshan omon qoladi. Otasi Hasanxon yetib boradi. Maynaning maqsadi esa Zulxumor bergan tuzni oqlash edi. Doston matnida mayna qushi obraz darajasida vazifa bajargan bo'lsa, bir qancha qushlar matn tabiiyigini oshirish, bo'rttirish uchun ishlatilgan.

Zulfin toblab o'rgan qizlar,
Elda davron surgan qizlar,
Kaptarday bo'b yurgan qizlar...

jumlalari Zulxumor va kanizlariga o'xshatma tarzida berilgan. Bog' tavsifida esa: "Tovus xurramlar quyrug'ini chotir qilib, o'z shavqi bilan chir aylanib, mast bo'lib, xiromon-xiromon yuribdi...To'tilar dam tortib, maynaga qarab chaq-chaq uchirgan, bulbullar qizil gulning zavqi-shavqila necha alvondan sayrab, g'azalxonlikda turibdi. Musicha g'urraklar g'urullab, huv tortib, kaptarlar xalqa bo'lib, haqqular haq-haq deb, qumrilar do'st tortib, g'azalaylar sayrab, har bir qush o'z ohang shavqida ohang tuzib, nag'mada turibdi bog'ga oroyish berib." Bu bazm esa nag'masozlik bazmi sifatida tasvirlangan. Zulxumor ta'rifida: "Ravshanbek qarasa, musicha, so'pito'rg'ay, g'azalay, simcha qushlar Zulxumorning jamoli jilvasiga chidamay, baland quyilib kelib egniga kiptiga uchib borayotipti", deya vasf qilingan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, xalq og'zaki ijodi namunalarida qushlar timsoli turli xil vazifa va ma'nolarda ishlatilgan. Qushlar ko'pgina asarlarda qahramonga yordamchi, himoyachi personaj sifatida faoliyat ko'rsatadi. Qahramonni zulmat dunyosiga olib tushib, ko'z yumib ochguncha yorug'lik olamiga olib kiruvchi ilohiy qudrat, qahramonni sirli hodisalardan voqif etish yo'l ko'rsatishga yo'naltirilgan va asosan ta'limiy vazifani ado etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Madayev.O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. - T.: MUMTOZ SO'Z, 2010. 228-b.
2. Alpomish: O'zbek xalq qahramonlik dostoni// aytuvchi: Fozil Yo'ldosh o'g'li, yozib oluvchi : M.Zarifov/. -- T.: "Sharq", 1998. 400-b.
3. Kuntug'mish: O'zbek xalq ijodi// aytuvchi: Ergash Jumanbulbul o'g'li, yozib oluvchi : Hodi Zarif/. - T.: "G'afur G'ulom", 1975. 264-b.
4. Ravshan: O'zbek xalq ijodi// aytuvchi: Ergash Jumanbulbul o'g'li, yozib oluvchi : Hodi Zarif/. - T.: "G'afur G'ulom", 1975. 172-b.